

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**IQTISODIY
GEOGRAFIYA**

o'quv qo'llanma

Toshkent-2005 yil

Kirish

O'zbekiston Respublikasida "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rejalashtirilgan vazifalarni hayotga tadbiq etish bo'yicha keng miqyosli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu vazifalar qatorida Oliy maktabni zamon talabiga mos va xos bo'lgan darsliklar, o'quv va uslubi qo'llanmalar bilan ta'minlash masalasi o'zining dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Chunki, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bosqichi vazifalarining ijobiliy hal etilishi ko'p jihatdan xalq xo'jaligini har tomonlama yetuk, bilimdon, dunyoqarashi keng kadrlar bilan ta'minlashga bog'liqdir. Bu masalani esa, o'z-o'zidan ma'lumki, zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarisiz hal etish mumkin emas.

Shu boisdan ham mazkur o'quv qo'llanma jahon va mamlakatimiz iqtisodiyotida, tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish jarayonlarida so'nggi yillarda bo'lib o'tgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda, eng yangi statistik ma'lumotlar asosida tayyorlandi. Bundan ko'zda tutilgan bosh maqsad har tomonlama yetuk, tanqidiy va erkin fikrlay oluvchi milliy kadrlarni yetishtirishdir.

Ushbu fikr doirasiga tayangan holda «Iqtisodiy geografiya» o'quv qo'llanmasida fan predmetiga, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va hududiy tashkil etilishini ifodalovchi qonuniyat va kategoriyalarga, dunyo siyosiy xaritasi mazmuniga, jahon aholisining soni, dinamikasi va tarkibiga, jahon xo'jaligi va uning eng muhim tarmoqlari hisoblangan sanoat hamda qishloq xo'jaligiga, mamlakatimizning tabiiy va inson resurslariga, iqtisodiyot tarmoqlari, tashqi iqtisodiy aloqalari va rayonlariga, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hamda jahon mamlakatlarining soni, hududiy tarkibi, o'rni, ahamiyati va tipologiyasiga oid ilmiy ishlanmalar, yondashuvlar, ma'lumotnomalar inobatga olindi.

I-bob. «Iqtisodiy geografiya» fanining ob'ekti, predmeti va mazmuni

1.1. «Iqtisodiy geografiya» fanining predmeti va ob'ekti»

Iqtisodiy geografiya dinamik fanlardan biri bo'lib, barcha ijtimoiy fanlar kabi sotsial-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning bevosita ta'sirida bo'lmoqda. Ijtimoiy fanlarning, shu jumladan iqtisodiy geografiyaning rivojlanishiga umumfalsafiy omil (har qanday fan ichki mantiqiy taraqqiyotining dialektikasi) bilan bir qatorda, «sotsial buyurtma» ham katta ta'sir ko'rsatmoqda.

«Sotsial buyurtma»ning ifodasi uning mafkurasi va strategiyasi tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida jamiyatdagi mavjud siyosiy holat bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham siyosiy omil ijtimoiy fanlarning rivojlanish jarayonining doimo asosi bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Burilishlar xos bo'lgan bosqichlarda esa u yyetakchi hisoblanadi. Ijtimoiy fanlar sobiq jahon sotsializm tizimiga kirgan mamlakatlarda hozirgi vaqtida o'z tarixiy taraqqiyotining aynan ana shu «burilish» bosqichida turibdi.

Ma'lumki, XX asrdagi jahon ijtimoiy taraqqiyotining birinchi burilish nuqtasi bo'lib, 1917 yildagi oktyabr to'ntarishi hisoblanadi. Mazkur to'ntarishdan so'ng jahon iqtisodiy fanlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini aniqlab beruvchi yangi mafkura, yangi siyosat va yangi iqtisodiyot faol ravishda shakllana boshladи.

Sobiq kommunistik mafkura o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va ilm-fan taraqqiyoti soxalariga tatbiq etila boshlaganligining dastlabki bosqichlarida geografiya fanlari, shu jumladan iqtisodiy geografiya rivojlanishida sifat o'zgarishlari yuz berdi.

Aynan shu davrda iqtisodiy rayonlashtirishning asosiy: iqtisodiy, energetika, transport, majmuali rivojlanish, milliy va istiqbolli yo'nalish printsiplari ishlab chiqildi. Iqtisodiy rayonlashtirishning ushbu fundamental, ilmiy asoslangan printsiplari hozirgi kunga qadar o'zlarining dolzarb ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Hozirgi kunda ilmiy va fundamental ahamiyatini saqlab qolgan sanoatni joylashtirish pritsiplari haqida alohida to'xtalmoq joiz. Sanoatni energiya, xomashyo va yoqilg'i manbalariga yaqinlashtirish; sanoatni mehnat resurslarining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda joylashtirish; regionlar, respublikalar sanoatini majmuali rivojlantirish; sanoatni regionlar, respublikalar, viloyatlarni ixtisoslashganligini hisobga olgan holda joylashtirish; foydali qazilma boyliklaridan oqilona foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilish hamda boshqa printsiplar shular jumlasidandir.

Evolutsion taraqqiyot natijasida iqtisodiy geografiya sotsial-iqtisodiy geografiyaga aylandi. Iqtisodiy geografiyaning ilmiy-tadqiqot ob'ekti oddiyidan murakkab tomon o'zgardi, rivojlandi. Uni qisqacha quyidagicha ifodalash mumkin. Ishlab chiqarish- Xo'jalik-ishlab chiqaruvchi kuchlar-hududiy ishlab chiqarish komplekslari (HIChK)-ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy tizimlari (IChKHT)-hududiy sotsial-iqtisodiy tizimlar (HSIT).

Fan predmeti ham iqtisodiy geografiya ilmiy tahlilining yangi usullarini tadbiq etish, ilmiy bashorat va boshqarish metodologiyasini o'zlashtirish mobaynida, astasekin kengaya bordi. Iqtisodiy geografiyaning fundamentalligi, uning hududiy

yondashishi orqali doimo saqlanib turgan fan predmetining rivoji majmualilik hamda tizimlilik g'oyalarining shakllanishi va o'zlashtirilishi yo'lidan borgan.

Iqtisodiy geografiyaning predmeti ishlab chiqarishni (GJning V-s'ezdi, Moskva, 1955y.), xalq xo'jaligini joylashtirish, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish (N.N.Kolosovskiy), HIChKning shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni boshqarish (Yu.G.Saushkin) qonuniyatlarini o'rganishdan hududiy sotsial-iqtisodiy tizimlarning shakllanishi, rivojlanishi va ularni boshqarishgacha (GJ ning VII-s'ezdi, Frunze, 1980 y.) bo'lgan davrni qamrab olgan bosqichlar zaminida taraqqiy etgan.

Geografiya jamiyatining VII-s'ezdida iqtisodiy geografiyaning sotsial-iqtisodiy geografiyaga aylanganligi rasmiy ravishda tasdiqlandi hamda mazkur fanning kengaytirilgan ifodasi keltirildi: «Iqtisodiy va sotsial geografiya hududiy sotsial-iqtisodiy tizimlarning shakllanishini, rivojlanishini hamda ularni ijtimoiy ishlab chiqarishni takror barpo qilish va atrof-muhit bilan o'zaro aloqadorligi jarayonida boshqarish jihatlarini tadqiq etadi».

Sotsial-iqtisodiy geografiyaning ushbu ifodasi o'zining mohiyatiga ko'ra hozirgi kunda ham fanimiz mazmuniga muvofiqdir. Lekin, unga yangi siyosiy va iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda ma'lum aniqqliklarni kiritish lozim. Bunda sobiq ittifoq va sobiq sotsializm tizimi tarkibiga kirgan mamlakatlarda bugungi kunda bo'lib o'tayotgan sotsial-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

1.2. «Iqtisodiy geografiya» fanining tadqiqot usullari

Ma'lumki, ishlab chiqarish kuchlarining hududiy tashkil etilishi masalalarini iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bilan bir navbatda iqtisodiyot fanlari ham o'rganadi. «Iqtisodiy geografiya» ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish jihatlarini o'rgana borib, hududiy sotsial iqtisodiy tizimlarning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini keng ko'lamda tadqiq etadi. Bu borada u, fan doirasida ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy kontseptsiyalarga tayanadi:

-iqtisodiy rivojlantirish kontseptsiysi-muayyan mamlakat, iqtisodiy rayonlarining murakkab tizimi bo'lib, qonuniy tarzda shakllanadi;

-hududiy ishlab chiqarish majmualari kontseptsiysi- ishlab chiqarish korxonalari, aholi yashash joylarini chegaralangan hudud yoxud iqtisodiy rayon yoki kichik rayon hududida o'zaro uyg'unlashuvi;

-energiya ishlab chiqarish sikllari kontseptsiysi- rayon barpo etuvchi qonuniyatlar sikli. Shu o'rinda iqtisodiy geografiyanı regional iqtisodiyot bilan uzviy aloqador ekanligini ta'kidlab o'tish zarur. Ayni paytda iqtisodiy geografiya fanida hududiy yondashuv yaxshi rivojlanganligini va undan keng foydalaniyatganligini esdan chiqarmaslik lozim. Ana shu xususiyatlar iqtisodiy geografiya bilan iqtisodiyot fanlarining tadqiqot usullari o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjudligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, barcha tadqiqot usullarining asosida ob'ektiv borliq qonunlari yotadi. Materialistik dialektika barcha tadqiqot usullarining xususiyatlarini belgilab beradi. Bundan tashqari alohida fanlarning o'ziga xos xususiy tadqiqot usullari mavjuddir.

Iqtisodiy geografiyada an'anaviy tadqiqot usullari qatoriga taqqoslash va kartografik usullar kirdi.

Taqqoslash usuli tadqiqot maqsadi aniq belgilangandan keyin, ya'ni geografik ob'ektlarni ularga xos belgilar (maydon, miqdor, hajm va boshqalar) bo'yicha taqqoslashga asoslanadi. Binobarin iqtisodiy rivojlangan, rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlarga xos jami ko'rsatkichlar taqqoslash yo'li bilan baholanadi.

Iqtisodiy geografiyada yuqorida usullardan tashqari tizimli va majmuali yondashuvlardan ham keng miqyosida foydalanilmoqda. Mazkur usullarning samarali jihatlari shundan iboratki, ular barcha ob'ektlarni o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda o'rganishga imkon beradi.

1.3. Iqtisodiy geografiyaning zamonaviy tizimi

Iqtisodiy geografiyaning differentsiyalanishi bir vaqtning o'zida integratsiyalanishi jarayoni bilan to'ldirilib borilgan. Shuning uchun sotsial-iqtisodiy geografiyaning zamonaviy tizimida chuqur ixtisoslashgan fanlar bilan bir qatorda majmuali, integral, sintetik fanlar ham vujudga keldi.

Zamonaviy sotsial-iqtisodiy geografiyaning negizini uch majmuali fan: aholi geografiyasi, iqtisodiy geografiya va sotsial geografiya tashkil etadi.

Hozirgi vaqtida sotsial-iqtisodiy geografiya ijtimoiy geografiyaga aylanmoqda. Ijtimoiy geografik fanlarning konturlari ko'rinish qoldi. Madaniyat geografiyasi, din geografiyasi, siyosiy geografiya, entogeografiya va boshqalar shular jumlasidandir. Agar ularga shakllanishi jarayonini tugallangan ijtimoiy geografiya tarixini, harbiy geografiyani, iqtisodiy va sotsial rayonlashtirishni qo'shsak, natijada ijtimoiy geografiyani bir butun tizimini hosil qilishimiz mumkin (1-sxemaga qarang).

Sotsial-iqtisodiy geografiyaning ijtimoiy geografiyaga aylanishi kelajak masalasidir. Buning uchun yuqorida qayd etilgan yangi sotsial geografik fanlarning shakllanishi uzil-kesil hal bo'lishi hamda ijtimoiy geografik fanlar tizimini hosil qiluvchi jami fanlar va ularga xos muhim yo'nalishlar o'rtasida uзвиy, funktsional tizimli o'zaro aloqalar vujudga kelishi zarurdir.

Hozirgi kunda sotsial-iqtisodiy geografiya har xil funktsional xususiyat va hududiy darajaga ega bo'lган hududiy sotsial-iqtisodiy tizimlarni (HSIT) bashorat qilish va boshqarish maqsadida tadqiq etadi. Uning ijtimoiy geografiyaga aylangandan keyingi makromaqsadi - .

1.4. «Iqtisodiy geografiya»ni O'zbekistonda rivojlanishi.

O'zbekiston iqtisodiyotini ixtisoslashishi va majmuali rivojlanishini xalq xo'jaligi tarmoqlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning sifati va jahon bozorida raqobatbardosh ekanligi nuqtai nazaridan tahlil qilish nihoyatda zarurdir. Ana shu asosida mamlakatni jahon xo'jaligiga integratsiyalanishi masalasi hal qilinadi.

Iqtisodiy geografiyaning respublikadagi hozirgi ahvoli, uning nazariy-metodolik va ilmiy salohiyati ushbu muammolarni hal etishga imkon beradi.

O'zbekiston iqtisodiy va sotsial geografiyasi taraqqiyotining shu bugungi darajasiga yetish uchun uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Fanimizning

shakllanishi amalda ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda boshlanib, u Chetirkin va Cherdansev nomlari bilan bog'langan. XX-asrning 50-yillarida respublikada O'zbekiston iqtisodiy geografiyasining muhim yo'nalishi sifatida shaharlar geografiyasi shakllandi. Uning asoschisi va targ'ibotchisi bo'lib, Farg'ona vodiysi shaharlarining shakllanishini tadtqiq etgan N.V.Smirnov hisoblanadi. Keyinchalik bu ilmiy yo'nalish yana ham kengaydi. O'zbekiston yangi shaharlari (Ahmedov E.A.), poytaxt shahri Toshkent (Raimov T.I.), Quyi Amudaryo shaharlari (Inomov I.) va boshqalar o'rganildi.

1960-yillarda M.Q.Qoraxonovning bevosita rahbarligida O'rta Osiyo va O'zbekiston aholisiga xos muammolar keng o'rganildi. Chunonchi, O'zbekiston aholisining tadrijiy o'sishi (M.Q.Qoraxonov), respublika qishloq aholisining joylanishi xususiyatlari (G.A.Asanov, R.V.Valieva), Farg'ona vodiysi shaharlari va shahar aholisining rivojlanishi (O.B.Ota-Mirzaev), yangi shaharlarning demografik rivojlanishi (N.F.Fayziev) va boshqa yo'nalishlardagi masalalar tahlil etildi.

O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi «aholi» blokining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan, muhim tadbirlar qatorida M.Q.Qoraxonov boshchiligidida tashkil qilingan va O'rta Osiyo aholisi muammolariga bag'ishlangan (Toshkent, 1965-1971), konferentsiyalari haqida alohida o'rinn tutadi. Ular respublikada aholi geografiyasini va uning asosiy yo'nalishlari: aholini takror barpo etish geografiyasi, aholi migratsiyasi geografiyasi, shaharlar geografiyasi, qishloqlar geografiyasi, mehnat resurslari geografiyasi va boshqalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlaydigan muhim omillar bo'lib, xizmat qildi. O.B.Ota-Mirzaev rahbarligida urbanizatsiya muammolariga bag'ishlangan (Toshkent, 1973-1975) seminarlari tashkil qilindi va o'tkazildi.

70- va 80-yillarda aholi mavzusi bo'yicha qator nomzodlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi (Soliev A., Qayumov A., Yangiboev M., Safarov I., Tillaev R., Imomov Sh., Mallaboev T., Goldfarb B., Maxmudov B., G'aniev A., Bo'riev M., Sadullaev A. va boshqalar). 80-yillarning so'nggi va 90-yillarning dastlabki davrida Salimov X. tomonidan O'zbekiston aholisining sotsial-geografik rivojlanishi, Ota-Mirzaev O.B. tomonidan O'zbekiston shahar aholisi va aholi manzilgoxlarining rivojlanishi, Qayumov A. tomonidan O'zbekiston mehnat resurslarining sotsial-geografik rivojlanishi muammolari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Natijada, hozirgi vaqtga kelib, O'zbekistonda respublika aholisi, uning joylanish xususiyatlari, urbanizatsiya jarayonini o'rganish bo'yicha mashhur milliy ilmiy maktab vujudga keldi.

O'zbekiston sotsial-iqtisodiy geografiyasining keyingi rivojlangan yo'nalishi bo'lib, qishloq xo'jaligi geografiyasi hisoblanadi. Mazkur yo'nalish respublikada 60-yillarning dastlabki davrida Z.M.Akromov rahbarligida vujudga keldi, shakllandi va rivojlandi. Ushbu muhim ilmiy yo'nalishning respublikadagi mashhur vakillari bo'lib Ro'ziev A.R., Lobach R.S., Xodiev R.A., Egamberdiev T.E., Islomov S., Qurbanov K.. va boshqalar tan olinadi. Mazkur ilmiy yo'nalish O'zbekistonda 80-yillarda qishloq joylari va shaharlar iqtisodi bilan uzviy bog'langan xolda rivojlandi. Aynan mana shu yo'nalish bo'yicha ko'pchilik geograflarning (Abirqulov Q.,

Sultonov N., Abdullaev O. va boshqalarning) iqtisod fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalarini yoqlashlari bejiz emas

1.5. «Iqtisodiy geografiya» fanining vazifalari

Kelajakda O'zbek milliy sotsial-iqtisodiy geografiyasi asosiy e'tiborni bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan sharoitda respublika ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilinishining fundamental masalalarini tadqiq etishga qaratishi lozim.

Respublika ijtimoiy geograflarining asosiy faoliyati quyidagi iqtisodiy geografik muammolarni:

- bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida O'zbekiston xalq xo'jaligini hududiy tashkil qilinishining va makroiqtisodiyotning tarkibini tubdan o'zgartirishning nazariy-metodologik masalalarini;
- respublika sanoati tarmoqlar va hududiy tarkibini takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligini ixtisoslashishini va majmuali rivojlanishini, uning hududiy tashkil etilganligini mukammallashtirish;
- qishloq xo'jaligi asosiy tarmoqlarining (paxtachilik, bog'dorchilik va uzumchilik, chorvachilik va h.k.) rivojlanishi va hududiy tashkil qilinishining regional masalalarini;
- O'zbekistonni jahon xo'jaligiga integratsiyalanishi, uni xalqaro geografik mehnat taqsimotida ishtirok etishi va mamlakatlar xalqaro iqtisodiy aloqalarni shakllantirishning geografik muammolarini;
- tabiatdan va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy-geografik va sotsial-geografik muammolarini;
- O'zbekistonning majmuali iqtisodiy va sotsial rayonlashtirish muammolarini;
- respublikada, viloyat va regionlarda sotsial infrastrukturani shakllantirish va rivojlantirishning iqtisodiy-geografik muammolarini;
- O'zbekiston aholisi rivojlanishining sotsial-geografik muammolarini;
- respublika aholisi joylanishi hamda uning hududiy tizimlarini takomillashtirish muammolarini;
- urbanizatsiyaning rivojlanishi va respublika aholisi sifat ko'rsatkichlarini mukammallashtirish muammolarini;
- qishloq aholisini rivojlantirish va aholi manzilgohlari tizimini oqilona shakllantrish muammolarini;
- O'zbekiston mehnat resurslari shakllanishi hamda aholi bandligini mukamallashtirish muammolarini;
- aholini takror barpo etish jarayoni va uni boshqarish muammolarini;
- O'zbekiston aholisining migratsiyasi va uni boshqarish muammolarini hal etishga qaratilishi lozim.

O'zbekiston ijtimoiy geografiyasi asosiy e'tiborini yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilishga qaratishi shubhasizdir, bu esa uni yana ham yuqori darajaga ko'tarilishiga, sifatli rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Metodika – ilmiy tadqiqotni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan texnik va tashkiliy yondashuvlar majmui.

Metodologiya – fan taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi nazariyani muhim elementlarining majmui; metodologiya nazariyada farqli o’laroq yangi bilim manbai hisoblanmaydi; kontseptsiyadan farqli o’laroq yangi bilim manbai hisoblanmaydi; kontseptsiyadan farqli o’laroq amaliyot uchun asos bo’lib xizmat qilmaydi; lekin metologiya shunday elementlarni rivojlantiradiki, ushbularsiz fanning taraqqiy etishi mumkin emas. Shunday qilib, metologiya nazariya taraqqiyotining kontseptsiyasi bo’lsa, kontseptsiya- bu nazariyadan amaliyotga o’tish metodologiyaisdir.

Tadqiqot ob’ekti - ma’lum fan tarmog’i o’rganadigan voqeа va hodisa, tabiiy-hududiy komplekslar, iqtisodiy –ijtimoiy geografiyada hududiy sotsial-iqtisodiy tizimlar.

Tadqiqot usuli - umumiylar tarzda maqsadga erishish yo’lini anglatadi. Umumiylar ilmiy va ayrim fanlarning maxsus tadqiqot usullari mavjuddir.

Tadqiqot predmeti – m’lum fan va tarmog’iga taalluqli ob’ektning tadqiq etiladigan jihatlari.

Qisqacha hulosalar.

-«Iqtisodiy geografiya» hududiy sotsial iqtisodiy tizimlarning shakllanishini, rivojlanishini hamda ularni ijtimoiy ishlab chiqarishni takror barpo qilish va atrof-muhit bilan o’zaro aloqadorligi jarayonida boshqarish jihatlarini tadqiq etadi.

-Zamonaviy sotsial-iqtisodiy geografiyaning negizini uch majmuali Fan: aholi geografiyasi, iqtisodiy geografiya va sotsial geografiya tashkil etadi. Uning makromaqsadi jamiyatning oqilona xududiy tashkil qilinishi ta’minlashdan iborat.

Nazorat va muhokama uchun savollar.


1. Iqtisodiy geografiya fanining rivojlanishiga ayrim davrlarda ta'sir ko'rsatgan omillar va sabablar haqida o'z fikringizni bildiring?
2. Iqtisodiy geografiya fani ob'ektining revolyutsiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Sotsial-iqtisodiy geografiya fanining ifodasini aytib bering.
4. Hududiy sotsial-iqtisodiy tizimlar va ularning tarkibi to'g'risida bilganlaringizni so'zlab bering.
5. Iqtisodiy geografiya fanining an'anaviy tadqiqot usullari to'g'risida so'zlab bering.
6. Iqtisodiy geografiya fanining zamonaviy tadqiqot usullari haqida nimalarni bilasiz.
7. Iqtisodiy georafiyaning makromaqsadi nimani ko'zlaydi?
8. Ijtimoiy georafiyaning zamonaviy tizimi to'g'risida o'z bilganlaringizni so'zlab bering.
9. O'zbekistonda iqtisodiy geografiya fanini rivojlantirishga katta xissa qo'shgan olimlar to'g'risida kimlarni bilasiz?
10. Iqtisodiy geografiya fanining hozirgi vaqtdagi eng muhim vazifalari nimalardan iborat?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, -T.: O’zbekiston, 1997.- 326 b.
2. Karimov I.A. “O’zbekiston iqtisodiy islohatlarini chuqurlashtirish yo’lida”, -T.: O’zbekiston 1995.
3. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O’zbekiston 1994.
4. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I . “O’zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo’g’rofiyasi”,-T.: O’qituvchi, 1994.-209 b.
5. Gulyamov S., Ubaydullaeva R., Ahmedov E. “Nezavisimiy Uzbekistan”,-T.: Mehnat, 2000.-144s.
6. Doklad o chelovecheskom razvitiu. Uzbekistan,-1999.-125 b.
7. Lomakin V.A. Mirovaya ekonomika. M.: Finansi, 1998.
8. Nabiev E., Qayumov A. O’zbekistonning iqtisodiy salohiyati. T.: Akademiya, 2000.-88b.
9. Ota-Mirzaev O.B., Qayumov A.A. Ijtimoiy geografiya : kecha, bugun, ertaga. “Istiqlol va geografiya”, O’zbekiston Respublikasi Geografiya jamiyatasi IV s’ezdi materiallari. T.: 1995.
10. To’xliev N. O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. T.: 1998.
- 11.O’zbekiston Respublikasi. Entsiklopediya. T.: Qomuslar bosh tahriri, 1997.

Ijtimoiy geografiyaning zamonaviy tizimi

1-chizma



II-bob. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va printsiplari.

2.1. Ishlab chiqarish jarayoni haqida tushuncha.

Ishlab chiqarish - bu jamiyat faoliyatining eng muhim jihatidir. Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy resurslar ishlataladi, mahsulotlar va xizmatlardan iborat hayotiy ne'matlar yaratiladi. Ishlab chiqarish yuz berishi uchun uning omillari harakatga kelishi shart. Frantsuz iqtisodchisi J.B.Sey ishlab chiqarishning uch omili nazariyasini asoslab, ularga yer, kapital va mehnatni kiritgan hamda ularning o'zaro ta'siri ishlab chiqarish ekanligini qayd etgan.

Ishlab chiqarishning uch omili borligidan K.Marks ta'limoti ham kelib chiqadi, lekin ularni ish kuchi, mehnat predmetlari va mehnat vositalari deb ataydi.

Hozirgi g'arb mamlakatlarida yirik iqtisodchilar iqtisodiy resurs degan tushunchani olg'a surib, ularga yer, kapital, mehnat va nihoyat tadbirkorlik qobiliyatini kiritadilar. Ya'ni, to'rtinchchi omil ham mavjud deydilar. Ishlab chiqarishning umuminsoniy faoliyat deb qaralishi, uning shaxsiy-insoniy va moddiy-ashyoviy omillari borligidan dalolat beradi. Shaxsiy-insoniy omil deganda, ish kuchini, uning amal qilish natijasi bo'lgan mehnatni tushuntirish kerak. Ish kuchi bu insonning mehnat qilishga qaratilgan jismoniy va aqliy qobiliyatidir. Ish kuchi ishlab chiqarishning birlamchi omili hisoblanadi, chunki inson mehnatsiz, uning ijodisiz eng mukammal mashinalar bo'lganda ham, tirikchilik buyumlarini yaratib bo'lmaydi. Inson jamiyatning oliy ishlab chiqaruvchisidir. Ammo ishlab chiqarish uchun moddiy shart-sharoitlar talab qilinadi. Shu sababli, ishlab chiqarishning moddiy ashayoviy omillari ham borki, ularga tabiiy boyliklar, yaratilgan ashylar (mehnat predmetlari) va nihoyat mehnat vositalari - quro'llari kiradi. Ishlab chiqarish har doim tabiatga tayangan. Yer, suv, yer osti boyliklari, o'rmonlar va boshqalar unga materiallar yetkazib beradi. Tabiat qanchalik boy bo'lmasin, baribir, bu boylikni mehnatsiz ishlab chiqarishga jalb etib bo'lmaydi. Mehnat orqali tabiatdagi narsalar inson ehtiyojiga moslashtiriladi.

Mehnat bilan tabiatni boylik manbai sifatidagi ahamiyati bir xil emas. Bir mamlakat ishlab chiqarishi u yerdagi tabiiy boylikka tayansa, boshqasiniki asosan mehnatga tayanadi. Masalan, Quvayt yoki Saudiya Arabistonining iqtisodiy rivojiga asosiy hissa qo'shgan omil – bu ular tabiatining neftga boy bo'lismidir. Aksincha, tabiiy resurslar kamyob bo'lgan Yaponiya, Koreya respublikasini iqtisodiy "gullashi"ning asosiy omili- bu mehnat, aniqrog'i intellektual mehnat, ya'ni shaxsiy-insoniy omildir.

Moddiy-ashyoviy omillar shaxsiy-insoniy omil bilan birikkan taqdirdagina ishlab chiqarish yuz beradi, hayotiy ne'matlar yaratiladiki, ular birinchidan moddiy mahsulotlardan, ikkinchidan har xil xizmatlardan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarish ikki qismga bo'linadi:

1. Moddiy ishlab chiqarish - moddiy shakldagi mahsulotlarni, masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy va boshqalarni yaratish hamda ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xizmatlarni yaratish, masalan yuk tashish, yo'l xizmati ko'rsatish,

ishlab chiqarish axborotini uzatish va hokozolardir. Mazkur sohaga sanoat transport, aloqa, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa shu kabi tarmoqlar kiradi.

2. Nomoddiy ishlab chiqarish - bu moddiy shaklga ega bo'lmasada, aholi uchun zarur xizmatlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Mazkur sohaga maishiy va tibbiy xizmat, sport, bilim berish va shular kabi xizmatlar kiradi.

2.2. Mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi

Har qanday ishlab chiqarish avvalambor umuminsoniy iqtisodiy faoliyat bo'lib, unga xos belgilardan biri – bu ixtisoslashuvdir.

Ixtisoslashuv - ishlab chiqarishning muayyan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishga moslashuvidir. Ixtisoslashuv asosida mehnat taqsimoti turadi. Har bir mehnat turi aniq bir mahsulotni yoki uning ba'zi-bir qismini yaratishga qaratiladi. Jamiyat a'zolarining mehnati- bu ijtimoiy mehnat bo'lib, uning turlari ixtisoslashadi.

Mehnat taqsimoti - ijtimoiy mehnatni mustaqil vazifalarni bajaruvchi mehnat turlariga ajralishi jarayonidan iboratdir. Mehnat taqsimoti, mehnat turlarini ko'paytirib, ularni ayrim kishilarga kasb sifatida birkitib qo'yadi. Ishlab chiqarishda har xil mehnatni bajaruvchi kishilar qatnashadiki, ularni ingliz iqtisodchisi Adam Smit "Iqtisodiy individlar" deb atagan. Mehnat taqsimoti ana shu kishilarning o'zaro munosabatda bo'lishini taqazo etadi.

Uning vositasida kishilar o'z faoliyati bilan bir-biriga xizmat qiladi, ya'ni kishilar boshqalarning aniq mehnati natijalaridan bahramand bo'ladilar.

Faoliyat turlari bo'yicha qaraganda, mehnat taqsimoti uch yo'nalishda rivojlanadi: umumiyl, xususiy, qisman.

Umumiyl mehnat taqsimoti - yirik mehnat turlarining bir-biridan ajralib, mustaqil ahamiyat kasb etishi, mehnatning yirik sohalarga bo'linishidir. Bunga mehnatning moddiy va nomoddiy, sanoat va qishloq xo'jaligi, transport va qurilish, savdo va maishiy xizmat, xalq ta'limi va sog'liqni saqlash sohalaridagi mehnat turlariga ajralishi misol bo'lishi mumkin. Shu jihatdan olganda, industrial mehnat, agrar mehnat, xizmat ko'rsatish mehnati mavjuddir.

Xususiy mehnat taqsimoti - yirik sohalar ichidagi mehnat taqsimoti. Muayyan sohadagi bir mehnatdan boshqasi ajralib chiqib ixtisoslashadi, mehnat turlari ko'payadi. Masalan, qishloq xo'jaligidagi agrar mehnat chorvachilik, dehqonchilik, bog'dorchilik mehnat turlariga ajraladi. Sanoatda ham shunday jarayon yuz beradi, xususan undirish va qayta ishlash, og'ir va yengil sanoat mehnat turlari ajralib chiqadi. Mashinasozlikni olsak, u yerda avtomobilsozlik, traktorsozlik, samolyotsozlik, stanoksozlik kabi tarmoqlarga xos mehnat turlar paydo bo'lgan.

Qisman mehnat taqsimoti - korxona doirasida bo'ladigan mehnat turlarining o'zaro ajralib, ixtisoslashishi. Bunda mehnat muayyan mahsulot ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha, aniqrog'i mahsulot uchun kerak bo'lgan ayrim qismlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan turlariga ajraladi. Masalan, qurilish korxonalarida mehnat g'isht teruvchi, suvoqchi, bo'yoqchi, duradgor, elektrpayvandchi kabi turlarga ajraladi.

Mehnatning faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi bilan birgalikda, uning muayyan hudud doirasida ham taqsimlanishi yuz beradi. Mehnatning hudud miqqosida taqsimlanishi ikki xil bo'ladi:

1. Hududiy mehnat taqsimoti - muayyan mamlakat doirasida ayrim hududlar yoki mintaqalardagi mehnatning ixtisoslashuvi. Sanoat va qishloq xo'jaligi hududlari borki, ular industrial yoki agrar mehnat sohasida ixtisoslashadilar. Har bir hudud doirasida ham ichki ixtisoslashuv yuz beradi. Masalan, agrar hududda bog'dorchilik, donchilik, sabzovotchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan kichik bo'limlar ham bo'ladi.

2. Xalqaro mehnat taqsimoti - mehnatning miqdori va sifatini hisobga olib, uning malakatlar o'rtasida ma'lum nisbatda va iqtisodiy nafni ko'zlagan holda taqsimlanishi. Bu mehnat turining bir-biridan ajralishi emas, balki mavjud mehnat turlarining ayrim mamlakatlarga ularning ustivor faoliyati sifatida biriktirilishidir.

Xalqaro mehnat taqsimoti- ijtimoiy mehnatning turli davlatlar yoki davlatlar guruhi o'rtasida taqsimlanishi, ishlab chiqarishning baynalminal miqqosda ixtisoslashuvini bildiradi, davlatlararo iqtisodiy aloqalarni zaruratga aylantiradi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mehnat taqsimlanishining eng yuksak darajasi hisoblanadi. Mehnat taqsimoti qanchalik chuqurlashsa, mehnat unumi shunchalik yuqorilashadi. Ishlab chiqarish kuchlarining naqadar rivoj topganini mehnat taqsimotining rivojidan ko'rish mumkin. Agar mehnat qanchalik tor ixtisoslashgan bo'lsa, uning sir-asrorlarini chuqur egallab, mahoratni oshirib, ish unumini ko'tarish mumkin, ish operatsiyalarini aniq bajarib, mahsulot sifatini ta'minlash mumkin. Xullas, mehnatning ixtisoslashuvi uning unumdorligini oshirish shartiga aylanadi.

Mehnat taqsimotining muqarrar yuz berishi va davom etishi ma'lum iqtisodiy qonun ta'sirida boradi. Umumiqtisodiy qonunlar jumlasiga mehnat taqsimoti qonuni ham kiradi, unga binoan mehnat turlari uzluksiz ravishda bir-biridan ajralib, yangi mehnat turlari uzluksiz paydo bo'lib, mehnatning ixtisoslashib borishi uning unumdorligini oshiradi. Mazkur qonun iqtisodiyot taraqqiyotining hamma bosqichlariga xosdir.

2.3. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatları

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy rivojlantirish qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarishni hududiy oqilona tashkil etish qonuniyati. Bunga muvofiq ishlab chiqarish korxonalarini ilmiy texnika taraqqiyotining yutuqlari asosida, iloji boricha manbalarga yaqin joyda joylashtirish maqsadga muvofiq. Masalan, Suvni ko'p talab qiladigan tarmoqlarni imkon qadar yirik va samarali suv manbalariga yaqin joylashtirish ma'qul. Mehnatni ko'p talab qiluvchi (sermehnat) tarmoqlarni esa mehnat resurslari shakllangan markazlarga yaqinroq. Kundalik iste'mol qilinuvchi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarini iste'molchilarga yaqinroq joylashtirish va hokozo.

2. Ishlab chiqarishni hududiy ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi qonuniyati.

Bunda biron bir hudud ichida ixtisoslashuv va korxonalar o'rtasida eng takomillashgan ishlab chiqarish aloqalarini o'rnatish hamda ularni tashqi iqtisodiy aloqalarda keng ishtiroki ko'zda tutiladi.

3. Hududlarni majmuali (kompleks) rivojlanish qonuniyati. Bunda hududni (respublika, viloyat, iqtisodiy tuman) majmuali rivojlanishi deganda xo'jaligidagi mutanosiblik (proportsionallik), ishlab chiqarish korxonalarini mahalliy tabiiy va iqtisodiy sharoitga mos kelishi, ixtisoslashgan tarmoqlarni, infrastrukturasiini (infratuzilma), turli masshtabdagi shaharlarni rivojlanishini va tabiiy muhitni foydalanish va hokozolar nazarda tutiladi.

4. Ishlab chiqarishni hududiy bir me'yorda joylashtirish yoki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tenglashtirish qonuniyati. Unga ko'ra respublika hududlarining iqtisodiy rivojlanishini bir-biriga tenglashtiri, ishlab chiqarish kuchlari bir me'yorda mamlakat bo'ylab bir me'yorda joylashtirish, istiqbolda aholi turmush darajasini oshirish maqsad qilib olinadi.

2.4. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari

Ishlab chiqarishni tashkil etishning shakllariga kontsentratsiyalashuv (mujassamlashuv), ixtisoslashuv, kooperatsiyalashuv va kombinatlashuv kiritiladi. Mujassamlashuv yoki ishlab chiqarishning to'planishi, yig'ilishi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga tegishlidir. Geografik jihatdan u eng avvalo sanoat, qishloq xo'jali transport, ya'ni moddiy sohalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa, fanimiz ob'ektini aynan shu tarmoqlarning hududiy tashkil etilishi, ularning joylashish xususiyatlari belgilab beradi. Ijtimoiy (sotsial) ob'ektlarning hududiy tashkil etilishi esa yuqoridagi tarmoqlar joylashuvi bilan belgilanadi. Masalan, aholi va unga xizmat ko'rsatuvchi sohalarning hududiy tizimlari sanoat, qishloq xo'jali transport va boshqa tarmoqlarning to'g'ri joylashtirish asosida amalga oshiriladi. Biz bu yerda mujassamlashuvning hududiy tomoniga e'tibor berdik. Uning ijtimoiy tomoni ham xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida turlicha bo'ladi. Umuman professor A.Soliev ta'kidlashicha mujassamlashuv sanoat misolida juda aniq yoki sezilarli ko'rindi. Bu borada ishlab chiqarish fondlari, yalpi mahsulot yoki ishchi va xizmatchilarning turli korxonalarda yig'ilishi, to'planishi sof xoldagi ishlab chiqarishning mujassamlashuvi, ularning shaharlar va rayonlarda joylashuvini esa urbanistik va hududiy mujassamlashuv sifatida ko'rsatish o'rindi.

Ixtisoslashuv ham ishlab chiqarishning tashkil qilishning muhim shakli bo'lib, bu mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarni tarkib topishi bilan chambarchars bog'liqdir.

Uning uch bosqich va uch turi mavjud. Ixtisoslashuvning uch bosqichi deganda korxona, shahar yoki rayon miqiyosidagi ixtisoslashuvi tushuniladi.

Ixtisoslashuvning uch turi :

1) Qism (detal)

- 2) Texnologik yoki yarim mahsulot
- 3) Predmet (tovar mahsuloti ishlab chiqarish) ixtisoslashuvdir.


Ixtisoslashuv, faqat moddiy ishlab chiqarishga tegishli emas. U barcha ijtimoiy jabhalarga molik xususiyatdir. Qolaversa, ayrim oliygohlar o'qituvchi, boshqalari-agronom, muhandis, iqtisodichi kabi mutaxassislarni taylorlaydi. Chunki bular shunday hodimlarni taylorlashga ixtisoslashgan.

Kooperatsiyalashuv pirovard natijada muayyan bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalarining xamkorligidir. Bu korxonalar faqat bir yoki ikki tarmoqqa tegishli bo'lmasligi mumkin. Kooperatsiyalashuvda qatnashuvchi korxonalar soni vujudga kelayotgan mahsulotning murakkabligiga bog'liq. Chunonchi, mashinasozlikda, aniqrog'i yengil va yuk mashinalari ishlab chiqarish uchun juda ko'p ehtiyyot qismlar, detallar kerak. Shu bois bunday mashinalarning yaratilishida yuzlab ixtisoslashgan korxonalarining ulushi bor. Masalan, Moskvadagi yengil avtomobil yoki Lixochyov nomli zavod, Tolyattidagi avtomobil zavodi (Jiguli) va shunga o'xshash birlashmalar 200 va undan ortiq korxonalar bilan hamkorlik qiladi.

Kombinatlash kooperatsiyalashuvga o'xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Kombinatlashuv ma'lum bir turdag'i xom-ashyoni chuqur texnologik qayta ishslash, uning chiqindilaridan to'la foydalangan holda barcha mahsulotlar ishlab chiqarishni anglatadi. Kombinatlashuv sanoat tarmoqlarining ko'pchiligidagi xosdir. Faqat mashinasozlikda «kombinat» so'zini uchratmaymiz, ammo mohiyatan bu yerda ham u mavjud, zotan metaldan asosiy mahsulot bilan bir qatorda keng iste'mol mollari ham ishlab chiqariladi. Masalan, Toshkentdagi Chkalov nomli aviatsiya birlashmasi samolyotdan tashqari avtomobil uchun ba'zi bir ehtiyyot qismlar, bolalar aravachasi va shunga o'xshash turli xil xalq iste'mol mollarini ham ishlab chiqaradi

(2-chizma)

Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari.



Demak, kombinatlashuv ma'lum bir turdag'i xom-ashyoni chuqur texnologik qayta ishslash, uning chiqindilaridan to'la foydalangan holda barcha mahsulotlar ishlab chiqarishni anglatadi. Xuddi shu ma'noda kombinatlashuv "to'ntarilgan" kooperatsiyadir.

Kombinatlashuv bir geografik nuqtada, hatto korxonalar birlashmasi doirasida kattaroq joy yoki rayonda ham bo'lishi mumkin.

Xalq xo'jaligi tarmoqlari orasida esa u ayniqsa qora va rangli metallurgiya, kimyo, o'rmon, oziq-ovqat, yengil va qurilish sanoatiga tegishlidir. Xullas, bu shaklni qaerda "kombinat" so'zini uchratsak, uni o'sha sohada ko'ramiz, hatto aholiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda ham (maishiy-xizmat kombinatlar).

To'qimachilik kombinatlari yigiruv, bo'yoqlash, tayyorlash sexlaridan iborat. Xom ashyo bitta- paxta tolasi yoki pilla mahsuloti. Go'sht kombinatida ham yagona xom ashyo asosida bir necha mahsulot: go'sht, konserva, kolbasa kabi boshqa go'sht mahsulotlari olinadi. Uning chiqindisidan masalan, suyak va qondan qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohasida foydalanish mumkin, terisi esa oshlangandan so'ng charm-poyafzal sanoatida ishlatiladi.

Mustaqillikni mustahkamlash va bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etishni barcha shakllaridan to'g'ri va oqilona foydalanish zarur. Shu bois mamlakat uchun katta, o'rta va kichik, turli darajada ixtisoslashgan korxonalarining turg'un uyushmasi, majmuasi kerak.

Hozirgi sharoitda mamlakat iqtisodiyotini ham "pastdan", ham "yuqoridan" qurish lozim. Binobarin, xorijiy davlatlar sarmoyalari orqali yoki ular bilan xamkorlikda barpo etilayotgan sanoat korxonalari uchun ularga zarur bo'lgan texnologik qismlar, detal va dastgohlarni o'zimizda tayyorlash imkoniyatlarini vujudga keltirish zamon talabidir. Shu bilan birga mavjud imkoniyat va resurslardan to'la foydalangan holda mamlakatimiz hududida ko'proq tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini rivojlantirishga ahamiyat berish lozim.

2.5. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xom ashyo, yoqilg'i, elektr-energiya, suv, iqlim, mehnat resurslari, iste'mol va transport, iqtisodiy geografik o'rinni kabi omillar e'tiborga olinadi. Shuningdek, ekologiya, ITT va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi ahamiyati ham ortib bormoqda (3-chizma).

Ushbu omillarni tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik guruhlarga birlashtirish mumkin. Ularning mohiyati va ta'sirchanligi jamiyat o'zgarishi bilan o'zgarib turadi. Chunonchi, ITT natijasida xom-ashyo, yoqilg'i, elektr-energiya va tansportning hal qiluvchi ta'siri biroz susayib boradi. Ayni paytda ijtimoiy (iste'mol) va ekologik omillar hamda bozor iqtisodiyoti munosabatlari ishlab chiqarishni tashkil etishda ustivor o'ringa ega bo'lmoqda.

Xom ashyo. Ma'lumki, moddiy ishlab chiqarish xom-ashyona asosida rivojlanadi. Ammo ayrim mahsulotlar olish uchun xom ashyo boshqalariga qaraganda ko'proq sarflanadi. Shuning uchun bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoqlar va korxonalar mumkin qadar xom ashyo rayonlariga yaqin joylashtirilgan.

Yoqilg'i – issiqlik elektr stantsiyalari, qora metalluriya sanoatining dastlabki bosqichini (cho'yan eritish) joylashtirishda asosiy ro'l o'ynaydi. Ammo uning ta'siri har doim yyetakchi kuchga ega emas. Issiqlik elektr stantsiyalari yoki metalluriya zavodlari iste'mol rayonlarida ham joylashtirilishi mumkin. Bunday xol neft va uning maxsuloti mazut, tabiiy gaz asosida ishlovchi issiqlik elektr stantsiyalarini qurishga taaluqli (yoqilg'ini quvurlarda keltirishni iqtisodiy jihatdan ma'qulroq) bo'ladi.

Biroq, qora metalluriya (cho'yan erituvchi) zavodlarini joylashtirish qonuniyatlari bir xil emas. Ma'lumki, qazib olinadigan temir rudasining taxminan 48-50% i foydali, bu "o'rtacha" raqam xamma joyda ham bir xil emas – ayrim konlarda temirning qazib olinadigan rudadagi ulushi atigi 17-19% ni tashkil etadi. Bunday konlarga Uraldagagi Qo'shqonarni yoki Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Tebinbuloq konlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bu yerdan qazib olinadigan rudani bevosita domna pechlarida eritib bo'lmaydi, zero unda kerakli mineraldan ko'ra foydasiz jinslar ko'proq. Shuning uchun bu ruda dastlab boyitilishi va uning tarkibidagi foydali mineralning xissasi oshirilishi kerak. Boyitilgandan so'ng ruda tarkibidagi temirning (rangli metallar uchun boyitish jarayoni ayniqsa muhim, chunki ularning rudalar tarkibidagi ulushi ancha past) miqdori bir necha barobar ko'payadi.

Ammo bu bilan ham uning hissasi yetarlicha bo'lmaydi. Shuning uchun metalluriya korxonalari ko'proq xom ashyo rayoniga yaqinroq joylashtiriladi. Ba'zi metalluriya zavodlari xom ashyo va yoqilg'i rayonlari o'rtasida joylashgan, zero mazkur sanoat tarmog'i uchun bu ikki omilning ahamiyati deyarli bir xil. Bunga yorqin misol bo'lib Cherepovets metalluriya kombinati (Rossiya Federatsiyasi) xizmat qiadi. U Pechera kokslanuvchi ko'mir xavzasi bilan Kola yarim oro'li temir rудаси konlarining taxminan o'rtasida qurilgan. Ammo korxona aniq ikki oraliq masofada emas, u biroz g'arbga "tortilgan", sababi Sankt-Peterburg, uning yirik mashinasozlik sanoatini po'lat va prokatga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir. Korxona yaqinida katta suv ombori ham bor.

Shuningdek, ko'mir va temir rudasini bir-biri bilan hududiy almashuvi asosida xar ikkala rayonda shakllangan qora metalluriya markazlari mavjud. Bu borada 30-yillarda amalga oshirilgan Ural-Kuznetsk kombinati (UKK)ni ko'rsatish o'rinni. Ushbu dastur o'rinni ishlab chiqarish majmuining dastlabki ko'rinishi bo'lib, uni hayotga tadbiq etishda ham xom ashyo rayonida – Janubiy Ural temir rудаси konlari asosida (dunyodagi eng yirik Magnitagorsk metalluriya kombinati), ham yoqilg'i rayoni – Kuznetsk toshko'mir xavzasida, ya'ni Novokuznetskda bunday ulkan korxonalar bunyod etilgan edi.

Elektroenergiya (elektr quvvati). Hozirgi zamon ishlab chiqarishini, hatto transport va qishloq xo'jaligini elektr quvvatisiz tasavvur qilish qiyin. Bu sohaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u yaratgan mahsulotni, ya'ni elektr quvvatini jamg'arib omborxonalarga yig'ib bo'lmaydi undan ayni paytning o'zida foydalanish kerak.

Bundan tashqarish elektr quvvati yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari orqali uzoq masofalarga berilishi mumkin. Xuddi shu maqsadda yirik ko'mir havzalarida yirik yoqilg'i energetika majmualari barpo etilgan. Angren ko'mir xavzasida ham

xuddi shunday majmua yaratilmoqda. Ammo ba'zan murakkab tog' sharoitiga ega bo'lgan rayonlarda elektr quvvatini uzoqqa uzatish iqtisodiy jihatdan maqul hisoblanmaydi. Bu quvvatdan mumkin qadar shu joyning o'zida foydalanish lozim bo'lib qoladi.

Odatda elektr quvvati omilini ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida eng avvalo uning arzon turiga urg'u beriladi.

Arzon elektr quvvati suv stantsiyalaridan olinadi, chunki suv suvligicha keyin ham qolaveradi., yoqilg'i elektr stantsiyalarida esa ko'mir, mazut yoki tabiiy gaz sarflanadi.

Elektr quvvati omiliga quyidagi misollarni keltirish kifoya: 1 tonna titan ishlab chiqarish uchun (titan po'latdan bir necha marta yengil va chidamli) 40-50 ming kvt/s, alyuminiy uchun 17-19 ming kvt/s, misni tozalash, temir qotishmalarini ishlab chiqarish, elektr pechlarida po'lat eritish uchun ularning har bir tonnasiga 8-10 ming kvt/s atrofida elektr quvvati sarflanadi. Tabiiyki bunday korxonalarini arzon elektr quvvati manba'lariiga yaqin joylashtirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'rta Osiyo mamlakatlarida yagona bo'lgan Tursunzoda (Regar) shahridagi Tojik alyuminiy zavodi Norak GESiga yaqin joyda qurilgan.

Demak, elektr quvvati bir qator sanoat korxonalarini o'z atrofiga omil sifatida "yig'ar" ekan. Shu sababli u yirik rayon va majmua hosil qilish quvvatiga ega. Bizning sharoitimizda elektr quvvati yangi yerlarni o'zlashtirish uchun ham kerak. Jumladan, Qarshi dashtining asosiy qismi Tolimarjondagi bir qator nasos stantsiyalar vositasi bilan sug'oriladi. Elektr quvvati Norak-Tursunzoda (Regar) –G'uzor orqali keladi. Hozirgi kunda esa shu yerning o'zida juda yirik mahalliy tabiiy gaz asosida ishlaydigan Tolimarjon GRESi qurilmoqda.

Suv va iqlim sharoiti ham ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda katta ahamiyatga ega. Suv manbalari ayniqsa kimyo, yog'och-sellyuloza, metallurgiya zavodlarining faoliyatiga sezilarli ta'sir qiladi. Jumladan, cho'yan erituvchi pechlarni sovutish uchun ham suv kerak.

Suv va iqlim sharoitlari boshqa sanoat korxonalarini qurishda ham e'tiborga olinadi. Bu omilning ahamiyati qishloq xo'jaligi uchun katta. Chunonchi, O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston Respublikasida an'anviy dexqonchilik uning issiq va quruq iqlimi sharoitida faqat sun'iy sug'orish asosida olib boriladi.

Paxta, meva, sabzavot, uzum va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlariga suv hamda issiq iqlim (ma'lum miqdordagi vegetatsiya haroratining miqdori) juda zarur. Shu bilan birga bizning sharoitda sanoat korxonalarini ochiq usulda qurish, suv va boshqa alkogolsiz ichimliklar, ip-gazlama ishlab chiqarishga o'xshash tarmoqlarni rivoshlantirish ko'proq talab etiladi.

Sotsial-iqtisodiy omillar ichida eng muhim aholi va mehnat resurslaridir. Albatta, har bir ishlab chiqarish jarayoni ishchi kuchisiz sodir bo'lmaydi. Bu o'rinda ikki holni qayd qilish lozim: birinchidan, shunday korxonalar borki, ularga son jihatdan ko'p ishchi kerak. Masalan, tikuv fabrikasi, konserva ishlab chiqarish, paxta yetishtirish va uni qayta ishlash va h.k. Ayni bir paytda boshqa bir korxonalarga mehnat resurslarining miqdori ko'p bo'lishi shart emas, ularga "oz va soz" malakali ishchi kuchi talab qilinadi. Mazkur korxona va tarmoqlar (radio va priborsozlik, aniq

mashinasozlik va shunga o'xhash) malakali ishchi kuchi mavjud bo'lgan shaharlarda, ilmiy texnik markazlarda joylashtiriladi.

Darhaqiqat O'zbekistonda mahalliy aholi tabiiy ko'payishining yuqoriligi va uning migratsion harakatini faolsizligi mehnat zahiralarini ko'plab shakllanishiga olib keladi. Shu sababli bizda mehnatga layoqatli aholi soni juda ko'p. Ularning miqdori qishloq joylarda va sust rivojlangan kichik shaharlarda juda yuqori. Binobarin, bunday joylarda ish o'rinalarini kengaytarish, yangi sanoat va boshqa korxonalar, madaniy-maishiy muassasalarni qurish zarur.

Aholi faqat ishchi kuchi emas, balki u eng avvalo iste'molchi hamdir. Bu omilning ro'li esa hozirgi kunda, xalqning yashash sharoiti va turmush darajasini yaxshilash doirasida keskin oshib bormoqda.

Ijtimoiy qiyinchiliklarga barham berish aholiga kerak bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va uning boshqa ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlarni yetarli miqiyosda ishlab chiqarishni taqazo etadi. Shu sababli iste'mol omili oziq-ovqat korxonalarini o'ziga "tortadi", ya'ni bunday zavod va fabrikalar bevosita aholi yashovchi maskanlarda joylashtiriladi. Iste'mol omili faqat xalq ehtiyoji bilan belgilanmaydi. Ishlab chiqarishning o'zining talabi, boshqa xil mahsulotlarning keng miqdorda sarflanishi, ularning transportda keltirishning noqulayligi ham bunday korxonalarini iste'mol rayonlarida qurilishini nazarda tutadi. Masalan, qishloq xo'jaligi mashinasozligi o'sha mintaqaning ishlab chiqarish ixtisoslashuviga muvofiq shu yerda rivojlanishi zarur.

Umuman, qaysi rayon nimaga ixtisoslashsa shunga mos mashinasozik tarmog'i bu yerda yaxshi rivojlangan bo'lishi qonuniy bir holdir. O'zbekitonda- paxta teruvchi, Belorussiyada- kartoshka, Ukrainada- qand, lavlagi, Gruziyada- choy teruvchi mashinalarni ishlab chiqarish bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shuningdek, boshqa sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini ham aholi yashab turgan joylarda joylashtirish maqsadga muvofiq.

Transport ham juda muhim chunki u ishlab chiqarishning bevosita davom ettiruvchi tarmog'i hisoblanadi. Transport shahobchalarisiz xom-ashyo ham keltirilmaydi, mahsulot ham iste'molchilarga etkazilmaydi. Bir so'z bilan aytganda hududiy mehnat taqsimoti rivojlanmaydi.

Shuning uchun tarnsportning ahamiyati barcha boshqa omillar bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketadi va uni "sof" holda ajratib olish qiyin. Shu bilan birga transport masalasi iqtisodiy geografik o'rinni omili bilan ham chambarchas bog'liq, zero bu o'rinni ob'ektning eng avvalo tashqi iqtisodiy munosabatlarini anglatadi.

Biz ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rар ekanmiz, ilmiy texnika taraqqiyoti va uning ahamiyatini chetlab o'tolmaymiz. Bu omilning ta'siri bir qator tarmoqlarni hududiy tashkil etilishida aniq va ravshan ko'rinadi (mashinasozlik, elektrotexnika va kimyo). Shubhasizki mazkur sanoat tarmoqlariga tegishli ko'pgina korxonalar, ayniqsa mashinasozlik zavodlari yuksak darajada ilmiy-texnika qudratiga ega bo'lgan yirik shaharlarda joylashtiriladi.

Yuqorida ko'rilgan omillarni ahamiyati katta. Ammo ularning barchasi pirovard natijada ekologik omil balin "hisoblashishlari" kerak. Zotan vujudga kelgan vaziyat buni qat'iylik bilan talab etadi. Hozirgi kunda ayrim sanoat korxonalari ishlashi shu nuqtai nazardan to'xtatilgani beziz emas. Ekologik jihatdan ko'p sanoat tarmoqlari

va eng avvalo kimyo, yog'och-sellyuloza, go'sht, konserva, charm zavodlari, issiqlik elektrostantsiyalari va shunga o'xshash korxonalar "nomaqbul" hisoblanadi. Binobarin ular aholi joylashgan markazlardan uzoqroqda bo'lgani yaxshi. Kimyo sanoati misolida ekologik omilning ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishiga ta'sirini ko'rish mumkin, chunki bu sanoat korxonalarini joylashtirilishi chinakam erkin xususiyatga ega. Zero kimyo sanoati o'simlik, hayvonot, mineral xom ashyosi, suv, havo (azot) asoida ham, boshqa sanoat chiqindisi (qora va rangli metallurgiya) negizida ham rivojlanishi mumkin. Shunday qilib kimyo sanoati korxonalarini har qaerda qursa bo'ladi, ammo bu masalaning bir nozik tomoni bor- bu ham bo'lsa ekologik omildir. Bu omil bilan hozirgi kunda hisoblashmasdan iloj yo'q, zero mamlakatimiz hududida ekologik sog'lom joyning o'zi juda sanoqli.

Yuqoridagi omillardan tashqari bozor iqtisodiyoti omilini ham unitmaslik kerak. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti to'g'risida barcha olimu oddiy xalq, kattayu-kichik so'z yuritadi. Lekin, bu juda murakkab tushuncha va iqtisodiy munosabatdir, xususan Yevropa davlatlari boy tajribaga ega, chunki bu munosabat mazkur davlatlarda 10 va 100 yillar davomida shakllanib kelgan.

Shuni alohida qayd etish joizki, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga birdaniga o'tib bo'lmaydi, buning uchun barcha shart-sharoitni yaratish kerak, ya'ni uning o'zini moddiy, maishiy va madaniy infrastrukturasi bo'lmos'hish lozim. Shuning uchun bu munosabatlarga o'tish tarixan birmuncha uzoq davrni talab etadi va unga bosqichma-bosqich o'tish ya'ni evolyutsion rivojlanishni taqazo etadi.

Bozor iqtisodiyoti- ishlab chiqarish erkinligi xarid erkinligidir, bu raqobatdir.

Bunday sharoitda ko'p ukladli iqtisodiyot, mulkchilikning turli shakllari va sog'lom raqobat muhitini vujudga keltirish, monopoliyaga qarshi kurash muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, bozor iqtisodiyoti omilini ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil etishga nisbatan tahlil etar ekanmiz, unda bu boradagi ilgarigi an'anaviy fikr yuritishimiz tamomila o'zgarib ketadi. Chunki bu sharoitda nimaga ixtisoslashuvni va qaerda joylashtirishni pirovad natijada bozor, raqobat, talab va taklif belgilaydi, davlat esa o'zining regional (hududiy) va soliq siyosati orqali bu jarayonni boshqarib yoki tartibga solib turadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Ixtisoslashuv – ishlab chiqarishning muayyan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishga moslashuvidir. Ixtisoslashuv asosida mehnat taqsimoti turadi.

Mehnat taqsimoti – ijtimoiy mehnatning mustaqil vazifalarini bajaruvchi mehnat turlariga ajralish jarayonidan iborat. Mehnat taqsimoti yuz berganda bir mehnat turidan ikkinchisi, ikkinchisidan uchunchisi va hokazo ajralib chiqadi va shu jarayoyon uzlusiz davom etaveradi.

Hududiy mehnat taqsimoti – muayyan mamlakat doirasida ayrim hududlar yoki mintaqalardagi mehnatning ixtisoslashuvi. Har bir hudud doirasida ham ichki ixtisoslashuv yuz beradi. Masalan, agrar hududda donchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik yoki chorvachilikka ixtisosloshgan kichik hududiy bo'linmalar ham bo'ladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti – ijtimoiy mehnatning turli davlatlar yoki davlatlar guruhi o’rtasida taqsimlanishi, ishlab chiqarishning baynalminal miqyosda ixtisoslashuvini bildiradi, davlatlararo iqtisodiy aloqalarni zaruratga aylantiradi. Xalqaro mehnat taqsimoti mehnat taqsimotining eng yuksak darjasini hisoblanadi.

Moddiy ishlab chiqarish – moddiy shakldagi mahsulotlarni, masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy va boshqalarni yaratish hamda ishlab chiqarish uchun zarur bo’lgan xizmatlarni yaratish masalan, yuk tashish, yo’l xizmati ko’rsatish, ishlab chiqarish axborotini uzatish va hokazolar. Moddiy ishlab chiqarish birlamchi, unga qarab nomoddiy soha rivojlanadi.

Nomoddiy ishlab chiqarish – moddiy shaklga ega bo’lmagan va aholi uchun zarur xizmatlarni ishlab chiqarish. Mazkur sohaga aholiga maishiy, madaniy, meditsina, sport-fizkultura xizmati ko’rsatish, bilim berish kabilalar kiradi.

Qisqacha hulosalar.

Ishlab chiqarsh umuminsoniy faoliyat bo’lib, uning yuz berishi uchun yer, kapital, mehnat va tadbirkorlik kabi iqtisodiy resurslar xarakatga kelishi talab etiladi.

Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirishning asosiy qonuniyatlariga:

- ishlab chiqarishni hududiy oqilona barpo etish;
- ishlab chiqarishni hududiy ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi;
- hududlarni majmuali rivojlanishi; kiradi.

Uning shakllari kontsentratsiya, ixtisoslashuv, kooperatsiyalashuv va kombinatlashuvdan iborat.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Ishlab chiqarish jarayoni qachon vujudga keladi?
2. Ishlab chiqarish omillari tarkiban nimalardan iborat?
3. YaMM qanday ishlab chiqariladi?
4. Mehnat taqsimoti nima va uning qanday turlari mavjud?
5. Ixtisoslashuv va uning turlari?
6. Mehnat taqsimoti qanday iqtisodiy qonun ta’sirida bo’ladi?
7. Ishlab chiqarishni joylashtirishning asosiy qonuniyatları qaysilar?
8. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari qanday?
9. Ishlab chiqarishning hududiy tashkil etishning asosiy omillari?
10. Omillarni guruhlarga bo’lishning mlhiyati nimada?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxitlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1995.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
4. Nabiev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohyati. T.: Akademiya, Universitet, 2000.
5. Uzbekiston za godi nezavisimosti. 1991-96 gg. Ekonomicheskiy obzor. T.: 1996.
6. O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiy nazariya. T.: Mehnat, 1996.

III-bob. Xozirgi zamon dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi

3.1. Dunyo siyosiy xaritasining ahamiyati

Siyosat so'zi arabcha bo'lib, u lug'oviy jihatdan "boshqarish" degan ma'noni anglatadi. Ma'lumki, qaerdaki boshqarish mavjud ekan shu yerda ustunlikka intilish ham mavjud bo'ladi. Xususan dunyo mamlakatlarining shakllanishi hamda rivojlanishida ham aynan shunday jarayon kuzatiladi. Bugungi kunda dunyoda 230ga yaqin mamlakat mavjud ekan ular bir-biridan rivojlanish darajasiga ko'ra, davlat tuzumi va boshqarish shakliga ko'ra o'zaro farq qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, dunyo siyosiy xaritasi bu dinamik ya'ni o'zgaruvchan tarixiy kategoriyadir. Chunki, siyosiy xaritadagi davlatlar soni, ularning tuzumi, chegara kabi sifat hamda miqdoriy ko'rsatkichlari davriy nuqtai nazardan o'zgarib turadi.

Siyosiy xaritaning ahamiyati g'oyat katta bo'lib, u mamlakatlarning xalqaro o'rmini, dunyoda egallagan mavqeini, ularning ichki siyosiy ma'muriy strukturasini xususiyatlarini o'zida yaqqol aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda dunyo siyosiy xaritasi o'zgarishining tarixiy bosqichlari davlat arboblari, siyosatchilar, diplomatlar, xalqaro iqtisodchilar, jurnalistlar va boshqa mutaxasislar uchun zarur bo'lgan qimmatli xujjatdir. Shu sababdan uni o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so'zlari O'zbekistonning dunyo siyosiy xaritasidagi o'rning mohiyatini to'la ochib beradi: "Markaziy Osiyoda jo'g'rofiy-siyosiy jihatdan markaziy o'r'in tutgan O'zbekiston kuchlar tengligi va muvozanatini ta'minlash, strategik muhim bo'lgan ushbu mintaqada hamkorlikka mustahkam zamin yaratish jarayonida sezilarli ro'l o'ynash uchun hamma imkoniyatlarga ega. Uning o'zining mavjud va potentsial tabiiy hamda xom ashyosi bilan hozirdayoq - XXI asr arafasida dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritasida alohida kasb etmoqda".¹

3.2. Dunyo siyosiy xaritasining shakllanish bosqichlari

Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasi kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining o'zgarishi, almashinuvi qonuniyatlarini o'zida to'la aks ettiradi. Dunyo siyosiy xaritasi (DSX) – tarixiy davrlarning ko'zgusi, mamlakatlar, materiklar, qit'alar, dunyo siyosiy-iqtisodiy bo'linishining o'ziga xos tasviridir. Uning shakllanishi ijtimoiy mehnat taqsimoti, xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi, jamiyatning sinflarga bo'linish davridan boshlangan. DSX ko'p asrlar davomida davlatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tarqab (yo'qolib) ketishi, chegaralarning o'zgarishi, metrapoliya va mustamlakalarning tashkil topishi, dunyoning hududiy bo'lishi, qayta bo'lib olinishi kabi tarixiy

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997. 228-229 betlar

o'zgarishlar, jarayonlarni o'zida aks ettiradi. Shu sababdan DSXning shakllanishi va tashkil topish davrlari ham dunyo tarixi davrlariga mos bo'lishi kerak. DSXning shakllanishi quyidagi davrlarga bo'linadi: qadimgi, o'rta asrlar, yangi davr va eng yangi davr.

Qadimgi davr – (dalatlarning dastlab paydo bo'lishining birinchi bosqichidan milodning V asrigacha) quldorlik tuzumi davrini o'z ichiga oladi. Yer sharida birinchi davlatlarning paydo bo'lishi va halokatini aks ettiradi. Masalan, Qadimgi Misr, Karfagen, Qadimgi Gretsiya, Qadimgi Rim, ulug' Xun imperiyasi (miloddan avval 207 yildan to milodning 216 yilgacha), ikkinchi Ulug' Xun imperiyasi kabi qadimiy davlatlar dunyo tsivilizatsiyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Turkiy xalqlarning qadimgi avlodlari bo'lgan xunlar (skiflar) Markaziy Osiyo, Kaspiy dengiz bo'yłari, shimoliy Kakazgacha cho'zilgan katta hududlarda o'z davlatlarini barpo etganlar. Ular o'z yozuviga ega bo'lgan harbiy maqsadlarda xaritalardan foydalanishgan. Xun avlodlari Sharqiy va G'arbiy Yevropaga borib, milodning 347 yildan 469 yilgacha Yevropada Xunlar imperiyasini tuzganlar. Shu bilan bir qatorda bu davrda harbiy yurishlar hamda urushlar davlat chegaralari va hududlarning o'zgartirilishining asosiy sababi bo'lgan.

O'rta asrlar davri (V-XV asrlar) DSX feodalizm davri bilan bog'liq holda shakllangan. Qułdorlik imperiyalari parchalanib, ularning o'rnida ko'p sonli katta va kichik feodal davlatlar paydo bo'ldi. Feodal davlatlarning siyosiy funktsiyalari qułdorlik davri davlatlariga nisbatan ancha murakkab va xilma-xil bo'lgan. Bu davrda ichki bozor shakllandı, regionlarning boshqalardan ajralgan holda berk yashashiga chek qo'yildi. Davlatlarning o'zlaridan uzoqda joylashgan hududlarni bosib olishga harakat qilish ishtiyoqi kuchaydi. Dunyo materiklari va qit'alari turli davlatlar o'rtasida taqsimlab olindi. Bu davrda Muqaddas Rim imperiyasi, Angliya, Ispaniya, Fransiya, Portugaliya, Kiev Rusi, Hindiston, Xitoy, Eron hamda Turon-Turkiston feodal va boshqalar mavjud bo'lgan.

Buyuk geografik kashfiyotlar davri dunyo xaritasida kuchli o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Bozorga va yangi boy hududlarga talab paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan yangi yerlarni kashf etish, dunyo bo'ylab sayohatlarga chiqishga ehtiyoj kuchaydi.

Yangi davr (XV-XVI asrdan XXasrning I-jahon urushiga qadar) – kapitalizmning shakllanishi, rivojlanishi va qaror topishining butun bir tarixiy bosqichiga to'g'ri keladi. Buyuk geografik kashfiyotlar Yevropa mustamlaka bosqinlari (ekspansiya) boshlanishiga, xalqaro xo'jalik aloqalarining butun dunyoga tarqalishiga asos bo'ldi. Bu davrda Ispaniya va Portugaliya eng yirik mustamlakachilik davlatlariga aylandi. So'ngra manufaktura kapitalizmining rivojlanishiga bog'liq holda Angliya, Fransiya, Niderlandiya, Germaniya, keyinchalik AQSh tarix sahnasiga chiqdilar. Mustamlakalar bosib olish kuchaydi. Rossiya imperiyasi ham Turon-Turkiston subregioni davlatlari ham Rossiya imperiyasi mustamlakalariga yoki unga qaram hududlarga aylandi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida dunyo hududlari to'liq bosib olindi. 1900 yilda mustamlakachi davlatlar bosib olgan hududlar maydoni 73 mln kv km (dunyoning 55% maydoni) bo'lib, ularda 530 mln kishi (dunyo aholisining 35%) yashagan (bunga Rossiya mustamlakalari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilmagan).

Chunki, bunday ma'lumotlar xanuzgacha ochiq e'lon qilinmagan). Masalan Buyuk Britaniya mustamlakalari maydoni 32.7 mln kv km (dunyo maydonining 24.6%), unda yashaydigan aholi 367.6 mln kishi. (dunyo aholisining 24.5%) bo'lgan. Fransiya mustamlakalari shunga mos ravishda 11 mln kv km (8.3%), 50.1 mln kishi (3.3%), Germaniyaniqi - 2.6 mln kv km (2%), 12 mln kishi (0.8%), Belgiyaniki – 2.4 mln kv km (1.8%), 19 mln kishi (1.3%), Niderlandiyaniqi – 2.0 mln kv km (1.5%), 37.9 mln kishi (2.5%) bo'lgan. Metropoliya va mustamlakalar maydoni va aholisi o'rtasidagi nisbat mutanosib ravishda quyidagi miqdorni tashkil etgan: Buyuk Britaniyada –100 va 8.8 marta, Niderlandiyada –67 va 7.4, Portugaliya –21 va 1.5, Fransiya –21 va 1.3, Belgiya – 80 va 2.8 marta, Daniya –5 marta va 4.2 %, Germaniya –5 marta va 21%, Ispaniya –40% va 3.8%, Italiya – 1.7% va 2.2%, AQSh –24,4% va 11.6%.

Shu davrdan boshlab dunyoni qayta bo'lib olish faqat urush va zo'ravonlik vositasida amalga oshishi mumkin edi. Shu sababdan ham dunyoning yyetakchi mamlakatlari o'rtasida bo'lingan dunyoni qayta bo'lib olish uchun kurash tobora keskinlashdi.

Eng yangi davr birinchi jahon urushi tugashi va 1917 yil Rossiyada Oktyabr to'ntarishidan boshlab to hozirgi kunlargacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davr quyidagi uch bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich (1917-1939 yillar) dunyo xaritasida SSSR (sotsialistik imperiya)ning paydo bo'lishi, Yevropa va dunyoning boshqa qismlarida muhim hududiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi bilan tavsiflanadi. Avstriya-Vengriya imperiyasi parchalandi, ko'p davlatlarning chegaralari o'zgardi. Yangi mustaqil mamlakatlar Polsha, Finlandiya, Chexoslavakiya, Yugoslaviya (Serbiya, Xorvatiya, Slovakiya qiro'lliklari) va boshqalar paydo bo'ldi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Yaponiya mustamlakalari ko'paydi hamda kengaydi.

Ikkinci bosqich (1939-1990 yillar) Yevropa siyosiy xaritasida yuz bergen o'zgarishlardan tashqari, sotsialistik eksperimentning kengayishi, (Yevropa va Osiyodagi ayrim davlatlarning sotsialistik yo'lga o'tishi), imperializm mustamlakachilik tizimining emirilishi oqibatida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi (Karib regionida), Okeaniyada 100dan ortiq mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi bilan nishonlanadi.

Uchinchi bosqich 1990 yildan boshlanib, hozirga qadar davom etmoqda. Dunyo siyosiy xaritasida butun dunyo hamkorligining ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan yangi sifat o'zgarishlari quyidagilardir:

-1991 yil SSSRning parchalanishi, sobiq ittifoqdosh respublikalarning siyosiy mustaqillikka erishishlari;

-Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining (MDH) paydo bo'lishi;

-Sharqiy Yevropadagi sobiq sotsialistik davlatlarning tipik xalq demokratik inqiloblari g'alabasi orqali yangi mustaqil rivojlanish yo'liga o'tishlari (1989-90 yillar);

-1991 yilda harbiy Varshava Sharhnomasi Tashkiloti (VShT), O'zaro Iqtisodiy Yordam Tashkiloti Kengashi (O'IYoK) faoliyatining to'xtalishi va uning Yevropa hamda butun dunyodagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatishi;

-Sotsialistik tizimning barbod bo'lishi;

-1990 yil 3 oktyabr ikki German davlatining (GFR va GDR) birlashuvi;

-Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasining (YuSFR) parchalanishi oqibatida Sloveniya, Bosniya va Gertsegovina, Makedoniya, Xorvatiya, Yugoslaviya Ittifoqi Respublikasi (Serbiya va Chernogoriya tarkibida) siyosiy mustaqilligining e'lon qilinishi, Sobiq Federatsiyadagi keskin siyosiy bo'hron (krizis) fuqaro'lar urushiga va millatlararo ziddiyatlarning kuchayishiga, ularning bugungi kunga qadar davom etishiga olib keldi;

-1990 yil may oyida ikki arab davlati – Yaman Arab Respublikasi (YaAR) va Yaman Xalq Demokratik Respublikasi (YaXDR) – milliy-etnik asoslarda birlashdi (Yaman Respublikasi, poytaxti – Sana shahri);

-1990-1991 yillarda mustamlakachilikning barbod bo'lishi jarayoni davom etib, quyidagi davlatlar mustaqillikka erishdilar: Namibiya (Afrikada eng so'nggi mustamlaka); Okeaniyada yangi davlatlar – Mikroneziya Federativ Shtatlari (Karo'lin oro'llari), Marshall oro'llari Respublikasi paydo bo'ldi;

-1993 yil 1 yanvarda Sobiq Chexoslovakiya parchalanib, ikki mustaqil davlat - Chexiya va Slovakiya paydo bo'ldi;

-1993 yil Yeritreya davlatining (Efiopiyaning Qizil dengiz qirg'og'idagi sobiq provintsiya) mustaqilligi e'lon qilindi.

Mutaxasislarning ta'kidlashiga ko'ra dunyo siyosiy xaritasining kelajakda o'zgarishi avvalo ko'p millatli mamlakatlarda etnik-milliy jarayonlarning rivoji, yo'nalishiga, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarning tavsifiga bog'liq holda davom etishi mumkin.

3.3. Dunyo siyosiy xaritasidagi miqdor va sifat o'zgarishlari

DSXdagi o'zgarish hamda siljishlar asosan miqdor va sifat ko'rsatkichlari xususiyatlariga ega bo'ladi.

Miqdor o'zgarishlari hududlarni harbiy kuch bilan bosib olish yoki uni yo'qotish hisobiga, davlatlarning bir-birlariga hududlarni ixtiyoriy berishlari orqali sodir bo'ladi. Jahon urushlari, mustamlakalar bosib olish, mustamlakachi imperianing tashkil topishi, davlatlarning birlashuvi yoki ajralishi hududiy o'zgarishlarga olib kelgan.

Sifat o'zgarishlari odatda hududiy o'zgarishlarga olib kelmaydi. Uning asosiy mohiyatini bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning boshqasi bilan almashinushi, sobiq mustamlakalarning mustaqillikka erishishi, yangi davlat tuzilishi shakliga o'tish, davlatlararo siyosiy ittifoq va tashkilotlarning barpo etilishi va boshqalar belgilab beradi. Ko'p hollarda miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlari bilan bиргаликда sodir bo'ladi.

Umuman dunyo xaritasidagi miqdor o'zgarishlari asosan o'tmish davrlar uchun xos bo'lib, unda urushlar davlatlararo baxslar, munozaralar yechimining odatdagi vositasi, "musht huquqi" esa siyosatning asosiy yo'nalishi bo'lgan. Ammo hozirgi paytda hududiy munozaralarni harbiy yo'l bilan hal etish o'zining ilgarigi ahamiyatini to'la yo'qotdi. Yadro asrida bu yo'l sayyoramizni ulkan qabristonga aylantirish xavfini keltirib chiqaradi. Shu sababdan barcha hududiy mojarolarni muzokaralar orqali tinch yo'l bilan hal etish XXI asrda eng maqbul yo'ldir.

3.4. Dunyo siyosiy xaritasining asosiy ob'ektlari

Dunyo siyosiy xaritasining asosiy ob'ektlari – mustaqil davlatlardir. 1900 yilda Yer sharida jami 55 mustaqil davlat bo'lgan. U paytda g'oyat katta Britaniya imperiyasi, unga nisbatan miqyosi kichik Fransiya imperiyasi mavjud bo'lgan. Ular birinchi jahon urushidan keyin ham o'z mustamlakalarini saqlab qolganlar. Ayni paytda Yaponiya, AQSh, Niderlandiya, Belgiya, Portugaliya, Ispaniya, Rossiya mamlakatlari ham mustamlakaga ega bo'lganlar. Ikkinchisi jahon urushidan keyin imperializm mustamlakachilik tizimining barbob bo'lishi, milliy ozodlik harakatlarining tobora kuchayishi, xalqlarning mustaqillik uchun kurashlari DSXni tubdan o'zgartirdi. Ikkinchisi jahon urushi arafasida dunyoda 71 mustaqil davlat bo'lsa, 1947 yilda ularning soni 81 taga, 1959 yilda – 92, 1990 yilda – 171, 1995 yilda – 180taga va 1998 yilda esa 190taga yetdi.

Mustaqil davlatlar bilan bir qatorda hozirgi zamonda 38dan 42 tagacha boshqa mamlakatlar bor. Ulardan 30 tadan ko'prog'i o'z-o'zini boshqarmaydigan hududlar bo'lsa, qolganlari turli huquqiy mavqega ega. Mazkur miqdoriy ko'rsatkichlardi farqlar dunyo boshqaruv tizimida turli holatlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, sharqiy Timor BMT tomonidan mustamlaka deb hisoblanadi, Indoneziya esa uni o'z hududi deb hisoblaydi. Falastin davlati e'lon qilinishini (1988 yil) ko'p davlatlar tan olganlar, ayni paytda tan olmaydigan davlatlar ham bor. Aksariyat hollarda Okeaniyadagi oro'llar o'zlarini alohida yoki birgalikda hisoblaydilar. G'arbiy Saxroyi Kabir (Sobiq Ispaniya mustamlakasi) statusi ham hanuzgacha noaniq. Bu mamlakatlarni shartli uch guruhg'a bo'lish mumkin:

- BMT rasmiy ro'yxatiga kiritilgan mustamlakalar (mustaqillik berilishi talab qilingan hududlar ro'yxati);
- BMT ro'yxatiga kiritilmagan, lekin amalda mustamlaka bo'lgan oro'l hududlar. Chunki ularni boshqaruvchi davlatlarning da'volariga ko'ra hududlar "dengiz orti departamentlari", "erkin asotsiatsiyalashgan davlatlar" hisoblanadi;

- Taqdiri aniq belgilangan mustamlakalar;

Gongkong (Syangan, Britaniya) va Aomin (Makao, Portugaliya). Ularni birinchisi 1997 yilda Xitoy suverinetiga kiritildi, ikkinchisi – 2000 yilda shu statusga o'tdi.

Deyarli barcha mustamlakalarning maydoni kichik, aholisi kam. Bundan faqat Puerto-Riko (AQSh mustamlakasi) istisno (3.7 mln kishi).

Barcha mustamlakalarga mustaqillik berish masalasi murakkab muammodir. Ularning ko'pchiligi metropoliyalar uchun harbiy – strategik ob'ekt sifatida yoki boshqa maqsadlarda ahamiyatga ega. Masalan, AQShning o'nlab harbiy-dengiz va harbiy-havo bazalari Tinch va Atlantika okeanlaridagi oro'llardagi oro'l mustamlakalarda joylashgan.

Davlatlarning tashkil topishi va rivojlanishi g'oyat murakkab tarixiy jarayon bo'lib, ko'plab ichki va tashqi omillar- siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda etnik xususiyatlar bilan belgilanadi.

Xalqaro muammolar bo'yicha mutaxasislar dunyoda 300ga yaqin punktlar bo'yicha hududiy, etnik, chegara baxslari, shu jumladan ularning 100dan ko'prog'i bo'yicha g'oyat jiddiy janjalli vaziyat mavjudligini aniqlaganlar.

Masalan, o'nlab yillar mobaynida Ispaniya va Buyuk Britaniya Gibraltar suvereniteti to'g'risida baxslashmoqda. Folkland (Malvin) oro'llari uchun Buyuk Britaniya va Argentina o'rtasida 1282 yilda harbiy mojaro sodir bo'ldi. 1947 yildan buyon Isroil davlati chegaralari to'g'risida va Falastin davlatini tuzish xususida shartnama tuzish bo'yicha muzokaralar davom etmoqda. Boshqa bir misol, Iroq - Eron o'rtasida sakkiz yil davom etgan (1980-1988) qonli urush ham 508 kv km hudud to'g'risidagi baxslar orqali boshlangan. Mutaxasislar hisoblariga ko'ra ikkinchi jahon urushidan keyin to 1990 yilgacha ikki yoki ko'proq mamlakat ishtirok etgan turli miqiyosdagi 450ga yaqin qurolli harbiy mojaro'lar sodir bo'lgan, yoki yiliga o'rtacha 10ta mojaro to'g'ri kelgan. Mojaro'larning sabablari ko'p va chuqur, ular hozirgi zamon siyosiy muhitining o'zgaruvchanligi, ziddiyatli ekanligidan dalolat beradi.

3.5. Davlatlarning hududlari va davlat tuzimi

Hududlar- davlat hududi, xalqaro va aralash tartibdagi hududlarga bo'linadi.

1. Davlat hududi ma'lum davlatning suvereniteti ostida bo'ladi. Uning tarkibiga chegara doirasidagi quruqlik va yer osti boyliklari, ichki va hududiy suvlar, quruqlik va suv ustidagi atmosfera havosi kiradi. Dengiz bo'yisi davlatlari (100 dan ko'proq) qirg'oqdan 3 dan 12 dengiz miliyasigacha davom etadigan hududiy suvlarga egalik qiladi. Har bir davlat boshqa davatlardan quruqlik va dengiz chegaralari orqali ajratilgan o'z davlat hududlariga ega. Bu chegaralar o'tmish voqealariga bog'liq holda tarixan tarkib topgan. Masalan, Amerikaning ko'pchilik davlatlari parallel va meridianlar bo'ylab o'tkazilgan to'g'ri chiziqli chegara konfiguratsiyasiga ega. Bu holat bir tomondan o'tmishda mustamlakachi davlatlar o'rtasidagi keskin raqobat bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan etnik parchalanishni amalga oshirish orqali yosh mustaqil davlatlar o'rtasida doimiy nizolar chiqarishni va shu asosda sobiq mustamlakalarni uzoq muddatlarda talash maqsadlarida amalga oshirilgan edi.

Xalqaro huquq boshqa davlatlarning chegaralarini buzish, ayniqsa kuch ishlatish yo'li bilan bosib olishni taqiqlaydi. Davlatlar o'rtasidagi barcha chegara baxslari, nizolari tinch yo'l vositalari bilan hal etilishi kerak. Xalqaro miqiyosda ikkinchi jahon urushidan keyin shakllangan davlat chegaralari daxlsizligi barchaga barobar tarzda umumiyl e'tirof etilgan.

2. Xalqaro tartibdagi hududlarga davlat chegaralaridan tashqarida bo'lган va xalqaro huquqqa binoan dunyoning barcha davlatlari foydalanadigan Yer sharidagi bo'sh makonlar (joylar) kiradi. Bular kontinental (quruqlik) shelflaridan tashqaridagi ochiq dengiz, havo bo'shlig'ini qamrab oladi.

Bunda Shimoliy Muz okeanidagi ochiq dengizlarning arktik rayonidagi xalqaro huquqiy tartibdagi ba'zi xususiyatlarga egaligini ko'rsatish lozim. O'z vaqtida SSSR, Kanada va boshqa mamlakatlar uni qutbiy "sektorlar"ga bo'lgan edilar. "Qutbiy sektor" doirasidagi barcha yer va oro'llar, qirg'oq bo'yidagi muzlik dalalari davlat chegaralari tarkibiga kiradi. "Qutbiy sektor" davlatlarning shimoliy

chegaralaridan Shimoliy qutbgacha bo'lgan meridian bo'yicha ajratilgan makonlardan tashkil topgan.

3. Aralash tartibdagi hududlarga quruqlik (kontinental) shelf va iqtisodiy mintaqalar kiradi. Quruqlik shelflari quyidagi uchta asosiy belgiga ko'ra ajratiladi:

- 1) davlat chegaralariga tutashishi;
- 2) suvning 200m gacha chuqurligi;

3) resurslardan foydalanishning texnik imkoniyatlari (maksimal uzoqlik qirg'oqdan 350 mil). Mamlakatlar "o'z shelflari"ning tabiiy boyliklarini razvedka qilish (qidirish), resurslardan foydalanishda alohida huquqlarga ega, lekin ular tegishli akvatoriyalarga suveren huquqga ega emas.

Masalan, suv osti konlaridan (shelfda qazib olish) neft qazib olishning dunyodagi hissasi umumiyo ko'rsatkichning 40%ga yaqindir. Shelf va okean tubi temir, mis, marganets, nikel, kobalt va boshqa elementlarga boy.

Lotin Amerikasi mamlakatlari 60-yillarning oxirida Dunyo okeanida iqtisodiy mintaqalarini o'rnatish tashabbusi bilan chiqdilar. 80-yillarning o'rtalariga kelib dunyoning deyarli barcha davlatlari ularning bu tashabbuslariga qo'shildilar. Hozir iqtisodiy zonalar hissasiga dunyo okeani maydonining 40%, shu jumladan 96% baliq ovlanadigan rayonlar kiradi.

Iqtisodiy mintaqalar hududiy suvlardan tashqarida qirg'oqdan 200 dengiz miliga yaqin kenglikda joylashgan rayonlar bo'lib, dengiz bo'yni mamlakatlari bu yerda mineral resursslarni razvedka qilish (qidirish), qazib olish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, baliq ovlashni (resurslarga milliy yurisdiktsiya zonasasi) amalga oshiradilar, boshqa mamlakatlар esa kema qatnovi erkinligidan foydalanadilar, baliq ovlashda belgilangan me'yordan ortiqcha qismdan foydalanish huquqiga egalar.

Baliq ovlanadigan mintaqalar va shelflar ko'pincha davlatlarning quruqlik maydonidan ko'p bo'lib, ularning resursslarni imkoniyatlarini keskin ko'tarish mumkin.

1959 yildagi Shartnomaga asosan Antarktida alohida xalqaro huquqiy tartibga o'tkazilgan. Materik to'liq demilitarizatsiya qilingan va ilmiy tadqiqot ishlari uchun barcha mamlakatlarga ochiqdir.

Dunyo siyosiy xaritasi mamlakatlarning g'oyat murakkab va rang-barang quramalardan tashkil topgan. Quruqlikning odamlar yashaydigan qismi va unga tutash keng dengiz makonlari siyosiy chegaralar bilan g'oyat ko'p bo'laklarga bo'lingan.

Mustaqil mamlakatlar davlatni tashkil etishning turli shakllariga ega. Ulardan eng muhimi davlat tuzumidir. U monarxiya va respublikaga bo'linadi.

Boshqarishning respublika shaklida davlat hokimiyatining oliv organlari saylanadi yoki umummilliylar vakillar muassasasi parlament tomonidan tuziladi. Respublika tuzumida qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlamentga, ijroya hokimiyat - hukumatga tegishlidir.

Bunda prezident juda katta vakolatga ega bo'lgan va hukumatni boshqaradigan prezident respublikasi (AQSh, Lotin Amerikasi mamlakatlarining ayrimlari) va prezidentning ro'li kamroq hukumatni esa bosh ministr boshqaradigan parlament respublikalari bir-biridan farq qiladi. Dunyoda respublikalar ko'pchilik bo'lib, ularning soni 140ga yaqin.

Boshqarishning monarxiya shaklida oliy davlat hokimiyati monarxlarga - qiro'l, knyaz, sulton, shoh, amirga qarashli bo'lib, hokimiyat meros orqali avloddan avlodga o'tadi. Dunyo siyosiy xaratisida 30 monarxiya shaklidagi davlat mavjud, shu jumladan Osiyoda-14, Yevropada-12, Afrikada-3, Okeaniyada-1. Monarxiya konstitutsion va mutlaq (absolyut) tiplarga bo'linadi. Ularning ko'pchiligi konstitutsion monarxiya bo'lib, unda monarx ramziy "podsholik" qiladi, lekin davlatni boshqarmaydi (Buyuk Britaniya, Norvegiya, Shvetsiya) real qonun chiqaruvchi hokimiyat parlamentga, ijroiya hokimiyat – xukumatga qarashlidir. Mutlaq monarxiyada monarx hokimiyati deyarli cheklanmagan, xukumat va boshqa hokimiyat organlari faqat monarx oldida javobgardir (Saudiya Arabisitoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Omon, Bruney, Quvayt va boshqalar).

Boshqarishning yana bir keng tarqalgan shakli Buyuk Britaniya boshchilik qiladigan Britaniya Hamkorligidir. U huquqiy jihatdan 1931 yildayoq rasmiylashtirilgan bo'lib, uning tarkibiga Buyuk Britaniya dominionlari- Kanada, Avstriya, Janubiy Afrika Ittifoqi, Nyufaundlend va Irlandiya kirgan edi. Ikkinchi jahon urushida Britaniya imperiyasi barbod bo'lgach Hamkorlik tarkibiga Britaniya sobiq mustamlakalarining ko'pchiligi kirdi. Uning tarkibida dunyoning barcha qit'alarida joylashgan 50 mamlakat bo'lib, umumiy maydoni 30 mln.kv.km.dan ko'proq, aholisi 1,2 mld.kishidan ortiqdir.

Hamkorlik tarkibiga siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy strukturası, iqtisodiy rivojlanish darajasi, etnik va til, diniy xususiyatlari bo'yicha nihoyatda xilma-xil mamlakatlar kiradi. Ular orasiga rivojlangan (Buyuk Britaniya, Kanada va boshqalar)da rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan yirik, gigant (Hindiston), katta (Bangladesh, Shri Lanka, Malayziya, Negeriya, Keniya, Tanzaniya va boshqalar), kichik hamda juda kichik oro'l mamlakatlari (Karib havzasi, Okeaniya) ham bor. Hamkorlik a'zolari undan bir tomonlama so'zsiz chiqish huquqiga ega, ular ichki va tashqi ishlarda to'liq mustaqildirlar. Hamkorlik konferentsiyalarining qarorlari ularni qabul qilish uchun ovoz bermagan mamlakatlarda qonuniy kuchga ega emas.

1991 yilda SSSR barbod bo'lgach dunyo xaritasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) paydo bo'lib, uning tarkibiga sobiq SSSR respublikalarining (Boltiq bo'yi davlatlaridan tashqari) barchasi kirgan.

Davatlarning ma'muriy hududiy bo'linishi (MHB) siyosiy xaritaning muhim elementi hisoblanadi. U bevosita siyosiy tuzum tavsifi va davlat boshqaruv shakllari bilan bog'liq bo'lib, aholining milliy-etnik (ba'zi hollarda diniy xususiyatlari ham), shuningdek, mamlakatning tarixiy-geografik xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Mamlakatning MHB odatta iqtisodiy, tarixiy, milliy, tarkibiy va boshqa omillarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Uning asosiy funktsiyalari: davlat boshqaruvi va hokimiyati organlarini pog'onali joylashtirish, soliq va axborotlarni to'plashni ta'minlash, markazning joylar ustidan nazorati, moslashuvchan iqtisodiy va ijtimoiy regional siyosatni amalga oshirish, saylov kompaniyalarini o'tkazish va boshqalardan iborat.

G'arbni rivojlangan mamlakatlarining ko'pchiligi uchun MHB ning murakkabligi va ko'p bosqichliliği xosdir. Odatta MHB uch bosqichga bo'linadi, ba'zan esa juda ko'p bo'laklarga ajratiladi. Masalan, Fransiyada 26 rayon, 100

departament, 36.5 ming kommunal bor. AQShda 50ta shtatga birlashtirilgan quyi birlik yoki "graflik" (ular jami 30 mingdan ko'proq) hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham MHBlarni qayta qurish ishlari 50-yillardan boshlangan bo'lib, ularda G'arb mamlakatlaridan farqli ravishda MHBlarni yiriklashtirish asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Davlatning MHBlari asosiy shaklga – unitar va federativga bo'linadi. Unitar davlatda odatda yagona qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyat, yagona davlat organlari tizimi, yagona konstitutsiya mavjud bo'ladi. Bunday davlatlar dunyoda ko'pchilikdir.

Federativ davlatda yagona (federal) qonunlar va hokimiyat organlari bilan bir qatorda boshqa davlat tuzilmalari – respublikalar, shtatlar, provintsiyalar, yerlar (viloyatlar), kantonlar, hududlar bo'lib, ular "ikkinchi" darajali bo'lsada, o'zlarining qonunlari va hokimiyat organlariga egadirlar. Ko'pchilik federativ davlatlarda parlament ikki palatadan iborat bo'lib, ularning bittasi respublikalar, shtatlar va boshqalar vakolatini ta'minlaydi (masalan, AQSh kongressida senat shunday funktsiyaga ega). 1995 yilda dunyoda 23 federativ davlat mavjud bo'lgan (Rossiya Federatsiyasi, Belgiya qiro'lligi, Germaniya Federativ Respublikasi, Shveytsariya Konfederatsiyasi, Yugoslaviya Ittifoqi Respublikasi, Ispaniya, Hindiston Respublikasi, Malayziya, Myanma Ittifoqi Federativ shtatlari, Kamor oro'llari Federativ Islom Respublikasi, Nigeriya Federativ Respublikasi, Venesuela Respublikasi, Kanada, Meksika Qo'shma Shtatlari, AQSh, Argentina).

Federatsiya hududiy va milliy belgilariga qarab tuziladi. Bu esa ko'p jihatdan davlat qurilishining tavsifi, mazmuni va strukturasini belgilaydi.

Davlatlar birlashuvining boshqa shakli – konfederatsiya – nisbatan kam uchraydi. Ular, qoida tariqasida, nihoyat cheklangan maqsadlarga (harbiy, tashqisiyosiy va boshqalar) erishish uchun tuziladi. Ular uzoq faoliyat ko'rsatmaydi, parchalanib ketadilar yoki federatsiyalarga aylanadilar (masalan, Shvetsiya Ittifoqi, Avstriya-Vengriya, AQSh va boshqalar).

3.6. Dunyo mamlakatlari tipologiyasi

Dunyoning hozirgi siyosiy xaritasida 230ga yaqin mamlakat va hududlar bor. Ularning 190 tasi BMTga a'zo va suveren davlatlardir, qolganlari asosan o'zini-o'zi boshqarmaydigan hududlar hisoblanadi. Ular o'rtasidagi farqlar g'oyat katta va xilma-xildir. Masalan, siyosiy xaritada, bir tomonidan aholisi juda ko'p, hududi esa g'oyat katta mamlakatlar (Xitoy, Hindiston, Rossiya, AQSh), boshqa tomonidan juda kichkina "mitti" mamlakatlar (Monako, Andorra, Vatikan, Lixtenshteyn) mavjud.

Dunyoda bir millatli (Yaponiya, Shvetsiya va boshqalar) va ko'p millatli (Hindiston, Rossiya, AQSh), tabiiy resurslari g'oyat boy va resurslari kam, dengiz bo'yida va materik ichkarisida (Chad, Mali, Markaziy Afrika Respublikasi, Mongoliya, Paragvay, Nepal, Butan) joylashgan mamlakatlar ham bor. Ba'zi mamlakatlar butun materikni (Avstraliya) boshqalari esa kichik bir oro'lni yoki oro'llar guruhini egallaydi. Mamlakatlarning geografik o'rni ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omildir.

Dunyoning har bir mamlakati o'ziga xos takrorlanmas xususiyatga ega, lekin ularning o'xshashlik hamda farqlarini aniqlab, mamlakatlarni turli tiplarga ajratish mumkin. Tipologiya ham turli belgilar va me'zonlarga, ko'zlangan maqsadlarga ko'ra turlichalari bo'ladi.

Bu tipdagi mamlakatlarning mavjudligi ularning rivojlanish sharoiti, sur'ati, boshqaruv usullarining har xilligi bilan belgilanadi. Lekin mamlakatlar tipini bir yoki bir necha muhim me'zonlarga asoslanib aniqlab bo'lmaydi. Birinchi bosqichda katta hajmdagi statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, so'ngra ular guruhlarga ajratiladi. Tipologiyaning o'zi ham har xil bo'ladi. Ularda malakatlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi ko'plab ko'rsatkichlar, shuningdek tarixiy, siyosiy jihatlar (Masalan, demokratiyaning rivojlanish darjasasi va boshqalar) hisobga olinadi. Kapitalizmning rivojlanishi aholining daromad darajasiga asoslangan ko'plab tipologiyalar mavjud. Davlatlarning geografik o'rni tashkil topish vaqtiga, etnik va diniy tarkibiga ko'ra ham guruhlash mumkin. Uzoq vaqt davlatlarning kapitalistik (bozor iqtisodiyoti bilan) yoki sotsialistik (rejali iqtisodiyot bilan) ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga mansubligiga asoslangan tipologiya xukmron bo'lib keldi. Shuningdek, rivojlanayotgan ya'ni "uchinchidunyo" mamlakatlari – sobiq mustamlaka va qaram davlatlar ham mavjud edi. Sotsialistik tuzumning barbob bo'lishiga mutanosib ravishda mazkur tipologiya ham o'z ahamiyatini yo'qotdi (lekin, sotsialistik mamlakatlar hozirda ham mavjud).

Tipologiya o'zining ilmiy qiymatidan tashqari, katta amaliy ahamiyatga ham ega. Masalan, shunday tipologiyalar asosida BMT dunyo mamlakatlarining uzoq kelajak rivojlanish yo'nalishlari dasturini ishlab chiqadi, moliyaviy hamda gumanitar yordam berish uchun eng kam rivojlangan mamlakatlar guruhini aniqlaydi. Bunday mamlakatlar quyidagi uchta asosiy mezonga asoslanadi:

1. Aholi jon boshiga juda kam daromad to'g'ri kelishi;
2. Xo'jalik strukturasida ishlab beruvchi sanoat salmog'ining 10%dan kam bo'lishi;
3. Voyaga yetgan (katta yoshdagi) aholi o'rtasidagi savodsizlik darjasasi 80%dan yuqoriligi. 1990-yillarda bu guruhdagi ro'yhatga 40 mamlakat kiritildi (Afg'oniston, Gaiti, Gvineya, Bangladesh, Laos, Nepal, Butan, Mali, Mozambik, Somali, Burundi, Chad, Efiopiya va yuoshqalar).

Rivojlanayotgan mamlakatlarning boshqa qutbida boshqa guruh va hududlar – "yangi industrial mamlakatlar" (YaIM) ajralib turadi. Bular qatoriga Singapur, Koreya Respublikasi, Tayvan, Braziliya, Meksika, Argentina kiradi. So'nggi yillarda ular qatoriga yana Tailand, Malayziya, Indoneziya, Filippin kabi davlatlar ham qo'shiladi. Bu mamlakatlarning iqtisodiyoti industrializatsiyaning yuqori sur'atlari, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

3.7. Dunyo mamlakatlari asosiy tiplarining qisqacha ta'rifi

Hududning kattaligi bo'yicha dunyoda maydoni 3 mln.kv.km. dan ortiq bo'lgan 7 davlat bo'lib, ular hissasiga yer yuzi quruqligining 1/2 qismi to'g'ri keladi. Ular quyidagilar (mln.kv.km.):

1. Rossiya Federatsiyasi-17,1;
2. Kanada-10;
3. Xitoy-9,6;
4. AQSh-9,4;
5. Braziliya-8,6;
6. Avstraliya-7,7;
7. Hindiston-3,3;

Bulardan tashqari birinchi o'nlikka Argentina (2,8 mln.kv.km), Qozog'iston (2,7 mln.kv.km.), Sudan (2,5 mln.kv.km.) kabi davlatlar ham kiradi.

Dunyoda maydoni eng kichik mamlakatlar quyidagilar:

1. Vatikan-0,0004 ming kv.km. (44 ga), aholisi-0,0008 mln.kishi (0,8 ming kishi);
2. Andorra-0,5 ming km.km., aholisi-0,05 mln.kishi;
3. Lixtenshteyn-0,2 ming kv.km., aholisi-0,2 mln.kishi;
4. Monako-0,001 ming kv.km., aholisi-0,025 mln.kishi;
5. San-Marino-0,06 ming kv.km., aholisi-0,0024 mln.kishi;
6. Lyuksemburg-2,6 ming kv.km., aholisi-0,372 mln.kishi;

Aholisining soni 100 mln.dan ko'p bo'lgan 10 ta mamlakat bo'lib, ularda dunyoning 3/5 mln. aholisi yashaydi. Bular quyidagilar:

1. Xitoy-1,2 mlrd.kishi;
2. Hindiston-885 mln.kishi;
3. AQSh-263 mln.kishi;
4. Indoneziya-190 mln.kishi;
5. Braziliya-160 mln.kishi;
6. Rossiya-148 mln.kishi;
7. Pokiston-125 mln.kishi;
8. Yaponiya-124 mln.kishi;
9. Bangladesh-122mln.kishi;
10. Nigeriya-120 mln.kishi;

Geografik o'rnining xususiyatlari ko'ra mamlakatlar dengiz bo'yli, yarimoro'l, oro'l, arxipelag va dengizga chiqish yo'li bo'lмаган davlatlarga bo'linadi. Bundan tashqari mamlakatlar siyosiy geografik o'rniga (SGO') ko'ra makro, mezo va mikro - o'rinn dunyo siyosiy xaritasidagi o'rni xususiyatlarini ko'rsatadi. U mamlakatning dunyoning eng muhim iqtisodiy markazlari, transport va savdo yo'llari, davlatlar integratsiya guruhlari, turistik (sayohat) oqimlariga nisbatan baholanadi. Shu sababdan geografik o'rinn iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega. Mamlakatning qulay SGO' va iqtisodiy geografik o'rniga (IGO') misol qilib "kvartira beruvchi va topshiruvchi", "vositachi" kichik mamlakatlarni ko'rsatish mumkin (Singapur, Bagam oro'llari). Ular o'zlarining qulay geografik o'rnidan samarali foydalanib, xalqaro geografik mehnat taqsimotida salmoqli o'rinni egalladilar. IGO' va SGO'ning ancha noqulayligiga misol qilib ochiq dengizga

chiqish yo'li bo'limgan mamlakatlarni ko'rsatish mumkin. Ularning soni 39ga yetdi: Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, O'zbekiston, Moldova, Botswana, Burkina-Faso, Burundi, Zambiya, Zimbabve, Lesoto, Malavi, Mali, Niger, Ruanda, Svazilend, Uganda, MAR, Chad, Efiopiya (Afrika), Andorra, Avstriya, Vengriya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Makedoniya, Chexiya, Slovakiya, Shveytsariya, Belorussiya (Yevropa), Afg'oniston, Butan, Laos, Mongoliya, Nepal, Ozarbayjon (Osiyo), Boliviya, Paragvay (Lotin Amerikasi).

O'zbekiston Respublikasining siyosiy-geografik o'rni xususiyatlari Prezident I.A.Karimovning quyidagi so'zlarida to'la o'z ifodasini topgan: "Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish nuqtai nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan qulay jo'g'rofiy-strategik maqega ega. Qadim zamonlarda Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'li O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu yerda savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir-birini boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin Sharqda Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar shu yerda kesishadi".

Mezo IGO' va SGO' - mamlakatning o'z regioni yoki sub regiondagi odatdag'i o'mnidir. Uni baholashda dastavval siyosiy, o'zaro munosabatlarni belgilab boradigan bevosita qo'shnichilikning tavsifi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga misol qilib bir tomondan yaxshi qo'shnichilik munosabatlariga ega bo'lgan GFR va Fransiya, AQSh, Kanada, Yaponiya va Koreya Respublikasi, Rossiya va Finlyandiya, boshqa tomondan "sovuz" qo'shnichilik munosabatlari mavjud bo'lgan Isroil va Arab mamlakatlari, Iraq va Quvayt, AQSh va Kuba, Armaniston va Ozarbayjoni ko'rsatish mumkin.

So'nggi yillarda o'zining siyosiy geografik o'rnining yangi imkoniyatlaridan, birinchi navbatda MDH mamlakatlariga nisbatan Turkiya, Eron, Pokiston, Afg'oniston keng miqyosda foydalandilar. Dunyo xaritasida yangi davlatlarning paydo bo'lishi – sobiq sovet respublikalari, O'zbekistonning mezo o'rnnini o'zgartirdi va mamlakatning shimoliy, sharqiy, g'arbiy chegaralarida Markaziy Osiyo subregioni, janubda Afg'oniston bilan chegaradoshlik mutlaqo yangi geosiyosiy vaziyatni yuzaga keltirdi.

Mamlakatning mikro-iqtisodiy geografik o'rni tushunchasi iqtisodiy siyosiy va harbiy strategik nuqtai nazaridan mamlakat chegaralari ayrim qismlarining chegara rayonlarining chegaradosh qo'shni mamlakatlar bilan tutashishi, aloqa qilishi munosabatining qulay yoki noqulayligini bildiradi. Shu nuqtai nazaridan O'zbekistonning barcha viloyatlari bir yoki bir nechta chet mamlakatlar bilan chegaradoshligi muhim ahamiyatga egadir.

Turon-Turkiston subregioni hamda qo'shni mamlakatlar (Markaziy Osiyo va Afg'oniston, Eron va boshqalar) ustida O'zbekiston g'oyat qulay iqtisodiy geografik va siyosiy geografik mavqega egadir. "Mintaqada, - deydi I.A.Karimov, - ijtimoiy iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakat, katta ma'naviy va madaniy kuch-qudratga ega bo'lgan O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi xalqa vazifasini o'taydi. O'zbekiston bilan faol hamkorlik qilish orqali butun Markaziy Osiyo mintaqasida manfaatli munosabatlar o'rnatish imkoniyati ochildi".

Hozirgi paytda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darjasini va xarakterini hisobga olib dunyo mamlakatlari quyidagi uchta eng katta tipga bo'linadi:

1. Iqtisodiy yuqori darajada rivojlangan davlatlar;
2. Rivojlanayotgan (kam rivojlangan) mamlakatlar;
3. Postsotsialistik (sotsialistik tuzumdan rivojlanishning bozor iqtisodiyoti yo'naliishiga o'tgan) va sotsialistik mamlakatlar.

So'nggi guruhgaga sobiq sotsialistik mamlakatlar (Polsha, Ruminiya, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Bolgariya, Albaniya, Yugoslaviya (YuSFR parchalanishidan keyin tashkil topgan barcha mamlakatlar), Mongoliya, Sobiq SSSR o'rniда tashkil topgan barcha mustaqil davlatlar, shuningdek, sotsialistik mamlakatlar (Xitoy, Vietnam, KXDR, Kuba) kiradi. Jahon sotsialistik xo'jalik tizimi barbod bo'lgandan keyin ularning ko'pchiligidagi iqtisodiyot bozor iqtisodiyoti yo'naliishida qayta qurilmoqda.

Ko'pchilik xalqaro tashkilotlarning rasmiy xujjatlarida postsotsialistik mamlakatlar va o'zlarini sotsialistik mamlakatlar deb hisoblovchi mamlakatlar alohida guruhgaga ajratilib kelinmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, ularning ayrimlari (masalan: Sobiq Yugoslaviya respublikalari, Vietnam, ba'zi O'rta Osiyo mamlakatlari) aholi jon boshiga kam daromad to'g'ri kelishini hisobga olgan holda rivojlanayotgan mamlakat maqomini olish istagini bildirmoqda. Chunki bu ularga xalqaro bank va fondlardan imtiyozli kredit va turli xil yordam olish huquqini beradi.

Rivojlangan mamlakatlarga eng avvalo AQSh va Kanada, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Avstraliya Ittifoqi, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika Respublikasi va Isroil kiradi. Ular bozor munosabatlari rivojinining yetukligi, xususan monopoliya va davlatni yagona mexanizm bilan birlashtirgan davlat monopolistik kapitalizmining etukligi, qudratli ilmiy texnika salohiyatining mavjudligi bilan g'oyat katta salmoqqa ega. Masalan, 1995 yilda dunyo ichki yalpi mahsulotida Yevropa Ittifoqi 21%, AQSh 24%, Yaponiya 10% (jami 55%) o'rinni olgan.

O'z navbatida rivojlangan mamlakatlar ichki farqlarga ko'ra to'rtta kichik tipga (guruhgaga) bo'linadi:

1. Asosiy kapitalistik mamlakatlar; AQSh, Yaponiya, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya;
2. G'arbiy Yevropaning uncha katta bo'limgan iqtisodiy yuqori darajada rivojlangan mamlakatlari: Shveytsariya, Avstriya, Belgiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Norvegiya, Daniya;
3. Kapitalistik munosabatlari "ko'chirib" keltirilgan mamlakatlar;
 - a) rivojlanishning o'rtacha darajasiga erishgan mamlakatlar: Irlandiya, Finlyandiya;
 - b) rivojlanishda orqada qolgan mamlakatlar (Yevropa mezonlari bo'yicha): Ispaniya, Gretsiya, Portugaliya;

Rivojlangan mamlakatlar dunyo siyosati va iqtisodiyotida tutgan o'rniغا ko'ra ikki katta guruhgaga bo'linadi:

1. Asosiy yettilik – AQSh, Yaponiya, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada. Ularning peshqadamligi (liderligi) dunyo siyosati va iqtisodiyotida muhim o'rinni tutishi, yuksak mehnat unumdarligi, fan va texnika rivojidagi muvaffaqiyatlari

bilan belgilanadi. Ular o'tmishda yirik mustamlakachi davlatlar bo'lib, mustamlakachilar hisobiga katta daromad manbaiga ega bo'lganliklari ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Rivojlangan mamlakatlarning qolganlari ikkinchi guruhni tashkil etadi (Avstriya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Shvetsiya va boshqalar). Ular ko'pincha "katta yettilik" mamlakatlarining iqtisodiy va siyosiy munosabatlarida bog'lovchi xalqa sifatida ishtirok etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari orasida yaqin vaqtlargacha rivojlanayotgan mamlakatlarga xos iqtisodiyotga ega bo'lgan yangi industrial mamlakatlar alohida o'rinni egallab keldilar (Singapur, Argentina, Koreya Respublikasi, Braziliya va boshqalar). Ular bozor munosabatlari rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan sezilarli yetuklik darajasiga ko'tarilgan. Ularda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning nisbatan yuqoriligi, mehnatning industrial shakllari tarqalganligi, iqtisodiyotning tarmoq tarkibining nisbatan rivojlanganligi, ishlab beruvchi sanoat mahsulotlari eksporti, ishchi kuchlarining arzonligi bilan ajralib turadi.

Odatda rivojlangan davlatlar qatoriga Sobiq SSSR respublikalari va sharqiy Yevropaning ayrim mamlakatlarini ham qo'shadilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlar (iqtisodi ham rivojlangan mamlakatlar) dunyo xaritasida eng ko'p tipli va sonli davlatlardir. Ular asosan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi, Okeaniyadagi sobiq mustamlakalar bo'lib, ularning mustamlaka o'tmishi va u bilan bog'liq qashshoqlik, moliya manbalarining yo'qligi bilan bog'liq ichki va tashqi qiyinchiliklar, siyosiy mustaqillik va iqtisodiy qaramlik, kapitalistik tovar xo'jaligini yuritish tajribasi yo'qligi, xo'jalikning kapitalizmga xos shakllarining saqlanib qolganligi, iqtisodiyotning agrar xom-ashyo tavsifi, malakali kadrlarning yetishmasligi, industrial rivojlangan mamlakatlarda g'oyat katta tashqi qarzdorlik (1 trln dollardan ko'proq) va boshqa xususiyatlar birlashtiradi. Mazkur vaziyatni fuqaro'lar urushi, etnik-milliy ziddiyatlar yanada chigallashtirmoqda. Xalqaro mehnat taqsimotida ular iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xom-ashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib beradi va shu sababdan mustahkam pozitsiyani egallamaydi. Shu bilan bir qatorda ularning barchasi aholining tez ko'payishi bilan bog'liq holda aholi ko'pchilik qismining ijtimoiy ahvoli yomonlashmoqda, mehnat resurslarining ortiqchaligi yaqqol namoyon bo'lmoqda, oziq-ovqat muammolari keskinlashmoqda.

Umumiy xususiyatlarning bo'lishi bilan bir qatorda bu guruh mamlakatlar (ularning soni 150ga yaqin) bir-birlaridan tubdan farq qiladilar. Shu sababdan ularning quyidagi kichik tiplarini ajratish mumkin:

1) Muhim davlatlar: Braziliya, Meksika, Hindiston, (ular rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida eng katta iqtisodiy potentsialga ega)

2) Kapitalizm nisbatan yetuk mamlakatlar. Ularning diapozoni (ko'lam chegaralari) katta bo'lib, Lotin Amerikasi davlatlaridan tortib to kapitalistik munosabatlar hukmronligi faqat so'nggi o'n yilliklarda o'rnatilgan arab mamlakatlarga qamrab oladi. Ular o'rtasida quyidagi kichik tiplar ajratiladi:

a) kapitalizmning qaram shaklining ilk rivojlanishi bilan bog'liq holda kapitalistik munosabatlar ko'chirib keltirilgan mamlakatlar: Argentina va Urugvay (xalqaro mehnat taqsimotida agrar davlat sifatida qatnashadilar);

b) asosiy tabiiy resurs konlarini chet el kapitali egallab olgan mamlakatlar: Chili, Eron, Iroq, Jazoir (yirik konlarni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq holda rivojlangan va bunda chet el kapitalining asosiy o'rinni egallashi va shiddatli yopirilishi kuzatilayotgan davlatlar);

v) kapitalizm tashqi iqtisodiy aloqaga moslashgan yo'nalishda rivojlangan mamlakatlar (iqtisodiyotning eksport orientatsiyasi va importning o'rni qoplanadigan iqtisodiyot): Boliviya, Kolumbiya, Paragvay, Peru, Ekvador (Lotin Amerikasi), Malayziya, Suriya, Tayvan, Tailand, Turkiya, Filippin, Koreya Respublikasi (Osiyo), Misr, Marooko, Tunis (Shimoliy Afrika);

g) qaram plantatsiya xo'jaligi unchalik katta bo'lмаган mamlakatlar (eksportda qishloq xo'jalik mahsulotlari yuqori salmog'i – konservatsiya tipidagi agrar ixtisoslashish): Nikaragua, Gvatemala, Kosta-Rika, Gonduras, Salvador, Dominika Respublikasi, Gaiti;

d) "kontsession rivojlangan" kapitalizmning kichik davlatlari (bu mamlakatlar iqtisodiyoti dunyo bozori baholariga bog'liq) bu esa plantatsiya hududlari rivojlanishning asosiy omilidir. Ularda eng katta – kon korporatsiyalarining kontsessiyalari hukmron (kondan foydalanish haqida davlat bilan ayrim kapitalist, firma o'rtasida tuzilgan shartnomaga asoslanib faoliyat ko'rsatuvchi korxona) Yamayka, Trinidad va Taboga, Papua-Yangi Gvineya, Gabon, Botsvana;

e) "Kvartira topshiruvchi" kichik mamlakatlar (savdo yo'llari, oro'llar yoki dengiz chorrahasida joylashgan mamlakatlar "soliq janati" mamlakatlari, "otel-mamlakatlari", "qulay bayroq" mamlakatlari: Malta, Kipr, Panama, Liberiya, Bagam, Baxreyn, ularning eng ko'p profillisi (ko'p qirralisi) Singapurdir.

3) Ozod (mustaqil) bo'lgan yosh davlatlar (mamlakatlarning o'tkinchi tipi. Ular kelajagini qanday bo'lishi aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq); bu guruhga 60ga yaqin mamlakatlar kiradi. Ular g'oyat xilma-xil, shu jumladan ularning tarkibiga eng yirik mamlakatlar – Indoneziya, Pokiston, Bangladesh, Nigeriyadan tortib to uncha katta bo'lмаган Gambiya, gabon, Baxreyn mamlakatlarigacha bor. Bu guruhda yuqori daromadga ega bo'lgan neft eksport qiluvchi mamlakatlar – Saudiya Arabiston, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Katar, Liviya, Bruney alohida o'rinni egallaydi.

Yuqorida berilgan tipologiyadan tashqari boshqalari ham mavjuddir. Bunda umumlashtiruvchi, sintetik ko'rsatkich sifatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YaIM) yoki yalpi milliy daromad ko'p qo'llaniladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra 1994 yilda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIM bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni Shveysariya egallagan (37930 dollar). Undan keyingi o'rindagi mamlakatlar quyidagilar: Yaponiya (34630), Daniya (27970), Norvegiya (26390), AQSh (25580), Germaniya (25580), Avstriya (24630), Shvetsiya (23530), Fransiya (23420), Belgiya (22870). Bular "boy mamlakatlar klubining birinchi yyetakchi davlatlaridir. Eng qashshoq mamlakatlarda bu ko'rsatkich quyidagicha: Ruvanda (80), Mozambik (90), Efiopiya (100), Vietnam (200), Bangladesh (220), Yaman (280), Mongoliya (300), Hindiston (320), Tojikiston (360), Pokiston (430) va boshqalar. Eng boy (Shvetsariya) va eng qashshoq (Ruanda) mamlakat o'rtasidagi farq 474 martaga teng.

Shunday qilib, dunyoning ko'p sonli mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda ularning tipologiyasi ko'rsatkichlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega va bu ilmiy-amaliy zarurat hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Aralash tartibdagi hududlar - quruqlik (kontinent), materik sayozlili (dengiz va okeanlarning 200 metr chuqurlikkacha bo'lgan shelfi) hamda iqtisodiy mintaqalar.

Xalqaro tartibdagi hududlar – davlat chegaralaridan tashqarida bo'lgan va xalqaro huquqqa binoan dunyoning barcha davlatlari umumiy foydalanadigan Yer sharidagi bo'sh makonlar.

Konstitutsion monarxiya – monarch ramziy “podsholik” qiladi, lekin davlatni boshqarmaydi. Real qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlamentga, ijroiya hokimiyati-xukumatga qaraydi.

Monarxiya tizimi – davlat hokimiyati monarchlar (qiro'l, knyaz, sulton, shoh, amir)ga qarashli bo'lib, hokimiyat meros orqali avloddan-avlodga o'tadi.

Mutlaq monarxiya – monarch hokimiyati cheklanmagan. Xukumat va boshqa hokimiyat organlari faqat monarch oldida ma'sul va javobgardir.

Respublika tuzumi – qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlamentga, ijroiya hokimiyati xukumatga tegishlidir.

Unitar davlat - ma'muriy hududiy birligiga ko'ra yagona qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyat, yagona davlat organlari tizimi, yagona konstitutsiya mavjud bo'lgan davlat.

Federativ davlat – yagona (federal) qonunlar va hokimiyat organlari bilan bir qatorda ikkinchi darajali bo'lsada, o'zlarining qonunlari va hokimiyat organlariga ega bo'lgan boshqa davlat tuzulmalari – respublikalar, shtatlar, provintsiyalar, viloyatlar, kantonlar, hududlar mavjud bo'lgan davlat.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar

1. Dunyo siyosiy xaritasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga ta'rif bering.
2. Siyosiy xaritaning shakllanishidagi asosiy bosqichlarni ta'riflang.
3. Dunyo mamlakatlari davlat tuzumiga ko'ra qanday guruhlarga ajratiladi?
4. Dunyo mamlakatlarining qanday tiplarini bilasiz? Ularni ta'riflang.
5. Monarxiya va respublika nima? Ularning qanday farqlari bor?
6. Unitar va federativ davlatlar deganda qanday davlatlar tushiniladi?
7. Dunyoning kuchli yettilik davlatlariga ta'rif bering.
8. Dunyoning hududiga ko'ra eng katta va eng kichik davlatlarni xaritadan ko'rsatib, ta'riflab bering.
9. Dunyodagi aholisi eng ko'p va eng kam davlatlarni xaritadan aniqlang va ta'riflab bering.
- 10.O'zbekistonning dunyo siyosiy xaritasidagi mavqeiga ta'rif bering.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
2. "Ekonomicheskaya geografiya zarubejnjix stran". Pod redaktsiey S.I.Ledovskix i M.S.Rozina. M.: "Vissaya shkola", 1992.
3. Maksakovskiy V.P. "Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira". T.: O'qituvchi, 1993.
4. Vitver I.A. "Ekonomicheskaya geografiya zarubejnjix stran". M.: 1996.
5. Strani mira. Entsiklopedicheskiy spravochnik. Minsk. Mirinda. Rodiolaplyus, 1999.

IV-bob. Jahon aholisi geografiyasি

4.1. Aholining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, uning ayrim tarixiy davrlardagi soni va dinamikasi.

Aholi soni va tarkibi uning bajaradigan vazifalari bilan bog'liq holda baholanadi. Aholi avvalambor o'zidan ko'payadigan, o'zini takror barpo qiladigan biosotsial organizmdir. Aholi shu bilan birga jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va iste'molchisidir. Ana shu nuqtai nazardan aholi soni, tarkibi, o'sish sur'atlari, joylashishiga xos xususiyatlarni tahlil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat tarixinining katta davri davomida, ya'ni neolit davridan eramizning XIX asrigacha aholi soni va tarkibi an'anaviy deb ataluvchi tip ta'sirida takror barpo etilardi. Unga juda yuqori darajadagi (har 1000 kishiga nisbatan tug'ilganlar soni 40-45 ni tashkil etdi) tug'ilish hamda yuqori darajadagi o'sish (30-35 promille) va past darajadagi tabiiy o'sish xos edi. Aholini takror barpo qilinishining ushbu tipi agrar iqtisodiyot va unga xos ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita aloqador edi. Bunda ko'p bolali oilani tashkil qilishga intilish, ayniqsa xo'jalik ishlarida otaga ko'mak beruvchi o'g'llar bolalarning mavjudligiga va sonining ko'p bo'lishiga katta e'tibor qaratilardi. Ota ona oilada 3-4 farzandga ega bo'lmoqchi bo'lsa, unda ayol kamida mazkur miqdordagi ikki uch marta ko'p bola tug'ishi lozim edi, chunki o'lim, ayniqsa go'daklar va bolalar o'limining nihoyatda yuqoriligi tug'ilgan bolalarning yarmidan ko'pini o'zi bilan olib ketardi.

Yer shari aholisining dinamikasi to'g'risida ma'lumotlar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Yer shari aholisining o'sishi

<i>Yilnom</i>	Davr	davrning davom etishi (yil)	davr boshida aholi soni (mln kishi)	aholi sonining o'rtacha yillik o'sishi (%)
Yeramizdan 7000 yil avval	Neolit	5000	10	
Yeramizdan 2000 yil avval	Antik davr	2000	50	0.03
0 (yangi era)	Yangi eraning boshlanishi o'rta asrlarning dastlabki davri	2000	230	0.1
1000 yil	o'rta asrlar	1000	305	0.02
1500 yil	o'rta asrning yakuniy davri	500	440	0.1
1650 yil	Yangi zamonning boshlanishi	150	550	0.3
1800 yil	Yangi zamon	150	952	0.5
1900 yil	Yangi zamonning yakuniy davri	100	1656	0.8
1950 yil	Eng yangi zamon	50	2527	1.0
1980 yil	yaqin o'tgan davr	30	4430	1.9
2000 yil	hozirgi davr	20	6024	1.5

Bir necha ming yillar mobaynida o'limning juda katta va aholi o'sishining past bo'lishligi o'zining ob'ektiv sabablariga egadir. Dastavval - bu moddiy va sanitargigienik shart-sharoitlarning qoniqarsiz ahvolda ekanligi, qolaversa, vaqtiga vaqt bilan takrorlanib turuvchi ocharchilik, o'lat, vabo va chechak epidemiyalari natijasida yuz minglab odamlarning qirilib ketishi. Yer sharida bunday ofatlar 200-400, 1600-1650 yillar ichida qayd etilgan bo'lib, o'sha davrlarda aholi soni umuman o'smadi, 1300-1400 yillar davomida qora o'lat epidemiyasining ta'sirida sayyora o'z aholisining 1/4 qismidan ajradi, uning soni keskin kamaydi. Aholi ko'rsatkichlariga oxiri ko'rinxmayotgan urushlar ham katta salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Urushlar XVIII asrda 5.2 mln kishining yostig'ini quritdi.

XIX asrgacha bo'lган davrda demografik jarayonlarda sezilarli sifat o'zgarishlari bo'lib o'tmadi. Undan keyingi davrda aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarida demografik o'tish jarayoni boshlandi. U oila bajaradigan vazifalarning keskin o'zgarishi, turmushning nisbatan yaxshilanishi, aholining yosh tarkibidagi siljishlar va boshqa omillar bilan bog'langandir.

Demograf olimlar demografik o'tish jarayonini to'rt ketma-ket keluvchi fazani o'z ichga olishini ilmiy asoslab bergenlar.

Birinchi faza uchun tug'ilishning yuqori darajada saqlanishi va o'limning keskin qisqarishi oqibatida vujudga keluvchi juda yuqori darajadagi tabiiy o'sish xosdir.

Ikkinci faza ko'p bolali oiladan kam bolali oilaga o'tish, o'limning qisqarishi, tug'ilishning esa undan ham ko'p miqiyosda kamayishi natijada tabiiy o'sishning pasayishi bilan ifodalanadi.

Uchinchi fazada avvalambor aholi ichida qariyalar soni va ulushining o'sishi hamda tug'ilishning asta-sekin pasayishi natijasida o'lim birmuncha ko'tariladi. Mazkur bosqichda aholi soni juda kam miqdor va sur'atlarda o'sadi yoki qisqaradi.

To'rtinchi fazada tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari tenglashadi, aholining umumiyl o'sishi barham topadi.

Demografik o'tish davri dastavval Yevropada XVIII asrda boshlandi. Shunda tabiiy o'sish 20-30 promillega teng bo'ldi buni haqiqatdan ham demografik inqilob deb atash mumkin. Chunki 10-20 yil oldin atigi 5-10 promillega teng bo'lgan tabiiy o'sish qisqa vaqt ichida 2-3 martaga oshdi. Ushbu jarayon Yevropada 100-150 yil davom etdi. Undan keyingi davrda Yevropa mamlakatlari demografik o'tishning ikkinchi fazasiga o'tdi. Hozir ushbu malakatlarning ko'pchiligi demografik o'tishning uchinchi fazasidadir. Binobarin, Germaniya, Avstriya, Belgiya, Italiya, Daniya, Vengriya, Niderlandiya aholini oddiy takror barpo etilishi ham ayrim yillarda ta'minlanmaganligi ya'ni o'lganlarning soni tug'ilgan bolalar sonidan ko'p bo'lmoqda.

Rivojlanayotgan malakatlarning ko'pchiligi demografik o'tish jarayonining birinchi fazasini o'tmoqdalar.

AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliya mamlakatlari ikkinchi fazani boshdan kechirmoqdalar. Xitoy kabi boshqa bir qator mamlakatlar ikkinchi fazaga o'tish arafasida turibdi. O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo mamlakatlarida birinchi fazadan ikkinchi fazaga o'tish uchun zamin tayyorlandi, bu jarayon yaqin 10-15 yil mobaynida boshlansa, ajab emas.

Jahon aholisi sonining tadrijiy o'sishida, so'nggi yarim asr davomida bo'lib o'tgan o'zgarishlar to'grisida ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

**Jahon aholisi soni, dinamikasi va uning ayrim hududlar
bo'yicha taqsimlanishi. (mln. kishi)**

Ko'rsatkichlar	1950	1960	1970	1980	1990	1995	1999 (1.07 ga)	2025 (basho-rat)
Jami shu jumladan:	2516	3019	3694	4433	5246	5702	5982	8054
Osiyo (Rossiyasiz) Shundan	1399	1702	2147	2623	3123	3451	3637	4923
G'arbiy Osiyo (Gruziya, Ozarbayjon, Armeniya)	50	66	86	112	145	168	186	303
Markaziy Osiyo (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston)	496	619	787	972	1215	1355	1451	2101
Janubi-Sharqiy Osiyo	182	226	288	356	439	485	520	722
Sharqiy Osiyo	671	791	986	1183	1324	1442	1481	1798
Rossiya	113	119	130	138	148	147	147	138
Yevropa (Rossiyasiz) shundan	436	487	527	556	578	581	582	580
Shimoliy Yevropa	78	82	87	89	91	94	95	99
G'arbiy Yevropa	133	154	166	173	180	181	183	188
Sharqiy Yevropa	116	133	146	155	162	162	159	150
Janubiy Yevropa	109	118	128	139	145	144	145	143
Afrika Shundan	224	280	361	481	645	720	771	1290
Shimoliy Afrika	52	65	83	109	140	162	170	249
G'arbiy Afrika	65	81	106	144	198	199	223	408
Sharqiy Afrika	63	80	106	142	196	226	235	387
Markaziy Afrika	27	33	40	52	69	83	94	188
Janubiy Afrika	17	21	26	33	42	50	49	57
Amerika	331	415	510	612	726	774	815	1083
Shimoliy Amerika	166	199	227	252	275	293	303	374
Markaziy Amerika	37	50	68	92	119	126	135	200
Janubiy Amerika	111	146	190	239	297	319	339	463
Karib dengizi hududlari	17	20	25	29	35	36	37	46
Avstraliya va Okeaniya (Gavayi oro'llarisiz)	13	16	19	23	26	28	30	41

AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliya mamlakatlari ikkinchi fazani boshdan kechirmoqdalar. Xitoy va bir qator boshqa mamlakatlar ushbu ikkinchi fazaga o'tish arfasida turibdi. O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo mamlakatlarida birinchi fazadan ikkinchi fazaga o'tish uchun zamin tayyorlandi, bu jarayon yaqin 10-15 yil mobaynida boshlansa, ajab emas.

Jahon aholisining so'nggi yarim asr davomida bo'lib o'tgan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan.

Jahon aholisi ana shu davr ichida 2.4 marta o'sdi. Bundan ham yuqori ko'rsatkich Osiyoga (2.6) va Afrikaga (3.6) xos bo'ldi. Mazkur ko'rsatkich Yevropada 1.4 martaga teng bo'ldi. So'nggi yillarda sayyora aholisining mutlaq soni o'rtacha 82-86 mln kishiga etmoqda. Aholi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sishi Afrikada, ayrim mintaqalarda esa Markaziy va Janubiy Osiyoda, Markaziy Amerikada kuzatilmoxda. Shu vaqtning o'zida Yevropaning ayrim mintaqalarida aholi soni juda past sur'atlar bilan o'smoqda yoki deyarli o'zgarmayapti yoxud qisqarmoqda.

4.2. Aholining tabiiy harakatiga xos umumiylari va regional jihatlar.

Aholi yer sharida so'nggi vaqtda yiliga 135-137 mln bola tug'ilmoqda, 53-55 mln kishi o'lmoqda. Tabiiy o'sish miqdori 82-84 mln kishini tashkil qilmoqda. Quyidagi 4-jadvalda dunyo va uning qit'alari, materiklari va ayrim regionlari bo'yicha aholining tabiiy harakatini ifodalovchi jarayonlarga xos ko'rsatkichlar keltirilgan. Jahonda tug'ilishning juda yuqori koeffitsentlari Afrikaga, regionlar ichida Afrikaning barcha regionlari hamda Markaziy Amerika va G'arbiy Osiyoga, juda past koeffitsentlari Shimoliy Amerika, Yevropa, Rossiya, Sharqiy Osiyo hamda Avstraliya va Okeaniyaga xosdir. O'lim koeffitsentining yuqori ko'rsatkichlari Afrika va Yevropada, Markaziy va Janubiy Osiyoda, Rossiyada kuzatilmoxda. Tabiiy o'sish koeffitsentlari Afrika, Markaziy Amerika, G'arbiy Osiyo hamda Markaziy va Janubiy Osiyoda yuqori ko'rsatkichlar bilan ifodalanmoqda. Ushbu ko'rsatkich Yevropada nolga (ya'ni tug'ilganlar va o'lganlar miqdori teng), Rossiyada esa minus 7ga teng bo'ldi. Rossiyada 1999 yilda depopulyatsiya jarayoni, ya'ni aholi mutloq sonining qisqarishi kuzatildi.

4-jadval.

**Tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish koeffitsientlari
(har 1000 aholiga nisbatan)**

	Tug'i-lish koef	o'lim koef	Tabiiy o'sish	go'daklar o'limi koef(har 4000 tug'. bolaga)	o'rtacha umr davri	
					erkaklar	ayollar
Butun jahon	24	9	15	62	64	68
Afrika	41	13	28	90	53	56
Amerika Shundan	22	7	15	34	69	74
Shimoliy Amerika	15	9	6	8	72	79
Markaziy Amerika	29	5	24	37	68	74
Janubiy Amerika	25	7	18	47	65	71
Karib dengizi	23	8	15	39	67	72
Osiyo shundan	24	8	16	62	64	67
G'arbiy Osiyo	31	7	24	51	65	69
Mar. va Jan. Osiyo	31	10	21	79	60	61
Jan-Sharq. Osiyo	26	8	18	53	62	66
Jan. Osiyo	17	6	11	40	68	72
Rossiya	9	16	-7	19	59	72
Yevropa	11	11	0	10	70	77
Avstralija va Okeaniya	19	8	11	24	71	74

Aholi soni va uning tarkibiga go'daklar o'limi ham juda katta ta'sir ko'rsatadi. Yer sharida 1999 yilda jami 7.8 mln bola bir yoshga yetmasdan o'lganligi qayd etildi. Shundan salkam 2.0 mln.i Hindistonga, 631 mingi Xitoya to'g'ri keladi. Pokiston, Bangladesh, Indoneziya, KXDR, Braziliya, Nigeriya, Efiopiya mamlakatlarida hozirgi vaqtida yiliga 200-500 ming bola bir yoshga yetmasdan o'lmoqda. Afg'oniston, Butan, Gvineya, Liberiya, Mozambik, Chad va boshqa jami 26 mamlakatda 100 dan yuqori, 42 mamlakatda 50 dan 100 promillegacha bo'lgan ko'rsatkich bilan aniqlanmoqda.

Bolalar o'limi mamlakatning iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyoti darajasi bilan teskari aloqaga ega. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bolalar o'limi koeffitsenti 4-8 promillega o'zgaradi. Ijtimoiy-siyosiy vaziyati beqaror, iqtisodiy qoloq bo'lgan

mamlakatlarda mazkur ko'rsatkich odatda 100 dan ortiq, ayrim hollarda 50dan ham yuqori darajaga egaligi bilan ajralib turadi.

Aholining turmush darajasi va u bilan uzviy bog'liq bo'lган tabiiy xarakati jarayonlari hamda shakllangan yosh tarkibi orqali uning o'rtacha umr davri aniqlanadi. Aholining o'rtacha umr davri 1999 yil 66 yoshga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda (Yaponiya, Shvetsiya, Shveytsariya jami 37 davlat) 77-81 yoshni, qoloq mamlakatlarda 42-60 yoshni tashkil etadi. O'rtacha umr davrining eng yuqori ko'rsatkichlari Yaponiyaga (81 yosh), Fransiyaga va yana 12 mamlakatga (78-79 yosh), eng past ko'rsatkichlari Markaziy Afrika Respublikasi (41 yosh), Afg'oniston (43yosh) va Gvineya (44yosh) mamlakatlariga xosdir.

O'zbekistonda o'rtacha umr erkaklarda 66 yoshga, ayollarda 72 yoshga, o'rtacha 69 yoshga teng. So'nggi ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston jahon mamlakatlari ichida 101-102 o'rnlarda joylashgan.

Tarixiy manbalar Qadimgi Rim va Qadimgi Yunonistonda o'rtacha umr davri atigi 25 yoshga teng bo'lganligini asoslaydi. O'rtacha umr bu ko'rsatkich taxminan 30 yoshgacha ko'tarildi. Mana shu o'rtacha ko'rsatkichlar umr davri yuqori bo'lgan insonlar mavjudligini inkor qilmaydi.

4.3. Aholining yosh-jinsiy tarkibi va mehnat resurslarining shakllanishi

Aholining yosh-jinsiy tarkibi unga xos belgilar ichida eng muhimmi hisoblanadi. Chunki yoshga qarab aholining jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati baholanadi.

Butun jahonda erkaklarning soni ayollarnikiga nisbatan qariyb 30 mln.ga ko'proqdir. Lekin ayrim materiklar, regionlarda erkaklar bilan ayollar soni o'rtasidagi farq sezilarli tusga ega. Bolalar yoshlarida barcha materiklar va regionlarda o'g'il bolalarning ustunligi ko'zga tashlanadi. Dunyoda 0-14 yoshda har ming qizga 1040 o'g'il bola to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich Yevropada (1060), Osiyoda(1050) hamda Avstraliya va Okeaniyada (1059) undan ham yuqori. Faqat Afrika (1008) va Amerika (1029)da nisbatan past daraja bilan ifodalanadi. Bolalar sonidagi farqning kelib chiqishida tug'ilgan har ming go'dakning 520tasi o'g'il bolalardan iborat bo'lishligi omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Aholining asosan mehnatga layoqatli yoshdagagi qismidan tashkil topgan 15-65 yoshida dunyo bo'yicha har ming ayolga 1020 ta erkak to'g'ri keladi. Yevropada erkaklar soni ayollar soniga teng, Osiyoda har ming ayolga 1049ta erkak, Avstraliya va Okeaniyada esa 1039 erkak to'g'ri keladi. Mazkur ko'rsatkich Afrika (979 erkak) va Amerika (990 erkak)da aksincha, ayollar ustunligi bilan ifodalanadi.

Yuqoridagi yosh guruhalarda erkaklar bilan ayollar o'rtasida mavjud bo'lgan farqlar juda ko'p omillar ta'sirida shakllangan. Bunda dunyo va region hamda mamlakat doirasidagi urushlar, erkaklar bilan ayollarning jamiyatda tutgan o'rni va ularning o'rtacha umr davridagi farqlar va boshqa omillarning ro'li juda kattadir. Xitoy, Hindiston va boshqa qator mamlakatlarda erkaklar sonining ustunligi ayollarning jamiyatda tutgan murakkab, ba'zi hollarda ayanchli o'rni hamda mazkur mamlakatlarda oilada o'g'il bolani ko'rishga bo'lgan juda katta intilish va ana shu maqsadga erishishda har qanday choraga, hatto endi tug'ilgan qizni o'ldirishgacha

borishga tayyorligi bilan bog'langan. Aholi jinsiy tarkibining shakllanishida jahonni ayrim regionlar va mamlakatlari miqiyosida bo'lib turuvchi migratsion aloqalarning ro'li ham kattadir. (Yevropa va Shimoliy Amerika emigrantlarni qabul qiluvchi, Osiyo va Afrika emigrantlarni yetkazib beruvchi hisoblanadi).

Jahon aholisining yosh tarkibi ham katta hududiy farqlarga ega. Bunda tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari dinamikasi hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan dunyo aholisining yosh tarkibiga xos hususiyatlar va nisbatlarni ko'rish mumkin.

5- jadval. Jahon aholisining yosh tarkibi (foizda).

Materiklar, o'it'alar	Yosh guruxlari								
	1970			1985			1999		
	0-14	15- 64	65+	0-14	15- 64	65+	0-14	15- 64	65 +
Yosh guruhlari									
Butun dunyo shu jumladan:	36,6	57,9	5,5	33,7	60,6	5,7	31,0	62, 0	7,0
Yevropa	24,9	63,7	11,4	20,9	66,7	12,4	18,0	67, 0	15, 0
Osiyo	38,9	57,0	4,1	35,0	60,6	4,4	32,0	62, 0	6,0
Afrika	44,1	53,0	2,9	45,4	51,5	3,1	43,0	54, 0	3,0
Amerika	36,4	57,2	6,4	31,6	61,2	7,2	29,0	63, 0	8,0
Avstraliya va Okeaniya	32,2	60,5	7,3	28,6	63,3	8,1	26,0	64, 0	10, 0

Jahon aholisining tarkibida bolalar ulushi kamayib, mehnatga layoqatli yoshdagi va keksa aholi salmog'i ko'paymoqda. Binobarin, 1970-1999 yillarda 0-14 yoshdagi bolalar ulushi 36,6 dan 31 foizgacha kamaydi, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi salmog'i 57,9 dan 62,0 foizga yetdi, keksa aholining ham salmog'i o'sib, 7,0 foizni tashkil etdi.

4.4 Jahon aholisining irqi, etnik va diniy tarkibi

Inson irqi- bu o'xshash, avloddan avlodga o'tuvchi tashqi (teri-gavda) belgilarga ega bo'lgan, tarixan shakllangan odamlar guruhidir. Hozirgi vaqtida uchta asosiy evropeoid (oq), negroid (qora) va mongoloid (sariq) irqlarga ajratish qabul qilingan. Ayrim hollarda to'rtinchli Ovstro'lloid irqi ham ajratiladi.

Katta irqlar tarqalgan hududlar o'rtasidagi chegaralar odatda aniq bo'lmasdan, bir-biriga kirishib ketgan. Aynan shunday hududlarda irqlarning aralash, o'tkinchi shakl va tiplari hosil bo'ladi.

Jahon aholisi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning har xil bosqichlarida turuvchi xalqlardan-etnoslardan iboratdir. Etnosning eng yuqori darajasi millat hududi, iqtisodiyoti va madaniyati, tilning barqaror tarzda umumiyligi bo'yicha ajralib turuvchi insonlar yig'indisidan iborat, ushbular asosida ularda millatga xos umumiy jihatlar, milliy o'zligini anglash hissiyoti shakllanadi.

Jahonda uch-to'rt ming xalq bo'lib, ularning ichida aholisining umumiy soni 100 dan, hatto o'ntadan oshmaydigan mayda elatlardan (Hindistonda toda, Braziliyada botokuda va b.) soni 10 mln va 100 mlndan ziyod bo'lgan yirik millatlar mavjuddir. Shular qatoriga xitoylar, yaponlar, braziliyaliklar, AQSh amerikaliklari, russlar, hindistonliklar, bengallar, panjobliklar, bixarlar, livanliklar, nemislar va boshqalar kiradi.

Milliy tarkibi xilma-xil bo'lgan Osiyoda dunyoda soni eng ko'p bo'lgan xalqlar yashaydi. Osiyoda mutloq soni 1 mln dan ortiq 110 ga yaqin xalq bo'lib, ularning umumiy miqdori qit'a aholisining 98 foizini tashkil etadi. Osiyo mamlakatlarining aksariyati ko'p millatlidir. 150 dan ortiq xalq Hindiston va Indoneziyada, deyarli 100-Filippinda, 50 dan ortiq V'etnam va Xitoyda, 30 dan ortiq xalq Eron, Afg'oniston, M'yanma, Tailandda istiqomat qiladi. Aholining etnik rang-barangligi ba'zi-bir xalqlar tarqalgan hududlarning davlat chegaralari bilan bo'linishi tufayli yana ham kuchaydi. Masalan, kurdlar Turkiya, Eron, Iraq va qisman Suriya, belujlar Eron, Afg'aniston va Pokiston, panjobliklar Pokiston va Hindiston davlatlari chegaralaridagi hududlarda kompakt xolda yashaydi. Janubi-Sharqiy Osiyodagi ko'pchilik mamlakatlarda Xitoy va Janubiy Osiyodan kelgan emigrantlarning katta guruhlari shakllangan. Millat, xalq va elatlarning ana shunday hududiy tarqalganligi va joylashganligi natijasida ayrim mamlakatlarda etnik munosabatlar murakkab tusga ega. Ba'zi mamlakatlarda esa bunday holat etnik nizolar, majaro'larga olib kelmoqda, siyosiy vaziyatning yomonlashuviga sabab bo'lmoqda (Yaqin Sharq mintaqasi, Turkiya, Rossiya, Xitoy, Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Ruanda, Burundi va boshqalar).

Jahon mamlakatlari aholisining milliy tarkibi va etnik munosabatlarning xususiyatiga ko'ra qator guruhlarga ajratish mumkin:

Birinchi guruhga bir millatli, ya'ni asosiy millati jami aholisining 95%dan ortiq qismini tashkil etuvchi mamlakatlar bularga Yevropada Islandiya, Irlandiya, Norvegiya, Daniya, Polsha, Germaniya va boshqalar, Osiyoda Yaponiya, KXDR, Koreya Respublikasi, Bangladesh, Mongoliya, Armeniya, Yaman, Oman, Katar va boshqalar, Afrikada Misr, Liviya, Somali, Madagaskar, Janubiy Afrikadagi deyarli barcha mamlakatlar kiradi.

Ikkinci guruhni ushbu ko'rsatgich 70-95%ga teng bo'lgan mamlakatlar Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Finlandiya, Ruminija, Jazoir, Marokko, Zimbabve, Mavritaniya, Botswana, Xitoy, Vietnam, Kambodja, Myanma, Turkiya, Suriya, Iraq, Shri-Lanka, Singapur, AQSh, Avstriya, Yangi Zellandiya va boshqalar tashkil etadi. Shular qatoriga O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Ozarbayjon davlatlari ham kiradi.

Uchinchi guruh mammalakatlarida (Eron, Afg'oniston, Gruziya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Pokiston, Malayziya, Laos, Markaziy Sharqiy va Janubiy Afrika mamlakatlari va boshqalar) asosiy millat ulushi jami aholining yarmidan kam yoki ortiq biroq 70 %dan past ko'rsatgich bilan ifodalanadi.

To'rtinchi guruhda aholisi bir nechta yirik millatlarga ega lekin ulardan birortasining ulushi sezilarli bo'limgan mamlakatlar to'plangan (Hindiston, Indoneziya, Filippin, Rossiya, Shveytsariya, G'arbiy Afrika mamlakatlari va boshqalar).

Ma'lumki XX asrning so'ngi chorak asri davomida etnik tarkibi murakkab bo'lgan mamlakatlarda millatlararo munosabatlar murakkablashdi, xar hil mojarolar va ziddiyatlar vujudga keldi. Shularning barchasi har xil tarixiy va ijtimoiy-siyosiy sabablarga ega. Binobarin Yevropaliklar tomonidan bosib olinib, keyinchalik mustaqillika erishgan mamlakatlarda tub va mahalliy millat vakillarini kamsitish xollari uchrab turadi (Shimol xalqlari, Avstraliya, Amerika, Avstraliya va Okeaniya aborigenlari). Ziddiyatlarning ikkinchi manbai bu kam sonli millatlarning o'ziga xos tili va madaniyatini mensimaslik, kamsitish (Buyuk Britaniyada shotlandlar va uelsliklar, Ispaniyada basklar, Fransiyada korsikaliklar, Kanadada frankokadaliklar va boshqalar). Milliy va diniy asosga ega bo'lgan mojaralar uzoq yillardan beri Hindiston, Shri-Lanka, Indoneziya, Efiopiya, Nigeriya, KXDR, Sudan, Somali, Malayziya, Xitoy va boshqalarda davom etmoqda. Diniy va hududiy manbadagi milliy ixtiloflar yarim asrdan ortiq vaqt davomida Yaqin Sharqdagi vaziyatni belgilab bermoqda. Bu yerda bir tomondan Isroil ikkinchi tomondan Misr, Livan, Suriya hamda Jordaniya o'rtafigi ziddiyatlarning oxiri ko'rinxaydi. To'g'ri, 2001 yilning dastlabki davrida Isroil bilan Suriya o'rtafiga muzokalarining tashkil qilinganligi bu dunyo miqyosidagi katta ijobiy siljishdir.

Ma'lumki, din jamiyat hayotida, turmushida juda katta ro'1 o'ynaydi. Bunda davlatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, aholining ta'limiy darajasi katta ahamiyat kasb etmaydi. Aholining diniy tarkibini bilish va uni to'g'ri baholash dunyoda bo'lib o'tayotgan miqyosli voqeа va hodisalarining ko'pchiliginи to'g'ri tushinish va anglashga imkon beradi. Quyidagi 6-jadvalda dunyoda asosiy dinlar tarqalgan davlat va mintaqalar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

6-jadval

Dinlar geografiyasining assosiy ko'rsatkichlari.

Din	E'tiqod qiluvchi larning soni (mln.k)	Tarqalgan mintaqalari va mamlakatlari
Xristianlik Shu jumladan	1259 dan ortio'	Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Avstriya, Belgiya, Irlandiya, Polsha, Litva, Ukraina, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya, Xorvatiya, AO'Sh, Kanada, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Filippin, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Kipr, Koreya, Yaponiya, Xitoy
Katoliklik	800	Shimoliy Yevropa mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Shveytsariya, Latviya, Estoniya, AQSh, Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Koreya, Yaponiya, Xitoy
Protestantlik	350	Shimoliy Yevropa mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Shveytsariya, Latviya, Estoniya, AQSh, Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Koreya, Yaponiya, Xitoy
Pravoslavlik	100	Rossiya, Ukraina, Belorus, Moldova, Gruziya, Bolgariya, Ruminiya, Serbiya va Chernogoriya Federatsiyasi, Gretsiya, Kipr
Islom Shu jumladan	1000 dan ortio'	Albaniya, Bosniya va Gersogovina, Makedoniya, Rossiya, O'ozo Yoiston, Jzbekiston, O'ir Yoiziston, Tojikiston, Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlari (Eron, Ozarbayjondan tasho'ari), Shimoliy, G'arbiy va Sharo'iy Afrika mamlakatlari, Pokiston, Afyoniston, Bangladesh, Malayziya, Indoneziya, Hindiston, Xitoy, Filippin
Shialik	100 ga yao'in	Eron, Ozarbayjon, Iroq, Yaman
Buddizm va lamaizm	400 dan ortio'	Xitoy, Mo'g'iliston, Yaponiya, Myanma, Tailand, Vietnam, Kambodja, Laos, Malayziya, Shri-Lanka, Koreya, Rossiya
Induizm	520	Hindiston, Nepal, Shri-Lanka
Konfutsiachilik	180	Xitoy
Sintoizm	70	Yaponiya
Maxalliy an'anaviy dinlar		G'arbiy, Markaziy, Sharqiy, Janubiy Afrika mamlakatlari, Janubiy Amerika, Okeaniya, Indoneziya

Yevropada xristianlik dinining barcha shakllari keng tarqalgan. Katoliklik asosan qit'a janubida, qisman g'arbi va markazida, Protestantlik shimolida, qisman

g'arbi va markazida, pravoslavlik sharqi va janubi-shraqida. Sobiq ittifoq mamlakatlarida pravoslavlik va islom dinlari keng tarqalgan. Provoslavlikka rus, belorus va ukrainlarning bir qismi, osetiyaliklar, chuvashlar, mordva, morilar, komilar, udmurtlar, yoqtular, shimol xalqlarining bir qismi sig'inadi. Islom Astraxan tatarlari, Qozon tatarlari, Shimoliy Kavkaz xalqlari, boshqirdlar, Sibir tatarlari orasida keng tarqalgan.

Osiyoda barcha dunyoviy dinlar va yirik milliy dinlar keng tarqalgan. Ayniqsa islom dini katta ro'l o'ynaydi. Islomning sunniylik yo'nalishi Indoneziya (dunyoda eng yirik musulmon mamlakati), Malayziya, Hindiston, Bangladesh, Pokiston, Afg'oniston, Janubi-g'arbiy Osiyodagi barcha arab mamlakatlarida asosiy o'rinnegallaydi. Islomning shialik yo'nalishi Eron, Ozarbayjon, qisman Iroq va Yamanda asosiy din sifatida tan olingan. Islom diniga e'tiqod qiluvchilarning katta-katta guruhlari Filippin, Kambodja, Tailand, Myanma, Kipr, Shri-Lanka mamlakatlarida mavjud.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida buddizm va lamaizm keng tarqalgan. Induizmga Hindiston va Nepal aholisining ko'pchiligi e'tiqod qiladi. Konfutsiyachilik va daosizm dinlari Xitoyning asosiy dinlari hisoblanadi. Sintoizm Yaponiyada mavjud. Xristianlik dini Osiyoda unchalik tarqalmagan. Filippin, Armeniya va Kiprda bu asosiy din. Livanda 40% aholi, Hindistonda 5-6 mln, Suriya, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Indoneziya, Malayziya va boshqa mamlakatlarda ham xristian diniga e'tiqod qiluvchilarning ancha miqdori mavjud.

Afrikaning shimoli, g'arbi va sharqida joylashgan ko'pchilik mamalakatlarda islomning sunniylik yo'nalishi hukmron. Efiopiya, JAR va boshqa qator mamlakatlarda xristian dini muhim ro'l o'ynaydi. Markaziy va Janubiy Afrikada aholining asosiy qismi mahalliy an'anaviy dinlarga e'tiqod qiladi.

Shimoliy Amerikada xristianlikning ikki shakli katolik va protestantlik xukumron. AQShda protestantlar, Kanadada katoliklar ko'proq. Markaziy Amerikada aholining aksariyati katolik diniga e'tiqod qiladi. Xuddi shunday Janubiy Amerikada ham katolik dini hukmronlik qiladi. Umuman olganda, Amerika qit'asiga barcha katoliklarning yarimidan ko'pi to'g'ri keladi. Amerikada islom diniga e'tiqod qiluvchilar AQSh aholisining hamda Karib dengizi havzasidagi ba'zi bir orollar aholisining ichida mavjud.

Avstraliya va Okeaniyada protestantlik va katoliklik keng tarqalgan. Keyingi yillarda xalqaro munosabat, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va mafkurada islom dinining o'rni kengaymoqda va ahamiyati oshmoqda.

4.5. Aholining ta'limi darajasi

Keyingi vaqtarda geografiya va demografiyada aholining soni bilan bir navbatda uning sifatiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Aholi sifati uning ta'limi darajasi kasbiy va ijtimoiy tarkibi, sog'lig'i va boshqa belgilar orqali baholanadi. Bunda ta'limi daraja aholi sifatining eng muhim ko'rsatgichi hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda savodxonlik va savodsizlik to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

7-jadval.

Jahonda savodsizlarning soni va savodsizlik darajasi.

Mintaqa va mamlakatlar	Katta yoshdagi savodsizlarning soni, mln. kishi	Savodsizlik darajasi, foiz
Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar	42	4,4
Rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan:	920,6	35,1
Afrikaning Saxroi Kabirdan janub tomonda joylashgan hududlari	138,8	52,7
Arab mamlakatlari	61,1	48,7
Lotin Amerikasi	43,5	15,2
Sharqiy Osiyo	281,0	24,0
Janubiy Osiyo	397,3	53,8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turganidek iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga katta yoshdagi barcha savodsiz kishilarning taxminan 4%, rivojlanayotgan mamlakatlarga esa 96,0% to'g'ri keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlik darajasi katta hududiy farqlarga ega. Bu o'rinda Markaziy, G'arbiy, Sharqiy hamda Janubiy Afrika, Arab, Lotin Amerikasi, Sharqiy va Janubiy Osiyo mamlakatlari alohida o'rin egallaydi. Mazkur va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlarning ulushi erkaklar o'rtasida 25%ga teng bo'lsa, ayollar o'rtasida qarib 45%ni tashkil etadi.

Jahonda katta yoshdagi aholining savodsizlik darajasining yuqoriligi bo'yicha qator mamlakatlar ajralib turadi. Masalan Butan davlatida savodsizlik darajasi erkaklar o'rtasida 93%ga, ayollar o'rtasida 95%ga, Afg'anistonda tegishli ravishda 93 va 95%ga, Somalida 82 va 94%ga, Tropik Afrika regionidagi Burkina-Faso, Senegal, Mavritaniya, Gambiya, Niger, Chad, Mali mamlakatlarida 75 va 90%ga teng bundan ham yuqori ko'rsatgichlar Nepal va Gaitiga xosdir.

Savodsizlarning mutloq soni bo'yicha dunyoda Hindiston (281 mln.), Xitoy (224 mln.), Pokiston (43 mln.), Bangladesh (42 mln.), Nigeriya (29 mln.), Misr (16.5 mln.), Braziliya (16 mln.), Eron (14 mln.), Sudan (10 mln.) mamlakatlari peshqadamlilik qiladi. Hindistonda katta yoshdagi aholining savodsizlik darajasi 52%ni, Xitoyda 27%ni tashkil etadi.

4.6. Aholining hududiy joylashishi.

Yer yuzasida aholi juda notekis joylashgan. Aholining o'rtacha zichligi (1 kv.kmga to'g'ri kelgan aholi miqdori) doimiy aholisi mavjud hududlar (130 mln. kv.km) doirasida 46 kishini tashkil qildi.

8-jadval.

Ayrim qit'alar, materiklar va regionlar bo'yicha aholining o'rtacha zichligi.

Mintaqa va regionlar	1950	1990	1995	1999	2025
Butun jahon shu jumladan	19,4	40,3	43,8	46,0	63,8
Yevropa	74,4	97,0	101,9	102,5	103,5
Osiyo	45,1	100,7	111,3	116,3	159,3
Afrika	7,6	21,8	24,3	27,5	51,0
Shimoliy Amerika	11,0	21,4	22,8	23,8	31,0
Janubiy Amerika	6,4	17,1	18,3	19,6	26,4
Avstraliya va Okeaniya	1,5	3,1	3,3	3,7	4,6

Shu vaqtning o'zida ushbu ko'rsatgich Osiyoda 116.3 va Yevropada 102.5 kishini tashkil etsa, Afrikada 27.5, Shimoliy Amerikada 23.8, Janubiy Amerikada 19.6 hamda Avstraliya va Okeaniyada atigi 3.7 kishiga teng. Umumlashtirib aytganda yer quruqlik yuzasining atigi 7%da unda mavjud aholining 70%i istiqomat qiladi.

Aholi nihoyatda zich joylashgan mintaqalar qatoriga Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo, Yevropa hamda AQShning shimoli-sharqiy qismi, «Bosvash» megopolisi kiradi. Dastlabki uchta mintaqada aholi qadimdan joylashgan bo'lib, u hozirgi vaqtida juda yuqori darajadagi aholi zichligiga ega. Bunday holat avvalambor bu yerda mehnatni juda ko'p talab qiluvchi sholichilikning qadimdan mavjudligi, qolganlarda esa XVIII-XIX asrlarda yuz bergen sanoat inqilobi hamda undan keyingi davrda amalga oshgan industirlashtirish jarayoni bilan uzviy bog'langandir. Insonlarning qadimdan okean va dengiz sohillarida joylashishga intilishi ham muhim omillardan biridir. Hozirgi vaqtida dengiz va okeanlardan quruqlikka tomon 200 kmga cho'zilgan yer yuzasi qismida insoniyatning yarmidan ziyod qismi 50 km kenglikka ega bo'lgan quruqlik qismida esa dunyo aholisining deyarli 30 %i to'plangandir. Dunyo bo'yicha aholi juda zich joylashgan hududlar qatoriga quyidagilar kiradi: Rur, Elzas va Lotaringiya hamda Parij va London rayonlari, Shimoliy Italiya, Moskva rayoni, Donbass, Farg'ona vodiysi, Sharqiy Xitoy, Hind-Gang tekisligi, Yava oro'li, Yaponiya orllari, Nil deltasi, AQShning Shimoli-Sharqiy, Buyuk ko'llar rayonlari va Sansan megopolisi.

Aholi siyrak tarqalgan hududlar yer quruqlik yuzasining ancha katta qismini egallaydi. Shular qatoriga birinchi navbatda ekstremal tabiiy sharoitlarga ega bo'lgan geografik ob'ektlar-cho'llar, tropik o'rmonlar, baland tog'lar, tundra, muzlik hududlari va boshqalar kiradi.

Yer quruqlik yuzasining 15%i umuman o'zlashtirilmagan va doimiy aholisi yo'q hududlar hisoblanadi. Ayrim mamlakatlar ichida aholi zichligining juda yuqori ko'rsatkichlari Singapur (5 ming kishiga yaqin), Bangladesh (ming kishiga yaqin), Niderlandiya (460), Koreya Respublikasi (454), Livan, Belgiya, Yaponiya va boshqalarga (200 kishidan ortiq jami 40 mamlakat), juda past ko'rsatkichlar Rossiya,

Kanada, Avstraliya, Mavritaniya, Liviya, Namibiya va boshqalarga xos. Aholi joylashishidagi juda katta hududiy farqlar mavjud mamlakatlar qatoriga Rossiya, Kanada, Xitoy, Braziliya, Misr, Turkmaniston, Tojikiston, Indoneziya kiradi.

9-jadval.
Yer shari aholisining vertikal mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi.

Qit'alar, materiklar regionlar	Dengiz sathidan balandligi					Aholi is tiqomat qiladi gan hud udning o'rtacha baland-ligi, metr	Hud ud ning o'rta cha bala nd ligi, metr
	200 metr- gacha	200 dan 500 metr- gacha	500 dan 1000 metr- gacha	1000 dan 2000 metr- gacha	2000 metr- dan yuqori		
	Jami aholining taqsimlanishi, foiz						
Yevropa	69	24	7	-	-	170	300
Osiyo	56	24	12	7	1	320	950
Afrika	32	24	21	21	2	590	750
Shimoliy Amerika	47	33	8	8	4	430	700
Janubiy Amerika	42	15	23	9	11	645	580
Avstraliya va Okeaniya	73	18	8	1	-	95	350
Quruqlik yuzasi (Antarktida va Grenlandiy adan tashqari)	56	24	12	7	1	320	725

Jahon aholisi vertikal mintaqalar bo'yicha ham notekis taqsimlangan. Aholining yarmidan ortiq qismi (56%), mutloq balandligi 200 metrgacha bo'lган tekistlik va pastekistliklarda istiqomat qiladi. Salkam chorak qismi (24 %) 200-500 metr balandlikka ega tekistlik va qirlarga to'g'ri keladi. Demak, Yer shari aholisining 80%i mutlaq balandligi 500 metrgacha bo'lган hududlarda joylashgan. Shu vaqtning o'zida 2000 metrdan baland hududlarga Yer shari jami aholisining atigi 1% to'g'ri keladi (9-jadval). Umuman olganda aholi soni va ulushi balandlik oshgan sari kamayib boradi. Lekin bu qonuniyat Janubiy Amerikada o'z ifodasini topmaydi. Bundan tashqari Osiyo qit'asi bilan jami quruqlik yuzasiga xos bo'lган

ko'rsatkichlar bir hil miqdorlar xosligi bilan ajralib turishligini ta'kidlab o'tish lozim.

4.7. Aholi migratsiyasi va urbanizatsiya jarayoni

Migratsiya jarayoni aholi hududiy harakatining asosiy turi bo'lib, u inson bilan tabiat o'rtasida aloqadorlik vujudga kelgandan buyon shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Aholi migartsiyasi ayniqsa Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab keng miqyosda amalga oshmoqda.

Migartsiya tashqi va ichki migratsiyaga taqsimlanadi. Mamlakatlar aholisining soni va tarkibiga bo'ladijan ta'siri nuqtai nazaridan tashqi migratsiyalarning ahamiyati beqiyosdir. Tashqi migratsiya katta hajmga ega mamlakatlarda uning aholi soni va tarkibiga bo'lgan ta'siri sezilarli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan, AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa qator mamlakatlar tarixida migratsiya saldosining ahamiyati tabiiy o'sish jumladan ustun bo'lgan ayrim davrlar kuzatilganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Hozirigi vaqtda ham mazkur mamlakatlarda migratsiya savdosi aholi soni o'sishida muhim omil bo'lib hisoblanmoqda. Isroi davlatida esa migratsiya saldosi aholi soni o'sishining deyarli 2/3 qismini ta'minlamoqda.

Yuqoridagi mamlakatlar aholining ko'chib kelishi bo'yicha yetakchi hisoblansa, qator boshqa mamlakatlar, chunonchi Irlandiya aholining ko'chib ketishi bo'yicha dunyoda mashhur bo'lib qolgan. Irlandiya XIX-XX asrlarda aholining katta miqdorda ko'chib ketishi bo'yicha uch davrni boshidan kechirgan. Ushbu davrlar 1840-1900 yillarda qayd etilgan bo'lib, unda mamlakat aholisining mutloq soni 8,2 mln.dan 4,5 mln. kishiga tushib qoldi.

Tashqi migratsiyalar o'zlarining xususiyatlari, sabablari, hududiy qamrovi, davom etish davri bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Migratsiya xususiyatlari to'g'risida so'z yuritganda, avvalambor xoxishiga ko'ra va majburiy migratsiyalar nazarda tutiladi. Majburiy migratsiyalarga XVI-XIX asrlar davomida necha o'n millionlab negr qullarning Afrikadan Amerikaga zo'r lab olib ketilishi misol bo'lishi mumkin.

Tashqi migratsiyalar asosan iqtisodiy sabab bilan bog'langan. Bunda yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida hamda ishchi kuchini shartnomalar bo'yicha boshqa mamlakatlarga yuborish bilan bog'liq migratsiyalar katta ro'l o'ynaganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Birinchi turdag'i tashqi migratsiyalarda katta miqdorda aholining ko'chib ketishi Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Fransiya, Skandinaviya mamlakatlari, Irlandiya, Polsha, Rossiya mamlakatlariga, ko'chib kelishi AQSh, Kanada, Braziliya, Argentina, Urugvay, Chili, Avstraliya, Janubiy Afrika Respublikasiga xos bo'lgan. Ikkinci turdag'i tashqi migratsiyalarda dastlabki davrlarda Xitoy va Hindistonlik ishchilar asosiy ro'lni o'ynaganligini ta'kidlab o'tish kerak. Shularning katta jamoalari Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida barpo etilgan. Hozirigi vaqtda Shimoliy Afrika, Janubi-G'arbiy Osiyo, Janubiy Yevropa ishchi kuchining katta miqdorining G'arbiy Yevropa va qisman Shimoliy Yevropa mamlakatlarida shartnomalar ham ikkinchi turdag'i tashqi migratsiyalarga misol bo'lishi mumkin. Chunki shunday migrantlarning soni §arbiy Yevropa

mamlakatlarida 12-13 mln., dunyo bo'yicha esa 25 mln. kishini tashkil etadi. (AQSh, Avstraliya, JAR, Fors ko'rfazi mamlakatlari). Mazkur migrantlarning ichida yirik olimlar va mutaxassislar bo'lib, ularning soni salkam 1 mln. kishini tashkil etadi.

Siyosiy sabablar ham tashqi migratsiyalarga katta ta'sir ko'rsatadi. Siyosiy migratsiya iqtisodiy va siyosiy vaziyati beqaror, inson huquqlari poymol etilayotgan mamlakatlarga xos bo'lган va hozir ham xos bo'lmoqda (Germaniya, Ispaniya, Italiya, Rossiya, SSSR, Kuba, V'etnam, Kambodja va boshqa qator mamlakatlar).

Hududiy qamrovga qarab materiklarga va materik ichidagi migratsiyalarini ajratish qabul qilingan. Hozirgi vaqtida ikkinchi turdag'i migratsiyalar asosiy ahamiyat kasb etmoqda.

Davom etishi bo'yicha doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy migratsiya turlari mavjud. Sharhnomalar asosida amalga oshirilayotgan migratsiyalar vaqtinchalik migratsiyalar deb ataladi. Bir-ikki oy yoki undan ortiq vaqt davomida dam olish, davolanish yoki boshqa mavsumiy turdag'i mehnat faoliyati bilan bog'liq migratsiyalar mavsumiy migratsiyalar deb ataladi. Doimiy migratsiyalar uy-joyi va ish joyining tamomila o'zgarishi bilan bog'liq aholi ko'chishlari bilan bog'liq bo'lib, u migratsiyalar ichida asosiy o'rinni egallaydi.

Jahonda 80-yillarning oxiri va 90-yillarda bo'lib o'tgan siyosiy-ma'muriy o'zgarishlar halqaro migartsiyalar hajmining keskin kengayib ketishiga, hamda Sharqiy Yevropa, Sobiq SSSR va boshqa regionlarda aholini hududiy qayta taqsimlanishiga sabab bo'ldi. Jumladan, O'rta Osiyo va Qozog'iston mamlakatlarida hozirgi vaqtida o'zaro davlatlararo migratsion aloqalar asosiy ro'l o'yamoqda.

Keyingi yillarda aholi migratsiyasi bilan bevosita yoki bilvosita bog'langan qochqinlar sonining keskin ko'payishi hammani tashvishga solmoqda. Qochqinlarning katta miqdordagi va ichki oqimlari Afg'oniston, Hindiston, Shri-Lanka, Iroq, Kipr, Sobiq Ittifoq Respublikalari, ayniqsa Rossiya, Efiopiya, Somali, Ruanda, Burundi, KXDR, Kongo Respublikasi, Sverre-Leone, Kolumbiya, Ekvador, Peru mamlakatlaridagi beqaror iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Sobiq Yugoslaviyaning besh davlatga parchalanib ketishi va u bilan bog'liq bo'lган harbiy harakatlar 2,5 mln.dan ortiq kishining qochqinlar qatoriga qo'shilishiga sabab bo'ldi. Qochqinlar oqimi yildan-yilga ko'paymoqda, uning kelib chiqishida avvalambor siyosiy beqarorlik, undan keyin millatlararo nizolar, ocharchilik, hududiy tortishuvular asosiy ro'l o'yamoqda. Shularning aksariyat qismi rivojlanayotgan mamlakatlarni iqtisodiy qoloqlikdan chiqib, rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishi muammozi bilan bog'liq.

Tashqi va ichki migratsiyalar bilan urbanizatsiya jarayoni uzviy bog'liq. Urbanizatsiyaning geografik mohiyatini quyidagi misollarda ifodalash mumkin. Urbanizatsiyalashgan hududlar Yer quruqlik yuzasining 1 foizdan sal ortiq qismini egallagani holda, bu yerda jahon aholisining 45 foizdan ziyod qismi istiqomat qiladi, yalpi ichki mahsulning 80 foizi ishlab chiqariladi, shu vaqtning o'zida atmosfera va gidrosferaga chiqarilayotgan zaxarlik chiqindi va gazlarning 80 foizi ham ushbu hududga to'g'ri keladi.

Urbanizatsiya jarayoni shaharlar soni va shahar aholisining miqdori va ulushining o'sishini, shaharlar bilan bog'liq murakkab tarmoqlar va tizimlarning shakllanishi va rivojlanishini anglatadi.

Demak, urbanizatsiya kishilik hayotida shaharlar ahamiyatining beqiyos oshishini, jamiyatni aholining mehnat xususiyati, turmush tarzi va madaniyati, ishlab chiqarishni joylashishi bo'yicha shaharlashishini o'zida aks ettiruvchi tarixiy jarayondir. Urbanizatsiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Zamonaviy urbanizatsiya umumjahon jarayoni sifatida ko'pchilik mamlakatlarga xos bo'lgan uchta umumiyl jihatlar bilan ifodalananadi.

Shulardan birinchi jihat – shahar aholisining, ayniqsa kam rivojlangan mamlakatlarda yuqori sur'atlar bilan o'sishi.

Jahonda 1900 yilda mavjud jami aholining salkam 14 foizi shaharlarda yashagan, bu ko'satkich 1950 yilda 29 foizni, 1990 yilda - 45, 2000 yilda esa 51 foizni tashkil etdi.

Ikkinchi jihat – aholi va xo'jalikning asosan katta shaharlarda to'planganligi bilan bog'liq. Bunday xolat avvalambor ishlab chiqarishning xususiyati, uni ilm-fan, ta'lim tizimi bilan bo'lgan aloqadorligining murakkablashuvi bilan bog'langanligi. Ma'lumki, katta shaharlar insonlarning ma'naviy va madaniy talablarini to'laroq qondiradi, xilma-xil tovarlar va xizmatlar bilan yaxshiroq ta'minlandi, mavjud axborot manbalariga yo'l ochib beradi. Jahonda XX asr boshida (aholisining soni 100 mingdan ortiq) 360 ta katta shaharlar mavjud bo'lib, shularga jami aholining atigi 5 foizi to'g'ri kelgan, bunday shaharlarning miqdori 90-yillarning boshida 2,5 mingni tashkil etdi, 2000 yilda esa 3,5 mindan o'tib ketdi, ularga tegishli tarzda jami aholining 1/3 va 2/5 qismi to'g'ri keldi.

Katta shaharlar ichida aholisining soni 1 mlndan ortiq bo'lgan yirik va juda yirik shaharlarni alohida ajratish qabul qilingan. Shunday shaharlarning soni XX asr boshida 10 ga teng bo'lgan 80-yillarning boshida 200 dan, 2000 yilda esa 400 dan oshib ketdi. Mazkur shaharlar ichida "supershahar"lar (aholisining soni 5 mln.dan ziyod) miqdori 90-yillarda 30 ni, 2000 yilda esa 60 ni tashkil etdi. Hozirgi vaqtida ushbu shaharlarda salkam 0,5 mldr. kishi, yoki Yer shari aholisining 8 foizdan ortiq qismi istiqomat qilmoqda.

Uchinchi jihat – shaharlar hududining keskin kengayib, yoyilib ketishi bilan bog'langan. Zamonaviy urbanizatsiya jarayoni uchun ayrim shaharlar va shaharchalardan shaharlar bilan qishloqlarni o'zida qamrab olgan shaharlar aglomeratsiyalarga, megapolislarga o'tish, ayniqsa xos bo'lmoqda. Shaharlar aglomeratsiyalarining o'zagi vazifasini odatda poytaxtlar, boshqa muhim sanoat markazlari va yirik dengiz portlari bajarmoqda.

Juda yirik shaharlar aglomeratsiyalari Mexiko, Tokio, San-Paulu, Nyu-York shaharlari atrofida shakllangan, shularning har birida 16 mln.dan 30 mln.gacha kishi istiqomat qiladi.

Hozirgi vaqtida ikki va undan ortiq aglomeratsiyalar hududining qo'shilib ketishi natijasida urbanizatsiyalashgan rayonlar va zonalar, eng muhimmi megopolislari vujudga kelmoqda. Shular ichida Takaydo, Bosvash Sansan, ChPITS megopolislari alohida o'rinn egallaydi.

Urbanizatsiya jarayoni umumiyligi xususiyatlardan tashqari ayrim regionlar va mamlakatlar miqiyosida o'ziga xos xususiyatlar bilan ham ifodalanadi. Shular ichida urbanizatsiya darajasi va sur'atlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Urbanizatsiya darajasi bo'yicha jahondagi barcha mamlakatlarni uch guruhg'a bo'lish mumkin.

1. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 50%dan yuqori).

2. O'rtacha darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 20%-50%).

3. Past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 20%dan kam).

Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar qatoriga Yevropaning barcha davlatlari, Avstraliya, Yangi Zelandiya hamda Shimoliy va Janubiy Amerikaning ko'pchilik mamlakatlari kiradi.

O'rtacha darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlarning asosiy qismi Janubiy, G'arbiy, Markaziy va Janubiy, Janubi-Sharqiy Osiyo regionlari hamda Afrikada joylashgan.

Past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlarning ham ko'pchiligi Afrika va Osiyoda mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Hozirgi vaqtida urbanizatsiya darajasi rivojlangan mamlakatlarda 7%ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda 37%ni tashkil etadi, dunyo bo'yicha bu ko'rsatkich 51%ga teng.

Urbanizatsiya jarayonining o'sish sur'atlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik hamda urbanizatsiyalashganlik darajasiga bog'liq holda o'zgaradi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda shahar aholisining ulushi 75-90%ga, ya'ni yuqori darajaga etganligi tufayli, urbanizatsiyalashish sur'atlari ancha pasaygan, ayrim hollarda yirik shaharlardagi aholi soni kamaymoqda. Shunga qaramasdan urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy rivojlangan davlatlarda taraqqiy etishda davom etib yangi -yangi shakllarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiyalashish jarayoni shahar aholisining nisbatan past ulushiga egaligi tufayli, har tomonlama va hamma yo'nalishlarda rivojlanmoqda. Lekin mazkur mamlakatlarda urbanizatsiya jarayoning sifat ko'rsatkichlariga mutanosib emas. Shahar aholisi ko'p hollarda qishloqlarda "ortiqcha" bo'lib qolgan aholi hisobiga o'smoqda. Qashshoq qishloq aholisining katta qismi yirik va katta shaharlarning hududlarida joylashib, "kulbasimon urbanizatsiyaning" tarqalishiga sabab bo'lmoqdalar. Shunday urbanizatsiyaning shakllari Mexiko, Lima, Manila, Pnompen, Dakka, Kalkutta, Bombey, Kinshasa va boshqa poytaxt shaharlar atrofida keng tarqalgan. Umuman urbanizatsiya jarayoni rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqarib bo'lmaydigan holda taraqqiy etmoqda hamda demografik iqtisodiy va ekologik muammolarning chuqurlashishiga sabab bo'lmoqda. Atrof muhitning ifloslanishi umumiyligi hajmining 3/4 qismi urbanizatsiya jarayoni bilan aloqadordir. Bu ajablanarli voqealari emas, chunki shahar va shaharchalar yer quruqlik yuzasining atigi 1%ni ishg'ol qilgani holda, ularga dunyo aholisining yarmidan ortiq qismi va ishlab chiqarishning salohiyatining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda atrof

muhitni muxofaza qilish bo'yicha tadbirlar hayotga tadbiq etilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa moddiy mablag'larning yetarli emasligi mazkur muammolarni to'la-to'kis hal etishga imkon bermayapti.

Shahar aholisining soni va ulushi tez o'sayotganligiga qaramasdan jahon aholisining yarmiga yaqini qishloq aholi manzilgohlarida yashamoqda. Ularning umumiy soni 15-20 mln. ni tashkil etadi.

Qishloq aholisi asosan guruhashgan va alohida joylashgan qishloqlar bo'yicha taqsimlanadi. Bunda tarixiy va tabiiy shart-sharoitlardan tashqari iqtisodiy omillarning ahamiyati katta bo'lganligini aytib o'tish lozimdir. Aholi taqsimlanishining guruhashgan shakllari dehqonchilik, ayniqsa haydaladigan va sug'oriladigan dehqonchilik rivojlangan region va mamlakatlarga xosdir. Alohida joylashgan qishloqlar (fermalar) chorvachilik intensiv rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Braziliya, Argentina) keng tarqalgan. Aholi joylashishining aralash shakllari ham mavjud, yaylov chorvachiligi rivojlangan hududlarning ko'pchiligidagi esa doimiy aholi manzilgohlari umuman barpo qilinmagan.

Asosiy tayanch tushunchalar

Aholi - o'zining hayotiy faoliyatini ma'lum ijtimoiy va hududiy jamoalar doirasida amalga oshirayotgan insonlar guruhidir.

Aholi migratsiyasi – lotinchadan (migratio) ko'chish, ko'chirish ma'nosini anglatadi. Turar joyining o'zgarishi bilan yakunlanadigan aholining hududiy harakati.

Irqlar – bu insonlarning tarixan shakllangan o'xhash, avloddan avlodga o'tuvchi tashqi (teri-gavda) belgilari bo'yicha ayrim guruhlaridir.

Millat – insonlarning tarixan shakllangan umumjamoa guruhlari. Millatga hayot moddiy sharoitlari va hududning umumiyligi, til va milliy harakter birligi xosdir.

Urbanizatsiya – shaharlar va shahar aholisining soni hamda ulushining ko'payishi bilan bog'langan ijtimoiy-iqtisodiy va geografik jarayon. Uning rivojlanishi avvalambor sanoatlashish sur'atlari va darajasi bilan belgilanadi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Aholining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini yoritib bering.
2. Jahon aholisining soni milodgacha bo'lgan davrda qanday ko'paygan?
3. Jahon aholisining soni eramizning XX asrigacha bo'lgan davrda qanday ko'paygan?
4. Yeramizning XX asrida aholi soni va dinamikasiga ta'sir qilgan voqeahodisalar hamda omillarni baholang.
5. Aholini tabiiy takror barpo bo'lishining to'rt tipiga xos xususiyatlar to'g'risida so'zlab bering.
6. Aholini dunyoning turli regionlari va mamlakatlarida tabiiy takror barpo bo'lishiga xos farqlar hamda shuning asosiy sabablari to'g'risida so'zlab bering.
7. "Demografik protlash" tushunchasining mazmuni, uning asosiy omillari, sabablari va markazlari to'g'risida so'zlab bering.
8. Aholi migratsiyasi nima? Uning turlari, ahamiyati, geografiyasi to'g'risida so'zlab bering.
9. Aholi tarkibi deganda nimani tushunasiz?
10. Jahon aholisining joylashishiga xos umumiyligi xususiyatlar to'g'risida so'zlab bering. Urbanizatsiya jarayoni, uni sanoatlashish jarayoni bilan aloqadorligini misollar bilan asoslang.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1995. – 139-152, 246-267 betlar.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari., T.: O'zbekiston, 1997. – 3-136, 137-150, 211-278 betlar.
3. Doklad o chelovecheskom razvitiu. Uzbekistan – 1997 g. T.: 1999.
4. Nabiev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. T.: Akademiya, 2000. – 88 bet.
5. Naselenie i obshchestvo. Informatsionnoy bulleten tsentra demografii i ekologii cheloveka instituta narodnoozyaystvennogo prognozirovaniya RAN, avgust 1999, № 33.
6. Shtempel D. Naselenie mira 2000 god. M.: Misl, 1988. – 206 s.
7. Carl Haub et Diana Cornelius, 1999 World Population Data Sheet, Population Reference Bureau, 1875 Connecticut Avenue, NW, Suite 520, Washington, DC, 20009-5728 USA.

V-bob. Jahon xo'jaligi va sanoati

5.1. Jahon xo'jaligining umumiy xususiyatlari va rivojlanishi jihatlari

Jahon xo'jaligining shakllanishi jarayoni amalda kishilik jamiyatining jami tarixini o'z ichiga oladi, chunki jahon xo'jaligi ishlab chiqarish kuchlarining ming yillar davomidagi evolyutsiyasining natijasidir. Shu nuqtai nazardan jahon xo'jaligi tarixiy kategoriyadir. Jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlar bilan ifodalanuvchi ayrim bosqichlarga taqsimlash mumkin. Birinchi va eng uzoq davrni o'z ichiga olgan jahon xo'jaligi belgilari, xususiyatlari shakllana boshlagan bosqich buyuk geografik kashfiyotlar davrigacha davom etgan. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida xalqaro savdo Yevropa va Osiyodan keyin Yer sharining boshqa regionlari va qit'alarini ham qamrab oldi. Qit'alar, regionlar o'rtasida mahsulotlarni ayirboshlash jahon bozorini vujudga keltirdi. Ushbu bozor transport, ayniqsa, dengiz transporti rivojlanishi munosabati bilan yana ham kengaydi, chunki dengiz transporti barcha materiklarni birlashtirishga imkon berdi. Jahon xo'jaligi XX asr arafasida to'la-to'kis shakllanib bo'lди, hamda ushbu asrning birinchi yarmida uning rivojlanishi ayrim hududlarni qamrab olish hisobiga amalga oshdi. XX asrning ikkinchi yarmida esa jahon xo'jaligining rivojlanishi asosan tarkibining takomillashtirilishini ta'minladi.

Jahon xo'jaligi iqtisodiy kategoriyadir. Chunki uning to'g'risidagi tushuncha ijtimoiy mehnat taqsimoti tushunchasi, xo'jalik aloqalarining baynalminalashi hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyalanishi bilan aloqadordir.

Jahon xo'jaligi geografik kategoriyadir, chunki uni geografik nuqtai nazardan kam deganda uch daraja miqyosida tadqiq etish nazarda tutiladi:

- 1) jahon xo'jaligining umumiy geografiyasi;
- 2) uning tarmoqlari geografiyasi;
- 3) yirik regionlar va subregionlar geografiyasi.

Jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishida xalqaro geografik mehnat taqsimotining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Geografik mehnat taqsimoti – bu ijtimoiy mehnat taqsimotining hududiy shaklidir. Geografik mehnat taqsimoti miqyosiga ko'ra hududiy va xalqaro mehnat taqsimotiga bo'linadi. Geografik mehnat taqsimotining asosida tabiiy va sotsial-iqtisodiy omillar yotadi. Xalqaro geografik mehnat taqsimoti ayrim tarixiy davrlarda har xil ko'rsatkichlar va xususiyatlar bilan ifodalanadi. Geografik mehnat taqsimotining asosiy natijalari qatorida mehant unumdorligining o'sishi, iqtisodiy rayonlarning shakllanishi va ixtisoslashuvi alohida o'r'in egallaydi. Geografik mehnat taqsimoti iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tushunchasidir. Xalqaro geografik mehnat taqsimoti jahon xo'jaligining harakatlantiruvchi kuchi va negizidir.

U yoki bu mamlakat paxta, choy, bug'doy, arpa yoki sholi yetishtirishi mumkin. Bu mamlakatlarda yetishtiriladigan dehqonchilik ekinlarining xilma-xil ekanligini ko'rsatadi, lekin uning xalqaro geografik mehnat taqsimotida ishtirok etishini ifodalamaydi. Mamlakatlarning xalqaro geografik mehnat taqsimotida ishtirok etishini ular bir-biriga "ishlaganda", ya'ni bir mamlakatning mahsuloti boshqa mamlakat tomonidan olingan taqdirda ta'minlash mumkin. Ushbu

jarayonning tashqi ifodasini jahon savdosining rivojlanishi, eksport-import aloqalarining o'sishi ko'rsatadi.

Xalqaro geografik mehnat taqsimoti tovarning bahosi u sotiladigan joyda ishlab chiqariladigan joydagiga nisbatan yuqori bo'lgan paytdagina amalga oshishi mumkin, bunda tovari tashish uchun sarflangan transport harajatlari, tovari ishlab chiqarish va sotish harajatlari o'rtasidagi tafovutni "yeb tashlamasligi" shart, aks holda tovar sotuvchi kasod bo'ladi. Geografik mehnat taqsimoti – tovar ishlab chiqarish va ayrboshlash bilan bog'liq bo'lgan kishilik jamiyati rivojlanishining natijasidir.

Xalqaro geografik mehnat taqsimoti ayrim mamlakatlarning ma'lum turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishiga hamda ular bilan keyinchalik ayrboshlashga ixtisoslashuvni anglatadi.

Geografik mehnat taqsimotining eng muhim natiasi-bu xalqaro ixtisoslashuv tarmog'idir. Ayrim mamlakatlarning ma'lum turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashuvi ushbularni o'zining ichki ehtiyojlaridan ortiqcha miqdorda ishlab chiqarishni taqozo etadi. Shuning oqibatida xalqaro ixtisoslashuv tarmoqlari, ya'ni eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi hamda mamlakatning halqaro geografik mehnat taqsimotidagi o'rnni aniqlab beruvchi tarmoqlar shakllanadi.

Xalqaro ixtisoslashuv xalqaro miqyosda tovarlar va xizmatlar bilan ayrboshlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbu ayrboshlash xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida, eksport-import hajmining o'sishida hamda tovar ishlab chiqarilgan joy bilan u iste'mol qilingan joy o'rtasida doimo ma'lum miqdorda hududiy farqning mavjudligida o'z ifodasini topadi.

AQSh va Yaponiya o'zлari ishlab chiqargan avtomobilarning yarmidan ortiq qismini eksport qiladi. Avtomobil sanoati shu mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashgan tarmog'idir. Kanada don etishtirish bo'yicha dunyoda beshinch-o'ltinchi o'rirlarni egallagani holda uni eksport qilishda AQShdan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Donchilik Kanadaning xalqaro ixtisoslashgan tarmog'idir.

Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmida keng miqyosda temir yo'llarining barpo qilinishi va suv transportining ildam sur'atlar bilan rivojlanishi quruqliklar va materiklarni bog'ladi hamda jahon savdosi va xo'jaligini shakllanishini ta'minladi. Lekin, jahon xo'jaligining rivojlanishida asosiy ro'lni XVIII-XIX asrlarda g'arbiy Yevropa va AQShda barpo etilgan yirik mashinalashgan sanoat o'ynadi. Demak, jahon xo'jaligi XIX asr oxiri va XX asr boshida yirik mashinalashgan sanaot, transport va jahon bozorining taraqqiyoti natijasida vujudga keldi.

Jahon xo'jaligi - bu bir-biri bilan butun jahon iqtisodiy munosabatlari orqali boqlangan dunyodagi barcha mamlakatlar milliy xo'jaliklarining majmuidir.

Jahon xo'jaligining geografik "modeli" kundan-kunga murakkablashib bormoqda. XIX asrning oxirigacha barcha ko'rsatkichlari bo'yicha bir markaz – Yevropa yaqqol ko'zga tashlanar edi. Undan keyin ikkinchi jahon markazi – AQSh vujudga keldi va yetakchi ro'lni o'ynay boshladi.

Ikkinci jahon urushigacha bo'lgan davrda jahon xo'jaligining yangi markazlari – sobiq SSSR va Yaponiya vujudga keldi. Undan keyingi yillarda Xitoy

va Hindiston, Kanada, Avstraliya va Braziliya, Janubi-g'arbiy Osiyoning neft qazib oluvchi mamlakatlari singari yangi iqtisodiy markazlar shakllana boshladi. So'nggi chorak asrda jahon xo'jaligida "To'rt Osiyo yo'lbarslari" – Koreya Respublikasi, Tayvand², Gonkong³ va Singapur sahnaga chiqdi. Shu hududiy o'zgarishlar natijasida Osiyo-Tinch okeani mintaqasining jahon xo'jaligidagi salmog'i yana ham oshdi, ahamiyati kuchaydi. Jahon xo'jaligining hozirgi vaqtdagi geografik modeli ko'p markazli xususiyatga egadir. u bir markazlidan ikki markazliga (Yevropa, AQSh), keyinchalik ko'p markazli xo'jalikka aylandi. Hozirgi vaqtida jahon xo'jaligi tarkibida o'nta eng muhim markazlarni ajratish mumkin. Shularning ichida Yevropa va Shimoliy Amerika (AQSh, Kanada) eng katta iqtisodiy quvvatga ega. Birinchi markazga butun jahon miqyosida ishlab chiqarilgan yalpi milliy mahsulotning (YaMM) 32,5%i, ikkinchi markazga 27,7%i to'g'ri keladi. Undan keyingi o'rnlarni Yaponiya (15,3%), Xitoy, Janubi-Sharqiy Osiyo, Braziliya, Janubi-g'arbiy Osiyo (Fors ko'rfazi sohilidagi mamlakatlar), Rossiya, Avstraliya va Hindiston egallaydi.

Dunyo xo'jalining geografik modelini hosil qiluvchi yuqoridaq mintaqalar va mamlakatlar bilan bir navbatda boshqa yirik uyushmalarni ajratish mumkin. Shular qatorida "katta ettilik" mamlakatlarida dunyo hududining 15,5%i, aholisining 11,8%i jamlagani holda YaMMning salkam 2/3 qismi ishlab chiqariladi. Osiyo - Tinch okeani mintaqasiga YaMMning juda katta salmog'i (55%) to'g'ri kelmasa ham, uning avtomobillar, dengiz kemalari, televizorlar, qora va rangli metallar, organik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 50-75%ni tashkil etadi. Jahon xo'jaligi va xalqaro geografik mehnat taqsimoti dunyo barcha mamlakatlarini qamrab olib, hozirgi vaqtida murakkablashish va chuqurlashish yo'nalishida rivojlanmoqda. Xalqaro ixtisoslashuv va tovar ayirboshlashning chuqurlashishi dunyodagi qator mamlakatlar milliy xo'jaliklarining bir-biriga bo'lган ta'siri va aks ta'sirining kuchayishiga, o'zaro hamkorlik doirasida umumiy reja asosida faoliyat ko'rsatishga olib keldi. Ana shuning natijasida xalqaro geografik mehnat taqsimotining yangi, eng oliy darajasi – xalqaro iqtisodiy integratsiya vujudga keldi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya- bu ayrim mamlakatlar guruhlariining ular tomonidan kelishilgan davlatlararo siyosatni o'tkazishga asoslangan juda chuqur va barqaror o'zaro aloqalarni rivojlanishining ob'ektiv jarayonidir. Xalqaro iqtisodiy integratsiya FTI davrida xo'jalik faoliyatini baynalmallashishining yorqin ifodasıdir. Xalqaro iqtisodiy integratsiya XX asrning ikkinchi yarmida butun jahon xo'jalik aloqalari rivojlanishining asosiy va eng muhim yo'nalishi bo'lib qoldi. Hozirgi vaqtida jahon xo'jaligining poydevori yirik integratsiyalashgan iqtisodiy bloklardan tashkil topgan. Shulardan eng asosiyлари G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada vujudga keldi. Shuning uchun ham integratsiyalashgan guruhlarning dastlab ikkitasi – Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YeIH) hamda Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi (YeESA)ni Yevropada barpo qilinganligi bejiz emas. Lekin ularning taraqqiyot yo'li har xil bo'ldi.

² Tayvan – rasmiy maqomi yo'q mamlakatdir.

³ Gonkong – 1997 yil 1 iyul kuni XXR tarkibiga uning Syangan provintsiyasi bo'lib qo'shildi

YeIHni barpo etish haqidagi shartnoma 1957 yil Rim shahrida imzolandi va u 1958 yilda kuchga kirdi. Dastlab uning tarkibi 6 mamlakat – GFR, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Belgiya va Lyuksemburgdan iborat bo'ldi. Unga 1973 yilda Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, 1981 yilda Gretsiya va 1986 yilda Ispaniya hamda Portugaliya qabul qilindi. Nisbatan qisqa vaqt ichida YeIH (yoki "umumiyoq bozor") katta ijobjiy natijalarga erishdi. Sanoat mahsulotining hajmi bo'yicha YeIH AQShga deyarli etib oldi, tovarlar va xizmatlar eksporti, oltin va valyuta zaxirasi bo'yicha esa boshqa barcha mamlakatlar va mintaqalardan o'tib ketdi.

YeIHga a'zo mamlakatlar 1986 yilda yagona Yevropa aktini qabul qildilar. Unda 1957 yilda "umumiyoq bozor"ni barpo qilish to'g'risidagi Rim shartnomasining asosiy talablari yana bir bor qo'llab quvvatlandi, hamda 12 mamlakatni yagona bozorga o'tishi bo'yicha yo'l belgilandi. Keyinchalik YeIH Yevropa hamjamiyati, 1991 yilning dekabr oyidan boshlab esa Yevropa Ittifoqi (YeI) deb atala boshladi.

YeESA 1959 yilda Buyuk Britaniya tashabbusi bo'yicha YeIHga qaramaqarshi tashkilot sifatida tuzildi. Dastlab unga Avstriya, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya va Shveytsariya, keyinchalik Islandiya va Finlandiya qabul qilindi. Lekin, 1973 yilda mazkur tashkilot tarkibini Buyuk Britaniya va Daniya, 1986 yilda esa Portugaliya tark etdi. Shunga qaramasdan, uning tarkibidagi mamlakatlar savdo aloqalarini rivojlantirishda davom etdilar. YeESAda YeIHdan farqli o'laroq davlatlarning suveren huquqlari saqlanadi.

Xuddi shu yili Maastrix shahrida (Niderlandiya) "Yevropa o'n ikkiligi" siyosiy va valyuta – moliya ittifoqi to'g'risida shartnomalar qabul qildi. Ikkinci shartnomaga binoan 1998 yilning 1 yanvar kunida ittifoqning barcha mamlakatlarida yagona valyuta – EKYU muomalaga kiritildi. Hozirgi vaqtida EKYU bilan AQSh dollari quvvati o'rtaida deyarli katta farq kuzatilyapti. 1995 yil Avstriya, Shvetsiya va Finlandiya YeI a'zolari bo'ldilar. Hozirgi vaqtida YeI tarkibiga Sharqiy Yevropaning qator mamlaktalari (Polsha, Vengriya, Chexiya va boshqlar) qabul qilindi. G'arbiy yarim sharda AQSh dastlab (1989 y) va Kanada keyinchalik (1992 y) Meksika a'zoligida erkin savdo haqidagi Shimoliy Amerika kelishuvi (NAFTA) faoliyat ko'rsatmoqda. NAFTA mamlakatlari yagona valyuta barpo qilish tashqi siyosiy hamda xavfsizlik siyosatini o'tkazish bo'yicha maslahatlashganlar. Lekin, NAFTA YaMM hajmi bo'yicha EI va boshqa tashkilotlardan ustun turadi. Yuqorida nomi keltirilgan tashkilotlardan tashqari Yevropada "iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti" 1961 yildan beri faoliyat ko'rsatib kelmoqda (a'zolari – AQSh, Kanada, G'arbiy Yevropaning ko'pchilik mamlakatlari, Yaponiya, Finlandiya, Avstraliya va Yangi Zelandiya). Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) rivojlanayotgan mamlakatlar asosida tuzilgan hamda integratsiya xususiyatlari chuqur ildiz otgan tashkilot hisoblanadi. Uning tarkibi Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tayland, Fillipin va Bruney mamlakatlaridan iborat. Ushbu tashkilotning yaqin kelajakda asosiy maqsadi erkin savdo zonasini tashkil qilishdan iboratdir. Shunga o'xshash integratsiyalashtirilgan guruh bo'lib, 1980-1981 yillarda Janubiy Amerikaning o'n bir mamlakati ishtirokida tuzilgan Lotin Amerikasining integratsiyalashtirishi assotsiatsiyasi (LAAI) hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – umumiyoq bozorni tashkil qilishdan iboratdir. LAAI tarkibida ikki subregion: And mamlakatlari va La-Plata mamlakatlari guruhlari rasman barpo etildi.

Avstraliyaning tashabbusi bilan 1989 yilda Osiyo - Tinch okeani regioni o'zida o'n ikki mamlakatni to'plagan "Osiyo - Tinch okeanining iqtisodiy kengashi" integratsiya tashkiloti tuziladi. Uning tarkibiga AQSh, Kanada, Yaponiya, Avstraliya bilan bir navbatda ASEAN a'zolari hamda Koreya Respubliksi va Meksika kiradi.

Yuqorida qayd etilgan mintaqaviy tashkilotlar bilan bir qatorda jahon xo'jaligida juda ko'p tarmoqli iqtisodiy guruhlar mavjud. Shularning ichida o'n uchta mamlaktni o'zida jamlagan "Neftni eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti" (OPYK) eng muhim integratsiya guruhi hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining keyingi vaqtida uch: 1) agrar; 2) industrial; 3) postindustrial tiplari mavjudligi haqida tasavvur shakllangan. Dunyoda sanoat taraqqiyoti yuz bergan XVIII-XIX asrlargacha bo'lgan davrda iqtisodiyotning agrar tipi xukmron edi. Keyinchalik sanoat tipining ahamiyati osha bordi va bu jarayon bugun ham davom etayapti. Shu bilan birga dunyo miqyosida iqtisodiy faol aholining salkam yarmi qishloq xo'jaligida band ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Rivojlanayotgan mamlakatlarda band bo'lgan aholining deyarli 60%i qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi, qoloq mamlakatlarda undan ham yuqori.

Hozirgi vaqtida Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlarida hamda Yaponiyada sanoat va qurilish tarmoqlariga jami band aholining 30-38 %i to'g'ri keladi. Germaniya va Shvetsariyada bu ko'rsatkich 40-43 % ga teng.

FTI kengayishi va chuqurlashishi natijasida dunyodagi ko'pchilik, asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning yangi postindustrial tipi shakllana boshladi. Bunday tipda noishlab chiqarish tarmoqlari, ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasi tez rivojlna boshladi.

Lekin, shularning barchasi fantalab ishlab chiqarishning rivojlanishi, ilmiytadqiqot ishlarining keng miqyosda amalga oshirilishi, jamiyat ilmiy va ta'limiyl, ilmiy-texnik salohiyatining keskin o'sishi bilan bog'langan.

Postindustrial mamlakatlar qatoriga g'arbiy, Janubiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yaponiya hamda Argentina, Liviya va boshqa davlatlar kiradi. Ularga noishlab chiqarish sohasiga jami band aholining 50-70 %i to'g'ri keladi.⁴

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlarida ham noishlab chiqarish sohasi yuqori darajada rivojlangan. Shular qatoriga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida katta yutuqlarga erishgan (Argentina, Meksika, Braziliya, Chili, Koreya Respublikasi), yoki neftni eksport qilish natijasida moliya va ishbilarmonlik faoliyatlarining yirik markazlariga aylangan (Liviya, Jazoir, Saudiya Arabiston, BAA, Quvayt, Katar), yohud vositachilik faoliyatini olib borishga va turizmga ixtisoslashgan (Bagam, Kanar oro'llari, Monako, Andorra, San-Marino) mamlakatlar kiradi.

.⁴ Rivojlangan mamlakatlarda noishlab chiqarish sohasiga transport va aloq tarmog'i kiritiladi. Undan tashqari g'arb terminologiyasida odatta birlamchi (qishloq va o'rmon xo'jaligi, baliqchilik, ikkilamchi (sanoat, qurilish) va uchlamchi sohalarga, ya'ni noishlab chiqarish sohasiga taalluqli tarmoqlar ajratiladi.

5.2. Sanoatning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, uning rivojlanishi va joylashishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Sanoat-moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog'i hisoblanadi. Yer shari iqtisodiy faol aholisining 20 %dan kamrog'i sanoatda, 60 % qishloq xo'jaligida ishtirok etadi.

Sanoatning rivojlanishi ko'p jihatdan xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarining rivojlanishini aniqlab beradi.

Masalan, qishloq xo'jaligining rivojlanishi ko'p jihatdan qishloq xo'jalik mashinalari, mineral o'g'itlar, kimyoviy moddalar, yoqilg'i, qurilish materiallari bilan ta'minlanishi bilan bog'liqdir. Chunki, sanoat:

a) xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalarini, shu jumladan mehnat quro'llarini ishlab chiqaradi.

b) sanoat iste'mol mollarini ishlab chiqaradi. Shuning uchun har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi sanoat darajasiga qarab aniqlanadi.

Hozirgi vaqtida sodir bo'layotgan fan-texnika inqilobi ham birinchi navbatda sanoat ishlab chiqarishiga bog'liqdir. Fan-texnika inqilobi ham sanoatning tarkibi va geografiyasini tez o'zgarishiga olib kelmoqda.

Sanoat-ishlab chiqarish vositalarini va iste'mol buyumlarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga bo'linadi.

Shuningdek, sanoat quyidagi ikki katta tarmoqqa bo'linadi:

1) unduruvchi sanoat (tabiatdagi mavjud boyliklarni qazib oladi, tayyorlaydi; masalan: ko'mir, neft, metall rudasi, o'rmon, baliq ovlash va hokazo).

2) ishlab chiqaruvchi sanoat, sanoatning o'zida undirilgan, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan moddiy resurslarni qayta ishlaydi.

Hozirgi vaqtida rivojlangan mamlakatlarda unduruvchi sanoat salmog'i 10% ni, ishlab beruvchi sanoat-salmog'i esa 90%ni tashkil etadi.

Jahon sanoatining turli mamlakatlarda rivojlanishiga va joylanishiga asosan quyidagi ikki omil hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi:

1) tabiiy sharoit va tabiiy resurslar.

2) ijtimoiy-iqtisodiy omillar.

Tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan foydalanish hamisha ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darjasini, fan va texnika taraqqiyotiga bog'liq bo'lib keladi.

Jahon fani va texnikasining to'xtovsiz taraqqiyoti insonning tabiatdan foydalanish imkoniyatlarini oshirmoqda, ishlab chiqarish kuchlarini takomillashtirishga, uning tabiiy omillarga qaramligini kamaytirmoqda. Yadro, quyosh, qalqish energiyalaridan foydalanishning keng yo'lga qo'yilishi natijasida sanoatning tabiiy energiya manbalariga bog'liq ravishda joylanishi barham topmoqda. Bu yo'nalishda fan-texnika inqilobining quyidagi yutuqlari ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Sanoatni joylashtirishda avvalo ishlab chiqarish xarajatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy omillardan hom-ashyo bazalarining sharoitlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bular:

a) xom-ashyo manbalarining yaqinligi

b) ularning boyligi

- v) sifati
- g) xom-ashyoning qiymati.

Tabiiy omillarni sanoat geografiyasiga ta'siri fan-texnika inqilobi yutuqlari asosida doimo kamayib bormoqda, lekin ularning ta'siri hech qachon yuqolmaydi. U ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanish darajasiga bog'liqdir.

5.3. Jahon sanoati tarkibida yuz berayotgan asosiy o'zgarishlar

Fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida hamma mamlakatlarning sanoati tarkibida muhim o'zgarishlar yuz bermoqda.

1) hozirgi vaqtida undiruvchi sanoat bilan ishlab beruvchi sanoat o'rtasidagi nisbat o'zgarmoqda. Ancha ko'p mehnat va katta harajat talab qiluvchi undiruvchi sanoatning eng muhim tarmog'i tog'-kon sanoatining salmog'i tobora qisqarib bormoqda, ishlab beruvchi sanoatniki esa o'smoqda.

2) ishlab beruvchi sanoatning o'zida ham muhim o'zgarishlar yuz bermoqda.

a) avtomobilsozlik, samolyotsozlik, elektrotexnika, neftni qayta ishslash, kimyo va rangli metallurgiyaning ayrim tarmoqlari tez sur'atlar bilan o'smoqda.

b) "eng yangi tarmoqlar" deb ataluvchi radioelektronika, organik sintez sanoati, atom energetikasi, raketa texnikasi, yuqoridagi tarmoqlardan ham jadalroq sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

v) "eski tarmoqlar" deb ataluvchi ko'mir, to'qimachilik, qora metallurgiya, kemasozlik, lokomativsozlik tarmoqlari zamonga moslashtirilib, texnik jihatdan qaytadan ta'mirlanmoqda.

g) yoqilg'i-energetika balansida o'zgarishlar bo'lmoqda, yangi materiallar, tabiiy xom-ashyo o'rnini bosuvchi sun'iy materiallar amaliyatga jadal sur'atlar bilan joriy etilmoqda.

Sanoatda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar bilan bir qatorda hududiy o'zgarishlar ham yuz bermoqda.

d) yangi texnologiyani joriy etish, quvur, elektr uzatish va transportning boshqa turlarini rivojlantirish ko'pgina tarmoqlarni joylashtirishga ta'sir ko'rsatmoqda.

e) hududiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri xom-ashyo masalasini hal qilishdir. Buning asosiy sabablari mineral hom-ashyoning dunyo bo'yicha notejis taqsimlanganligi bilan bog'langan.

5.4. Jahonning aosiy sanoat tarmoqlari geografiyasи

1. Yoqilg'i-energetika sanoati

Yoqilg'i - energetika sanoati jahon xo'jaligini rivojlantirishning asosidir. Hozirgi vaqtida energiya olishning asosiy manbai ko'mir, neft, gaz va gidroenergiya bo'lib, ularning hissasi 95,7 % ga to'g'ri keladi. Qolgan energiya resurslarini o'z ahamiyatini tobora yuqotayotgan o'tin, torf, yonuvchi slanetslar, shuningdek, o'zlashtirish jarayoni endigina boshlanayotgan - atom energiyasi, geotermik, qalqish energiyasi, quyosh va shamol energiyalari tashkil etadi.

Jahon xo'jalik taraqqiyotining turli bosqichlarida turli energiya manbalarining ahamiyati turlichra bo'lib keldi.

XX asrning boshlarida bug' dvigatellarining qo'llanilishi va qora metallurgiyaning tez taraqqiyoti ko'mirga bog'liq bo'lgan. Shuning uchun ham energiya sistemasida ko'mirning salmog'i 80%, neft va gazni esa 6,3% ni tashkil etgan.

I va II jahon urushidan keyin avtomobil, aviatsiya transport tarmoqlarining rivojlanishi natijasida neft va gazning salmog'i oshdi, yoqilgi sifatida ko'mirning ahamiyati kamaydi. XX asrda elektroenergetikaning rivojlanishi va elektroenergiyaning uzoq masofaga uzatishni o'zlashtirishga bog'liq gidroenergiya resurslaridan foydalanish birmuncha o'sdi. Shunday qilib, turli yoqilgi va energiya turlaridan foydalanishda jahon yoqilgi energetika balansi tarkibida katta o'zgarish bo'ldi.

10-jadval

Dunyoning ayrim mamlakatlari va uyushmalarida energetika balansi (1998 y.)

AQSh	GES	Sobiq sotsialistik mamlakatlar
Neft	35,5%	36,7%
Ko'mir	10,5%	35,0%
Tab.gaz	14,0%	17,9%
Gidro va atom ener.	40,0%	10,4%

Lekin ayrim mamlakatlarning yoqilg'i-energetika balansi o'z xususiyatiga ega. Masalan, Italiyada gidroenergiya katta salmoqqa ega, chunki yoqilg'i juda kam.

Ruminiyada asosiy yoqilg'i tabiiy gaz va neft, chunki u yoqilg'iga boy.

Jahonning neft sanoati - hozirgi zamon industriyasining eng muhim tarmog'i bo'lib, uning xo'jalik va harbiy ahamiyati beqiyosdir.

Dunyodagi mavjud aniqlangan neft zaxirasi (1993 yil) 150 mlrd.t. Kapitalistik mamlakatlarning 53 tasida neft qazib olinadi, 84 tasida qayta ishlanadi.

Neftning tekshirilgan zahiralarini ko'p qismi 8 ta yirik neft monopoliyalarining mulki yoki ijaraga olgan hududida joylashgan.

Dunyoda neft zaxiralariining 86%i rivojlanib kelayotgan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Fors qo'lting'i atrofidagi 5 ta davlatga 90 mlrd.t. neft zahirasi to'g'ri keladi. G'arbiy davlatlarning ma'lumotiga ko'ra sobiq Ittifoqning neft zahiralari 8-10 mlrd.t. baholanadi. MDH davlatlari o'rtasida Rossiyaning salmog'i 85%ni tashkil etadi.

Sobiq Ittifoqni neft zaxiralari respublikalar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan: Qozog'iston-9%, Ozorbayjon-2,3%, Turkmaniston-2%, Uzbekiston -1%ni tashkil etadi.

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida 50,0 mlrd.t. yoki kapitalistik dunyoning 66% nefti to'g'ri keladi, shu jumladan: Saudiya Arabistonida 45,8 mlrd.t., Kuvayt-13,7 mlrd.t., Eron-13,2 mlrd.t., Iraq- 12,9 mlrd.t. BAA-12,9 mlrd.t.

1991-1993 yilarda dunyoda neft qazib olish darajasi 3-3,1 mlrd. t. atrofida bo'lgan, lekin bu ko'rsatgich ayrim regionlarda o'zgargan. MDH davlatlarida 450 mln.t. 1992 yilda, 1993 yilda -400 mln.t. Ayniqsa Rossiyada 390 dan-340 mln.t. neft qazib olish kamaygan. AQShda ham neft qazib olish 1999 yilda 340 mln.t. yetgan.

Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlarida hamda Norvegiyada neft qazib olish ko'paygan. Shuning uchun 4-chi o'nlikka kiruvchi neft qazib oladigan davlat tarkibi 1993 yilda o'zgargan. Bularga Saudiya Arabiston (420 mln.t), AQSh, Rossiya, Eron (185mln.t), Meksika (155mln.t), Xitoy (145mln.t), Venesuela (115mln.t), Norvegiya (110mln.t), BAA(110 mln.t) va Nigeriya (95 mln.t.) kiradi.

Dunyoda qazib olingan neftning 43%i OPUKga a'zo davlatlariga to'g'ri keladi.

Kapitalistik dunyoda neft qazib olinadigan rayonlar 4 ta, ular hozir kapitalistik dunyoning 95% neftini qazib olmoqda.

- 1) Shimoliy Amerika
- 2) Karib dengizi rayoni
- 3) Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari
- 4) Shimoliy Afrika mamlakatlari

Shimoliy Amerika asosiy neft qazib olinadigan rayonlardan hisoblanadi.

AQSh (dunyoda ikkinchi o'rinda), 1993 yilda AQShda 370 mln.t., 1990 yilda 430 mln.t. neft qazib olingan. Keyingi uch yil ichida AQShda neft qazib olish kamaydi. Shuning uchun AQSh har yili Venesuela, Kanada, Yaqin Sharq mamlakatlardan 100 mln.t. neft sotib oladi. Shimoliy Amerikada neft qazib olishda 2-chi o'rinda Meksika turadi. 1993 yilda Meksikada 155 mln.t., Kanadada 80 mln.t. neft qazib olingan. Lekin shuni ham aytish kerakki, Meksika va Kanadadagi neftni AQSh monopoliyalari nazorat qiladi.

Karib dengizi rayonida neft qazib chiqarishda 1-o'rinda Venesuela turadi. 1993 yilda 115 mln.t.neft qazib olingan.

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarda 1993 yilda 810 mln.t. neft yoki kapitalistik dunyoning 40%dan ko'proq nefti qazib olingan.

Shu jumladan:

- 1) Eron - 155 mln.t.
- 2) Saudiya Arabiston 325 mln.t.
- 3) Quvayt - 60 mln.t.
- 4) Iroq - 100 mln.t.
- 5) BAA - 105 mln.t. neft qazib olgan.

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarda qazib olingan neftning 80%i eksport qilinadi. Eksportning 50%i G'arbiy Yevropa mamlakatlariga, 25%i Yaponiyaga to'g'ri keladi. Shimoliy Afrika - neft qazib olinadigan eng yosh rayon bo'lib, bu yerda neft sanoati Yaqin va O'rta Sharqqa nisbatan tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

1993 yilda umuman Afrika bo'yicha 300 mln.t. neft qazib olingan. Asosiy rayonlari: Liviya - 65 mln.t., Nigeriya - 90 mln.t., Jazoir - 35 mln.t., Misr - 45 mln.t. Yuqorida ko'rsatilgan neft rayonlari ichida Liviya neft rayonlari geografik jihatdan qulay bo'lib, dengizdan atigi 160 km uzoqlikda joylashgan. Shuning uchun ham bu mamlakatda neft sanoati tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Jahonda kapitalistik mamlakatlardan keyin sobiq ittifoq neft qazib olish bo'yicha muhim o'rinni egalaydi. Sobiq Ittifoqda 1995 yilda 491 mln.t. neft qazib olingan bo'lsa, 1984 yilda 603 mln.t., 1988 yilda 603 mln.t. neft qazib olingan. Lekin sobiq ittifoqning bo'linib ketishi, neft qazib olinishiga katta ta'sir ko'rsatdi. 1991 yilda jami 503 mln.t. neft qazib olingan.

Dunyodagi mavjud 700 dan ortiq neftni qayta ishlash zavodlarini katta qismi yuqori darajada taraqqiy etgan. G'arbiy Yevropa hamda rivojlanib kelayotgan davlatlarga to'g'ri keladi. Ularning umumiyligi kuvvati 3,6 mlrd.t. Shundan AQSh 780, G'arbiy Yevropa 720, Yaponiya 200, Lotin Amerikasi 300, Yaqin va O'rta Sharq 950, Afrika 150 mln.t. quvvatga ega.

Dunyoda neftni qayta ishlashda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda rivojlanib kelayotgan davlatlar hududida katta siljishlar yuz bermoqda. Bu davlatlarda neftni qayta ishlash zavodlarini quvvati keyingi yillarda 25%dan 40%gacha ko'paydi.

Bugungi kunda 15 ga yaqin neftni qayta ishlash zavodlarini ishlab chiqarish quvvati 15 mln.t. Shundan 50 %i Singapur, Saudiya Arabiston, Venesuela hissasiga to'g'ri keladi.

Eng yirik neftni qayta ishlash zavodlariga ega (quvvati 30 mln.t.bo'lgan) OPYEKga qarashli davlatlarda 400 mln.t. neft qayta ishlanishi kerak. Hozirgi vaqtida Saudiya Arabistonida – 30 mln.t., AQShda – 30 mln.t., Kuvaytda - 15 mln.t. neftni qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan ulkan zavodlar mavjud.

Jahon bozoriga har yili 1,2 mlrd.t dan ko'proq neft va neft mahsulotlari kirib keladi. Jahon bozorini neft eksportning uchdan ikki qismini Yaqin va O'rta Sharq davlatlari ta'minlaydi. Bundan tashqari eksport qilishda keyingi 10 yil ichida Rossiya, Venesuela, Meksika, Liviya, Nigeriya, Jazoирning salmog'i o'sib bormoqda.

Keyingi yillarda Rossiyada neft qazib olish salmog'i kamayib borayotgan bo'lsa ham, eksport salmog'i o'sib bormoqda. Masalan: 1992 yili Rossiya hududidan 66 mln.t. neft (8,5 mlrd. dollar) eksport qilingan.

Jahonning gaz sanoati. Gaz yoqilg'i va ximiya sanoati uchun xom ashyo hisoblanadi. Yer yuzasidagi zaxirasi 180-200 trl.kub.m baholangan. Ko'p hollarda gaz asosan neft uchraydigan rayonlarda qazib olinadi.

Gaz sanoatining ahamiyati yoqilg'i balansida tutgan salmog'i bilan belgilanadi.

G'arbiy yarim sharda gazning yirik zaxiralari AQSh, Kanada, Meksika, Venesuela, Argentina, Avstraliyada, Sharqiy yarim sharda esa Yaqin va O'rta Sharq rayonida, Jazoир, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Ruminiya, Italiya, GFRda to'plangan.

MDH davlatlariga Jahon gaz zahiralarining uchdan biri to'g'ri keladi. 1992 yilda kapitalistik mamlakatlarda 1285 mlrd.m³ gaz qazib olingan. Shu jumladan, AQShda - 510 mlrd.m³, Kanadada - 110 mlrd.m³, Niderlandiyada - 75 mlrd.m³, GFRda - 15 mlrd. m³ tabiiy gaz qazib olingan.

1993 yilda Rossiya hududida 640 mlrd.m³, Turkmanistonda 88 mlrd.m³, O'zbekistonda 45 mlrd.m³, Ukrainada 25 mlrd.m³ gaz qazib olingan.

Dunyoda gaz qazib olish bo'yicha birinchi o'nlikka kiruvchi davlatlar quyidagilar: Rossiya, AQSh, Kanada, Turkmaniston, Niderlandiya, Angliya, O'zbekistan, Indoneziya, Jazoir, Saudiya Arabistoni.

Ko'mir sanoati. Tekshirilgan zahiralari 75 trillion tonna deb hisoblanadi. Yer yuzasida ko'mir zahiralari, neft zahiralari qaraganda ancha ko'p. Lekin bu zahiralari yer yuzasida notekis joylashgan. Kapitalistik davlatlar orasida ko'mir zaxiralari va uni qazib chiqariish jihatidan, AQSh (1993 yil 945 mln.t), GFR (435 mln.t.), Buyuk Britaniya (90 mln.t.) alohida ajralib turadi. Dunyoda 1950-1990 yillarda ko'mir qazib olish darajasi pasaymadi, balki yillar sayin o'sib bormoqda. Ko'mir sanoati Jahon energetikasida muhim tarmoq bo'lib kelmoqda.

Yer yuzasida tekshirilgan ko'mir zaxiralarining 40 foizi, qazib olinadigan ko'mirning 60 foizga yaqini sobiq MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi.

Ko'mir qazib oluvchi asosiy mamlakatlarga Xitoy (1 mlrd. t.dan ortiq) Rossiya (400 mln.t.), Ukraina (165 mln.t.), Qozog'iston (165 mln.t.), Chexiya (106 mln.t.) kiradi

Energetika sanoati. Elektroenergiya eng zamонавиу va universal energiya turi bo'lib, uni jahon energetikasidagi salmog'i tobora o'sib bormoqda.

Hozirgi vaqtida elektroenergiya ishlab chiqarmaydigan birorta davlat dunyoda yo'q. Lekin, elektrlashtirish darajasi bo'yicha mamlakatlar bir-biridan keskin farq qiladi.

Elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha o'rinalar quyidagicha taqsimlangan:

- 1) Shimoliy Amerika.
- 2) Yevropa.
- 3) Osiyo.
- 4) Lotin Amerikasi.
- 5) Afrika.
- 6) Avstraliya.

Elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'nlik davlatlarga AQSh, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, GFR, Kanada, Fransiya, Buyuk Britaniya, Ukraina, Hindiston kiradi.

Yuqorida ko'rsatilgan davlatlarda elektroenergiya ishlab chiqarish kundankunga o'sib bormoqda, faqat Rossiyada ko'rsatkichlar bir oz pasaydi.

Birinchi o'nlikga kiruvchi davlatlarda energiyaning katta qismi IESlarida asosan, ko'mir, mazut, tabiiy gazdan foydalanish asosida ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarilgan energiyaning katta qismi yuqori voltli liniyalari orqali boshqa regionlarga uzatiladi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi davlatlarda hamma elektroenergiya asosan IESda ishlab chiqariladi. Bu guruhga quyidagi Niderlandiya, Polsha, JAR, Ruminiya, Xitoy, Meksika, Avstraliya kiradi. Bu davlatlarning hammasi ko'mir, neft yoki bo'lmasa gaz resurslariga boy.

Uchinchchi guruh davlatlariga yoqilg'i umuman kam bo'lgan davlatlar kiradi. Bu davlatlarda GESlarning salmog'i yuqori. Bular quyidagilar: Norvegiya, Italiya, Kanada, Shvetsiya. Shu guruhga kiruvchi Shri-Lanka, Paragvay, Efiopiya, Avstraliya, Kolumbiyada 90 foiz elektro-energiya gidroenergiya resurslari asosida ishlab chiqaradi.

1985-1995 yillarda GESlarning kuvvati Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarda 225 mln kVt ga o'sdi. Bu Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlari quvvatiga nisbatan yuqori. Shuni yarmidan ko'prog'i Hindiston, Braziliya, Xitoya to'g'ri keladi.

To'rtinchi guruhga kiruvchi davlatlarda elektro-energiyaning asosiy qismi atom elektro stantsiyalarida ishlab chiqariladi, bularga misol qilib Fransiya, Belgiya, Koreya Respublikalarini aytish mumkin.

Metallurgiya sanoati. Qora metallurgiya og'ir sanoatning muhim tarmog'i bo'lib, xalk xo'jaligiga muhim qurilma material-po'lat beradi, mashinasozlik uchun moddiy baza yaratadi. Qurilish va xo'jalikning boshqa tarmoqlarini texnika bilan quro'llantirishda katta ahamiyati bor.

Ammo bir qancha tarmoqlarda po'lat o'rniga ko'proq plastmassalar, temir-beton ishlatilmoqda. Shu sababli bu tarmoq past sur'atlar bilan o'smoqda. Temir rudasining yer yuzasidagi umumiy zaxirasi 400 mlrd.t. bo'lib, uning 50%i MDH mamlakatlarida joylashgan.

Ikkinci o'rinda Osiyo mamlakatlaridan: Hindiston va Xitoy turadi. Uchinchi o'rinda Lotin Amerikasi (Braziliya, Venesuela) turadi. To'rtinchi o'rinda Afrika davlatlari (JAR, Jazoir, Liberiya, Liviya, Mavritaniya). Beshinchi o'rinda Shimoliy Amerika (AQSh, Kanada). Oltinchi o'rinda Avstraliya. Yettinchi o'rinda Yevropa (Fransiya, Shvetsiya) turadi.

1993 yilda kapitalistik mamlakatlarda 361 mln.t. cho'yan, 480mln.t. po'lat quyilgan. Po'lat va cho'yanning 90% i yuqori darajada rivojlangan malakatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Qora metallar ishlab chiqarishda birinchi o'rinda Rossiya, ikkinchi o'rinda AQSh, (1993 yilda 66 mln.t. cho'yan, 108 mln.t. po'lat) uchinchi o'rinda Yaponiya (80 mln.t. cho'yan, 110mln.t. po'lat), to'rtinchi o'rinda Germaniya (32 mln.t. cho'yan, 43 mln.t. po'lat), beshinchi o'rinda Buyuk Britaniya (12 mln.t. cho'yan, 18 mln.t.) turadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida Hindiston muhim o'rinni egallaydi. Unda 1993 yilda 13 mln.t. cho'yan, 14 mln.t. po'lat quyilgan.

Rangli metallurgiya – og'ir industriyaning muhim tarmog'i. Elektrotexnika, elektronika, aviatsiya, raketasozlikni rangli metallurgiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Sobiq sotsialistik mamlakatlar rangdor metallurgiya uchun katta hom ashyo zahiralariga ega. Bu tarmoq sobiq Ittofoq Polsha, Vengriya, Yugoslaviya, Xitoyda juda ham yaxshi rivojlangan. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda AQSh, Kanada, Fransiya, Yaponiya, Avstraliyada rangli metallarning katta zaxiralari bor.

Mashinasozlik sanoati. Mashinasozlik har qanday mamlakatning texnika taraqqiyoti va mustaqilligining asosidir.

Mashinasozlik xalk xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun mashina va uskunalar, madaniy va maishiy buyumlar, harbiy mashinalar ishlab chiqaradi.

AQSh juda yuqori darajada rivojlangan mashinasozligi bilan ajralib turadi. AQShda mashina va uskunalarini barcha turlari ishlab chiqariladi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kapitalistik dunyo mashinasozlik mahsulotoining 80%ini beradi.

1993 yilga kelib jahonda 3 ta yirik avtomobil sanoati regioni tashkil topdi: G'arbiy Yevropa (33%), Shimoliy Amerika(30%) va Yaponiya (30%). Bu uchta regiondagi avtomobil sanoatining farqi shundaki, AQShning ishlab chiqargan avtomobillari ichki bozorda bo'lsa, G'arbiy Yevropa, ayniqsa Yaponiya tashqi bozorga ishlaydi.

Kemasozlik sanoatining gurkirab o'sishi 60 yillardan 70 yillargacha to'g'ri keladi. Bundan tashqari kemasozlik geografiyasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi.

Kemasozlikda keyingi yillarda juda katta o'zgarish, siljishlar yuz berdi. Agarda 60 yillarda Koreya Respublikasida kema ishlab chiqarish bo'lмаган bo'lsa, 80 yillarga kelib u dunyoda kema ishlab chiqarishda 2chi o'ringa chiqib oldi. Yaponiya va Koreya dunyoda yirik kema ishlab chiqarish bilan bir qatorda, ularni eksport qiladi. Yaponiya dunyo kema eksportini 40% ni, Koreya esa 33% ni tashkil etadi.

Sobiq sotsialistik mamlakatlarda mashinasozlikning barcha tarmoqlari rivojlangan edi. Sobiq ittifoq mashinasozligi AQSh dan keyin ikkinchi o'rinda, ba'zi mashinasozlik tarmoqlari bo'yicha birinchi o'rinda (metall qirquvchi stanok, traktor, kombayn, teplovoz, elektrovoz) bo'lgan.

Kimyo sanoati. Xalq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan yana biri kimyo sanoatidir. U texnika taraqqiyotida juda katta ahamiyat kasb etadi. U quyidagi tarmoqlarga bo'linadi:

- 1) asosiy kimyo: (kislota ishqor);
- 2) organik sintez kimyo. (sintetik materiallar);
- 3) sintetik materiallar sanoati (kauchuk).

Kimyo sanoati xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini jadalroq rivojlanishi va joyylanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Sobiq sotsialistik mamlakatlari kimyo sanoati uchun xilma-xil hom-ashyoga ega edi. Kimyo sanoati mahsuloti umumiy hajmi bo'yicha sobiq Ittifoq dunyoda ikkinchi o'rinda turar edi.

Dunyo mamlakatlari orasida AQSh alohida ajralib turadi. Yaponiya, Osiyo, Buyuk Britaniyada kimyo sanoati juda yaxshi rivojlangan. Shu bilan birga Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida bu sanoat endigina rivojlanib kelmoqda.

Asosiy tayanch iboralar

1. Avtarkiya – boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga asoslanib milliy iqtisodiyotni ta'minlashga yo'naltirilgan siyosat.
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solib turish – bozor iqtisodiyotida davlat va jamiyat tashkilotlari tomonidan harakatdagi sotsial-iqtisodiy tizimni o'zgarib turgan sharoitga moslashtirish maqsadida amalga oshiriladigan qonuniy, ijro va nazorat qilish xususiyatiga ega bo'lган tadbirlar tizimi.
3. OPYeK – neftni eksport qiluvchi davlatlar (Saudiya Arabiston, Iraq, Quvayt, BAA, Jazoir, Liviya, Nigeriya, Gabon, Indoneziya, Venesuela, Meksika) Shtab-kvartirasi Avstriyaning poytaxti Vens shahrida joylashgan.
4. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – mamlakatning ichki xo'jalik faoliyatini umumlashgan iqtisodiy ko'rsatkichi.
5. Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – ichki va tashqi faoliyatda bir yilda moddiy va nomoddiy sohalarida qanday millat tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning umumiyligi qiymati bo'lib, mamlakatning yaxlit sotsial-iqtisodiy ko'rsatkichi hisoblanadi.
6. Venchur korxonalari – yirik kompaniyalar buyurtmalari va davlat bitimlari bo'yicha ilmiy tekshrish sohalarida muhandislikda, innovatsiyada faoliyat ko'rsatuvchi firmalar.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Jahoning yengil sanoat tarmoqlari.
2. Jahon sanoatini xalk xo'jalik tarmoqlari o'rtasida tutgan o'rni, salmog'i.
3. Jahon sanoatini tashkil etish formalari shakllari.
4. Jahoning neft sanoati.
5. Jahoning gaz sanoati.
6. Jahoning mashinasozlik majmuasi.
7. Jahon sanoatida og'ir mashinasozlikning o'rni va ahamiyati.
8. Jahon xo'jaligida o'rta mashinasozlik.
9. Jahon yengil mashinasozligi.
10. Jahon sanoatini rivojlanishiga va joylanishiga ta'sir etuvchi omillar.
11. Jahon sanoat tizimlarida keyingi yillarda yuz berayotgan asosiy o'zgarishlar.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. “O’zbekiston bozor munosabatlariga o’tishining o’ziga xos yo’li” T.: “O’zbekiston”, 1995.
2. Karimov I.A. “Iqtisodiy islohot: Ma’suliyatli bosqich”. T.: “O’zbekiston”, 1994.
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi'» T.: O’zbekiston, 1998.
4. Radionova I.N. “Politicheskaya karta mira” M.: 1996 god.
5. Sergeev P.V. “Mirovoy xozyaystvo i mejdunarodnoy ekonomicheskoy otnoshenie na sovremennom etapy”, M.: “Noviy yurist”, 1998.
6. Lomakin V.A. “Mirovaya ekonomika”M.: “Finansi”, 1998.
7. Soedinennie Shtati Ameriki. M.: 1991.
8. Xagget P. “Prostranstvenniy analiz v ekonomicheskoy geografii”, Perevod s angliyskogo. M.: “Progress”, 1998.

VI-bob. Jahon qishloq xo'jalik geografiyasi (2-soat)

6.1. Jahon qishloq xo'jaligiga umumiy ta'rif

Qishloq xo'jaligi aholi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish bilan birgalikda yengil sanoat uchun ma'lum miqdorda xom ashyo ham etkazib beradi. Biroq qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'sishiga nomutanosib ravishda jahon aholisining ma'lum qismi, hatto o'nlab, ayrim hollarda yuz millionlab aholi to'yib ovqat emaydi.

Bularga rivojlanayotgan mamlakatlar va iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan mamlakatlarning aholisi kiradi. Shunga bog'liq holda oziq-ovqat bilan ta'minlanishi o'sish darajasini aholi o'sish darajasiga nisbatan 2 foiz emas, balki 3,5—4 foizga yetkazish zarur.

Yer shari iqtisodiy faol aholisining 60 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligida band, agar qishloq xo'jaligiga yordam beruvchi yosh va keksalarni hisobga olsak unda jahon aholisining 2/3 qismi qishloq xo'jaligi sohalariga to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtda ham Afrika va Osiyoni ko'pgina davlatlarida aholining 70 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligida band. Ayrim davlatlarda, masalan: Verxnaya Voltada (G'arbiy Afrika) 95 foiz aholi qishloq xo'jaligida band.

Sanoatlashgan va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida band aholi salmog'i kamayib bormoqda.

AQShda hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida 5 foiz aholi, Buyuk Britaniyada esa 2 foizdan kamroq aholi qishloq xo'jaligida ishlaydi.

Qishloq xo'jaligi ikki asosiy tarmoqqa bo'linadi:

1. Ziroatchilik
2. Chorvachilik

Hozirgi zamon qishloq xo'jalik geografiyasi ko'pgina omillarga bog'liq: iqtisodiy, tabiiy va siyosiy.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning geografik joylashishiga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri u yoki bu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari hisoblanadi. AQSh, Kanada, Angliya, G'arbiy Yevropa davlatlarining qishloq xo'jaligi oxirgi o'n yillikda kapitalistik rivojlanishning umumiy oqimi va hozirgi zamon sanoat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib qoldi.

Qishloq xo'jaligini joylashishiga tabiiy sharoit katta ta'sir ko'rsatadi, uning rivojlanishi uchun yorug'liq, issiqlik, namlik va tuproqqa ozuqa moddalari zarur. Qulay agroiqlim, suv, tuproq resurslari quruqlikning hamma joyida ham uchramaydi. Tuproq masalan, bir turdag'i qishloq xo'jalik ekini uchun qulay bo'lsa, boshqasi uchun esa noqulay bo'lishi mumkin.

Qutb mamlakatlari qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishi uchun unchalik qulay emas. Subtropik va tropiklarda esa issiqlik va yorug'likning ko'p bo'lishi bilan, namlik yetishmaydi. Dengiz iqlimiga xos mamlakatlar, ya'ni mo'tadil iqlimli mamlakatlarda namlik yetarli, ammo issiqlik yetishmaydi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga xali ham iqlim sharoiti yetarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Tabiat injiqliklari dehqonchilikka katta zarar yetkazmoqda.

Yer sharining ayrim qismlarida noqulay qish, qirovlar, ob-havoni keskin o'zgarishi, qurg'oqchilik, do'l, sel, kuchli shamollar va boshqalar, bularning hammasi dunyo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mahsulot hajmiga ta'sir ko'rsatadi.

Mikroiqlim hususiyatlari, hatto rayonlarning ham ob-havo xususiyatlari farqlanganligi uchun ham, ekinlarni tanlashda ularni inobatga olish va agrotexnika qoidalariga rioya qilish zarur. Qishloq xo'jaligi joylashishiga uning tarmoqlari ixtisoslashishi ham ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining turli rayonlarda ishlab chiqarish ham ularning transport-geografik holatiga, iste'molchiga yaqinligi va qishloq xo'jaligi mahsulotining sanoat qayta ishlashiga ham bog'liq.

Jumladan, kofe, kakao plantatsiyalari odatda dengiz sohillariga, daryo va temir yo'l yaqinlarida joylashtiriladi, chunki bu ekinlarni ishlab chiqarish eksport yo'nalishiga mo'ljallangan. Texnika taraqqiyotiga qaramasdan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatlarda hozir ham bir xilda emas, ayniqsa bu holat rivojlanayotgan davlatlarda, hosilsiz yillarda ochlikka va dunyo iqtisodiyotini boshqa yomon holatlarga olib keladi (narxlarni o'sishi, zahiralarni kamayishi va boshqalar), bularni bartaraf qilish ko'p vaqtini talab qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda mahsulot ishlab chiqarish sur'ati, aholi o'sish sur'ati bilan barobar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini yaxshilash, o'zining ishlab chiqarishi hisobiga bu mamlakatlarda yo'q. Shuning uchun ham ochlik va to'yib ovqat yemaslik darajasini pastligini hisobga olish kerak. Aholi zinch joylashgan rayonlarda bo'sh yerlarni tanqisligi tufayli kam kapital mablag'lar sarf qilish hisobiga ekstensiv dunyo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish cheklangandir. Ayrim hollarda esa yirik yer egalari tomonidan yerlarni o'zlashtirish sun'iy ravishda yer resurslari tanqisligini yuzaga keltirish maqsadida to'xtatiladi, ijara haqini oshiradi va arzon ish kuchini ta'minlash maqsadida qiladi.

Lotin Amerikasi, tropik Afrika mamlakatlarida va boshqa rayonlarda mavjud bo'lган yirik bo'sh yer resurslaridan oqilona foydalanish uchun ko'plab mablag'lar talab qilinadi (yuksak texnika bazasida), qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda va unga yaqin hisoblangan - transport, aholini joylashtirish, suv ta'minoti, melioratsiya va hokazolarni ham inobatga olish zarur. Bunday keng miqyosli ishlarni rivojlanayotgan mamlakatlar faqatgina birgalikda, uyushgan holdagini bajarishlari mumkin.

Yirik iqtisodiy jihatdan rivojlangan kapitalistik davlatlarda qishloq xo'jaligi bilan sanoat rivojlanishini vertikal holati va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdan yirik foyda olish maqsadida monopolistik kapital hisobiga, mayda hamda o'rta fermer xo'jaliklarini xonavayron qilish hisobga amalga oshiriladi. 1980 yilda AQShda fermalar soni 2.7 mln. bo'lган bo'lsa, 1998 yilda 1.0 mln ga qisqardi, shu jumladan (mahsulot) tovar fermalari — 1.6 mln. ga yaqin va bundan keyin ham tovar fermalari sonini qisqartirish va buning hisobiga ishlab chiqarishni o'rtacha ko'paytirish ko'zda tutilgan.

Yirik monopolistik kapital egalari qishloq xo'jaligiga chuqur kirib boribgina qolmasdan, mashinalar, mineral o'g'itlar sotish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini

sotib olish, banklardan kredit olib berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki qishloq xo'jalik yerlarini sotishni ham qo'llarida olib qolishiga xarakat qilmoqdalar.

Rivojlanayotgan davlatlar xukumati yirik xo'jaliklarga iqtisodiy ko'mak berish (imtiyozli bank kreditlari olib berish, texnikani takomillashtirish, davlat hisobiga yerlarni meliorativ holatini yaxshilash va hokazo), qishloq xo'jalik yerlarini yiriklashtirish va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni to'plash bilan birgalikda mayda xo'jaliklarni huquq va imkoniyatlarini cheklashtirmoqdalar. Bunday xo'jalik yuritish tadbirlari (kichik va o'rta dexqonlarini sindirish) yirik xo'jaliklarni barpo qilish, texnikaviy jihozlangan xo'jaliklar va tovar mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishga yo'naltirilgan.

Rivojlanayotgan ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish darajasini va ularda mavjud agrar munosabatlarni qayta o'zgartirish va modernizatsiya qilish bo'yicha turlicha holatlarni qurish mumkin. Bu mamlakatlarda boshqarish qiyin bo'lган holatlarni, agrar munosabatlarning murakkabligi, mablag'larning yetishmasligi va ularni kiritmaslik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi rivojlanishini sustlashtirmoqda. Shu guruhga kiruvchi ayrim mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan yuqori bo'lган (m.: Argentina) yirik er egaligi hisobiga (mahalliy mahsulotlar va chet el kapitali hisobiga) tovar mahsuloti ishlab chiqarish shaklland. Bundan tashqari rivojlanayotgan mamlakatlar ham borki (asosan yaqinda mustamlakadan ozod bo'lган) ularda qishloq xo'jaligi rivojlanishi chet el kapitali bilan bog'liq bo'lib, ular asosan yerlardan vaxshiyarcha foydalanib, eksport qiladigan ekinlarni ishlab chiqarishni tashkil qilishgan, keyinchalik esa texnikaviy takomillashgan plantatsiyalarda, har ikkala holda ham mahalliy aholini ezish hisobiga, asosan foydani asosiy qismini chetga olib ketishgan.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo'jaligi ilmiy texnika revolyutsiyasi bilan bog'liq bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishga, importni qisqartirib yoki to'xtatishga imkon beribgina qolmay, o'zları eksport qila boshladilar. Masalan: AQSh - soya; Fransiya – bug'doy va sholi; GFR, Fransiya - quruq sut; Yaponiya - sholi va hokazo.

Natijada oxirgi 15-20 yil ichida rivojlangan mamlakatlarni dunyo oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha salmog'i o'sdi, aksincha rivojlanayotgan malakatlarning salmog'i birmuncha qisqadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'piga xos bo'lган xususiyatlardan biri bo'lган to'yib ovqat emaslik va ocharchilikning keng tarqalishi faqatgina tabiiy sharoitning noqulayligi sababli yoki yangi maltuschilik tushunchasi, aholini «yuqori» tabiiy o'sishi bilan bog'liq emas. Balki, hozirgi zamon texnika tarraqqiyotining sustligi qishloq xo'jaligining joylashishiga bog'liqdir.

Bundan tashqari rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiyl iqtisodiy qoloqlik darajasi mahalliy noqulay tabiiy sharoitlarni yaxshilash imkoniyatlarini bermayapti natijada ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkoniyat yaratilmayapti.

Qoloqlikning asosiy ildizi o'tmishda bu mamlakatlarning rivojlangan mamlakatlarga qaram qilish va hozirda ham ularni xom ashyo yetkazib beruvchi bo'lib qolishiga intilishi bilan bog'langandir.

6.2. Jahon yer fondi

Dunyo yer fondining tahlili 11-jadvalda berilgan. Jadvalda asosan maydonlarning hajmi va tarkibiy ko'rsatkichlari -o'rin olgan. Dunyo yer fondining umumiyligi maydoni - 134 mln km² (13,4 mlrd. ga). Jadvaldan ko'rinib turibdiki, dunyo yer fondining asosiy qismini Afrika, MDH, Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerika egallagan. Aholi jon boshiga oladigan bo'lsak, aholisi nisbatan kam bo'lган Avstraliya birinchi, aholi eng ko'p bo'lган Osiyo esa oxirgi o'rinni egallagan.

Birinchi jadvaldagagi yer fondi tizimi ham batatsil sharxlashga muhtoj. Bu albatta dunyo yer fondini egallagan sifatli ishlov berilgan yerlarga taaluqlidir. Bu yerda MDH, Afrika, Shimoliy Amerika uchun ko'rsatkichlar taxminan dunyo bo'yicha o'rtacha darajasida Yevropa va Osiyoda esa ko'proq Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniyada esa eng yuqoridan kamroq. Ayrim mamlakatlar bo'yicha olsak ishlov berilgan yerlar miqdori bo'yicha AQSh (190 mln. ga), Hindiston (160), Rossiya (134), Xitoy (95), Kanada (46), Qozog'iston (36), Ukraina (34) mamlakatlari ajralib turadi. Jahonning barcha mintaqalarida, Yevropadan tashqari, tabiiy o'tloq va yaylovlar ishlov berilgan yerlarga nisbatan ko'proqdir, bu ustunlik Avstraliyada o'n marotabidan yuqoriroqdir. O'z navbatida MDH, Yevropa, Shimoliy Amerikada o'rmonli yerlar maydonining salmog'i o'tloq va yaylovlarga nisbatan ancha salmoqli, Janubiy Amerikada esa maydonining yarmidan ko'pini egallaydi. Dunyo bo'yicha ham, shuningdek aksariyat mintaqalar bo'yicha ham aholi punktlari, sanoati va transport tizimlari joylashgan yerlarni kengayishi 1-2%ni tashkil qiladi va faqatgina Yevropa va Shimoliy Amerikada bundan biroz yuqoriroq. Kam hosildor yerlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich asosan MDH, Osiyo, Afrika, Shimoliy Amerikaga to'g'ri keladi.

Dunyo yer fondi

11-jadval.

Qit'alar, materiklar	Umumiy maydon		Qishloq xo'jaligi yerlari		Yer fondining tarkibi		% larda
	Mln km ²	Jon boshiga (ga)	Ishlov beril- gani, %	Tabiiy o'tloq va yaylov- lar, %	O'rmonl i yerlar, %	Aholi punktlari sanoati va transport yerlari, %	Kamxosil- dor va xosil ber maydigan yerlari, %
MDH	22,4	8,1	10	17	36	1	36
Yevropa	5,1	1,0	29	18	32	5	16
Osiyo	27,7	1,1	17	20	20	2	39
Afrika	30,3	6,4	11	26	23	1	39
Shim. Amerika	22,5	6,1	12	16	31	3	38
Jan. Amerika	17,8	7,3	7	20	52	1	20
Avstraliya va Okeaniya	8,5	37,0	5	54	18	1	22
Butun dunyo	134,0	3,0	11	23	30	2	34

Dunyo yer fondining asosiy muammolari deb olimlar quyidagilarni tushunadilar: tuproq hosildorligini yo'qolishi, tuproq erroziyasi, uning ifloslanishi, tabiiy o'tloqlarning biologik hosildorligini yo'qolishi, sug'oriladigan maydonlarning sho'rlanishi va botqoqlanishi. Turar joy va sanoat korxonalari va transport tizimlari qurishga yerlarni ketishi va hokazolar. Ba'zi hisob-kitoblarga qaraganda insoniyat hozirga kelib 2 mldr. hektar hosildor yerlarni yo'qotib bo'ldi. Birgina erroziya natijasida dunyo bo'yicha har yili qishloq xo'jalikda foydalaniladigan yerlardan 6-7 mln hektari qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketadi. Sho'rlanish va botqoqlanish natijasida 1,5 mln hektar yer ishdan chiqadi. Bu noxush ko'rinishlarning yaqqol natijasi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ishlov, berilgan yerlarning keskin kamayib ketganligidir. Masalan sobiq Ittifoqda bu ko'rsatkich 1,03 ga.dan (1960 y), 0,81 ga (1998 y) ga kamaydi. Dunyo bo'yicha u yuqoriligidicha qolgan (12-jadval), ammo ba'zi mamlakatlarning haydalagan yerlar bilan ta'minlanganlik darajasi juda kamayib ketgan (Xitoy - 0,09ga, Misr - 0,05ga).

12-jadval.

Dunyo mintaqalarining haydalagan yerlar bilan ta'minlanganligi (aholi jon boshiga)

Qit'alar, Materiklar	Ta'minlanganligi (ga)
MDH	0,81
Yevropa	0,28
Osiyo	0,15
Afrika	0,30
Shimoliy Amerika	0,65
Janubiy Amerika	0,49
Avstraliya va Okeaniya	1,87

Ko'pgina mamlakatlarda yer fondini saqlab qolishga va uning tizimini yaxshilashga xarakat qilinyapti. Bu narsa mintaqaviy va dunyo miqyosida BMT ning maxsus tashkilotlari. YuNYeSKO (BMTning maorif, fan va madaniyat ishlari bo'yicha tashkiloti), FAO (BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha tashkiloti) tomonidan nazoratga olingan. Bu tadbirlarning natijasi sifatida dunyoning tuproq xaritasini yaratilishi ya'ni agrotabiyy quvvatini aniqlash misol bo'la oladi.

6.3. Jahon qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlarining joylashishi

Dehqonchilik — qishloq xo'jaligining keng tarmog'i bo'lib, u o'z tarixiga dalachilik, ya'ni don ekinlarini va texnika ekinlarini yetishtirish, yaylovchilik, poliz ekinlarini yetishtirish va boshqa qator tarmoqlarni oladi.

A) *Donli ekinlar*

Bu tarmoq kishilik madaniyati tarixining barcha davrlarida o'z aksini topgan. Arxeologik izlanishlar guvohlik berishida, bug'doy Old Osiyoda, eramizdan 5-6 ming yil avval, Misrda 4 ming yil avval, Xitoyda 3 ming yil avval, Bolqonda 2-3 ming yil avval ekilgan. Qadimgi dunyoda o'zining bug'doy bilan Skifiya mashhur bo'lgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng bug'doy yangi ochilgan hududlarga qadam bosdi. Janubiy Amerikaga 1528 yil, AQShga 1602 yil, Avstraliyaga 1788 yilda kirib bordi.

Sholi - qadimgi ekinlardan biri bo'lib, Xitoyda eramizdan 5 ming yil avval ekilgan. Hindiston va Shimoliy Afrikada eramizdan 2 ming yil avval paydo bo'lgan, Yevropaga esa eramizning VIII-asrda kirib keldi. Geografik kashfiyotlar davrida sholi Amerikaga kirib keldi. Makkajo'xori esa aksincha bu davrda Amerikadan Yevropaga olib borildi. Bu ekinlarning tarixiy kelib chiqishiga va turli mintaqalariga etib borishiga sabab ularning navi ko'pligidir. Butun Rossiya Dehqonchilik institutida bug'doyning 60 ming navi kollektysi (to'plami) aniqangan. Taxminan shuncha sholi navi Fillipindagi xalqaro sholi institutida to'plangan.

Hozirgi vaqtida donli ekinlar tahlili uch qismdan iborat bo'llishi kerak:

1. ekin maydoni;
2. yalpi terim;
3. xalqaro savdosi.

Dunyo bo'yicha 720 mln gektar yerga donli ekinlar ekiladi. Mamlakatlar bo'yicha, masalan Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiyada ekin maydonining 50-60% ni egallaydi. Bu ko'rsatkich Rossiya, Polsha, Vengriya, Ruminiya esa 60-65%, GFRda -70%, Vietnam va Mongoliyada - 80%ni tashkil qiladi.

Ekin maydonining asosiy qismini – bug'doy (230 mln ga), sholi (140 mln ga), makkajo'xori (180 mln ga) egallaydi.

Dunyo bo'yicha keng tarqalishda bug'doyga yetadigani yo'q. Yer shari bo'yicha keng miqiyosda Shimoliy Amerika, Yevropa, Sobiq SSSR, Janubiy-G'arb, Janubiy va Sharqi Osiyoda ekiladi. Janubiy mintaqasi - Argentina, Janubiy Afrika va Avstraliya. Jahondagi bug'doy ekin maydonlaridan yil 12 oy davomida hosil yig'iladi. Dunyo bo'yicha sholini tarqalishini muhim xususiyati shundan iboratki, u asosan musson iqlim sharoiti mavjud mintaqalarga mosdir. Sholichilik asosan Sharqi, Janubi-Sharqi va Janubiy Osiyoda keng tarqalgan. Hindiston, Xitoy, Indoneziyada sholi maydonlari juda ko'p. Bu yerlarda ikkinchi hosilni quruq mavsumda sun'iy sug'orish usulida olinadi.

Makkajo'xori ekin maydonlari ham deyarli bug'doy ekiladigan hududlarga to'g'ri keladi.

Donli ekinlarning dunyo bo'yicha yalpi hosili uzoq vaqt davomida juda sekin sur'atlar bilan o'sdi. Masalan, 1900 yilda 500 mln. t., 1920 yil - 600 mln. t., 1940 yil - 700 mln. t., 20-asrning ikkinchi yarmida donli ekinlar hosili o'sish sur'ati sezilarli darajada buldi. Donli ekinlarning yalpi hosili (yirik mamlakatlarda) 13-jadvalda berilgan. Jadval ma'lumotlari ko'rsatib turibdiki, mamlakatlarning ishlab chiqarish hajmi bo'yicha 3 ta guruhga bo'lish mumkin:

13-jadval

1998 yillar boshida donli ekinlarning yalpi hosili

Mamlakatlar	mln.	Aholi jon boshiga ishlab chiqarish kg.
Jahon bo'yicha	1900	350
Xitoy	350	350
AQSh	315	1250
Rossiya	117	790
Fransiya	60	1050
Kanada	57	2125
Ukraina	51	980
Indoneziya	51	240
Braziliya	40	320
Turkiya	32	340
Polsha	28	730
Qozog'iston	28	1650
GFR	26	480
Avstraliya	23	1320
Tailand	24	240
Meksika	24	275
Buyuk Britaniya	23	400
Argentina	21	640
Pokiston	23	200
Vietnam	20	330
Ispaniya	20	520
Ruminiya	17	800
Italiya	17	300
Vengriya	16	1500
Yaponiya	15	120

Donli ekinlar yalpi hosili va ekin maydoni bo'yicha ham bug'doy, sholi, makkajo'xori yetakchilik qiladi. Bu ekin mahsulotlari aholi oziq-ovqat ratsionining 95% ni tashkil qiladi. Jumladan sholi bu ratsionning 21%ni, bug'doy 20%ni, makkajo'xori 13%ni tashkil etadi. Xitoy, AQSh, Hindiston dunyo bo'yicha asosiy don yetishtiruvchi mamlakatlardir.

Jon boshiga ishlab chiqarish ayrim mamlakatlarda keskin farqlanadi. Dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich (350 kg) juda past. Bunga asosan Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Braziliya va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar misol bo'la oladi. Nisbatan yuqori bo'limgan ko'rsatkichlarga ega mamlakatlar qatoriga Italiya, Buyuk Britaniya, GFR hamda Yaponiya kiradi. Bu mamlakatlarda ishlab chiqarish me'yorida yoki kamroq. Aholining o'sishi jon boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini kamayishiga olib keladi. Dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqori mamlakatlarga Rossiya, Ruminiya, Polsha kiradi. Vengriya,

Qozog'iston, Avstraliya, Kanada, AQSh va Fransiyada (1000 kg dan ortiq) juda yuqori.

Umuman dunyoda donli ekinlarning 55 % xalq uchun oziq-ovqat, 45% esa chorva ozuqasi sifatida foydalaniladi. Juhon bozorida har yili taxminan 200 mln. t. donli, jumladan 90-100 mln. t. bug'doy va 60-70 mln. t. makkajo'xori chiqariladi. Bug'doy va makkajo'xori eksporti uncha ko'p bo'limgan mamlakatlar (AQSh, Kanada, Fransiya, Avstraliya va Argentina) guruhida mujasamlashgan, shundan yarmiga yaqini AQShra to'g'ri keladi.

Sholi savdosi so'nggi yillarda dunyo bo'yicha 10-15 mln. t. tashkil etmoqda. Uning asosiy eksportyerlari - Tailand, AQSh hisoblanadi.

Don import qiluvchi mamlakatlarning yarmiga yaqini rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi, bular asosan oziq-ovqat uchun donli mahsulotlarni chetdan oladilar. Bunday mamlakatlar, masalan, Misr (10 mln. t.), Braziliya (5 mln. t.). Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida Yaponiya (30 mln. t.ga yaqin) yirik importer hisoblanadi.

B) Boshqa turdag'i oziq-ovqat ekinlari

Bu turdag'i ekinlarga moyli, ildiz-mevali, qandli, xushbo'y sabzovot va bog'dorchilik o'simliklarini kiritish mumkin. Ularni xillarini aniqlab olish kerak. Bular asosan moyli ekinlar: soya (loviya), kungaboqar, yer yong'oq, paxta, zig'ir, raps, kunjut, klyashevina. Yana ko'p yillik o'simliklar - zaytun daraxti, kokos palmasi, tung daraxti.

Dunyo bo'yicha moyli urug'lar ishlab chiqarish 1998 yilda 220 mln. tonnaga yetdi. Jumladan soya - 100 mln. t., paxta chigit - 35 mln. t., raps — 25mln. t., kungaboqar - 20 mln t., yer yong'oq - 20 mln. t.

Moyli ekin maydonlari dunyo bo'yicha ularning turlariga qarab o'ziga xos tarzda joylashtirilgan. Soyaning vatani Sharqiy Osiyo (Xitoy, Koreya) bo'lsada, hozirgi kunda asosan Amerikada yetishtiriladi: Bu o'rinda AQSh (55 mln.t.), Braziliya (20 mln.t.) va Argentina (10 mln. t.) alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo Xitoy ham yirik soya ishlab chiqaruvchi (10-15 mln. t.) mamlakatdir. Soya ham ozuqa, ham oziq-ovqat (soya yog'i) maqsadida ishlatiladi.

Kungaboqarning vatani Shimoliy Amerikaning janubiy qismi bo'lib, u Yevropaga 16 asrda olib kelindi. Asosiy kungaboqar urug'ini ishlab chiqaruvchilar - Rossiya, Ukraina, Janubiy Yevropa, AQSh, Argentina, Xitoy. Paxta chigit asosan Hindiston, Pokiston, Xitoy, AQSh, O'zbekistonda olinadi. Raps Yevropa, Xitoy, Kanadada ko'p tarqalgan.

Yer yong'oqning vatani Braziliya bo'lib, u yerdan dastlab Hindiston, Xitoy, Fillipinga, keyinroq Yevropaga yetib borib, «Xitoy yong'og'i» nomini oldi. Afrikaga u XV asrda Yevropadan keltirildi. Hozirgi vaqtida yer yong'oq tropik va subtropik mintaqalarda (Janubiy va Sharqiy Osiyo, G'arbiy Afrika, AQSh, Braziliya, Argentina) katta maydonni egallaydi.

Zig'ir asosan mo'tadil iqlim mintaqalarida ko'p ekiladi. Zaytun daraxti ko'p tarqalgan yeri - O'rta yer dengizi atrofi, palma esa G'arbiy Afrika, Malayziyada. Korpu (kokos yong'og'ining quritilgani) asosan Janubiy, Janubi-Sharqiy Osiyo va Okeaniyada ishlab chiqariladi.

Kartoshka - oziq-ovqat, ozuqa va texnik jihatdan qayta ishlanib turli maqsadlarda foydalaniladi. Vatani – Peru, Ekvador, Boliviya. Yevropaga 1536 yilda olib kelingan bo’lib, dastlab Ispaniya va Portugaliyada ixtisoslashtirilgan. U yerdan Italiya, Gollandiya, Irlandiya, Angliya va boshqa mamlakatlarga keldi. Italiyada «tartufol» nomini oldi va keyin «kartufol», «kartofel»ga aylandi. Rossiyaga XVIII asrda Pyotr1 bir qopini Gollandiyadan olib kelib, mamlakatni turli viloyatlariga tarqatgan. Dunyoda 18 mln. ga kartoshka ekiladigan maydon bo’lib, u asta-sekin qisqarib bormoqda. 1998 yilda 280 mln. t. kartoshka hosili olindi. Keltirilgan jadvalda kartoshka terimining geografik taqsimoti ifodalangan bo’lib, eng avvalo kartoshka Yevropa o’simligi deb xulosa chiqarilgan. Yevropadan tashqari Xitoy va Shimoliy Amerikada ko’p tarqalgan. Ko’pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda shirin kartoshka (batat) yetishtiriladi. Bu ekin turini jon boshiga yetishtirish jihatidan Belorusiya va Polsha oldinda turadi.

14-jadval.

Dunyoda va ayrim mamlakatlarda 1998 yilda kartoshka etishtirish

Dunyoda va ayrim mamlakatlarda	Yalpi hosil mln. tonna	Aholi jon boshiga (kg)	Hosildorlik Tsentner/ga
Dunyoda	280	55	150
Polsha	36	910	200
Rossiya	35	230	100
Xitoy	27	25	100
Ukraina	12	330	120
GFR	17	230	300
AQSh	17	65	320
Hindiston	15	18	160
Belorusiya	9	870	135
Niderlandiya	7	470	435
Buyuk Britaniya	6,5	110	350
Fransiya	4,7	110	280
Ispaniya	4,5	115	200
Turkiya	4,1	70	220
Yaponiya	3,1	30	300
Ruminiya	3,4	140	120
Kanada	2,8	100	245
Italiya	2,5	40	200

Ma’lumki, qandli ekinlar shakarqamish hamda qand lavlagidir. Shakarqamish - qadimgi ekinlardan biri bo’lib, uning vatani Belgiyadir. O’rta Yer dengizi mamlakatlariiga uni VIII-IX asrlarda arablar keltirgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan so’ng u Yangi Dunyoga tarqalib o’zining «ikkinci vatani»ga ega bo’ldi. Ammo, XVIII asrning oxirlaridagina qand lavlagi qand xom-ashyosiga aylandi. Dastlabki lavlagidan qand oluvchi zavod Germaniyada bunyod etilgan. Shu vaqtidan boshlab ushbu ikki qandli ekinlar muayyan ma’noda o’zaro raqobatlasha boshladilar. XX asr boshlarida lavlagi qandi xalqaro talabning 2/3 qismini qondirdi,

lekin uning salmog'i so'nggi yillarda pasayib bordi. Bugungi kunda ham mazkur ekinlar o'rtasidagi mutanosiblik 40/60 bo'lib, bunda shakarqamish ustuvor ahamiyatni kasb etadi.

Shakarqamish – issiqsevar, ko'p yillik ekin bo'lib, 7-8 oy davomida o'rtacha xarorat 15°S dan pasaymaydigan, vegetatsiya davridagi yillik ijobiy harorat yig'indisi $5000-6000^{\circ}\text{S}$ ga teng bo'lgan sharoitda o'sadi. Ayni paytda u sezilarli namlikni ham talab etadi. Shu tufayli ham shakarqamish faqatgina tropik, subtropik hamda musson iqlimli mamlakatlarda iqlimlashtiriladi. Uning deyarli barcha hosili (1 mlrd. t. atrofida) rivojlanayotgan mamlakatlarda, shuningdek Xitoy va Kuba hissasiga to'g'ri keladi.

Qand lavlagi - tipik bir yillik mo'tadil mintaqqa o'simligi bo'lishi bilan bir qatorda agroiqlim sharoitlariga yuqori talab ko'yuvchi ekindir. U asosan aholi zinch joylashgan intensiv qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan rayonlarda ekiladi. Uning yalpi hosili dunyo bo'yicha 300 mln. t. ni tashkil etib, asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu ikki ekin turi faqatgina AQSh hamda Xitoyda sezilarli miqdorda yetishtiriladi.

1998 yilda jahonda qand ishlab chiqarish 110 mln. t. ga yetdi. Uning yetakchi mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishini keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida tahlil etish mumkin.

Jahon bozoriga har yili taxminan 30 mln. t. qand yetkazib beriladi. Bu asosan shakarqamish qandi bo'lib, Braziliya, Kuba, Avstraliya, Mavrikiya kabi davlatlardan xorijiy Yevropaga, AQSh, MDH davlatlariga, Xitoy, Yaponiyaga, Osiyoning «yangi industrial» mamlakatlariga, ya'ni uning qadoqlanishi amalga oshiriluvchi mamlakatlarga jo'natiladi. Lavlagi qandi xalqaro savdoda juda oz miqdorda ishtirok etadi.

15-jadval. Jahonda va «birinchi o'nlik» mamlakatlarida qand ishlab chiqarish

Shakarqamish qandi		Qand lavlagi	
Butun jahon va mamlakatlar	mln. t.	Butun jahon va mamlakatlar	Mln. t.
Butun jaxon	70,0	Butun jahon	40,0
Hindiston	9,9	Ukraina	7,0
Kuba	7,6	Fransiya	4,1
Braziliya	7,3	Rossiya	4,0
Tailand	4,3	AQSh	3,6
Xitoy	3,7	GFR	3,1
Meksika	3,6	Polsha	1,8
Avstraliya	3,5	Turkiya	1,8
Indoneziya	2,3	Italiya	1,7
AQSh	2,2	Buyuk Britaniya	1,3
JAR	2,2	Niderlandiya	1,1

O'uvvat beruvchi ekinlarga choy, kofe hamda kakao kiradi. Choyning vatani Xitoy bo'lib, Tak dinastiyasi davridayoq (VII-X asrlar) keng tarqalgan edi. Taxminan shu davrlarda choy Xitoydan Yaponiyaga o'tdi. Yevropada, avvalo Angliyada choy iste'molda foydalanila boshlandi. Osiyo mamlakatlarida Ost-Hind savdo aloqalari kompaniyasi boshlanganidan so'ng, ya'ni XVII asrdagina ma'lum bo'ldi. Rossiyada ham choy XVII asrda iste'mol qilina boshlandi. Uzoq vaqt uni «mustamlaka mahsuloti» deb ataldi. Yevropaga kelib olib mazkur ichimlik ommaviylashib ketdi, bu esa XIX asrda choy plantatsiyalarining - avvalo Hindistonda, so'ngra Tseylonda (Shri-Lanka) hamda Keniyada paydo bo'lishiga olib keldi.

Kofening vatani Efiopiya tog'liklari bo'lib, bu yerlarda mazkur ekin turini taxminan ming yillar ilgari etishtira boshlangan. Uning nomlanishi ham Efiopiya provintsiyasi hisoblangan Kafa nomidan olingan deb hisoblanadi. XI asrda kofe Yamanga keltirilib, undan Mox porti orqali Yevropaga olib ketilgan. Shu bois ham uzoq vaqt kofeni «mokko» deb ataganlar. O'rta asr oxirlariga kelib kofeni Italiyada, Fransiyada, Angliya Niderlandiyasida, shuningdek boshqa Yevropa mamlakatlarida iste'mol qila boshlaganlar. O'sib borayotgan talabni qondirish maqsadida uni maxsus plantatsiyalarda yetishtira boshladilar: shunday plantatsiyalardan dastlabkisi Yava oro'lida XVII asrda gollandiyaliklar tomonidan asos solingan. XVIII asr boshlarida bir qancha kofe doni taqdir taqozosi bilan Frantsuz Gvianasiga va u yerdan Braziliyaga kelib qoladi. Bu yerda mazkur ekin turi o'zining ikkinchi vatanini topadi.

N.I.Vavilov kakao vatani deb Meksika tog'larini hisoblaydi. XIX asr boshlarida ushbu ekin va undan olinadigan shokolad avvalo Ispaniyada, so'ngra esa Yevropaning boshqa mamlakatlarida ma'lum bo'ldi. Kakao plantatsiyalari Gviney bug'ozining qirg'oqlarida tashkil etildi.

Jahonda kofe ishlab chiqarish bugungi kunda 6 mln. t.. Choy hamda kakao esa 2,5 mln. t.ni tashkil etadi. Shunisi qiziqarlik, o'nta o'ta «choyli» mamlakatning sakkiztasi Osiyoda, o'nta o'ta «kofeli» mamlakatning beshtasi Amerikada, uchtasi Afrikada va ikkitasi Osiyoda, o'nta asosiy kakao ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning to'rttasi Afrikada, to'rttasi Amerikada va ikkitasi Osiyoda joylashgan. Ayni paytda choyni eng ko'p Hindiston, kofeni Braziliya, kakaoni -Kot-d Ivdar eksport qiladi. Lekin ularning asosiy iste'molchilari - AQSh bo'lib, kofe va kakao importi bo'yicha birinchi o'rinda, shuningdek Yevropa mamlakatlari va Yaponiya hisoblanadi. MDH mamlakatlari ham o'zining kofe va kakaoga bo'lgan ehtiyojini rivojlanayotgan mamlakatlar importi hisobiga, choyga bo'lgan extiyojini 2/3 qismini Gruziya va 1/3 qismini rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga kondiradi.

v) *Nooziq-ovqat ekinlari*

Nooziq-ovqat ekinlari tarkibida paxta, tabiiy kauchuk hamda tamaki muhim ahamiyat kasb etadi.

Paxta ekin maydonlari dunyoda 35 mln. ga ni tashkil etadi. Ular asosan shimoliy yarim sharning 20° va 40° shimoliy kengliklari oralig'ida mujassamlashgan. Paxta tolasi ishlab chiqarish jahonda asta-sekin o'sib borib, 18

mln. t. yetdi. O'z navbatida xalqaro paxtachilikni rayonlashtirish quyidagi o'ta yirik hamda yirik rayonlarni ajratish imkoniyatini beradi.

Birinchidan, bu Sharqiy, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo bo'lib, Xitoy (4,5 mln. t.) Hindiston hamda Pokiston (1,5 mln. t. dan), Tailand asosiy ishlab chiqaruvchilar sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, MDH doirasida O'rta Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlari bo'lib, bu yerda yirik ishlab chiqaruvchi - O'zbekiston (1,5 mln. t.) hisoblanadi. Uchinchidan, Janubi-g'arbiy Osiyo, bunda Turkiya (0,7 mln. t.), Eron, Iroq Suriya, Afg'oniston alohida o'rin tutadi. To'rtinchidan, bu Shimoliy va Sharqiy Afrika, Misr, Suriya, Efiopiya, Uganda, Tanzaniya. Beshinchidan, G'arbiy va Markaziy Afrika - Nigeriya, Kamerun, Zair. Oltinchidan, Janubiy Afrika, Mazombik, Madagaskar. Ettinchidan, Shimoliy va Markaziy Amerika, avvalo AQSh (3,4 mln. t.) hamda Meksika. Sakkizinchidan, Janubiy Amerika - Braziliya (0,7 mln. t.), Argentina, Venesuela, Peru. To'qqizinchidan, bu Avstraliyadir.

Jahon savdo shaxobchalariga har yili 5-6 mln. t., asosan o'rta tolali paxta tolsi keltiriladi. Asosiy eksportchilar –AQSh (1,7 mln.t.), so'ngra O'zbekiston, Xitoy, Pokiston, Hindiston, Afrika mamlakatlari, Paragvay, Avstraliya. Import geografiyasini asosan ikki region belgilab beradi:

1. Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo (Yaponiya, Tayvan, Koreya Respublikasi, Gonkong, Tailand, Indoneziya)

2. Yevropa (Italiya, GFR, Fransiya, Polsha, Chexiya, Slovakiya va boshqalar).

Uzun tolali paxta qimmatbaho ahamiyat kasb etadi (Misr, Peru, Turkmaniston) 1998 yilda jahonda tabiiy kauchuk etishtirish 5,5 mln.t.ga yetgan bo'lsa, uning 90% Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari: Malayziya (1,3 mln), Indoneziya va Tailand (1,2 mln. t. dan), shuningdek, Hindiston, Shri-Lanka, Filippin hissasiga to'g'ri keladi. Gavayaning yirik plantatsiyalari shuningdek, Liberiyada ham mavjud. Mazkur ko'rsatib o'tilgan mamlakatlar ayni paytda kauchuk eksport qiluvchi asosiy mamlakatlar ham hisoblanadi.

Tamaki yetishtirish bilan dunyoda 30-35 mln. kishi shug'ullanadi, uni tarqatishdan keladigan daromaddan esa 100 mln kishi xayot kechiradi. Jahonda tamaki kukuni yetishtirish 7 mln. t. ga etdi. Uni eng ko'p etishtiruvchi mamlakatlar doirasiga Xitoy (2,7 mln.t.), AQSh, Hindiston, Braziliya va MDH mamlakatlari kiradi. Italiya, Gretsiya, Bolgariya, Turkiya, Indoneziya, Yaponiya va Kubada tamaki oz miqdorda yetishtiriladi. Sigareta ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda AQSh birinchi (700 mld. dona), MDH mamlakatlari ikkinchi o'rinda turadi. AQSh tamaki sanoati asosan o'z xom-ashyosi hisobiga, Yevropa tamaki sanoati esa Xitoy, Hindiston, Braziliya, shuningdek boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan keltiriladigan tamaki mahsuloti hisobiga rivojlanib bormoqda. Tamaki ishlab chiqarish va iste'mol qilish Yevropa va Shimoliy Amerika kabi chekishga qarshi ommaviy xarakat kengayib borayotgan mamlakatlarga nisbatan rivojlanayotgan davlatlarda tezroq o'smoqda.

Keyingi davrlarda narkotik o'simliklar hamda opium, marixuana, gashish va boshqa narkotik moddalar ishlab chiqarish sezilarli darajada ortdi. Ularni ishlab chiqaruvchi mamlakatlar tarkibida «oltin yarim oy» (Pokiston, Afg'oniston, Eron) hamda «oltin uchburchak» (Tailand, Laos, Myanma) mamlakatlari, shuningdek

Lotin Amerikasining ayrim davlatlari, asosan Kolumbiya alohida o'r'in tutadi. Dunyo davlatlari tarkibida 30 dan 50%gacha bo'lgan narkotik moddalar AQSh hissasiga to'hri keladi.

6.4. Jahon chorvachiligi

Ushbu yo'nalishda ikki muhim masalani - chorva soni va asosan chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarishni ajratish mumkin.

Jahondagi yirik shohli korxonalar, qo'y hamda cho'chqalar umumiy soni hamda yirik regionlar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

16-jadval
Jahondagi va uning alohida regionlarida 1998 yillar boshida qoramollar soni (mln. bosh hisobida)

Hayvonlar turi	Jahon-dagi soni	Shu jumladan						
		MDH	Yevropa	Osiyo	Afrika	Shimoliy Amerika	Lotin Amerikasi	Avstraliya va Okeaniya
Yirik shoxli	1300	120	150	400	190	115	290	35
Cho'chqal	850	80	200	400	10	65	90	5
Qo'ylar	1200	140	140	380	240	10	125	105
Yilqilar	65	6	5	17	4	14	18	1

Umumlashtirgan holda, ta'kidlash mumkinki, sut yo'nalishidagi yirik shohli qoramol ko'paytirish aholi zikh joylashgan Yevropa, Shimoliy Amerika rayonlari uchun xosdir. Go'sht-sut yo'nalishidagi qoramolchilik intensiv qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan mo'tadil mintaqa rayonlarida, shuningdek qo'rg'oshin va mehnat resurslari bilan yomon ta'minlangan rayonlarda tarqalgan. Go'sht chorvachiligi ekstensiv (Argentina, Avstraliiyaning katta qismi) va intensiv (AShchP) bo'lishi mumkin. Ammo ayni paytda u va bu holatda ham yuqori darajada tovar xususiyatiga ega bo'ladi. Cho'chqachilik bilan turli tabiiy sharoitlardagi intensiv va ekstensiv qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan mamlakatlar shug'ullanadi. Odatda, bu tarmoq aholi zikh joylashgan rayonlarda, kartoshkachilik, lavlagikorlik rayonlarida keng rivojlanadi. Qo'ychilik keng yaylov maydonlariga ega bo'lgan mamlakat va rayonlarda ustun rivojlanadi. Ayni paytda mayin junli qo'ychilik quruq iqlimli rayonlarda ko'proq tarqalgan bo'lib, dasht hamda chalacho'l yaylovlari sharoitida olib boriladi. Sernam va yumshoq iqlimli hududlarda yarimmayin junli, go'sht-jun yo'nalishidagi qo'ychilik rivojlanadi.

M. B. Volf va Yu. D. Dmitrievskiy o'zlarining jahon qishloq xo'jaligi xaqidagi kitoblarida to'rt turdag'i chorvachilik rayonlarini ajratganlar. Ular intensivlik darajasiga ko'ra quyidagicha taqsimlanishi mumkin.

Birinchi turga aholi juda zikh joylashgan va qoramol yuqori darajada zikh bo'lgan (100 ga qishloq xo'jaligi maydoniga 100-200 bosh va undan ko'p) rayonlar

kiradi. Bu turga mansub rayonlarda mazkur tarmoq yuqori mahsudorlikka ega bo'lib, intensiv sut chorvachiligi, cho'chqachiliq, parrandachilikka ixtisoslashgandir. Yevropada birinchi turdag'i rayon Daniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya kabi mamlakatlarni, Shimoliy Amerikada - AQShning shimoli-sharqini qamrab oladi. Bu mamlakatlardagi chorvachilik yalpi qishloq xo'jalik tovar mahsulotining 60-80% ini yetkazib beradi.

Ikkinchi turga intensivlik hamda qishloq xo'jalik mahsulorligi o'rtacha darajada bo'lgan rayonlar mansubdir. Unga chorvaning o'rtacha zichligi ham (30-60 bosh) ta'lluqlidir. Bu turga misol tariqasida Janubiy va Sharqiy Yevropa, AQShning janubiy va markaziy shtatlari, Lotin Amerikasining ayrim rayonlari kiradi.

Uchinchi turga aholi zichligi hamda chorva boshi zichligi (5-10 bosh) past bo'lgan, kam intensivlashgan chorvachilik tarmoqlari va yo'nalishlari, keng tabiiy yaylovlarda qoramollarni ekstensiv holatda saqlanuvchi va mahsulorligi nisbatan past bo'lgan rayonlar kiradi. Bunday rayonlarga misol tariqasida Avstraliyaning katta qismini, Argentinadagi Patagoniyani, Angola, G'arbiy va Shimoliy Afrikaning ayrim mamlakatlarini (Mavritaniya, Chad, Aljir) keltirish mumkin. Odatda mazkur mamlakatlarda chorvachilik dehqonchilikdan ustun bo'lib, xo'jalikning asosiy tarmog'i hisoblanadi.

Va nihoyat, to'rtinchı turga aholisi juda zich joylashgan, chorva mollari zich (60-200 bosh), ammo mahsulorligi past va kam intensiv tarmoq hamda yo'nalishlar ustun bo'lgan rayonlar kiradi. Chorvachilik bularda yordamchi ahamiyat kasb etib, oz miqdorda tovar mahsuloti yetkazib beradi. Bunday rayonlarga misol tariqasida Hindiston, Shri-Lanka, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini keltirish mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kam mahsulor chorvachilik markazlari aksariyat hollarda iste'mol va tovar dehqonchiligidan hududiy jihatdan ajralgan holda olib boriladi.

17-jadval

Chorvachilik mahsulotini asosiy turlarini ishlab chiqarish

Jahonda va ayrim mamlakatlarda 1998 yilda go'sht ishlab chiqarish					
Butun jahon, alohida mamlakatlар	Jami mln. t. hisobida	Aholi jon boshiga, kg	Butun jahon alohida mamlakatlар	Jami mln. t. hisobida	Aholi jon boshiga, kg
Butun jahon	170	35	Buyuk Britaniya	3,8	65
AQSh	31	125	Yaponiya	3,8	30
Xitoy	28	25	Italiya	3,7	65
Rossiya	10	60	Avstraliva	3,6	180
GFR	8	110	Meksika	3,5	30
Fransiya	6	110	Ispaniya	3,4	70
Braziliva	6	45	Polsha	3,1	80
Argentina	4	125	Niderlandiya	3,0	200
Ukraina	4	75			

18-jadval

1998 yilda jahonda va alohida davlatlarda sut ishlab chiqarish

Butun jahon, alohida davlatlar	Jami mln. t.	Aholi jon boshiga, kg	Butun jahon, alohida davlatlar	Jami mln. t.	Aholi jon boshiga kg
Butun jahon	550	110	Buyuk Britaniya	15	265
AQSh	67	270	Niderlandiya	13	900
Hindiston	55'	65	Braziliva	13	90
Rossiya	52	350	Italiya	11	195
GFR	32	450	Kanada	8	315
Fransiya	28	490	Yangi Zelandiya	8	2400
Ukraina	24	460	Yaponiya	8	65
Polsha	16	430	Belarus	7	700
Argentina	6	200	Meksika	6	70
Avstralija	6	370			

20-jadval

1998 yilda jahonda va alohida davlatlarda tuxum ishlab chiqarish

Butun jahon, alohida davlatlar	Jami, mlrd. dona	Aholi jon boshiga	Butun jahon, alohida davlatlar	Jami, mlrd. dona	Aholi jon boshiga
Butun jahon	660	140	Niderlandiya	10	760
Xitoy	150	130	Polsha	8	230
AQSh	68	270	Ruminiya	8	350
Rossiya	48	320	Turkiya	7	115
Yaponiya	40	280	Kanada	5	230
Braziliya	19	125	Argentina	5	150
GFR	18	250	Qozog'iston	4	230
Ukraina	16	300	Vengriya	4,5	450
Fransiya	15	270	Eron	4,1	75
Meksika	14	150	Belorus	3,7	370
Buyuk	13	230	Indoneziya	12	65
Italiya	11	190	Ispaniya	10	250

Yuqorida keltirilgan jadvallardan ikki muhim xulosa qilish mumkin. Har to'rtta ma'lumotlarda ham iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning yuqori darajada joylashganligini ko'rish mumkin. Bunday holat Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi davlatlarida chorvachilikni past mahsulдорligi va ekstensivligi oqibatidir. Bu

davlatlarga jahon go'sht ishlab chiqarishni 25%, sut ishlab chiqarishni 14% to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chorvachilik mahsulotlari ham iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yuqori darajada. Ayniqsa bu masalada unchalik yirik bo'limgan, chorvachilik intensiv rivojlangan - masalan: Yangi Zelandiya, Niderlandiyaga o'hshash mamlakatlar alohida o'rinni tutadi. Shuningdek aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yuqori ko'rsatkichlar, chorvachilik ekstensiv rivojlangan, aholi soni kam bo'lgan davlatlarda ham kuzatiladi. Masalan: Avstraliya.

Yuqoridagi jadvallarga qo'shimcha ravishda quyidagi e'tiborga loyiqa ma'lumotlarni keltirish mumkin.

Go'sht ishlab chiqarish tizimida mol va buzoq go'shti yetishtirish salmog'i 32%, cho'chqa - 39%, parranda go'shti — 20%, ot va qo'y go'shti salmog'i 9% to'g'ri keladi.

So'nggi yillarda broyler xo'jaligining Shimoliy Amerika, Yevropada intensiv rivojlanishi parranda go'shti yetishtirishni ko'paytirdi. Juhon bo'yicha uning soni 10 mlrd. dan oshib ketdi. Ayniqsa, har bir bosh sigirdan sut sog'ib olish, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda g'arbda 3-5 ming kg, (biroq Daniya, Niderlandiya 5,8 ming kg, Shvetsiyada 6 ming kg, AQShda 6,5 ming kg. MDH davlatlarda o'rtacha 2,6 ming kg.)ni tashkil etadi.

Xalqaro chorvachilik mahsulotlari bilan savdo qilishni qiyoslashda quyidagi jadval ma'lumotlari bilan chegaralanib qolamiz. Jadvaldan ko'rinish turibdiki xalqaro savdoda yetakchi mavqeni g'arbdagi iqtisodiy rivojlangan davlatlar egallab turibdi. Bular go'sht mahsulotlarini va junni eksport hamda import qiluvchi yetakchi vazifani bajarmoqdalar. Faqatgina tirik mollar savdosida yetakchi o'rinni rivojlanayotgan davlatlar yuqori o'rinni egallaydi.

21-jadval

Chorvachilik mahsulotlari va tirik mol eksport qiluvchi asosiy davlatlar

Chorvachilik mahsulotlari va tirik mol	Eksport qiluvchi yetakchi davlatlar
Mol va buzoq	Avstraliya, GFR, Fransiya, Yangi Zelandiya, Irlandiya, Niderlandiya, AQSh, Vengriya
Cho'chqa, qo'y va qo'zi, parranda go'shti; jun	Niderlandiya, Belgiya, Daniya, Kanada, Vengriya, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Braziliya, Avstraliya, Argentina, Urugvay, YuAR.
Yirik shohli qoramol, cho'chqalar, qo'y va echkilar	Braziliya, Argentina, Meksika, Efiopiya, Xitoy, Niderlandiya, Kanada, <u>Avstraliya, Turkiya, Somali, Efiopiya</u>

Asosiy tayanch iboralar

1. Agrar islohatlar – yerlardan foydalanish tizimida davlat tadbirlari. Mamlakatlar va ularning tumanlarining iqtisodiy geografik sharoiti va tarixiy xususiyatlari islohatlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

2. Agrobiznes – foydani ko'paytirish maqsadida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimida boshqarishni zamonaviy usullaridan foydalanishga asoslangan qoidalarni qo'llash. Yirik qishloq xo'jalik korxonalari ham agrobiznesda qatnashishlari mumkin, bunda ikki tomon o'rtasida qat'iy kelishuv hosil bo'ladi.

3. Agrosanoat majmui (ASM) – mamlakatni oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi xom-ashyosi bilan ta'minlovchi tarmoqlararo xo'jalik majmui.

Uch tarmoqni o'z ichiga oladi:

1. Qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi va uning moddiy texnika ta'minoti hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlari;

2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari;

3. ishlab chiqarish, ta'minot, taylorlov va saqlash, sanoat usulida qayta ishlash va pirovard mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi tarmoqlar;

4. Yer rentasi – Yer egasiga vaqtı-vaqtı bilan ijrarachi tomonidan erdan foydalanganligi uchun to'lanib turiladigan so'm miqdori.

5. Dehqon xo'jaligi - o'z qaramog'ida bo'lgan mulk, yer va boshqa tabiiy resurslarda foydalanish asosida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Dunyo qishloq xo'jaligining rivojlanish va joylashish xususiyatlari.
2. Dunyo mamlakatlarida qishloq xo'jalikni xududiy tashkil etishning shakllari.
3. Dunyo ziroatchiligining yetakchi tarmoqlarining joylashishi va rivojlanishi.
4. Jahon qishloq xo'jaligining xalq xo'jaligida tutgan o'rni va ahamiyati.
5. Jahon qishloq xo'jaligining rivojlanishi va joylashishiga ta'sir qiluvchi omillar.
6. Jahon yer fondi va ularning materiklar bo'yicha taqsimlanishi.
7. Jahon bozori va jahon xo'jaligining shakllanishi.
8. Jahonning oziq-ovqat sanoati tarmoqlariga ta'rif.
9. Dunyo chorvachiligi yetakchi tarmoqlarining joylashishi va rivojlanishi.
10. Dunyoning turli mamlakat va mintaqalarida oziiq-ovqat muammolari va ularning echimi.

Adabiyotlar

1. Akramov E.M., Toirov A. - «Ekonomicheskie reformi Respublikи Uzbekistan». M.: “Lyuks-ort”, 1998.
2. Sergeev L.V. - «Mirovoy xozyaystvo i mejdunarodnoy ekonomicheskiy otnoshenie na sovremennom etapy» M.: «Noviy yurist», 1998.
3. Lomakin V. - «Mirovaya ekonomika». M.: “Finansi”, 1998g.
4. Maksakovskiy V.P. - «Geograficheskaya kartina mira». Yaroslavl, 1996.
5. Rozin M.S., Volf M.B. Vasilevskie L.I. - «Sovremennoy geografiya mirovogo xozyaystva». M.: Prosveshcheniy, 1998.

VII-bob. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyotiga binoan tiplari va rivojlangan davlatlarning iqtisodi-geografik tavsifi.

7.1. Mamlakatlarni jahon xo'jaligida tutgan o'rni va tabiiy demografik salohiyati

2001 yil yanvar ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 229 ta mamlakat mavjud bo'lgan. Shularning 7 tasi dunyoda eng rivojlangan, iqtisodiy va siyosiy mavqeい ulkan bo'lgan "ettilik" davlatlaridan, 17 tasi iqtisodiy rivojlanganlik darajasi yuqori, lekin tabiiy-demografik salohiyati ancha past bo'lgan mamlakatlardan iboratdi. Ushbu mamlakatlar jahon iqtisodiy va siyosiy munosabatlarida asosiy ro'lni o'ynayotgan davlatlardir. "Yettilik" mamlakatlariga hozirgi vaqtida dunyoda yaratilan Yalpi milliy maxsulotning (YaMM) 63.5%i, keyingi guruh mamlakatlari (17 ta davlat) bilan birgalikda esa 71.5%i, ya'ni sal kam 3/4 qismi to'g'ri keladi.

Demak, yer shari quruqlik yuzasi foydalaniladigan qismining atigi 22.6%i, aholisining esa undan ham kam ulushi-13%i mavjud 24 ta mamlakat dunyo miqyosida YaMMning aksariyat qismini yetkazib bermoqda. Shu vaqtning o'zida soni 89 taga teng iqtisodiy jihatdan bo'sh rivojlangan va "qoloq" mamlakatlarga dunyo YaMMning 20.9%i to'g'ri keladi xolos.

Jahonda mavjud 229 mamlakat o'zigi xos iqtisodiy salohiyatga, ya'ni tabiiy va inson resurslariga esa. Bu o'rinda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, avvalambo, "yettilik" davlatlari alohida o'ringa ega ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir.

"Yettilik" mamlakatlari AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanada ulkan inson resurslariga ega. Mazkur mamlakatlarda jahon miqyosida fan-texnika inqilobi (FTI) va fan-texnik taraqqiyoti (FTT) yuz bergenligi va hozirda ham FTI yo'nalishini aynan ushbu davlatlar belgilab berayotgani bejiz emas. Chunki bu mamlakatlarda sifat ko'rsatkichlari juda yuqori darajaga ega bo'lgan mehan resurslari mavjud. Quyidagi jadvalda mamlakatlarda mavjud mehnat resurslari ulushi xaqida ma'lumotlar keltirilgan.

22-jadval.

**Jahon mamlakatlarini demografik salohiyati
bo'yicha tiplarga ajratish.**

Mamlakatlarning guruhlari	Aholisi		Tabiiy harakati koeffitsienti			Bolal ar o'lim i koeff itsien ti	Aholining yosh tarkibi, %			Aholinin g o'rtacha umr davri	
	Soni, mln. k	Ulu shi, %	Tug 'ilis h koef .	o'li m koef .	Tab iiy o'si sh koef .		0- 14	15 - 64	65 +	Yer kakl ar	Ay oll ar
I. "Ettilik" mamlakatlari	688*/ 622	11,5/ 10, 9	12/1 3	9/9	3/4	6/7	19/ 20	66/ 66	15/ 14	74/7 3	81/ 80
II. Iqtisodiy rivojlangan, lekin tabiiy demografik salohiyati bir muncha cheklangan mamlakatlar	89/8 6	1,5/ 1,5	11/1 2	8/9	3/3	6/6	18/ 19	68/ 67	14/ 14	75/7 5	81/ 81
III. Iqtisodiy salohiyati katta bo'lgan, yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan malakatlar	144/ 136	2,4/ 2,4	15/1 6	7/9	8/7	6/6	21/ 22	67/ 66	12/ 12	75/7 3	80/ 78
IV. Ulkan tabiiy va rekratsion resurslarga ega mamlakatlar.	436/ 317	1,4/ 1,2	18/1 9	9/8	9/11	10/12	22/ 23	66/ 67	12/ 10	70/6 9	77/ 75
V. Jahonda eng ko'p sonli rivojlanayotgan mamlakatlar.	1385/ 135 0	23,2/ 23, 7	25/2 8	9/7	16/2 1	27/31	35/ 38	60/ 58	5/4	66/6 2	72/ 70
VI. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy guruhi. Iqtisodiy taraqqiyot deyarli	3041/ 295 0	50.8/ 51. 7	33/3 6	11/1 4	22/2 2	47/52	36/ 38	60/ 59	4/3	58/5 6	67/ 64

kuzatilayotgan mamlakatlar.											
VII. Iqtisodiy qoloq, taraqqiyoti kuzatilmayotgan mamlakatlar.	581/ 514	9.7/ 9.0	44/4 6	16/1 7	28/2 9	88/10 4	46/ 48	51/ 50	3/2	47/4 3	53/ 49
Dunyo bo'yicha	5982 /570 2	100/ 100	23/2 4	9/9	14/1 5	57/62	31/ 32	62/ 62	7/6	64/6 4	68/ 68

Dunyoda mehnat resurslarining eng ko'p miqdori VI guruh mamlakatlariga to'g'ri keladi. Mazkur mamlakatlarda hozirgi vaqtida dunyoda mavjud 3.7 mld kishiga teng mehnatga layoqatli aholining 1.8 mldi yoki 48.6%i to'plangan. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha keyingi o'rinni V guruh mamlakatlari egallaydi.

Shu bilan birga dunyoda eng sifatli mehnat resurslari I va II guruh mamlakatlarda mavjud. Ushbu mamlakatlarda mehnatga layoqatli yoshdag'i aholi soni 515 mln kishini yoki dunyoda mavjud barcha mehnatga layoqatli yoshdag'i aholining 13.9%ini tashkil qiladi.

Jahon mamlakatlari tabiiy (mineral, yer, suv, iqlim va biologik) resurslar bilan xilma-xil tarzda ta'minlangan.

"Yettilik" davlatlariga foydalaniyotgan yer quruqlik yuzasining 15.8%i to'g'ri keladi. Ushbu mamlakatlarning ko'pchiligi mineral resurslar bilan yaxshi ta'minlangan. AQSh, Kanada, Fransiya, Buyuk Britaniya va Germaniya toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir bilan yuqori daraja ta'minlangan. AQSh, Kanada, Fransiya va Yaponiya gidroenergiya resurslariga, birinchi uch mamlakat yana yadro energiyasiga ham boydir. Umuman AQSh va Kanada tabiiy resurslarning deyarli barcha turlari bilan yaxshi ta'minlangandir.

Xaydaladigan va sug'oriladigan yerlar maydonlari AQSh va Kanadada bir necha o'n miln getktarni, Fransiya, Germaniya va Italiyada bir necha o'n mln getktarni tashkil etadi. Ushbu mamlakatlar suv va o'rmon resurslariga ham boydir.

Ikkinci guruh mamlakatlari ichida Avstraliya tabiiy resurslarning barcha turlari bilan yaxshi ta'minlangan. Umuman Singapur, Belgiya, Lyuksemburg, Lixtenshteyn va boshqa mitti davlatlardan tashqari ikkinchi guruhga kirgan qolgan mamlakatlarning barchasi tabiiy resurslarning u yoki bu turlariga boydir. Jumladan Norvegiya gidroenergiya resurslari, Shvetsiya va Finlandiya suv, yer va rekreatsiya resurslari bilan yuqori darajada ta'minlangandir.

Uchinchi guruhga kiruvchi mamlakatlar ichida Ispaniya, Portugaliya, Koreya Respublikasi va Yangi Zelandiya yer, suv hamda rekreatsiya resurslariga boy.

To'rtinchi guruh mamlakatlarining asosiy qismi yer, suv hamda iqlim resurslari bilan yaxshi ta'minlangan (Argentina, Chexiya, Urugvay, Slaveniya) yoki rekriatsion resurslarga boy (Seyshel oro'llari, Antigua va Barbuda, Sent-Kristofor va Nevis, Malta) mamlakatlaridan iborat.

Beshinchi guruh tabiiy resurslar bilan xar hil ta'minlangan mamlakatlardan tashkil topgan. Shularning ichida yer, suv va meneral resurslar bilan yaxshi ta'minlangan mamlakatlar (Ukraina, Polsha, Ruminiya, Turkiya, Qozog'iston,

O'zbekiston, Misr, Tunis, JAR, Namibiya, Meksika, Braziliya, Chili, Venisuela va boshqa)lar bilan navbatda resurslarning bir turi hisobiga rivajlanayotgan mamlakatlar ham mavjuddir. Mazkur mamlakatlar ichida rekreatsiya resurslarga boy “oro'l” (Vanuatu, G'arbiy Samoa, Mikroneziya, Fiji oro'llari, Moldiv Respublikasi, Yamayka, Sent-Lusil, Trinidat va Tabago) yoki quruqlikda joylashgan mamlakatlar (Livan, Makedoniya, Tunis va boshqa)lar alohida o'rinni egallaydi.

Oltinchi guruh ichida tabiiy resurslarning deyarli barcha turlariga boy mamlakat (Xitoy, Xindiston, Pokiston, Kamerun, Gruziya, Ozarbajon va boshqa)lar bilan bir navbatda shularning bir, ikki turi bilan yaxshi ta'minlangan davlatlar ham mavjuddir. Chunonchi mineral resurslar hisobiga rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga Turkmaniston, Boliviya, Mavritaniya, Zambiya er suv resurslari hisobiga rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga Albaniya, Tojikiston, Komboja, Laos, Senegal, Vietnam, Ganduras, Nigaragus, Gana, Bangladesh, Shiri-Lanka, Moldaviya va boshqalar kiradi.

Yettinchi guruhga kiradigan iqtisodiy qoloq mamlakatlarning ko'pchiligi tabiiy resurslarga kambag' aldir. Shular qatoriga Burkina-Faso, Gvineya-Bisau, Mali, Serre-Leone, Yerishtreya, Efiopiya, Malavi, Mozambik, Ruanda, Yaman va Nepal davlatlari kiradi. Ushbu guruhdagi bazi bir mamlakatlar tabiiy resurslarning u yoki bu turiga boy bo'lagnaligiga qaramasdan, ishlab chiqarish munosabatlarining mukammal emasligi va aholi sonining juda tez sur'atlar bilan o'sayotganligi tufayli, iqtisodiy qoloqlikdan chiqsa olmayapti. Bunday mamlakatlar qatoriga yer, suv va meneral resurslarga boy Sudan, Nigeriya, Mdagaskar, Tanzaniya, Angola, KDR, Chad va boshqa davlatlar kiradi.

7.2. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga binoan tiplari

Xozirgi vaqtda iqtisodiy va siyosiy geografiyada jahon mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga binoan ayrim tiplarga ajratish masalasi eng muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu murakkab va ko'p jihatdan “nozik” muammo fan yutuqlari va erishgan tajribalarga tayangan holda hal etildi.

Mamalakatlarni ayrim tiplarga ajratish avvalambor ularda mavjud aholi jon boshiga xos bo'lgan YaMM qiymati hisobga olinadi undan keyin bosqichlarda YaMM umumiy qiymat, sanoati, qishloq xo'jaliga va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganlik darjasini va ularning iqtisodiyotda egallagan o'rni inobatga olindi. Mazkur jarayonda u yoki bu davlatning jahon iqtisodiy va siyosiy xamjamiyatidagi o'rni va ahamiyatiga katta e'tibor berildi.

Shunday qilib, ana shu metodologik tamoyillarga tayangan holda jahonda mavjud bo'lgan barcha 229 mamlakat yetti tipga bo'linadi (22-jadval).

Barcha iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha I tip “yettilik davlatlari” tengi yo'q hisoblanadi.

Ikkinci tip mamlakatlari ularga hos iqtisodiy ko'rsatkichlarga binoan “ettilik davlatlari”ga juda yaqin turadi. Ushbu mamlakatlar soni 1997 yilda Gonkong va 2000 yilda Makaoni Xitoy Xalq Respublikasiga tarkibiga qo'shilishi hisobiga 2 taga qisqardi.

Uchinchi tip davlatlari iqtisodiy rivojlanishi suratlariga binoan I va II tip mamlakatlardan ustun turadi. Xamda ushbular qatorini to'ldirib turuvchi asosiy manba hisoblanadi. Shunday davlatlar qatoriga rivojlangan zamoniay qayta ishlovchi sanoatga, qishloq xo'jaligi xamda xizmat ko'rsatish sohasiga ega bo'lgan Isroil, Koreya Respublikasi, Yangi Zilandiya va ayniqsa Ispaniya va Portugaliyani qo'shish mumkin.

To'rtinchi tip mamlakatlari ichida uchinchi va undan xam yuqori tip mamlakatlari o'tish uchun Argentina, Urugvay, Chexiya davlatlari barcha imkoniyatlarga egadir

Jahon mamlakatlarining tipologiyasi

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga binoan tiplari	Mamlakatlar soni		maydoni		YaMM \$		Ax j/b YaMM \$	Ah j/b YaMM Nisb. indek
	Son	%	m kv km	%	Mlrd \$	%		
I.Iqtisodiy salohiyati va rivojlanganlik darajasi juda yuqori bo'lgan "yettilik davlatlari"	7/7 ⁵	3.1/3.1	21168/21168	15.8/15.8	19622/15861	63.5/61.7	28520/25500	5.5/5.7
II.Iqtisodiy rivojlanganlik darajasi juda yuqori bo'lgan mamlakatlar	17/19	7.4/8.3	9197/9197	6.8/6.8	2471/2156	8.0/8.4	27764/25069	5.4/5.6
III.Iqtisodiy va intelektual salohiyati katta bo'lgan, yuqri darajada rivojlangan mamlakatlar.	12/12	5.2/5.2	1596/1596	1.2/1.2	1798/1484	5.8/5.8	12486/10912	2.4/2.4
IV.Rekreatsion va intelektual resurslarga, qulay iqtisodiy-geografik o'ringa ega bo'lgan, iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar	20/20	8.7/8.7	3060/3060	2.3/2.3	436/317	1.4/1.2	8074/7204	1.6/1.6
V.Jahonda eng ko'p sonli, iqtisodiy va intelektual salohiyati xilma-xil mulkchilik shakllariga asoslanib rivojlanayotgan mamlakatlar.	84/84	36.7/36.5	51251/51251	38.2/38.2	4243/3794	13.7/14.8	3064/2810	0.6/0.6
VI.Tabiyy va ayniqsa inson salohiyati ulkan, lekin iqtisodiy taraqqiyoti darajasi ancha past va sur'atlar xar xil bo'lgan mamlakatlar	56/56	24.5/24.3	28045/28045	20.9/20.9	2235/1984	7.2/7.7	735/672	0.14/0.15
VII.Xo'jaligining taraqqiyot darajasi va sur'atları juda past, inson resurslariga boy bo'lgan, iqtisodiy qolqoq mamlakatlar	33/32	14.4/13.9	19971/19971	14.8/14.8	122/104	0.4/0.4	210/202	0.04/0.05
Jami	229/230	100/100	134288/134288	100/100	30927/25700	100/100	5170	1.0/1.0

Kasr maxrajida 1995 yilgi, suratida 1999 yilning 1,07 ga nisbatan olingan ma'lumotlar.

Beshinchi tip mamlakatlari qatoriga iqtisodiy rivojlanishining katta imkoniyatlari Ukraina, Xorvatiya, Slovakiya, Vengriya, Polsha, Turkiya, Malayziya, JAR, Braziliya, Chili davlatlarida mavjuddir. O'zbekiston va boshqa shu tipga kirgan sobiq itfoq respublikalarining imkoniyatlari ham yuqori baholanmoqda.

Oltinchi tip mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyoti ko'p jihatdan ularda mavjud siyosiy vaziyatning barqarorlashishi hamda rivojlanishning demokratik yo'llini tanlab olishiga bog'liqdir. Shunday muammolar dast avval Tojikiston, Turkmaniston, Albaniya, Kombodja, Laos, Nikaragua, Armeniya, Ojarbajon, Gruziya, Uganda, Bangladesh, Pokiston davlatlariga hosdir.

Yettinchi tip mamlakatlari soni unchali katta bo'lmasa ham aynan shularga xos ijtimoiy-iqtisodiy muammolar jahondagi barqarorlik va tenglikka xavf solishi mumkin. Binobarin Nigeriya, KDR, Niger, Chat, Ruanda, Burundi, Sudan, Efiopiya va Epitriya mamlakatlarida yuz bergen va davom etayotgan millatlararo mojoro'lar, urushlar, Afrikada va butun dunyoda siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarayotgan eng muhim sabablardir.

3. Jahon iqtisodiy va siyosiy munosabatlarida ustun ahamiyatga ega bo'lgan "ettilik" mamlakatlarining iqtisodiy-geografik tavsifi

"Yettilik" mamlakatlari yuqorida qayd etib o'tilgan dunyo miqyosida YaMMning deyarli 3/2 qismini yetkazib beradi. "Yettilik" mamlakatlarining barchasi yuqori darajada rivojlangan sanoat va qishloq xujaligi ishlab chiqarishiga hamda xizmat ko'rsatish sohasiga egadirlar.(24-jadval)

24-jadval
"Yettilik" mamlakatlari band aholining tarmoqlar tarkibi%

Davlat	Jami	Shu jumladan				
		Sanoat va quri lishda	Q/x	Tran-rt va aloqada	Savdo tex niqa ta' minoti,	Boshqa tarmoqd a
lar	band aholi					
AQSh	100	24	3	6	21	46
Yaponiya	100	34	6	6	22	32
Germaniy a	100	38	3	6	17	36
Fransiya	100	29	5	7	17	42
B.Britaniy a	100	27	2	6	20	45
Italiya	100	32	8	5	22	33
Kanada	100	23	4	6	24	43
O'zbekist on	100	20.8	28	6.5	9.3	35.4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turganidek barcha "yettilik" mamlakatlarida sanoat yuqori daraja rivojlangan shu bilan birga band aholi salmog'ining qishloq xo'jaligida past ko'rsatkichlarga ega. Ushbu tarmoqni yuqori darajada mexanizatsiyalashganligi, jarayonlarni zamonaviy kompyutyerlar vositasida boshqarilishi bilan bog'langan. Mazkur davlatlarning ko'pchiligi (AQSh, Kanada, Fransiya, Italiya) qishloq xo'jaligi maxsulotlari va xom ashyosiga bo'lgan ehtiyojlarining o'zlarining ichki ishlab chiqarish imkoniyatlari hisobiga to'la ta'minlaydi. Germaniya, Yaponiya va Buyuk Britanya mamlakatlari ham jami iste'mol q ladigan qishlo xo'jaligi maxsuloti va xom ashyosining 20-30%ini import qiladi holos. Eng muhimi import bilan bog'langan xarajatlar boshqa qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksporti hisobiga nafaqat qoplanadi, balki daromad ham keltiradi.

"Yettilik" mamlakatlari iqtisodiyotini naqadar yuqori darajada rivojlanganligini ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat maxsulotining bazi bir asosiy turlari hisobida ham ko'rishimiz mumkin.

25-jadval

"Yettilik" davlatlarini sanoat mahsuloti ba'zi bir turlarini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda egallagan o'rirlari

Davlatlar	El/en i/ch mlrd		Neft qazib olish		Tab.gaz qazib olish		Ko'mir qazib olish		Po'lat eritish		Avtomobil i/ch		Tsement i/ch	
	Mlrd kvt/s	%	Mln t	%	Ml rd ku bM	%	Ml n t	%	Ml n t	%	Ml n do na	%	Mln t	%
AQSh	3800	31,7	350	10,6	58	2,4	900	18,0	90	13,8	8	22,9	75	6,8
Yaponiya	910	7,6	1	0,0	3	0,1	7,5	0,2	100	15,4	9	25,7	90	8,2
Germaniya	550	4,6	3	0,1	2	0,1	300	6,0	40	6,2	4	11,4	40	3,6
Fransiya	513	4,3	3	0,1	4	0,2	10	0,2	20	3,1	3,5	10,0	22	2,0
B.Britaniya	345	2,9	98	3,0	75	3,1	70	1,4	17	2,6	1,5	4,3	9	0,8
Italiya	240	2,0	5	0,2	25	1,0	1	0,0	30	4,6	1,4	4,0	40	3,6
Kanada	577	4,8	85	2,6	16	0,7	75	1,5	16	2,5	1,5	4,3	10	0,9
O'zbekiston	48	0,4	8	0,2	50	2,1	3	0,1	1	0,2	0,2	0,6	6	0,5
	12000	100	3300	100	2400	100	5000	100	650	100	35	100	1100	100

Asosiy tayanch tushunchalar.

Salohiyat – ma'lum makon doirasidagi resurslarni umumlashtirish jamlash yo'li bilan baholash.

Iqtisodiy salohiyat – jamiyatni tabiiy va inson resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini hamda undan foydalanish bo'yicha imkoniyatlarning hali mavjudligini anglatadi va ana shu imkoniyatlar miqyosi bilan baholanadi.

Tabiiy resurslar – tabiat, tabiiy muhit bilan bevosita bog'liq bo'lgan, jamiyat o'zining kundalik extiyojlarini qondirish maqsadida foydalanayotgan tabiat komponentlaridir.

Tipologiya - o'rganilayotgan ob'ektlar (mamlakatlar)ni sifat belgilari bo'yicha bir biridan farq qiluvchi tiplarga ajratish.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar.

1. Mamlakatlarni jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni qanday baholanadi?
2. Mamlakatning tabiiy-demografik salohiyati deganda nimani tushunasiz?
3. YaMM nima, u qanday hisoblanadi?
4. "Yettilik" mamlakatlari tarkibi nimalarga asoslanib aniqlangan?
5. Qaysi tipga mansub mamlakatlar ko'p aholi soniga va qaysi tipdagи mamlakatlar kam aholi soniga ega va nima uchun?
6. O'zbekiston mamlakatlarning qaysi tipiga kiradi? Shunga o'zingizni munosbattingiz.
7. Tabiiy resurslarga boy bo'lganligi sababli rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirgan davlatlarni belgilang.
8. Mamlakatlarning 1 va 2 tiplariga kirgan davlatlarni tavsiflab bering.
9. Qoloq mamlakatlar tarkibi va shuni sabablari to'g'risida so'zlab bering.
10. "Yettilik" mamlakatlarida band aholining tarmoqlar tarkibini baholab bering va uni O'zbekistonga xos ko'rsatkichlar bilan taqqoslang.

Adabiyotlar.

1. Lomakin V.A. Mirovaya ekonomika. M.: Finansi, 1998.
2. Nabiev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. T.: Akademiya, 2000.
3. Naselenya i obshchestvo, Informatsionniy byulleten tsentra demografii i ekologii cheloveka instituta narodnoozyaystvennogo prognozirovaniya RAN. Nomer 38, avgust 1999.
4. Carl Haubet Diana Cornelius, 1999 World Population Data Sheet, Population Reference Bureau, 1875 Connecticut Avenue, NW, Suite 520, Washington DC, 20009-5728 USA

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. To'xpiev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. T., 1998.
2. O'zbekiston Respublikasi. Entsiklopediya. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997.

VIII-bob. 1. Mustaqil Davlatlar Hamdstligi (MDH) mamlakatlariga umumiylariga ta’rif.

90 yillarda vujudga kelgan siyosiy va iqtisodiy vaziyat sobiq Ittifoqni parchalanib ketishiga olib keldi. Avvalo o’zlarining siyosiy mustaqilliklarini Estoniya, Latviya, Litva, keyinchalik Moldoviya, Gruziya va Armaniston respublikalari e’lon qildi. Keyinchalik Rossiya, Ukraina, Belorussiya respublikalarining taklifi bilan 1991 yilda Mustaqil davlatlar hamdo’stligi - MDH vujudga keldi. MDHning asosiy maqsadi yagona iqtisodiy makonni tashkil qilish, o’zaro manfaatdor aloqalarni o’rnatish, strategik mudofaani hamkorlikda boshqarish va yagona transport tizimini barpo etishni tashkil etdi. Hozirgi paytda MDH davlatlariga 12 ta sobiq Ittifoq davlatlari kiradi (Boltiqbo’yi respublikalaridan tashqari). Har bir mustaqil davlat bozor iqtisodiyoti munosabatlariga turli "start" darajasiga ega bo’lgan holda, iqtisodiyotida o’ziga xos tarmoqlar tarkibining shakllanganligi, asosiy ishlab chiqarish fondlariga egaligi, demografik xususiyatlari va boshqa jihatlari bilan kirib keldi. Albatta, siyosiy va iqtisodiy jihatdan to’la erkinlik, iqtisodiyotning yangi munosabatlarga o’tishi, an’anaviy yagona integratsiyaning barbob bo’lishi, xar bir davlatda o’z milliy valyutasining kiritilishi o’z navbatida xar bir mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ta’sir ko’rsatmasdan qolmadidi.

8.1. MDH davlatlarining iqtisodiy geografik o’rniga ta’rif

Rossiya Federatsiyasi maydonining kattaligi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egalaydi. Uning maydoni - 17075,4 ming km². Poytaxti Moskva shahri. Rossiya Federatsiyasi juda qulay iqtisodiy geografik o'ringa ega. U shimoldan, sharqdan, g'arbdan dengiz yo'llari bilan dunyoning boshqa hududlari bilan bog'langan.

Rossiyaning hududi Sharqiy Yevropa va Shimoliy Osiyoda joylashgan bo'lib, uni xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan transport magistrallari kesib o'tadi. Iqtisodiy geografik o'rindagi bunday qulaylik xalqaro tashqi iqtisodiy aloqalarni olib borishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Ukraina respublikasining maydoni - 603,7 ming km². Ukraine Respublikasi ham qulay geografik o'ringa ega. U sharqda Rossiya Federatsiyasi, shimolda Belorus Respublikasi, g'arbda Polsha, Chexiya, Vengriya, Moldova respublikalari bilan chegaradosh. Ukraine uchun iqtisodiy – geografik o'rindagi eng katta imkoniyatlardan biri, uni janub va janubiy-sharqda Qora va Azov dengizlari bilan tutashganligi va dunyo okeaniga bevosita chiqish yo'liga egaligi bilan bog'langanlididir. Shu bilan birga, Ukraine hududidan g'arbiy va Sharqiy Yevropani bog'lovchi asosiy transport magistrallari o'tgan.

Rossiya va Ukrainianaga nisbatan Belorus Respublikasi o'zining maydoni, iqtisodiy geografik o'rindagi xususiyatlari bilan farq qiladi. Belorussiya Respublikasi Sharqiy Yevropada joylashgan mamlakat bo'lib, uning maydoni 207,6 ming km². Shimolda Belorus, Pribaltika davlatlari bilan, sharqda Rossiya

Federatsiyasi bilan, janubda Ukraina, g'arbda esa Polsha Respublikasi bilan chegaradosh. Belorus Respublikasining iqtisodiy geografik o'rnidagi noqulayligi avvalambor ochiq dengizga chiqish uchun imkoniyat yo'qligi bilan bog'langan. Biroq, bu mamlakat hududidan ham xalqaro ahamiyatga ega bo'lган temir yo'l, avtomobil yo'llari va quvur magistrallari kesib o'tgan.

8.2. MDH davlatlarinig tabiiy sharoiti va resurslari

Har bir mamlakatning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda tabiiy sharoit va resurslarning ahamiyati kattadir. O'rganilayotgan davlatlar har xil tabiiy sharoit va resurs imkoniyatlariga ega, bu esa avvalambor ishlab chiqarish tarmoqlari tarkibida o'z aksini topgan.

Rossiya Federatsiyasi. Rossiya Respublikasining 3/4 qismi tekisliklardan iborat bo'lib, ulardan eng kattalari Sharqiy Yevropa va G'arbiy Sibir tekisliklari hisoblanadi. Sharqiy Yevropa tekisligida - Valday, O'rta Rossiya, Volga bo'yisi va boshqa tekisliklar bor. Tekislikning sharqiy qismi Ural past tog'lari bilan o'ralgan.

Ural tog'inining sharqiy qismida g'arbiy Sibir tekisligi joylashgan, Enisey va Lena daryolari orasida esa O'rta Sibir yassi tog'lari mavjud.

Rossiya Respublikasining sharqiy va janubiy qismlarida Oltoy, Kuznetsk Oltoyi, §arbiy Sayan, Sharqiy Sayan, Tuva va Katta Kavkaz tog'lari (eng baland cho'qqisi 5642m - Elbrus) joylashgan.

Mamlakat hududining katta qismi mo'ttadil iqlim zonasida joylashgan. Hududining Shimoliy Muz okeani oro'llari va shimoliy rayonning aksariyat qismi arktika va subarktika mintaqasida, qora dengiz bo'yłari va Kavkaz rayoni esa subtropik iqlim mintaqasida joylashgan.

Rossiya Federatsiyasi jahon miqyosida yirik neft zaxiralariga ega. Asosiy neft qazib olinadigan rayonlarga – G'arbiy Sibir, Volga – Ural, Shimoliy Kavkaz va Yevropa qismining shimoliy rayonlari kiradi. Neft qazib chiqarishning istiqbolli hududlariga Shimol va Uzoq Sharqning materik shelf qismlarini ham kiritish mumkin.

Hozirgi davrda Rossianing asosiy neft qazib chiqaruvchi rayoni g'arbiy Sibirdir. Unda 1970 yilda 31 mln.t, 1980 yilda 312 mln.t, neft qazib olingan bo'lsa, ayni paytda bu hudud zimmasiga mamlakatda qazib olinayotgan neftning 2/3 qismi to'g'ri keladi. Asosiy neft xavzalari Ob daryosining o'rta oqimida joylashgan bo'lib, bularga Samotlor, Ust-Balik, Megion, Aleksandrovsk va boshqalar kiradi.

Rossianing gaz qazib olinadigan asosiy rayonalariga ham G'arbiy Sibir, Volga-Ural, Timan – Pechor, Shimoliy Kavkaz va Sharqiy Sibir kiradi.

G'arbiy Sibir rayonining yirik gaz havzalari bo'lib Urengoy, Yamburg, Medveje, Tazovsk, Berezovsk hisoblanadi.

Barents va Kara dengizlarining materik shelf qismida ham gaz resurlarini qazib chiqarish amalga oshirilmoqda.

Shuningdek bu hududda katta geologik zahiraga ega bo'lган gaz bor. Bularga Nadim va boshqalar kiradi.

Ko'mir zahiralari bo'yicha ham Rossiya dunyoda 1-chi o'rinda turadi. Jahon ko'mir zahirasining 23% bu davlatga to'g'ri keladi. Ko'mir resurslari mamlakat

bo'yicha notekis taqsimlangan bo'lib, 93% sharqiy qismiga, Yevropa qismiga esa atigi 7% to'g'ri keladi. Ko'mirning eng yirik havzalari - Pechora, Kansk-Achinsk, Kuznetsk, Janubiy Yakutiya, Irkutsk, Ural, Sharqiy Sibir, Podmoskove va boshqalardir.

Rossiya metallurgiya sanoatini rivojlantirish uchun katta xom-ashyo imkoniyatlariga ega. Bu yerda yuqori sifatlari temir rudalari joylashgan bo'lib, ularning asosiy qismi Yevropa qismiga to'g'ri keladi (Markaziy qora Tuproq rayoni, Ural, g'arbiy Sibir va Sharqiy Sibir).

Yevropa qismidagi eng yirik havza Kursk magnit anomaliyasi (KMA) bo'lib, bu xavza maydoni - 180 ming km², temir ruda zahirasi esa 43,4 mlrd. t.ni tashkil qiladi. Ruda ochiq va yopiq usulda qazib olinadi.

Federatsiya, shuningdek rangli metall rudalariga ham boy bo'lib, ularning asosiy havzalari Ural, G'arbiy va Sharqiy Sibir, Uzoq Sharq rayonlarida joylashgan.

Uraldagi eng yirik mis konlari - Degtyarovsk, Krasnouralsk, Kirovograd hisoblanadi. Shu bilan birga mis konlari Sharqiy Sibirning Krasnoyarsk o'lkasida ham mavjud.

Polimetall rudalari (qo'rg'oshin-rux) g'arbiy Sibir va Sharqiy Sibirda, Krasnoyarsk va Uzoq Sharqda, qalayi rudalari esa Uzoq Sharqda topilgan.

Shuni ham qayd qilish lozimki, Rossiya nodir metallarga ham boy bo'lib, ularni ishlab chiqarish ancha yaxshi rivojlangan. Eng asosiy rayonlari - Ural, Sibir, Uzoq Sharqdir. Eng qimmatbaho mineral - olmos Rossiyaning Saxa Respublikasi (Yakutiya) va Perm oblastida qazib olinadi.

Mazkur mamlakatning o'rmon resurslari zahiralari katta bo'lib, ular yuqori sifati bilan ajralib turadi. Umumi hududining 40% o'rmonlar bilan qoplangan. Mamlakat o'rmon resurslarining 79% sharqiy qismlariga to'g'ri keladi.

Rossiya gidroenergetika resurslariga ham boy bo'lib, ularning zahirasi 320 mln kVtni tashkil etadi. Elektroenergiyani ishlab chiqarish imkoniyati 2800 mlrd kVt/s.ga teng.

Suv resurslarining aksariyat qismi Sibir va Uzoq Sharq rayonlariga tegishli. Eng yirik daryolari Enisey, Lena, Ob, Angara, Irtish va Amurdir.

Ukraina Respublikasining katta qismi o'rmon - dasht va dasht zonasida joylashgan. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlarini olib borishda yaxshi qulayliklar yaratadi. Yer fondining yarmidan ko'pi ekiladigan maydonlarga kiradi (bu ko'rsatgich MDH mamlakatlari ichida eng yuqoridir). Respublikaning 1/5 foizini o'rmon zonasi - Ukraina Polesyasi egallagan bo'lib, mazkur hududning aksariyat qismi botqoqlardan va namlangan tuproqlardan iborat.

Mamlakat hududining 5% tog'lardan iborat. Bu tog'larga Karpat va Qrim tog'lari kiradi.

Ukraina Respublikasining tabiiy resurslari bilan tanishadigan bo'lsak, bu yerda tabiiy gaz, neft, ko'mir, temir va marganets rudalari, rangli metall rudalari mavjudligini bilishimiz mumkin.

Neft va gaz konlari Prikarpate, Dnepr bo'yida joylashgan. Ular miqdorining kamliyi tufayli kimyo sanoati xom-ashyosi sifatida ishlataladi. Ichki iste'mol chetdan Rossiya, Turkmanistondan keltiriladigan neft va gaz asosida qondirilmoqda.

MDH davlatlari miqyosidagi yirik toshko'mir koni Donbassda va temir ruda koni Krivoy Rogda joylashgan. Shuningdek, Ukrainada alyuminiy, titan, nikel, kam uchraydigan metallarning ham konlari mavjud.

Belorus Respublikasi relefi asosan past tekisliklardan iborat bo'lib, shimoliy qismida Dvina past tekisligi janubiy qismida esa Polese joylashgan. Hududining asosiy xususiyatlaridan biri bu yerda ko'l, morena relef shakllari va botqoqliklarning keng tarqalganligi bilan bog'langandir.

Iqlimi mo''tadil-kontinental. Atlantika okeani havo massalari yil bo'yи xukmrondir. Iqlimning namligi va yumshoqligi yem-xashak yetishtirishda katta ro'л o'ynaydi. Shu bilan birga kartoshka, don ekinlari, qand lavlagi yetishtirishda ham mamlakat katta imkoniyatlarga egadir.

Rossiya va Ukrainadan farqli o'laroq Belorus boy tabiiy resurslarga ega emas. Asosiy tabiiy resurslari - torf, qurilish materiallari, kaliy tuzlari hisoblanadi. Belorus o'rmon resurslariga nisbatan boy. Asosiy o'rmon massivlari - Polese va Berezinada joylashgan.

8.3. Aholisi va mehnat resurlari.

Har bir mamlakatning sotsial-iqtisodiy holatiga demografik vaziyat bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan MDH davlatlari uchun xos bo'lgan demografik xususiyatlarini ochib berish alohida ahamiyatga ega.

26-jadval

MDH davlatlarining aholisi soni (ming kishi hisobida)

Davlatlar	1991	1992	1993	1994	1995	1996	1997	1998
Ozarbayjon	7178	7297	7368	7431	7487	7535	7574	7625
Armaniston	3574	3649	3722	3742	3753	3766	3781	3794
Belorussiya	10261	10281	10346	10367	10345	10312	10284	10250
Gruziya	5464	5463	6447	5433	5417	5416	5424	5431
Qozog'iston	16793	16964	16986	16942	16679	16544	15993	15745
Qirg'iziston	4422	4484	4502	4463	4483	4545	4607	4665
Moldaviya	4367	4359	4348	4353	4348	4334	4320	4241
Rossiya	14854	14870	14867	14836	14830	14797	14750	14710
Federatsiyasi	3	4	3	6	6	6	2	0
Tojikiston	5358	5570	5571	5704	5786	5884	5970	6065
Turkmaniston	3714	3809	4254	4361	4450	4567	4628	4688
O'zbekiston	20708	21207	21703	22192	22562	23007	23444	23872
Ukraina	51944	52057	52244	52144	51728	51334	50894	50479
MDH	28233 5	28384 4	28516 4	28546 4	28533 6	28530 0	28542 1	28497 4

Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, MDH davlatlarining aksariyatida 1991-1998 yillar mobaynida aholi sonining o'sishi emas, balki kamayishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Ayniqsa, Ukrainada aholi shu davr davomida 1,5 mln kishiga, Rossiyada esa 1,44 mln. kishiga kamaygan. Bunday holat Gruziya, Qozog'iston, Belorus va Moldova Respublikalarida ham yuzaga kelgan.

Rossiya, Ukraina va Belorus Respublikalari uchun bunday demografik vaziyat aholini tabiiy kamayishi hisobiga ro'y bergan bo'lsa, boshqa respublikalarda esa ko'proq migratsiya hisobiga yuzaga kelmoqda.

MDH davlatlarida 100 dan ortiq millat va elat yashaydi, shulardan 50% xristian diniga va 40% esa islom diniga mansub. Eng ko'p taro'angan millatlarga – rus, ukrain, o'zbek, belorus, qozoq, tatar, ozarbayjan, gruzin va boshqa millat vakillari kiradi.

Rossiya Federatsiyasi aholisining soni bo'yicha dunyoda to'rtinchchi o'rinda turadi - Xitoy, Hindiston, AQShdan keyin. Aholi soni 1998 yil ma'lumotlariga qaraganda 147 mln. kishiga yetdi. 1982 yilda aholi soni 140 mln. kishi bo'lган. 17 yil ichida aholi soni 7 mln.ga ko'paygan, xolos.

Mamlakatda sodir bo'layotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vaziyat albatta demografik jarayonlarga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Ayni paytda, Rossiyadagi tabiiy ko'payish har 1000 kishiga minus 5 ta kishini tashkil qilmoqda, chunki har 1000 kishiga hisoblanganda 9 bola tug'ulsa, 14 kishi hayotdan kuz yammoqda. Bunga sabab, Rossiya hududida sodir bo'layotgan urushlar, terrorizm, ijtimoiy vaziyatning murakkabligi, shu bilan birga 1 yoshga to'limgan bolalar o'limining yuqori darajada ekanlidigidir. 1997 yilda bu mamlakatda har 1000 tug'ulgan chao'alo'dan 1 yoshga to'lmasdan 18 tasi nobut bo'lган. Tabiiy ko'payishdagi bunday vaziyat avvalambor, mamlakatda aholining depopulyatsiya jarayonining chuo'urlashishiga olib kelmoqda. Depopulyatsiya jarayoni faqat rus millatiga taaluqli bo'lib qolmasdan, balki mamlakatning boshqa qismlarida yashovchi har xil millat va dirlarga mansub aholi uchun ham xos bo'lib qolmoqda.

Har yili Rossiya aholisi 700-750 ming kishiga kamaymoqda, agar bunday xol davom etadigan bo'lsa, yaqin 20 yil ichida aholining 50 mln. kishiga kamayishi ehtimoli bor.

Vujudga kelgan demografik vaziyat mamlakatda katta ijtimoiy muammolarga olib kelishi muqarrardir, ya'ni aholining mehnatga layoqatli qismining kamayishi, mehnat resurslari bilan ta'minlanish muammosi, aholining yosh tarkibida «keksa» yoshdagagi aholining ko'payishi va boshqalar.

Ayni paytda, Rossiya Federatsiyasining Davlat Dumasida yuzaga kelgan demografik vaziyatni bartaraf etish maqsadida yangi demografik siyosat ustida ish olib borilmoqda. Yangi demografik siyosat yosh oilalarni ijtimoiy himoyalashga, onalarni bolalariga qarash davrida molivaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va boshqa tadbirlarni o'z ichiga olgan. So'nggi yillarda Rossiyada aholining migratsiyasi ham ko'paygan, tashqi migratsiya hisobiga mamlakat aholisining soni yiliga o'rtacha 3-5 mln kishiga ko'paymoqda.

Aholining joylashuviga keladigan bo'lsak, uning o'rtacha zichlik ko'rsatkichi Rossiya bo'yicha 8,2 kishini tashkil qiladi, aholining 4/5 qismi Yevropa qismida

joylashgan (Ural bilan). Shahar aholisi 71%ni tashkil qiladi. Eng yirik millioner shaharlari - Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy Novgorod, Ekaterinburg va boshqalar.

Rossiya Federatsiyasi - eng ko'p millatli davlat. Ayni paytda uning tarkibida 100dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Rus millatiga mansub aholi, aholining 4/5 qismini tashkil qiladi.

Mehnat resurslari bilan ta'minlanish ko'rsatgichi bo'yicha Rossiya hududlarini 3 guruhga bo'lish mumkin.

1. Mehnat resurslari bilan juda yaxshi ta'minlangan rayonlar. Bularga mamlakatning Yevropa qismidagi barcha iqtisodiy rayonlar kiradi - Markaziy, Volga-Bo'yi, Ural, Volga-Vyatka va boshqalar. Mehnat resurslarining o'sishi birinchidan, tabiiy o'sish hisobiga bo'lsa, ikkinchidan, migratsiya hisobiga amalga oshmoqda.

2. Mehnat resurslari bilan o'rtacha ta'minlangan rayonlar - bularga Shimoliy Kavkaz iqtisodiy rayoni kiradi. Bu rayonda yuqori darajadagi tabiiy o'sishning mavjudligi mehnatga layoqatli aholi sonini ko'payishini ta'minlaydi.

3. Mehnat resurslari yetishmaydigan hududlar, bu asosan Sibir va Uzoq Sharq rayonlaridir. Iqlim sharoitining og'irligi, aholini siyrak joylashganligi mehnat resurslari muammosini keltirib chiqargan. Mehnat resurslari bu yerda asosan migrantlar bilan to'ldiriladi. Rossiya Federatsiyasida mehnat resurslarini xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishini ko'radigan bo'lsak, uning 40% ortiq qismi sanoatda band ekanligini bilamiz.

Ukraina respublikasining o'ziga xos demografik xususiyatlariga, aholini zinch joylashganligi, mehnat resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligi, shahar aholisi ulushining yuqoriligi va boshqalar kiradi.

Hozirgi paytda Ukraina aholisining soni 50,7 mln.ga yetgan bo'lib, MDH davlatlarida bu ikkinchi ko'rsatkichdir. (Rossiyadan keyin). Aholining o'sish dinamikasini ko'radigan bo'lsak, uning soni 1940 yilda - 41,3 mln. 1950 yilda - 36,6 mln., 1959 yilda - 41,9 mln., 1970 - 47,1 mln., 1980 yilda - 50,1 mln., 1997 yilda esa - 50,7 mln. kishiga teng bo'lган. Bunday tendentsiyaga avvalambor urbanizatsiya darajasining, aholi madaniy va ma'lumot ta'limiy darajasining, ayollar bandligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning yuqoriligi bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Aholi o'sishining asosiy manbai tabiiy o'sish, har 1000 ta kishiga minus 5 taga teng. Respublikada har 1000 ta kishiga 10 ta bola tug'iladi, 15 ta kishi esa o'ladi (1998 yil ma'lumotlari).

Ukraina aholining zinch joylashganligi bilan ajralib turadi. har bir kv. kmga o'rtacha 78 kishi to'g'ri keladi. Aholining 63% shaharlarda yashaydi. Eng yirik shaharlari - Kiev, Xarkov, Odessa va boshqalar.

Belorus Respublikasi aholisi sonining dinamikasiga Ulug' Vatan urushi katta ta'sir ko'rsatgan. Agar 1940 yilda aholi soni 9046 ming kishi bo'lsa, 1950 yilda - 7709, 1960 y. - 8143, 1970 y. - 9002, 1980 y. - 9744, 1997 yilda esa 10,3 mln. kishiga teng bo'lган. Respublika uchun xos tabiiy o'sish past darajadagi tug'ilish va past darajadagi o'lim bilan belgilanadi. Tabiiy ko'payish har 1000 taga minus 4 tani tashkil qiladi. Mamlakatda 1998 yilda har 1000 ta kishiga 9 bola tug'ildi va 13 kishi vafot etdi.

Aholining zichligi har bir kv. kmga 43 kishini tashkil etadi. Aholining aksariyat qismi shaharlarda yashaydi.

Mehnat resurslari yuqori malakaliligi va sanoat tarmoqlarida ustun tarzda bandligi bilan ajralib turadi.

8.4. Xo'jaligiga baho

a) Sanoati. Rossiyaning yonilg'i energetika kompleksiga (YoEK) mamlakat asosiy ishlab-chiqarish fondlarining 1/3 qismi va xalo' xo'jaligida band aholining 1/5 qismi to'g'ri keladi. Shu bilan birga, bu tarmoq yirik ist'emolchi hamdir, mashinasozlik tarmog'ida ishlab chiqarilgan asosiy mahsulotning 2/3 qismi, ya'ni quvurlar YoENni ta'minlaydi.

Ko'mir sanoatining asosiy havzalari Rossiyaning sharqiy qismida joylashgan. Ko'mir sanoati asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati va ishlab chiqarishda band aholi soni bo'yicha boshqa tarmoqlardan o'tib ketgan. Eng yirik konlari - Tungus (2299 mlrd. t.), Lena (1647 mlrd. t.), Kansk-Achinsk (638 mlrd. t.) va Kuznetsk (637 mlrd. t.). Kokslanuvchi ko'mir qora metallurgiyada texnologik yoqilg'i sifatida keng ishlatilsa, qo'ng'ir ko'mirdan issiqlik energetikasida sof yoqilg'i sifatida foydalananildi.

Neft sanoati Rossiyada juda rivojlangan bo'lib, uning hissasiga MDH mamlakatlarida qazib olingan neftning 9/10 qismi yoki 350-360 mln t. to'g'ri keladi. Mamlakatda neftni qayta ishslash sanoati istemolchilar va xom-ashyo bazalari yaqinida joylashtirilgan bo'lib, eng yirik neftni qayta ishslash zavodlari - Volgograd, Saratov, Sizran, Orsk, Nijniy Novgorod shaharlarda mavjuddir.

Gaz sanoati Rossiyada eng yosh tarmoq bo'lib, MDHda qazib olinayotgan gazning 3/4 qismi unga to'g'ri keladi. Gaz sanoatining asosiy xususiyati qazib olingan mahsulot tezda ist'emolchiga yetkazilishidadir. Bu esa quvur transportini rivojlanishiga olib keldi. Eng yirik gaz quvurlariga Urengoy-Moskva, Urengoy-Gryazovets, Urengoy-Elets, Urengoy-Petrovsk va Urengoy-Ujgorod kiradi.

Yirik yoqilg'i va gidroresurslar asosida mamlakatda elektro energetika majmuasi shakllangan.

Elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha Rossiya dunyoda ikkinchi o'rinda turadi, AQShdan so'ng. Biroq, bu davlatlar orasidagi farq juda katta. Agar Rossiya Federatsiyasida 1998 yilda 850 mlrd kV.t/s elektroenergiya ishlab chiqarilgan bo'lsa, AQShda esa bu ko'rsatgich 3870 mlrd. kVtsga teng bo'ldi.

Rossiya Federatsisida elektroenergiya ishlab chiqarish dinamikasi oxirgi yillar davomida keskin kamaymoqda.

Rossiya Federatsiyasida elektroenergiya ishlab chiqarish (mlrd. kVt/s.)¹

	YILLAR						
	1990	1991	1992	1993	1994	1995	1996
JAMI	1082	1068	1008	957	876	860	847
Shu jumladan							
Issiqlik st.	797	780	715	663	601	583	583
GES	167	168	173	175	177	177	155
AES	118	120	120	119	97.8	99.5	109

¹ Rossiyskiy statisticheskiy ejegodnik –M., 1997. – S. 344

Ayni davrda, Rossiya Federatsiyasida elektroenergetika tarmog'ida chuqur, iqtisodiy inqiroz kuzatilmoqda. Bunday vaziyat, avvalambor tarmoqning aksariyat fondlarning eskirganligidan, qayta ta'mirlash ishlarini sust olib borilishidan, ishlab chiqarish quvvatlarining pasayishdan kelib chiqqan.

Ayniqsa, Shimoliy Kavkaz va Uzoq Sharq rayonlarida elektroenergetika inqirozi ancha muammolarni vujudga keltirmoqda.

Mamlakatda eng katta va ahamiyatli elektrostantsiyalarga Kanakova GRESi, Kostroma GRESi, Zain GRESi, Perm GRESi va Nazarovsk GRESlari kiradi. Ayni paytda Rossiyada 9 ta AESlari ham faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning umumiyligi quvvati 20,2 mln. kVtni tashkil qiladi. Rossiyada yagona energetika sistemasi shakllangan. Unga Shimoliy - g'arbiy, Markaziy, Volga-Bo'yli, Janubiy, Shimoliy Kavkaz, Ural rayonlarining yirik stantsiyalari birlashtirilgan.

Metallurgiya kompleksi. Mamlakatda 3 ta yirik qora metallurgiya bazasi shakllangan bo'lib, bularga Ural, Markaziy va Sibir metallurgiya bazalari kiradi. Ural metallurgiya bazasi zimmasiga mamlakatda ishlab chiqariladigan po'lat va cho'yanning 56% va prokatning 52% to'g'ri keladi.

Markaziy metallurgiya bazasi yosh va istiqbolli KMA (Kursk-Magnit anomaliyasi) bazasida shakllangan bo'lib - 80 mln. t. temir rudasini qazib oladi. Eng yirik metallurgiya korxonalar Novolipetsk va Novotulsk shaharlarida joylashgan.

Sibir va Uzok Sharq metallurgiya bazalari hissasiga Rossiyada ishlab chiqariladigan po'latning 15% to'g'ri keladi. Bu metallurgiya bazasi Tog'li Shoriya temir rudalari va Kuznetsk havzasi ko'miri asosida shakllangan.

Rangli metallurgiya sanoatining rivojlanishi bo'yicha Ural yetakchi o'rinda turadi. Ayni paytda bu yerda 11 ta mis ishlab chiqariladigan korxonalar mavjud bo'lib, shularning eng yiriklari - Boshqirdistonda, Karabash, Kishtim, Krasnouralsk va boshqa shaharlarda mavjud. Ushbu korxonalarda mamlakat miqyosida tozalangan misning 43%, ruxning, 65%, shuningdek oltin, kumush va kam uchraydigan metallar ishlab chiqariladi. Rossiyaning Shimoliy, Shimoliy-g'arbiy, Sibir va Uzoq Sharq rayonlarida ham rangli metallurgiya yaxshi rivojlangan.

Mamlakat mashinasozligi eng yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, uning hissasiga - xalq xo'jaligi yalpi mahsulotining 1/3 qismi, ishchilar sonining 2/5 qismi va asosiy ishlab chiqarish fondlarining 1/4 qismi to'g'ri keladi. Eng asosiy tarmoqlari qatoriga og'ir mashinasozlik, avtomobilsozlik, elekrotexnika va boshqalar kiradi.

Avtomobilsozlikning asosiy markazlari: yuk avtomobillari- Moskva (ZIL), Nijniy Novgorod, Ulyanovsk (UAZ)da, og'ir yuk mashinalari Tataristonda (KamAZ) - Naberejnie Chelni shahrida joylashgan.

Yengil avtomobillar - Moskva, Nijniy Novgorod, Tolyatti, Ijevskda ishlab chiqariladi. Mikrometrajli avtomobil ishlab chiqarish Serpuxovada mavjud. Avtobus ishlab chiqaradigan korxonalar esa Likino, Pavlovo va Kurganda joylashtirilgan.

Ukraina Respublikasi sanoati tarmoqlari tarkibida yoqilg'i-energetika kompleksiga kiruvchi ko'mir, neft, gaz qazib chiqarish va elektroenergiya ishlab chiqarishi katta ahamiyatga ega. Shu tarmoqlarning ichida ko'mir sanoati yetakchi o'rinda turadi. Eng katta ko'mir konlari Donetsk, Lvov-Volinsk va Dnepr bo'yida joylashgan. qazib olinadigan ko'mir kokslanuvchi ko'mirdir.

Mamlakatda ishlab chiqariladigan elektroenergiyaning 95%i issio'lik elektrostantsiyalariga to'g'ri keladi.

Ukraina hududida katta temir rudasi konlarining mavjudligi, bu yerda rivojlangan qora metallurgiya tarmoqini vujudga keltirdi. MDHda ishlab chiqariladigan temir rudasining qismi, shuncha koks va cho'yanning, po'lat va prokatning 40%i shu davlat hissasiga to'g'ri keladi. Asosiy markazlari Dnepr bo'yи, Donbass, Azov bo'yida joylashgan.

Rangli metallurgiya sanoati - alyuminiy, magniy, titan, nikel, rux va simob ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Mamlakatning mashinasozlik tarmoqida - og'ir mashinasozlik (metallurgiya zavodiga uskunalar ishlab chiqarish), transport mashinasozligi (teplovozsozlik), kemasozlik va avtomobilsozlik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Kramatorsk, Krivoy Rog, Mariupolda og'ir mashinasozlik, Nikolaevda - kemasozlik, Lvov va Kremenchugda avtomobilsozlik korxonalari joylashtirilgan.

Sobiq Ittifoq davrida to'qimachilik sanoati ham tarkib topgan edi, lekin xom-ashyoning yetishmasligi muammosi bu tarmoqni yuqori darajada rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Belorus Respublikasi sanoat tarmoqlari ichida asosan qayta ishlovchi sanoat ustun turadi. Ularga mashinasozlik, ximiya, yog'ochni qayta ishlash, yengil sanoat kabi tarmoqlar kiradi. Elektroenergetika kompleksi avval torf asosida ishlagan bo'lsa, ayni davrda Ukrainadan keltiriladigan ko'mir asosida ishlamoqda. Eng yirik elektro stantsiyalari – Belorus, Berezovsk va Smolevichesk GRESlaridir.

Belorus mashinasozligida yuqori quvvatli samosvallar ishlab chiqarish, stanoksozlik, qishloq xo'jaligi mashinasozligi shakllangan. Minskda gigant-samosvallar ishlab chiqaradigan korxonalar joylashgan (MAZ), Vitebsk shahri esa stanoksozlik markazi hisoblanadi.

Ayni davrda xom ashyo va yoqilg'ini chetdan olib kelish hisobiga shakllantirilgan bu turdosh korxonalarda katta iqtisodiy muammolar yuzaga

kelmoqda. Shuning uchun ham ko'pgina korxonalarda ishlab chiqarish sur'atlari pasaygan, ayrim korxonalar esa umuman faoliyat ko'rsatmayapti.

b) Qishloq xo'jaligi. Rossiya Federatsiyasi qishloq xo'jaligi zimmasiga mamlakatda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning 12%i va milliy daromadning 15%i hamda, ishlab chiqarish fondlarining salkam 16%i to'g'ri keladi. Mamlakat qishloq xo'jaligi so'nggi ma'lumotlarga qaraganda - 83,2 mldr rubl. yalpi mahsulot ishlab chiqargan. Shu jumladan, 99,0 mln t. don, 38,1 mln t. kartoshka, 12,0 mln t. go'sht, 46,9 ming t. jun va boshqa mahsulotlar yetishtirilgan. Lekin, bu yetishtirilgan mahsulot tarkibi ayni paytda aholi ehtiyojini to'liq ta'minlay olmayapti. Ichki bozor asosan import natijasida ta'minlanmoqda. Rossiyaning asosiy qishloq xo'jaligi tarmoqlari - ziroatchilik, shu jumladan - donchilik, yemxashak va texnika ekinlarini yetishtirish, bog'dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik parrandachilik va boshqalardan iboratdir.

Mamlakatda dexqonchilik qishloq xo'jalik mahsulotlarining 40%ni yetkazib beradi. Don ekinlari Rossiya ekin maydonining yarmidan ko'pini egallagan. Bug'doy yetishtiriladigan asosiy rayonlar - Shimoliy Kavkaz, Markaziy qora tuproq, Volga-Bo'yi, Ural, Sibir rayonlari hamda, Noqoratuproq zonasidagi rayonlardir. Rossiyaning texnika ekinlariga kanop, qand lavlagi va tolali zig'ir kiradi. Markaziy, Volga-Vyatka, Shimoliy va Shimoli-g'arbiy iqtisodiy rayonlar shu ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashgan.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan yana biri - bu chorvachilikdir. qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 60%, asosiy ishlab chiqarishning 75%i fondlari shu tarmoqqa to'g'ri keladi. Yetakchi tarmog'i - qoramolchilikdir. Rossiyada 1994 yilgi ma'lumotlarga qaraganda 49,5 mln. bosh qoramol va 19,9 mln. sigir mavjud bo'lgan. Bu tarmoq Ural, Volga-Bo'yi, G'arbiy Sibir, Shimoliy Kavkazda rivojlangan. Go'sht va go'sht-sut chorvachiligi shahar atrofi xo'jaliklarida rivojlangan. qo'ychilik ham Rossiyada yaxshi rivojlangan bo'lib, uning asosiy rayonlari - Volga-Bo'yi, Sharqiy Sibir, Ural va Shimoliy Kavkaz iqtisodiy rayonlaridir.

Ukraina Respublikasining qishloq xo'jaligi yuqori intensivligi va maxsuldarligi bilan ajralib turadi. Bunday holat avvalambor, unumdar qora tuproqning mavjudligi va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirilganligi bilan bog'liqdir. qishloq xo'jaligida yalpi tovar mahsulot qiymati bo'yicha chorvachilik ustun turadi.

Ukraina dexqonchiliginining asosini donchilik tashkil qiladi. Don ekinlari bilan ekin maydonlarining yarmidan ko'pi band. Mamlakatning tabiiy-iqlim sharoitlari bu yerda kuzgi bug'doya qaraganda, bahorgi bug'doy yetishtirish uchun katta imkoniyatlar tug'diradi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligida asosan bahorgi bug'doy yetishtiriladi. Don ekinlaridan esa makkajo'xori, jo'xori, dukkakli ekinlar yetishtiriladi. Ekin maydonlarining juda katta qismi texnika ekinlari - qand lavlagi, kungaboqar, kanop va tamaki bilan band qilingan.

MDH davlatlarida yetkazilib beriladigan qand lavlagining 60%dan ortiq qismi, kungaboqarning 60%i Ukrainaga to'g'ri keladi. qand lavlagi o'rmon-dasht zonasiga ekilsa, kungaboqar dasht zonasida yetishtiriladi. Ukrainada, shuningdek

uzumchilik rivojlangan. MDH davlatlari ichida u uzum yetishtirishda oldingi o'rnlarda turadi.

Chorvachilikning asosiy tarmoqlari qoramolchilik, cho'chqachilik, qo'ychilik, asalarichilik va parrandachilikdan iboratdir.

Belorus respublikasining iqlim sharoitlari bu o'lkada tabiiy o'tloqlarni vujudga kelishida va yem-xashak ekinlarini yetishtirishda katta imkoniyatlar yaratib beradi: Shuning uchun ham qishloq xo'jaligining chorvachilikka ixtisoslashganligigi bejiz emasdir. Chorvachilikning asosiy yo'nalishi sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lib, u shahar atrofida yaxshi rivojlangan. Kartoshka yetishtirish respublikaning markaziy va janubiy hududlariga to'g'ri keladi.

v) Transporti. Har bir mamlakatning transporti mahalliy va umumdavlat bozorini shakllanishida katta ahamiyat kasb qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida transportning ro'li yanada ham oshadi. Bir tomondan, transport omili korxona faoliyatining samaradorligiga ta'sir qilsa, ikkinchidan uning o'zi bozor doirasida tovar va xizmatlarning ayirboshlashishiga bog'liqdir.

Rossiya Federatsiyasida barcha suv, avtomobil, quvur, temir yo'l va havo transporti turlari rivojlangan. Bu transport turlari bir-biri bilan tutashib, transport tizimini vujudga keltiradi. Yuk va yo'lovchi aylanmasi bo'yicha Rossiyada temir yo'l transporti birinchi o'rinda turadi. Uning uzunligi 87 ming kmga, yuk aylanmasi 196,7 mlrd. t/kmga, yo'lovchi aylanmasi 253,2 mlrd. pas./kmga tengdir (1997 yilgi ma'lumotlar).

Mazkur davlatning barcha rayonlari bu transport turi bilan bog'langan. Eng yirik temir yo'l tuguni Moskva hisoblanadi. Undan 11 temir yo'l liniyasi chiqib ketadi.

Dengiz transporti ham Rossianing tashqi iqtisodiy aloqalarini olib borishda katta ahamiyat kasb qiladi. Bu transport turi ham rivojlangan bo'lib, mamlakatni o'rab turgan 14ta dengiz orqali bemalol chet mamlakatlari bilan bog'lab turadi. Eng yirik portlari Sankt-Peterberg, Murmansk, Vladivostok, Naxodka va boshqalardir.

Ichki rayonlarni bir-biri bilan bog'lashda daryo transporti ham katta ahamiyat kasb qiladi. Eng yirik daryo transport magistrallari - Volga-Kama, Shimoliy Dvina, Onega va Ladoga ko'llari va boshqalar.

Avtomobil transporti asosan kichik masofalarga o'rtacha yuklarni tashishga ixtisoslashgan. Rossiya hududini meridianlar va parallelar bo'yicha zich avtomobil magistrallari kesib o'tgan.

Ukraina Respublikasida transport va aloqada 7,5% aholi band bo'lib, asosiy transport turlari temir yo'l, dengiz va daryo transporti, avtomobil, quvur va havo transportlaridir. Daryo transportining asosiy arteriyasi Dnepr daryosidir. Eng yirik porti qora dengiz bo'yidagi Odessa shahridir. Hozirgi paytda bu port MDH davlatlariga ham xizmat ko'rsatmoqda, shu jumladan O'zbekistonga ham.

Belorus Respublikasi rivojlangan temir yo'l transportiga ega. Temir yo'l transporti uning hududini meridianlar va parallelar yo'nalishlarida kesib o'tadi. Shu bilan birga, uning hududidan Moskva-Minsk, Brest-Varshava va Berlin temir yo'l trassasi o'tib, uni g'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan bog'lanishiga imkoniyat yaratgan. Shuningdek, bu hududda, xalo'aro ahamiyatga ega bo'lgan shosse

yo'llari o'tgan. Rossiya bilan g'arbiy Yevropani bog'lovchi "Drujba" neft quvuri Belorus hududidan o'tkazilgan.

8.5. Ichki tafovutlari.

Hozirgi paytda Rossiya Federatsiyasi o'zining ma'muriy-hududiy tarkibida quyidagi Adigey, Oltoy, Bashqordiston, Buryatiya, Dog'iston, Ingushetiya, Kabardin-Balkar, Kolmiqiya, Qorachaev-Cherkesk, Kareliya, Komi, Mari El, Mordoviya, Saka(Yakutiya), Shimoliy Osetiya, Tatariston, Tuva, Udmurtiya, Xakasiya, Checheniston va Chuvashiya respublikalarini, Komi-Permyak, Koryak, Nenets, Taymir (Dolgano-Nenets), Aginsk Buryatiyasi, Ust-Ordinsk Buryatiyasi, Xanti-Mansi, Chukotka, Evenkiy va Yamal-Nenets, avtonom okruglarini hamda Stavropol, Krasnodar, Krasnoyarsk, Oltoy, Primorya, Xabarovsk o'lkalarini, bitta Evrey avtonom oblastini va 49 guberniyani birlashtiradi.

Bu ma'muriy-hududiy tuzilish asosida geografik mehnat taqsimotidan kelib chiqqan holda, rayonlarning ixtisoslashishi, ularning transport-geografik o'rni va aholining milliy tarkibini hisobga olgan tarzda Rossiyada 11 iqtisodiy rayon shakllangan. Markaziy, Markaziy qora tuproq, Volga-Vyatka, Volga Bo'yi, Shimoliy, Shimoli-g'arbiy, Ural, g'arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Uzoq Sharq, Shimoliy Kavkaz iqtisodiy rayonlari shular jumlasidandir.

Markaziy rayon - Rossiya Federetsiyasida eng rivojlangan rayon bo'lib, unga poytaxt Moskva va uning atrofidagi 12 yirik shahar kiradi. Bu rayonda qayta ishslash sanoati tarmoqlari mashinasozlik, ximiya, yengil sanoat yaxshi rivojlangan.

Markaziy qora tuproq rayoniga 5 guberniya kiradi - Voronej, Lipetsk, Kursk, Belgorod va Oryol. Kursk magnit anomaliyasi ochilishiga qadar bu rayon tipik agrar rayon edi. Ayni paytda bu yerda qora metalurgiya, mashinasozlik va agrosanoat majmuasi rivojlangan.

Shimoliy va Shimoliy-g'arbiy rayonlarining asosiy ixtisos yoqilg'i-energetika kompleksi, qora metalurgiya, yog'ochsozlik va ximiya sanoati hisoblanadi. Volga-Vyatka va Volga-Bo'yi iqtisodiy rayonlarida elektroenergetika, mashinasozlik, kemasozlik, agrosanoat komplekslari yetakchilik qiladi.

Rossiyaning Sharqiy qismidagi rayonlarga - Sibir, Uzoq Sharq, Ural iqtisodiy rayonlari kiradi, bu hududni bejiz "Rossiyaning xazinasi" deyishmaydi, chunki bu rayonda boy tabiiy resurs zahiralari bo'lib va buning asosida qazib oluvchi sanoat tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Ukraina Respublikasida tarixan 3 iqtisodiy rayon shakllangan: Donetsk-Dnepr bo'yi, Janubiy-g'arbiy va Janubiy iqtisodiy rayonlardir. Bu industrial kompleksning asosiy o'zagini - og'ir mashinasozlik tashkil qiladi. Eng yetakchi tarmoqlari – tog'-kon va metallurgiya, mashinasozlik, ximiya sanoati va qurilish materiallari sanoatidir. Industrial markazlari - Xarkov, Donetsk, Dnepropetrovsk, Voroshilovgrad, Krivoy Rog, Zaporoe.

Xo'jaligini qishloq xo'jaligiga ixtisoslashuvi Janubiy-g'arbiy rayoni tarmoqlar tarkibida - oziq-ovqat sanoatini, shu jumladan shakar, spirt, go'sht, yog', sabzavot-meva sanoatlarini yetakchiligin belgilaydi. Shuningdek, bu rayon yirik transport funktsiyasini bajaradi. Asosiy markazlari - Kiev, Lvov va Vinnitsa.

Ukrainaning janubiy rayoni mashinasozlik, Ayniqsa transport, qishloq xo'jaligi, kemasozlikka ixtisoslashgan rayondir. Shu bilan birga bu yerda kungaboqar ishlab chiqarish, vino mahsulotlari, baliq va meva konservalari ishlab chiqarishga yetakchidir. Eng yirik shaharlari - Odessa, Nikolaev, Xerson.

Belorus iqtisodiy rayonlarga ajralib o'r ganilmasada, eng yirik shaharlari va ular atrofidagi xo'jaliklar mamlakat hayotida katta ro'l o'yndaydi. Bular jumlasiga Minsk, Vitebsk, Mogilyov, Jodino, Brest va boshqalar kiradi.

IX-bob. Markaziy Osiyo davlatlari (Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston respublikalari)

9.1 Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy geografik o'rniiga ta'rif

Bu respublikalarning umumiy o'xshashligi, avvalambor tabiiy geografik o'rinda, tabiiy sharoit va resurslardan foydalanishda, tarixiy kelib chiqishda, turkiy xalqlarning tarqaganligi, xo'jalik xususiyatlarida va boshqalarda o'z aksini topgan.

Ayni paytda bu davlatlar ham siyosiy mustaqilika erishib, bozor iqtisodiyoti munosobatlari sharoitida rivojlanayotgan respublikalar hisoblanadi.

Yangi siyosiy va iqtisodiy sharoitda davlatlar ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishining geografik, tabiiy va demografik omillari bilan, xalq xo'jaligi tarmoqlari tarkibi, va ichki tafovut haqida quyidagi ma'ruza matnida tanishamiz.

Bu respublikalar yagona tabiiy geografik o'lkani tashkil qiladi. Bu o'lka TURKISTON deb ataladi. Turkiston Yevroсиyo materigining o'rtasida joylashgan. Agar bu respublikalarning yaxlit geografik o'rni bilan tanishadigan bo'lsak, Markaziy Osiyo davlatlarining shimoliy chegarasi Ayirtov yaqinida, janubi Kopetdog' tog'larining shimoliy etagidan tortib Pomir tog'larigacha, g'arbiy nuqtasi Kaspiy dengizining Mangishloq yarim oro'ligacha, sharqi chegarasi esa Savr tog'larini etagidan qora Irtish daryosi vodiysigacha bo'lgan hududni o'z ichiga oladi. Bu davlatlarni har birini alohida ko'radigan bo'lsak, Qozog'iston Respublikasi Markaziy Osiyoning shimolida joylashgan, u shimaldan Rossiya Federatsiyasi, janub va janubi-g'arbdan O'zbekiston, Turkmaniston va Qirg'iziston Respublikalari bilan, janubi-sharqda Xitoy Xalq Respublikasi bilan chegaradosh. Uning maydoni kattaligi 2,7 mln.km kv bo'lib, u MDH, davlatlari ichida ikkinchi, Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa birinchi o'rinda turadi.

Qozog'iston Respublikasining hududi Kaspiy dengizdan - Oltoygacha, Uraldan Tyan-Shan tog'larigacha cho'zilgan. Uning sharqi va g'arbiy nuqtalarigacha bo'lgan massofa 3 ming km, shimoliy va janubiy nuqtalari orasidagi masofa 1700 km tashkil qiladi.

Turkmaniston Respublikasi - Markaziy Osiyoning janubi – g'arbida joylashgan, bu respublika janubdan Eron va Afg'oniston, shimaldan Qozog'iston, sharq va shimoli-sharqdan O'zbekiston bilan chegaradosh Turkmanistonning g'arbiy chegarasi esa Kaspiy dengizi bilan tutash. Mamlakat hududining maydoni 488,1 km kv tashkil qiladi. Markaziy Osiyo respublikalari ichida maydoni bo'yicha II o'rinda turadi.

Qirg'izston Respublikasi Markaziy Osiyoning shimoliy - sharqida joylashgan bo'lib, u shimal va shimali - g'arbdan Qozog'iston bilan, janubdan. Tojikiston bilan, g'arbdan O'zbekiston, janubi - sharqdan esa - Xitoy Xalq Respublikasi bilan chegaradosh. Uning maydoni 198,5 ming km kv.

Tojikiston Respublikasi ham Markaziy Osiyoning janubiy sharqida joylashgan bo'lib, u O'zbekiston, Qirg'iziston, Afg'oniston va Xitoy bilan chegaradosh. Hududining maydoni 143,1 ming km kv tashkil etadi.

Bu MO mamlakatlarining umumiyligi iqtisodiy geografik o'rni, materikning ichkarisida joylashganligi, okean va dengizlardan uzoqligi nuqtai nazardan noqulay imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Ayniqsa, Tojikiston Respublikasini fug'aro'lar urushi ketayotgan Afg'oniston bilan chegaradoshligi, nafaqat Tojikiston respublikasining geosiyosiy o'rniga, balki butun Markaziy Osiyoga ham havf solmoqda.

Biroq Markaziy Osiyo davlatlari hududida Buyuk Ipak Yo'lini tiklanayotganligi, bu davlatlarni Xitoy bilan bog'lanishiga va ochiq dengiz yo'liga chiqishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, Turkmaniston va Eronni bog'lovchi Tajan - Mashxad - Seraxs yo'llarining qurilishi Markaziy Osiyo Yaqin Sharq va Turkiya Respublikalari bilan bog'lashda katta ro'l o'ynaydi.

9.2. Tabiiy sharoiti va resurslariga baho

Markaziy Osiyo davlatlarning hududi berk suv havzazini tashkil qilib, shimoliy yarim shardagi eng yirik cho'l shu mamlakatlar hududida joylashgan. Bu yerning tabiatи bir - biridan, keskin farq qiluvchi bo'lib, yirik To'ron tekisligi, va baland tog' tizimlari hisoblangan Pamir va Tyan-Shan o'ziga xos landshaftlarini tashkil qilgan. Eng katta tekisliklari cho'llardan iborat bo'lib - ularga Qoraqum va Qizilqum cho'llari kiradi.

Markaziy Osiyo hududining Okeanlarga nisbatan Uzoqda joylashganligi, iqlimini keskin kontinentalligi yozi quruq, qishi esa kam yog'ingarchilikli va sovuq bo'lishini vujudga keltiradi. Tog'li o'lkalarda esa iqlim vertikal zonallik qonuniyatlarga bo'ysinib, 3000 m baland qismlarda iqlim shunday sovuqki, hududi shimoliy subarktika va Arktika rayonlari singaridir. Shuning uchun ham bu baland tog'lar muzlik bilan qoplangan.

Markaziy Osiyo hududi berk hisoblanib, eng yirik daryolari Sirdaryo va Amudaryodir. Ular barcha Markaziy Osiyo davlatlarini hududidan o'tib o'zining suvini Oro'l dengiziga quyar edi, biroq ayni paytda bu daryo suvlari yerlar betartib o'zlashtirilishi natijasida Oro'l dengiziga yetib bormayapti. Bu holat - ekologik muammoni vujudga keltirgan. Xo'jalikda ishlatiladigan suv resurslari asosan yerlarni sug'orish maqsadida foydalananiladi. Shu bilan birga tog' daryolari, - Vaxsh, Norin, Chirchiq, katta gidroenergiya resurslariga boy hisoblanadi. Markaziy Osiyo respublikalari juda katta tabiiy resurs boyliklariga ega.

Markaziy Osiyo respublikalari orasida Qozog'iston ancha boy tabiiy resurs zahiralariga ega, ya'ni ko'mir, neft, mis, qo'rg'oshin, temir ruda va boshqalarga. Ayniqsa, rangli metallurgiya resurslari ancha katta. Polimetall rudalari havzalariga – Rudali Oltoy, Jung'oriya, Markaziy Qozog'iston tog'lari kiradi. Shuningdek, bu mamlakatda katta temir rudali konlariga – Sokolovsk - Sarbay, Lisakovsk va Ayat havzalari kiradi.

MDH mamlakatlari ichida ko'mir qazib chiqarish bo'yicha Qozog'iston uchinchi o'rinni egallaydi.

Asosiy konlari - Qorag'anda va Ekibastuz havzalaridir. Neft va gaz Manqishloq va Ural - Embla rayonidan qazib olinadi. Qozog'istondagi eng istiqbolli neft qazib oluvchi havza bu-Tengiz havzasidir. Shu bilan bir qatorda Qozog'iston katta fosforit

zahiralariga ega bo'lib, qoratov tog'larida va Aktyub oblastida bu xom ashyo qazib olinadi. Gidroenergiya resurslari ko'proq mamlakatning sharqiy qismida bo'lib, bularga - Ural, Irtish, Tobol va Ishim daryolarining resurslari kiradi.

Turkmaniston Respublikasining hududida neft, gaz, oltingugurt, boshqa kimyoviy xom ashyo resurslari mavjud. Neft qazib olinadigan rayonlar – G'arbiy Turkmanistonda – Nebit-Dag, gaz konlari esa Markaziy va sharqiy Qoraqum rayonlarida mavjud. Shuningdek Qora – Bo'g'ozgol qo'lig'ida - katta miqdorda kimyo xom ashyo-mirabimet qazib olinadi.

Markaziy Osiyo miqyosida ko'mir, surma va simob qazib olish bo'yicha Qirg'iziston yetakchi o'rinda turadi, shunigdek bu yerda neft va gaz ham qazib olinadi.

Katta gidroresurs imkoniyatlariga Qirg'iziston bilan bir qatorda Tojikiston ham ega. Panj va Vaxsh daryolari yirik energetika quvvatiga ega. Markaziy Osiyo doirasida umumiy gidroenergetika salohiyatining 55% Tojikistonga to'g'ri keladi.

Shuningdek Tojikistonda, ko'mir, neft, gaz, polimetall, rudalari, volfram, surma, tosh tuzi va qurilish materiallari xom ashysini mavjud.

9.3. Aholisi va uning joylashuvi

1913 yilda Qozog'iston Respublikasida 5,6 mln kishi yashagan bo'lsa, 1959 yilda bu ko'rsatgich 9,2 mln kishiga, 1973 yilda 13,7 mln, 1984 yilda 15,6 mln, 1997 yilda esa 16,4 mln kishiga yetdi.

Bu mamlakatning aholisi faqatgina tabiiy ko'payish hisobiga emas, balki ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida aholini ko'chib kelishi hisobiga ham ko'paydi. Mamlakat aholisi juda notekis joylashgan bo'lib, aholi zichligi 1 km kvga - 5,8 kishini tashkil qiladi. Mamlakat maydonining chegaraga tutash hududlarida, Ayniqsa janubiy va shimoliy qismlarida aholi zichligi ancha yuqori.

Aholining bunday notekis joylashganligi avvalambor, aholinining tarixan o'mashganligi, tabiiy sharoit xususiyatlari va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishdan kelib chiqqan.

Respublikada tabiiy resurslarning o'zlashtirilishi, qazib oluvchi va qayta ishlovchi tarmoqlarning vujudga kelishi o'z navbatida aholining ichki va Ayniqsa tashqi migratsiyasini kuchaytirdi, shu bilan birga uning milliy tarkibini o'zgartirdi. Bu respublikaning demografik xususiyatlaridan biridir.

Aholining milliy tarkibida mahalliy, ya'ni qozoqlar bilan boshqa millat vakillari ruslar, ukrainlar janubiy qismlarda uyg'urlar, dungonlar, nemislar, tatarlar, o'zbeklar keng tarqalgan. Yuqorida qayd qilganimizdek, ayni paytda bu mamlakatda aholining tabiiy o'sishi unchalik yuqori emas. 1997 yil statistika ma'lumotlariga qaraganda, aholi tug'ilishi har 1000 ta kishiga 15 tani tashkil etsa, shundan o'lim, 10 ta kishini, tabiiy o'sish esa 5 ta kishiga teng. Har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqdan 1 yoshga yetmasdan 25 tasi nobud bo'lmoqda.

Ayni paytda, aholining 52% i shaharlarda yashaydi. Shaharlar ichida aholisi 100 ming kishidan ko'proq bo'lganlari ahamiyatli salmog'ni tashkil qiladi. Shular jumlasiga Qorag'anda, Temirtau, Jezqazgan, Aktau, Qoratau, Kentau va Almati va

boshqalar kiradi. Mamlakat siyosiy mustaqillik davrida respublikaning poytaxti Almati shahridan Astana shahriga ko'chirilgan.

Turkmaniston Respublikasi aholisi notekis joylashtgan bo'lib, bu holat mamlakat katta maydonining Qoraqum cho'lidan hamda boshqa geografik sharoiti noqulay bo'lган hududlardan tashkil topganligi bilan bog'langan.

Aholining aksariyat qismi vohalarda yashaydi. Bu yerlarda xar bir kv kmga 260 kishi to'g'ri kelsa, cho'llarda bu ko'rsatkich - 1 kishiga teng xolos. Umuman olganda aholining respublika bo'yicha o'rtaga zichligi 1 kv km ga 6,1 kishini tashkil qiladi.

Aholining katta qismi janubiy viloyatlarda yashaydi, Amudaryo, Murg'ob, Tajan daryolari bo'yalarida, shuningdek Kopetdog' tog'larining etaklarida.

Qирғизистон Respublikasining aholisi 1997 yil ma'lumotlariga qaraganda 4,6 mln. kishini tashkil qildi.

Aholining o'sishi asosan, yuqori darajadagi tug'ilish va past darajadagi o'lim bilan bog'langan. Bu erda xar 1000 ta kishiga 24 tani, o'lganlar 8 tani, tabiiy o'sish esa 16 ta kishini tashkil qiladi.

Aholining milliy tarkibida qирғизлар ko'pchilikni tashkil etadi. Bu yerda yana o'zbeklar, ukrainlar va boshqa millat vakillari ham istiqomat qiladi. Shahar aholisi 38 % ga teng. Eng katta shaharlari Bishkek, Jalolobod, O'sh va boshqalardir.

Aholi ko'proq vodiylarda, Chuv vodiysining shimolida va Farg'ona vodiysining janubida joylashgan. Aholining o'rtacha zichligi esa, 1 kv kmga 20 ta kishini tashkil qiladi.

Tojikiston aholisi 1997 yil ma'lumotlariga qaraganda 6 mln. kishini tashkil qiladi. Tojikiston aholini tabiiy takror barpo etilishi darajasining yuqoriligi bo'yicha MDH davlatlari ichida yetakchi o'rinni egallaydi.

Mamlakatning asosiy relefi shakli tog'lardan iborat bo'lганligi tufayli, aholi asosan vodiylarda zich joylashgan. Aholini yuqori darajasida zich joylashganligi Farg'ona, Hisor, Vaxsh, Kofirnixon vodiylarida kuzatiladi.

Xo'jalikning bir tomonlama qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganligi, shaharliklar salmog'ining pastligiga olib kelgan. Mamlakatda aholining 37% shaharlarda yashaydi.

9.4. Xo'jaligining rivojlanish xususiyatlari

a) Sanoati;

Sobiq ittifoq sanoati davrida Qozog'iston Respublikasida yoqilg'i sanoati, energetika, qora metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmoqlari shakllandi.

Xalqaro mehnat taqsimotida Qozog'iston Respublikasi rangli metallurgiya sanoati bilan, ya'ni mis, qo'rg'oshin, rux, alyuminiy, titan magniy, shuningdek kamyob va nodir metallar ishlab chiqarish bilan ajralib turadi.

Mis sanoati asosan Jezqazg'on oblastida joylashgan bo'lib, bularga asosan Balxash va Karsakpay mis eritadigan zavodlari, Jezqazgan, Sayan rudani boyitish korxonalari kiradi. Qozog'istoning ikkinchi mis havzalari uning sharqiy qismida mavjud bo'lib, bu yerda Glubokoe mis zavodi ishlab turibdi.

Qo'rg'oshin - rux sanoati Rudali Oltoy va Janubiy Qozog'istonda joylashgan bo'lib, Oltoydag'i eng yirik qo'rg'oshin - rux kombinati Ust-Kamenogorsk shahrida, Janubiy Qozog'istonda esa Qoratau va Jung'or Olatauda qazib olinadigan rux asosida Shimkent shahridagi qo'rg'oshin zavodi ishlaydi.

Titan va magniy sanoati korxonalar Ust - Kamenogorsk shahrida, gilmoy ishlab chiqariladigan korxona esa Pavlodarda (Ekibastuzda arzon ko'mir energiyasi bazasida) mavjud.

Qora metallurgiya bu respublikaning eng yangi tarmoqlaridan hisoblanadi.

Ulug' Vatan urushi yillarida Temirtauda Qarag'anda metallurgiya korxonasi tashkil topgan bo'lib, bu korxona rudani Markaziy Qozog'istondan va Kustanay oblastida oladi.

Kustanoyda juda yirik respublika metallurgiya bazasi tashkil etilgan. Sarboyda tog'-kon metallurgiya kombinati, Lisakovsk va Kacharsk rudani boyitish kombinatlari ishlab turibdi.

Qozog'iston Respublikasida shuningdek ko'mir sanoati rivojlangan. Eng yirik havzasi - Qarag'anda konidir. Bu yerda toshko'mir va kokslanuvchi ko'mir qazib olinadi.

Ekibastuz ko'mir havzasining ahamiyati ham tobora o'sib bormoqda. Bu yerda qazib olinadigan ko'mir ochiq usulda qazib olinib, uning tannarxi juda arzon. Ekibastuz ko'miri elektroenergiya olish uchun xom ashyo sifatida ishlatiladi.

Qozog'iston Respublikasida neft sanoati dastlab Emba havzasida rivojlangan. Keyinchalik, 1975 yildan boshlab esa, Janubiy Mang'ishloq va Shimoliy Ustyurda yangi neft havzalari ishga tushdi.

Mamlakat elektroenergetikasining aksariyat qismi issiqlik elektrostantsiyalarida ishlab chiqariladi. Eng yirik elektrostantsiyalar Almati, Qarag'anda, Petropavlovsk, Taroz, Shimkent, Pavlodar shaharlarida mavjud. Irtish daryosida Ust-Kamenogorsk va Buxtarma GESlari qurilgan. Issiqlik elektrostantsiyalarning ichida eng yirigi – Yermak, GRESning quvvati - 2,4 mln. kVtga tengdir.

Qozog'istondagi mashinasozlik tarmog'i asosan ehtiyoj omili asosida rivojlanib ko'proq ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishga qaratilgan.

Bu yerda tog'-kon mashinasozligi (Qarag'anda), neft sanoati uchun asbob uskunlar ishlab chiqarishi, og'ir mashinasozlik (Almati), va boshqa tarmoqlar tashkil topgan.

Kimyo sanoati esa mamlakat hududidagi kimyoviy xom ashylar - fosforit, turli tuzlar va tabiiy gaz negizida rivojlangan. Bu tarmoqning asosiy sohasi - fosfat o'g'itlarini ishlab chiqarish. Shuningdek, soda ishlab chiqarish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mamlakat yengil sanoati doirasida ko'nchilik, junchilik, to'qimachilik tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Ip-gazlama kombinatlari Shimkent va Almati shaharlarida joylashgan.

Turkmaniston Respublikasining asosiy tarmoqlari neftni qazib olish va qayta ishslash bilan bog'liq. Bu soha respublika og'ir sanoatini vujudga keltirgan.

Neft qazib olinadigan asosiy rayon Nebitdog' bo'lib, bu shahar quvur orqali Turkmanboshi shahri bilan bog'langan. Chunki, bu yerda neftni qayta ishslash korxonasi mavjud. Neft qayta ishlaydigan ikkinchi shahar - Neftezavodsk Chorjo'yda, mineral o'g'itlarini ishlab chiqaruvchi korxona ham qurilgan.

Shu bilan birga respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi ya'ni paxta tozalaydigan va yog' ishlab chiqaruvchi tarmoqlar bor. Ular Mari, Bayram - Ali, Chorjo'y, Doshxovuz, Ashgg'obad shaharlarida joylashtirilgan. Jun va ipak sanoati – Ashgg'obad va Chorjo'yda, gilamchilik - Kerki, Qozonjikda juda yaxshi rivojlangan.

Qirg'iziston Respublikasida qishloq xo'jaligi sanoatdan ustun tursada, tabiiy resurs imkoniyatlari ba'zi-bir sanoat tarmoqlarining vujudga kelishida katta ahamiyat kasb qiladi. Bu erda qishloq xo'jaligi mashinasozligi yaxshi shakllangan. Suv resurslari asosida Norin daryosida To'xtag'ul GESi ishga tushirilgan. Shuningdek, oziq - ovqat sanoatining tarmoqlari - go'sht shakar, ishlab chiqarish, vinochilik, tamakichilik bo'lib, bu korxonalar ishlab chiqargan mahsulotni Markaziy Osiyo davlatlariga ham eksport qilmoqda. Yengil sanoatda esa paxta tozalash, ipakchilik, ko'nchilik, kanop ishlab chiqarish tarmoqlari shakllangan.

Tojikiston sanoati ko'proq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan bo'lib, to'qimachilik, konserva sanoati yaxshi rivojlangan. Shuningdek rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoatlari ham mavjuddir.

Vaxsh daryosida qurilgan Nurek GESi negizida Tursunzoda shahrida barpo etilgan alyuminiy zavodi respublika rangli metallurgiya tarmoqining eng yetakchisi hisoblanadi. Shuningdek Yavanda qurilgan elektrokimyokombinati respublikada kimyo sanoatiga asos soldi.

b) Qishloq xo'jaligi;

Qozog'iston qishloq xo'jaligi xalq xo'jaligi yalpi mahsulotining 6,5% ini beradi. Qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar 221 mln hektar bo'lib, shundan 188,1 mln hektar yoki 80,6% yaylovlardan iboratdir. Qozog'iston respublikasining rayonlarida har xil tabiiy va iqtisodiy sharoitlar mavjudligi tufayli, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ixtisosasi xilma-xildir.

Markaziy va G'arbiy Qozog'iston yer maydonlari yem xashak ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashtirilgan bo'lsa, janubiy Qozog'iston sug'oriladigan dexqonchilikka asoslangan. Bu yerda donchilik, uzumchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik mahsulotlari hamda paxta yetishtiriladi.

Don ekinlarini yetishtirishda Qozog'iston yetakchi o'rinda turib, yer maydonlarining 54% ga kuzgi bug'doy ekiladi. Asosiy don yetishtirladigan rayonlar - bu yangi o'zlashtirilgan hududlar bo'lib, ular hissasiga respublikada yetishtiriladigan bug'doyning 2/3 qismi to'g'ri keladi.

Texnika ekinlaridan paxta, qand lavlagi, kungaboqar, tamaki va kanop yetishtiriladi. Paxta - Shimkent viloyatida, kanop - Qozog'istonning shimolida va markaziy qismida, qand lavlagi - Taroz, Almati va Taldi - Qo'rg'on viloyatlarida yetishtiriladi.

Tamaki yetishtiriladigan asosiy rayon Almati viloyati, kungaboqar - Sharqiy Qozog'istonda, gorchitsa - Ural viloyatida, dorivor o'simliklar esa - Shimkent viloyatida ekiladi.

Shu bilan birga, katta shaharlar atrofida kartoshkachilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik rivojlangan.

Bog'lar va uzumzorlar Qozog'iston hududining 110 ming gettar yerini egallagan.

Bog'larinig asosiy qismlari Almati, Shimkent viloyatlarida joylashgan. Uzumzorlarining 2/3 qismi Shimkent viloyatiga to'g'ri keladi.

Qozog'iston respublikasida yirik chorvachilik tarmoqi shakllangan bo'lib, u go'sht va sut yetishtirishga ixtisoslashgan.

Chorvachilikning asosiy tarmoqi qo'ychilikdir, u Janubiy va G'arbiy Qozog'istonda qorako'lchilik yaxshi rivojlangan.

Turkmaniston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmoqining rivojlanishida irrigatsiyaning ahamiyati juda kattadir. Qoraqum kanalining qurilishi Amudaryo suvlarini Kaspiy bo'ylariga, Kopetdog' tog'larining etaklarigacha yetkazib berish imkonini yaratdi. Shuningdek, Murg'ob va Tajan irrigatsiya tizimlarining qurilishi Qoraqum va Doshhovuz viloyatlarining qishloq xo'jaligini yanada rivojlanishiga olib keldi. Sug'oriladigan yerlarda - paxtachilik, uzumchilik, bog'dorchilik va polizchilik tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Chorvachilikning asosiy yo'nalishi qorako'lchilik bo'lib, bu tarmoq Markaziy Osiyo davlatlarida yetishtiriladigan qorako'l terining 1/5 qismini beradi. Shuningdek, Turkmanistonda tuyachilik, ipakchilik va asalarichilik yaxshi rivojlangan.

Qirg'izistonning qishloq xo'jaligi, sanoatdan ustun turadi. Qishloq xo'jaligining asosiy tormoqlariga dexqonchilik va chorvachilik kiradi.

Bu respublikada paxtachilik (Farg'ona vodiysida), qand lavlagi (Chuv vodiysida) yetishtiriladi. Shu bilan birgalikda qishloq xo'jalik yerlarining katta qismi chorva mollari uchun yem-xashak etkazishga ixtisoslashgan.

Tojikiston Respublikasining asosiy qishloq xo'jaligi tarmoqlari paxtachilik, ipakchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, tog'li hududlarida esa donchilik va chorvachilikdir.

Ingichka tolali paxta yetishtirishda Tojikiston yetakchi o'rinda turadi. Bog'lar va uzumzorlarda yuqori sifatlari quruq mevalar, asosan mayiz va turshak yetishtirib beriladi.

v) Transporti

Hududi katta bo'lган mamlakatlar doirasida transportning ahamiyati beqiyosdir. Qozog'iston Respublikasida temir yo'l transporti rivojlangan bo'lib, uning uzunligi 14 ming kmni tashkil qiladi. Ilk bor qurilgan temir yo'llarga Petropavlovsk - Borovoe va 1930 yilda ishga tushirilgan Turksib temir yo'li kiradi. (uning uzunligi 1445 km). Turksib temir yo'li Sibir va O'rta Osiyonidagi bir-biri bilan bog'lagan. Keyinchalik Petropavlovsk - Borovoe temir yo'li Qarag'anda va Balxashgacha yetkazildi. Shundan keyin Jarik – Jezqazg'on, Atirau - Orsk, Janubiy Sibir magistrallari qurildi.

Oxirgi paytlarda O'rta Sibir magistrali (Kustanay - Ko'kchatov - Irtish - Karasuk), Beynov - Qo'ng'iroq va Makat - Aleksandr Gay, ya'ni Markaziy Osiyonidagi Yevropa bilan bog'lovchi temir yo'llar qurildi.

Yuklarning tarkibini asosan davlatlarda sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlanish xususiyatlari aniqlaydi. Qozog'iston yuk tarkibining asosiy qismini toshko'mir

(30%), qurilish materiallari (23%), rudalar (20%), don mahsulotlari (7%) tashkil qiladi.

Mamlakatda shuningdek, avtomobil yo'llari katta ahamiyatga ega (bu yerda 40 ming km dan ziyod yo'l qurilgan). Asosiy avtomobil yo'li magistrallariga Almati - Bishkek - Shimkent - Toshkent, Almati - Toldi-Qo'rg'on - Ust-Kamenogorsk, Semipalatinsk - Pavlodar - Omsk yo'naliishlari kiradi.

Suv transporti Qozog'istonning ayrim qismlarida mavjud. Chunonchi Balxash ko'lida, Irtish, va Ural daryolarida. Quvur transporti Qozog'istonda ancha rivojlangan. G'arbiy Qozog'istonda Emba neft havzasidan Atirau va Orskgacha quvurlar o'tkazilgan. Uzen - Atirau - Sizran quvur transportida juda suyuq neft tashiladi.

Respublikada shuningdek, havo transporti ham yaxshi rivojlangan. Turkmaniston Respublikasi xo'jaligining rivojlanishida transportning ahamiyati katta. Kavkazorti respublikalari bilan Markaziy Osiyo davlatlarini bog'lovchi Turkmanboshi porti dengiz transporti markazi vazifasini bajarib turadi.

Janubiy Turkmanistondan o'tuvchi, g'arb bilan sharqni bog'lovchi Markaziy Osiyo temir yo'li tranzit ahamiyatga ega bo'lib, bu yul shuningdek Kavkazorti va Sibirni bir - biri bilan bog'laydi.

1962 yilda Turkmanboshi - Baku paromi ochildi va undagi poezd orqali har xil yuklar tashiladigan bo'ldi.

Janubiy Turkmanistonda Ayniqsa avtomobil transporti yaxshi rivojlangan. Poytaxtni Uzoq Qoraqum rayonlari va Doshxovuz bilan bog'lashda havo transportining ahamiyati beqiyosidir.

Qirg'izistonning transport tarmoqida Lugovaya - Bishkek - Baliqchi temir yo'lining qurilishi respublika miqyosida ichki aloqalarni yaxshiladi. Mamlakat ichkarisida, tog'li qismlarda avtomobil yo'llarining ahamiyati katta. Bunday avtomobil yo'llar shimol bilan janub o'rtaida, Issiq-ko'l xalqasida va Bishkek - O'sh orasida qurilgan.

Keyingi yillarda Farg'ona vodiysidan boshlanadigan Andijon - O'sh - Urumchi avtomobil yo'lining qurilishi Markaziy Osiyo davlatlari bilan Xitoy o'rtaсидаги transport aloqasini yaxshilashda ahamiyati juda katta bo'ldi.

Tojikiston Respublikasida avtomobil transporti asosiy o'rinda turadi. Respublika doirasida O'sh - Xorog, (butun Pomir orqali), Dushanbe - Xorog, Dushanbe - Xo'jand avtomobil yo'llari qurilgan.

9.5. Markaziy Osiyo davlatlarining ichki tafovutlari

Qozog'iston respublikasining ichki qismlari bir - biridan keskin farq qiladi. Qozog'iston respublikasi beshta iqtisodiy rayonga bo'lib o'rghaniladi - Shimoliy, Markaziy, Janubiy, G'arbiy va Sharqiy. Shimoliy Qozog'istonga - Shimoliy Qozog'iston, Ko'kchatov, Ostana, Pavlodar, Kustanay va To'rg'ay viloyatlari kiradi.

Bu iqtisodiy rayon asosan quriq yerlarning ochilishi hisobiga rivojlangan qishloq xo'jaligi negizida shakllangan bo'lib, u asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Shuningdek bu rayonda foydali qazilmalaridan temir rudasi, ko'mir, boksit, asbest rudalari mavjuddir.

Uning hissasiga mamlakat hududining 1/5 qismi, aholisining 1/3 qismi, ekiladigan yer maydonlarining 2/2 qismi to'g'ri keladi.

Shuni qayd qilish kerakki, poytaxtni Ostana shahriga ko'chirilishi bu iqtisodiy rayon ahamiyatining yanada o'sishiga olib keldi.

Markaziy Qozog'istonga Qarag'anda va Jezqazg'on oblastlari kirib, bu rayonning rivojlanishida ko'mir, polimetall, temir va marganets rudalarining ahamiyati katta bo'lди.

Rayonda tog'-kon sanoati va u bilan bog'liq bo'lgan, qora metallurgiya, rangli metallurgiya va yoqilgi sanoati yaxshi rivojlangan. Eng katta shaharlari - Qarag'anda, Temirtau, Balxash va Jezqazg'andir.

Janubiy Qozog'iston iqtisodiy rayoniga Almati, Shimkent, Taroz, Toldi - Qo'rg'on va Qizil-O'rda oblastlari kiradi. Bu rayon sug'oriladigan qishloq xo'jaligiga asoslangan bo'lib, undagi paxtachilik, sholichilik, tamakichilik, bog'dorchilik asosiy tarmoqlar hisoblanadi.

Yirik tabiiy resurs zahiralari asosida bu yerda tog'-kon sanoati shakllandи va rangli metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, yengil va oziq - ovqat sanoati rivojlandi. Eng katta shaharlari - Almati, Shimkent, Taroz va Qizil-O'rda hisoblanadi.

Sharqiy Qozog'iston iqtisodiy rayoniga Sharqiy - Qozog'iston va Semipalatinsk oblastlari kiradi. Rayon doirasida Rudali-Olttoy havzasi mavjud. Shuning uchun ham, bu yerning sanoatida rangli metallurgiya, qurilish materiallari sanoati, kimyo sanoati yetakchi hisoblanadi. Ust-Kamenogorsk va Semipalatinsk eng katta shaharlari hisoblanadi.

G'arbiy Qozog'iston tarkibiga Aktyubinsk, Ural, Atirau va Mangistau oblastlari kiradi. Sanoatining asosiy ixtisosi, tabiiy resurslarni qazib olish (neft, gaz, xrom va nikel rudalarini) va bu tarmoqqa xizmat qiluvchi mashinasozlikdan iboratdir.

Shuningdek, bu rayonda baliqchilik yaxshi rivojlangan. Asosiy shaharlari Aktyubinsk, Uralsk, Atirau va Aktaudir.

Turkmaniston Respublikasi quyidagi rayonlardan iborat: G'arbiy, Murg'ob, Tajan va quyi Amudaryo (Doshxovuz viloyati).

G'arbiy rayon (Ashgabad - Turkmenboshi) sanoati ixtisosiga neft va neftni qayta ishslash, kimyo, yengil, oziq-ovqat va baliqchilik tarmoqlari kiradi. Eng katta shaharlari Ashgabad, Turkmenboshi, Nebit-Dag, Qum-Dag va Chelekendir.

Murg'ob - Tajan rayoni tarkibiga Mari oblasti va janubi - sharqiy Qoraqum sektori kiradi.

Bu rayonning asosiy ixtisosini ingichka tolali paxta yetishtirishdir. Turkmanistonning yarmidan ko'p qorako'l qo'yłari ham shu rayonga to'g'ri keladi. Bu rayon ipakchilik rayoni hamdir. Asosiy shaharlari Mari va Bayram-Alidir.

O'rta - Amudaryo rayoni Chorjo'y oblastidan iborat bo'lib, asosiy qishloq xo'jaligi tarmoqlari paxtachilik, qorako'lchilik, va ipakchilikdir.

Quyi Amudaryo rayoniga mamlakatdagi shimoliy Dashxovuz oblasti kiradi. Bu rayon ham qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan.

Qirg'iziston Respublikasi iqtisodiyotning ixtisoslashishi bo'yicha quyidagi rayonlarga ajratilgan: - Shimoliy, Ichki Tyan-Shan, Janubi-g'arbiy.

Shimoliy Qirg'iziston rayoni iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan rayon bo'lib, unda mashinasozlik, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoatlari yaxshi taraqqiy etgan. qishloq xo'jaligining asosiy ekinlari qand lavlagi, donli ekinladir. Bog'dorchilik va uzumchilik asosiy tarmoqlari hisoblanadi.

Ichki Tyan-shan rayonida tabiiy resurslarni qazib olish, gidroenergiya resurslaridan foydalanish va chorvachilik rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi chorvachilik, sanoati esa - tabiiy resurslar bilan bog'liqdir.

Janubi – g'arbiy Qirg'izistonga Farg'ona vodiysidagi O'sh va Jalolobod oblastlari kiradi. Shularning asosiy ixtisoslari sanoatda ko'mir, surma va simob rudalarini qazib olish, qishloq xo'jaligida esa paxtachilik, ipakchilik, bog'dorchilik va uzumchilikdir.

Tojikiston Respublikasining har xil tabiiy resurslari va tabiiy sharoitlari turli iqtisodiy rayonlarni vujudga keltirdi.

Shimoliy qismga Xo'jand oblasti kirib, xo'jaligi bevosita qishloq xo'jaligi bilan, Ayniqsa paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik bilan bog'liq. Shuningdek, bu yerda polimetall rudalari, volfram va surma rudalari qazib olinadi.

Janubi – g'arbiy Tojikistondagi Hisor va Vaxsh vodiylari mamlakatning eng yirik qishloq xo'jaligi rayonlari hisoblanadi. Ularda ingichka tolali paxta, yeryong'oq, geran, tsitrus mevalari yetishtiriladi. Tog'li Badaxshonda aholi juda siyrak joylashgan. Bu yerda chorvachilik rivojlangan.

9.6. MDH davlatlarining tashqi iqtisodiy aloqalari

Mamalakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanishda va ilmiy-texnik taraqqiyotida tashqi iqtisodiy aloqalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi va respublikalar o'rnida mustaqil mamlakatlarning vujudga kelishi, o'z navbatida tashqi iqtisodiy aloqalarga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Ayni davrda O'zbekiston Respublikasi jahonning juda ko'p mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatgan.

**O'zbekiston Respublikasining MDH davlatlari
bilan tashqi iqtisodiy faoliyati (% hisobida)**

Mamlakatlar	Eksport darajasi				Import darajasi			
	1996	1997	1998	1999	1996	1997	1998	1999
MDH	22,9	34,4	26,6	30,4	32,1	28	27,8	26
Rossiya	11,6	19,1	14,9	13,4	21	11	16	13,9
Ukraina	0,8	4,6	0,9	3,8	3,5	2,7	4,5	4,2
Qozog'iston	2,6	4,5	3,5	4,6	4,7	4,3	4,1	2,7
Tojikiston	1,5	2,4	3,5	3,7	0,5	1,4	0,5	1
Turkmaniston	3,8	2,1	1,2	2,4	0,4	0,5	0,3	0,3
va boshqalar	2,6	1,7	2	2,6	2	2,1	1,5	2,6

MDH davlatlari bilan O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyat tarkibi bilan tanishadigan bo'lsak, Respublikamizning tovar ayriboshlashdagi salmog'i 1996 yilda eksportda 22,9% importda esa 32,1% tashkil qilgan. 1998 yilda esa bu ko'rsatgichlar 30,4% va 26% ga teng. Ayniqsa MDH davlatlari ichida O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qozog'iston Respublikasi bilan tashqi iqtisodiy faoliyati ancha rivojlangan. (1-chizma) O'zbekistonning eksportga chiqaradigan tovarlari mahsulotlarini paxta-tolasi, ipak xom ashyosi, qorako'l terisi, avtomobil, kabel mahsulotlari tashkil qilsa, import tovarlari eng ko'proq sanoat va iste'mol mahsulotlari tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasini MDH davlatlari bilan tashqi iqtisodiy faoliyatini ko'radigan bo'lsak, u davlatning MDH bilan tashqi savdodagi tovar ayriboshlashdagi salmog'i 1992 yilda 17,8%ni tashkil qilgan bo'sa, 1996 yilda esa bu ko'rsatkich 23,5%ga yetdi.

Rossiyaning eksport tovarlari tarkibini, asosan- mashinasozlik, ximiya, yoqilg'-energetika sanoati mahsulotlari va xom ashyo tashkil qiladi. Shuningdek, bu davlatning Ukraina bilan eksport salmog'i- 48%, Belorussiya- 20,5%, Qozog'iston bilan esa 18,5%ni tashkil qiladi.

MDH davlatlari o'rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarini takomillashtirishda ma'lum imkoniyat va sharoitlar bor, albatta. Chunonchi, umumi transport tizimini shakllanganligi, xo'jaliklarni tarixan vujudga kelishi, iqtisodiy integratsiyani mavjud bo'lganligi, hududiy mehnat taqsimotidagi ixtisoslashuv, xamkorlik va boshqalar.

Biroq MDH davlatlari o'rtasida tashqi faoliyat borasida iqtisodiy to'siqlar vujudga kelgan, bular chegara bojxonasidagi cheklanishlar, narx siyosatidagi kelishmovchilik, tovar-pul munosabatlari o'rnida barter ayriboshlashning mavjudligida va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Tayanch iboralar.

MDH - Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlatlararo siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalardagi hamkorligi. 1991 yil dekabr oyida Minsk shaxrida tashkil topgan. Sobiq SSSR davlatining Boltiq bo'yi mamlakatlaridan tashqari barcha davlatlar a'zo. MDH-ustavi, tashkiliy organlarga ega, koordinatlashtirilgan konsultativ qo'mita Minsk shahrida joylashgan.

Iqtisodiy geografik xarakteristika – xo'jalik ob'ektlari (korxonlar, shaharlar, rayonlar) haqidan bilimlarni muayyan reja asosida sistemali ravishda bayon etish; bunda bu ob'ektlarini joylashishi xususiyatlari va taraqqiyot istiqbolari ko'rsatiladi.

Iqtisodiy geografik o'rni – Iqtisodiy geografik holat iqtisodiy geografik ob'ekt (shahar, rayon, mamlakat) ning shu ob'ektdan tashqarida bo'lган, lekin uning taraqqiyotiga ta'sir etadigan tabiiy va tarixiy-iqtisodiy ob'ektlarga nisbatan tutgan o'rni. Masalan mamlakatning dengizga nisbatan o'rni, dunyo savdo yo'llariga nisbatan o'rni qo'shni mamlakatlarni nisbatan o'rni muayyan xalqaro siyosiy axvol sharoitida mamlakatning siyosiy kuchlarga va ittifoqchilariga nisbatan munosabati va x.k. Iqtisodiy geografik o'rni- mamlakat taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha bo'lishi va uning rivojlanishiga turlicha ta'sir etishi mumkin.

Aholi depopulyatsiyasi – Aholining tabiiy o'sishida har mingta kishiga tuYoilganlarga nisbatan, o'lganlarning soni yuqori bo'lishi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. MDH vujudga kelishi sabablari, mazmuni va mohiyatini ochib bering.
2. Iqtisodiy geografi o'rin tushunchasi? MDH davlatlarining iqtisodiy geografik o'rnidagi o'ziga xos xususiyatlariga tavsif bering.
3. Rossiya Federatsiyasining tabiiy resurslariga ta'rif?
4. Ukraina Respublikasining asosiy yoqilYoi energetika va metall resurslarga havzalariga ta'rif.
5. MDH davlatlarida bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga kelgan demokratik vaziyati qanday?
6. Rossiya Federatsiyasining yoqilYoi-energetika kompleksiga baho bering?
7. Rossiya Federatsiyasining asosiy qora va rangli metallurgiya havzalariga ta'rif.
8. Ukraina Respublikasining ko'mir va qora metallurgiya tarmoqining sanoatidagi ro'li va axamiyati.
9. Belorus Respublikasining mashinasozligi va metallni qayta ishslash sanoatiga ta'rif.
10. Rossiya va Ukraina Respublikalarining asosiy iqtisodiy rayonlari.
11. Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy geografik o'mniga ta'rif.
12. Markaziy Osiyo davlatlarining yoqilYoi energetika resurslariga baho.
13. Markaziy Osiyo davlatlarini metall resurslariga ta'rif.
14. Markaziy Osiyo davlatlariga xos bo'lган demografik xususiyatlarini ko'rsating.
15. Turkmaniston Respublikasi yoqilg'i sanoatiga ta'rif.

16. Qozog'iston Respublikasining metallurgiya kompleksiga baho bering.
17. Qirg'iziston Respublikasining elektroenergiya tarmoqining sanoatdagি ro'li.
18. Tojikiston Respublikasining qishloq xo'jaligiga ta'rif.
19. MDH davlatlarining tashqi iqtisodiy aloqalari.
20. Markaziy Osiyo respublikalarining transportiga ta'rif.

Adabiyotlar

1. Alisov N.V., Xorev B.S. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira (Obshchiy obzor). M.: «Garoarim» 2000., 365 s.
2. Regionalnaya ekonomika (nad.red. Morozovoy T.G.) M. «YuNITO» 2000., 465 s.
3. Xrushev A.T. «TPK Rossii» «M Nauke» 1996 god 320 s.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. To'xpiev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. T., 1998.
2. O'zbekiston Respublikasi. Entsiklopediya. T.: Qomuslar bosh tahririyyati, 1997.

X-bob. O'zbekistonning jahon ho'jaligi tizimida tutgan o'rni va ahamiyati

10.1. O'zbekistonning iqtisodiy-geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari – Respublikaning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining muhim omillari

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyoning markazida joylashgan. Hududi shimoli-g'arbda Oro'l dengizi hamda Ustyurt platosidan janubda Afg'oniston bilan tabiiy chegara vazifasini bajarayotgan Amudaryogacha, sharqiy va janubi-sharqiy tomonlarda Tyanshan hamda Hisor-Oloy tog'larigacha cho'zilgan.

Hududning eng muhim jihatlaridan biri shundan iboratki, bu erda qorli cho'qqilar va baland tog' muzliklari, ulkan vodiylar va keng vohalar bilan birga bamisol cheksiz cho'llar va platolar mavjuddir.

O'zbekistonning maydoni 447,4 ming kv.km. shuning 3/4 qismini tekistliklar va platolar, qolgan 1/4 qismini tog' oldi hududlari va tog'lar tashkil etadi. Hududning katta qismida mo'tadil iqlim hukmron. Iqlimi keskin kontinental, yozi issiq va quruq, qishi sovuq va kam qorli. Yog'inlar asosan bahor hamda qishga to'g'ri keladi. Iqlim sharoiti bu erda issiqsevar o'simliklar: paxta, kanop, kunjut, zig'ir hamda shirin-shakar uzum va mevalar, sabzavot va poliz ekinlarini etishtirish uchun nihoyatda qulaydir. Respublika hududidan Amudaryo va Sirdaryo hamda ularning juda ko'p irmoqlari oqib o'tadi.

O'zbekiston hozirigi vaqtida O'rta Osiyo mamlakatlari ichida iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatdir. O'zbekiston jahoning sug'orma dehqonchilik va u bilan bog'liq paxtachilik, ipakchilik va qorako'lchilik yuqori darajada taraqqiy etgan mamlakatidir. Shuning uchun Respublikaning paxta, pilla etishtirish hamda qorako'l teri tayyorlash bo'yicha jahon mamlakatlari ichida yuqori o'rirlarni barqaror ravishda egallab kelishi beziz emas.

O'zbekiston xilma-xil turdag'i tabiiy resurslarga, ayniqsa mineral, er-suv hamda rekreatsion resurslariga boy mamlakatdir.

Respublika hududida 900 dan ortiq foydali qazilma konlari qidirib topilgan bo'lib, shulardan 60 dan ortiq mineral-xom ashyo turlari ishlab chiqarishga jalb etilgan. Foydali qazilma konlarining tasdiqlangan zahiralari 970 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiyligi mineral-xom ashyo potentsiali 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak.

Muhim strategik manbalar-neft va gaz kondensati, tabiiy gaz bo'yicha 255 ta istiqbolli kon, qimmatbaho metallar bo'yicha – 40 dan ortiq, rangli, nodir va radioaktiv metallar bo'yicha – 40, konchilik-kimyo xom ashyosi bo'yicha 15 ta kon qidirib topilgan.⁶

O'zbekiston tabiiy manbalari xilma-xil turlarga va ulkan zahiralarga ega bo'lgan yoqilg'i-energetika sanoatiga ega. Respublika yoqilg'i balansida neftning salmog'i salkam 10%ni, tabiiy gaz salmog'i-85%dan ortiq, ko'mirning salmog'i

I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T.: O'zbekiston, 1997., 230-231 betlar.

salkam 5%ni tashkil etadi. Respublika sanoati mahsulotining umumiy hajmida yoqilg'i-energetika kompleksining salmog'i 1999yilda salkam 15%ga teng bo'ladi. Mamlakatda 1999 yilda 8,1 mln. tonna neft (gaz kondensati bilan), 55,6 mld. kub.m. tabiiy gaz va 2,9 mln. tonna ko'mir (asosan, qo'ng'ir ko'mir) qazib chiqarildi.

O'zbekiston xilma-xil rudali va noruda qazilmalar turlariga boy. Bu o'rinda, Respublikada ayniqla rangli, nodir va qimmatbaho metallar rudalarining zahiralari ulkan ekanligini ta'kidlab o'tish asoslidir. Mis rudasining yirik konlari - Qalmmoqqir, Sariqcheku va Dalnee Angren-Olmaliq rayonida joylashgan. Qo'rg'oshin-rux rudalarining juda katta zahiralari Surxondaryodagi Xondiza va Jizzax viloyatidagi Uchquloch konlarida mavjud. Oltinning dunyo miqyosidagi ulkan konlari qatoriga Muruntov, Ajibugut, Bulutkon, Balpantov, Aristontov, To'rboy, Ko'chbulloq, Zarmiton, kumush bo'yicha esa Kosmonachi, Visokovoltnoe, O'qjetpes (Qizilqum) va Oqtepa konlari kiradi. Mamlakatmizda uran, volfram, molibden va boshqa ma'danlarning ham yirik konlari ochilgan. Kimyoviy xom ashyo resurslari fosforitlar (Markaziy Qizilqum), osh va kaliy tuzlari (respublikaning janubiy, markaziy va shimoli-g'arbiy hududlarining) zahiralari esa deyarli bitmas-tuganmasdir. Huddi shunday fikrni granit, marmar va boshqa bezak toshlari hamda qurilish materiallari haqida ham bildirish mumkin.

O'zbekiston yer resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Umumiy yer zihrasining salkam o'n foizini haydalgan va sug'oriladigan yerlar tashkil etadi. Shularning asosiy qismi dehqonchilik uchun qulay bo'lgan, aholi zich joylashgan vodiylari va vohalarga to'g'ri keladi. Sug'oriladigan yerlarda paxta, bug'doy, sholi, jo'xori, kanop, sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari, lalmi yerlarda esa bug'doy va arpa etishtiriladi.

"O'zbekiston-qadimdan sug'orma dehqonchilik mamlakati bo'lib kelgan. Sug'orma dehqonchilik oziq-ovqat sohasida Respublika mustaqilligining negizi va asosiy eksport mahsulotining manbaidir".⁷

Mamlakatda sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni salkam 4,3 mln. gektarni tashkil etib, uning asosiy qismi tuproq-suv sharoiti nisbatan qulay bo'lgan vodiylari va vohalarda joylashgan. Farg'ona, Zarafshon vodiylari, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalari shular jumlasidandir. Sug'oriladigan yerlar maydoni XX asrning 60-yillaridan so'ng ikki martadan ziyod ko'paydi. O'sish asosan Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Ellikqal'a massivi hisobiga ta'minlandi.

O'zbekistonda bog'lar va tokzorlar egallagan maydon salkam 0,4 mln. gektarga teng. Shularning asosiy qismi tog'oldi mintaqasi yaxshi rivojlangan viloyatlarda joylashgan.

O'zbekistonda so'nggi yillarda tomorqa xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda mamlakatda tomorqa va dala-bog' yerlarning umumiy maydoni 0,6 mln. gektarni tashkil etadi.

O'zbekiston ulkan inson salohiyatiga ega bo'lgan mamlakatdir.

I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T.: O'zbekiston, 1997., 249 bet.

⁷ I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T.: O'zbekiston, 1997., 252 bet.

“Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo’lib, u mamlakatning islohotlar va tub o’zgarishlar yo’lida tinimsiz ilgarilab borishi ta’minlab beradi”⁸. Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi darajasi bilan belgilanuvchi mazkur omil o’z navbatida uni rivojlantirish va tarqqiy ettirishda hal qiluvchi ro’l o’ynaydi.

Inson salohiyatining shaklanishi juda ko’p omillarga bog’liq bo’lib, ularning ichida ijtimoiy demografik vaziyat alohida o’rin egallaydi.

Respublika aholisining soni 2000 yilning 1 yanvar kuniga salkam 24,5 mln. kishini tashkil etadi. Bu jahondagi 229 mamlakat ichida 37chi ko’rsatkich hisoblanadi. Jami aholidan 9,2 mln. kishi (37,4%) shahar va shaharchalarda, 15,3 mln. kishi (62,6%) qishloqlarda yashaydi.

Tabiiy-geografik sharoitlarining qulayligi, xilma-xil tabiiy hamda inson resurslari bilan yaxshi ta’minlanganligi O’zbekiston Respublikasini iqtisodiy taraqqiy etishi, jahoning rivojlangan davlatlari qatoriga kirishi uchun juda yaxshi imkoniyatlar yaratadi.

10.2. O’zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti va mamlakatning jahon xo’jaligi tizimida egallagan o’rni

Respublikda davlat mustaqilligining dastlabki yillarida iqtisodiy islohatlarning birinchi bosqichi uchun belgilangan vazifalar ijobjiy hal qilindi. Hozirgi vaqtda bozor munosabatlarini keng joriy qilish bilan bog’liq bo’lgan islohatlarning ikkinchi bosqichiga oid masalalar ustida ish olib borilmoqda. Shu yo’nalishda mamlakatda sezilarli yutuqlarga erishilganligini ta’kidlab o’tish asoslidir.

O’zbekistonda yalpi ichki mahsulot 1999 yilda amaldagi narxlarda 2048,4 mlrd. so’mni tashkil etdi. Bu 1998 yilga nisbatan 4,4%ga, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,8%ga ko’p demakdir. Yalpi ichki mahsulotning 13,9%i sanoatga, 28,0%i qishloq xo’jaligiga, 36,0%i xizmat ko’rsatish sohasiga to’g’ri keladi.

Respublika iqtisodiyotida nodavlat sektori yetakchi o’rinni egallaydi. Nodavlat sektorining umumiyligi yalpi ichki mahsulotda 65,6%ni, sanoat mahsulotida 61,4%ni, qishloq xo’jaligining yalpi mahsulotida 98,7%ni, aholiga pullik xizmat ko’rsatishda 54,7%ni tashkil etadi. Nodavlat sektorida respublikadagi jami band aholining 73,0%i mehnat qiladi.

O’zbekistonda davlat mustaqilligi yillarida sanoat ishlab chiqarishini va xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirish ustivor yo’nalish sifatida qabul qilingan. Bu o’rinda dastavval O’zbekistonni jahon iqtisodiy xamjamiyatiga qo’shilishini tezlatadigan, uni dunyoga “tanitadigan”, mehnatni ko’p talab etib, suv va xom ashyoni nisbatan kam iste’mol qiladigan, asosan mahalliy mineral resurslar va qishloq xo’jaligi xom ashyosiga asoslanadigan ishlab chiqarishni rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratilayotganligini aytib o’tish lozimdir.

Asaka shahrida qisqa vaqt ichida qurib, ishga tushirilgan avtomobil zavodi mahsuloti O’zbekistonni butun dunyoga yana bir bor tanitdi. Mamlakatdagi boshqa ko’pchilik sanoat tarmoqlarining mahsulotlari Respublikaning ichki ehtiyojlarini to’liq qondirmoqda hamda bir qismi eksport qilinmoqda. Mamlakatda 1999 yilda 8,1

mln. tonna neft va 55,6 mlrd. kub. m. Tabiiy gaz qazib oluvchi yirik mamlakatlar ichida 22-24 o'rirlarni, tabiiy gaz bo'yicha esa 5-6 o'rirlarni egallaydi. Mamlakatimiz aholi jon boshiga hisoblaganda elektrenergiya (1900 kVt/s), mineral o'g'itlar (37 kg), tsement (140 kg) ishlab chiqarish bo'yicha ham jahon mamlakatlari ichida munosib o'rirlarni egallaydi.

Respublikada sanoat asosan mahalliy xom ashlyoga tayangan holda rivojlanmoqda. Shunday korxonalar qatorida rangli, qimmatbaho va nodir metallar ishlab chiqaruvchi Olmaliq, Zarafshon, Chirchiq, Navoiy va boshqa shaharlardagi kon-metalluriya kombinatlari jahon miqyosida ajralib turadi.

Mahalliy xom ashyo asosida Qoravulbozor, Farg'ona va Oltiariq shaharlarida neftni qayta ishlovchi va neft-kimyosi korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Huddi shunday fikrni Sho'rtan va Muborak gazni qayta ishlovchi zavodlar haqida ham aytishimiz mumkin.

O'zbekiston rivojlangan elektrenergetika tizimiga ega. Respublikada umumiy quvvati 11200 mVt.ga teng 37 elektrstantsiya ishlaydi. Shundan 9800 mVt issiqlik stantsiyalariga, 1400 mVt gidroelektrstantsiyalarga to'g'ri keladi. Barcha elektrstantsiyalar salohiyati bir yilda 56-57 mlrd kVt/s. ga teng elektrenergiya ishlab chiqarishga imkon beradi. Issiqlik elektrstantsiyalari ichida Sirdaryo, Yangi-Angren, Toshkent va Navoiy GRESlari har birining quvvati 1000 mVt.dan oshadi. O'rta Osiyoda eng yirik – Tojmarjon GRESining qurilishi davom etmoqda.

O'zbekiston mashinasozlikni ba'zi tarmoqlarining rivojlanganlik darajasiga ko'ra dunyoda munosib o'rin egallaydi. Respublikada "O'zmashmsanoat" mashinasozlik korxonalari uyushmasi har xil mulkchilik shakllariga ega 36 korxona va tashkilotlarni o'zida birlashtirgan. Shularning ichida "O'zbekpaxtamash" korporatsiyasi, "Pod'emnik", "Kompressor", "Sino" va boshqa birlashmalar ajralib turadi. Mashinasozlik korxonalari kimyoviy uskunalar, turbokompressorlar, paxta tozalash uskunalar, yuk ko'taruvchi kranlar, metal qirquvchi asboblar, to'qimachilik mashinalari va boshqalarni ishlab chiqarmoqda.

O'zbekiston rivojlangan kimyo sanoatiga ega. Tarmoqda "Farg'ona Azot", "Navoiy Azot", "Elektrokimyosanoat" (Chirchiq), "Ammofos" (Olmaliq), Samarqand kimyo zavodi, Qizilqum fosforit kombinati hamda qurilishi davom etayotgan Qo'ng'iroq soda zavodi juda yirik korxonalar hisoblanadi.

O'zbekiston jahon miqyosida paxta tolasi, shoyi, qorako'l yetkazib beruvchi yirik davlatlar qatoridan o'rinni oлган. Respublikada 200 dan ortiq yirik yengil sanoati korxonalari ishlaydi. Toshkent, Buxoro, Andijon to'qimachilik, Namangan, Marg'ilon shoyi kombinatlari, Toshkent, Farg'ona, Yangiyo'l, Chirchiq poyafzal fabrikalari shular jumlasidandir.

O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati ko'p tarmoqlarga hamda keng geografiyaga ega tarmog'idir. Unda mavjud yirik korxonalar Respublikaning viloyatlarini hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi barcha yirik, o'rta va kichik shaharlarda, shaharchalarda, xatto qishloqlarda ham mavjuddir.

O'zbekistonda o'tish davriga xos muammolarning ko'pchiligi ijobjiy hal qilindi. Respublikada, sobiq Ittifoq Respublikalarining ko'pchiligidan farqli o'laroq, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining keskin qisqarishiga yo'l qo'yilmadi, 90-yillarning ikkinchi yarmida esa ushbu tarmoqlar o'sishiga erishildi. Bugungi

kunining asosiy vazifasi ana shu ijobiy o'zgarishilarni yanada mustahkamlashdan, jahon iqtisodiy xamjamiyatiga didilroq kirib borishdan, buning uchun yuqori sifatli, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishga, ya'ni qayta ishlovchi sanoat rivojlanishiga ko'proq e'tibor berishdan iboratdir.

Asosiy tayanch tushunchalar.

Ichki milliy mahsulot(IMM)- yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor baholaridagi qiymati.

Yalpi milliy mahsulot(YaMM)- milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor baholaridagi summasi.

Sof milliy mahsulot(SMM)- amortizatsiya ajratmalari summasiga kamaytirilgan YaMM(IMM) sifatida chiqib, tarkiban milliy daromad va egri soliqlardan iborat bo'ladi.

Milliy daromad- yangidan vujudga keltirilgan qiymat bo'lib, SMMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar.

1. O'zbekiston tabiiy-geografik o'rnnini baholang.
2. O'zbekistonning iqtisodiy-geografik o'rni qanday?
3. O'zbekiston iqlimi qanday ekinlarni etishtirish uchun qulay, qandaylari uchun noqulay?
4. O'zbekiston yoqilg'i bilan qanday ta'minlangan?
5. O'zbekiston metal qazilma boyliklardan nimalarga boy?
6. O'zbekiston yer resurslari bilan qanday ta'minlangan?
7. Mamlakatni suv resurslari bilan qanday ta'minlanganligi to'g'risida so'zlab bering.
8. O'zbekistonda 1999 yilda yalpi ichki mahsulot qancha so'mga teng bo'ldi va uning tarmoqlar tarkibi qanday?
9. O'zbekiston sanoati ishlab chiqargan mahsulot turi va hajmi to'g'risida so'zlab bering.
10. O'zbekiston qanday qishloq xo'jalik ekinlarining yalpi hosili bo'yicha dunyoda yetakchi o'rnlarni egallaydi.
11. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi XXI asrning dastlabki yillarida qanday amalga oshadi?

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T.: O’zbekiston, 1997.
2. I.A.Karimov Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: O’zbekiston, 2000.
3. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O’zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo’g’rofiyasi. T.: O’qituvchi, 1994.
4. Makkonnell K., Bryus. “Ekonomiks”, t. 1,2. M.: Respublika, 1992.
5. Nabiev E., Qayumov A. O’zbekistonning iqtisodiy solahiyati. T.: Akademiya, 2000.
6. O’zbekiston Respublikasi. Entsiklopediya. T.: Qomuslar bosh tahriri, 1997.
7. O’lmasov A., Sharifxo’jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). T.: Mehnat, 1995 y.

XI-bob.O'zbekistonning tabiiy resurs salohiyati, ulardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va takror ishlab chiqarish

11.1. «Tabiiy sharoit» va «Tabiiy resurs» tushunchalarining mazmuni va mohiyati.

«Tabiiy sharoit» va «Tabiiy resurs» keng qo'llaniladigan tushunchalar qatoriga kiradi.

«Tabiiy sharoit» - biron bir ob'ektga aloqador bo'lgan tabiatning barcha jihatlarini o'ziga qamrab olgan bo'lib, juda keng ma'noga ega tushuncha. Mantiqiy yondashuv sharoit nimaga taalluqli ekanligini aniq ko'rsatilishini, ya'ni «sanoatni rivojlantirishning tabiiy sharoiti», «dehqonchilikni rivojlantirishning tabiiy sharoiti», «temir yo'l qurilishining tabiiy sharoti», «inson hayotiy faoliyatining tabiiy sharoiti» va h.k. tarzda ifodalashni talab qiladi. Demak, «tabiiy sharoit» tushunchasini insonni qandaydir faoliyati bilan uzviy bog'liq holda tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

«Tabiiy resurslar» tushunchasi «tabiiy sharoit» tushunchasiga nisbatan tor ma'noga ega bo'lib, u tabiat bilan inson faoliyati o'rtaqidagi aloqani bevosita ifodelaydi.

«Tabiiy sharoit» va «tabiiy resurslar» tushunchalari iqtisodiy kategoriyalardir. Shu bilan birga tabiatning moddiy elementlari bo'lgan «tabiiy sharoit» va «tabiiy resurslar»ning shakllanishi, o'zgarishi va joylashishi tabiat taraqqiyotining ob'ektiv qonuniyatlari asosida amalga oshadi.

inson hayoti va faoliyatida juda muhim ahamiyat kasb etuvchi tabiat elementlari ikki asosiy guruhga: moddiy ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi (tabiiy resurslar) va qolgan barcha (tabiiy sharoit) elementlarga bo'linadi. Aniqroq qilb aytganda, «tabiiy sharoit»ga tabiatning barcha elementlari kiradi.

Tabiiy resurslar esa tabiiy sharoitning bir turi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, «tabiiy sharoit» inson hayoti va faoliyatini belgilab beruvchi, lekin ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan tabiat elementlaridir. Tabiiy sharoit va moddiy resurslar majmuasi jamiyat taraqqiyotining tabiiy-moddiy omillari hisoblanadi.

11.2. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy - geografik o'rni hamda tabiiy sharoitining bahosi.

O'zbekiston Respublikasi - qulay iqtisodiy geografik o'ringa ega bo'lgan mamlakatlardan biri. U O'rta Osiyoning Markaziy qismida, Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik daryolar oralig'ida joylashgan. Mamlakat hududi G'arbdan Sharqqa deyarli 1,5 ming km.ga, Shimoldan Janubga esa 1,0 ming km.ga cho'zilgan. Hududining kattaligi jihatidan O'zbekiston qator Yevropa davlatlari Buyuk Britaniya, Daniya, Shveytsariya, Avstriya birgalikda olgan maydonidan ham oldinda turadi, hamda jahon mamlakatlari ichida 53-o'rinni egallaydi.

Respublika Shimoli-g'arbda Qozog'iston, Sharq va Janubi-Sharqda Qirg'iziston va Tojikiston, g'arbda - Turkmaniston, Janubda - Afg'oniston bilan chegaradosh.

Umumiy chegarasining uzunligi - 6221 km. Shu jumladan, Qozog'iston bilan - 2203 km, Qirg'iziston bilan - 1999 km, Tojikiston bilan - 1161 km, Turkmaniston bilan - 1621 km va Afg'oniston bilan 137 kmni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida mavjud tekislik va tog' relefi o'ziga xos ravishda birlashib ketgan. Tekisliklar respublikaning Janubi - §arbiy va Shimoli-§arbiy qismlarida joylashgan va Ustyurt platosi, Amudaryo deltasi tekisliklari hamda Qizilqumdan iborat. Qizilqumning janubiy chekkalari, aniqrog'i Sandiqli qumlari, Qarshi dashti va Mirzacho'lning sharqiy qismi tekislikni asta-sekin tog'oldiga o'tish zonalarini tashkil etadi.

Respublika hududining uchdan bir qismini tashkil etuvchi tog' va tog'oldi zonalari mamlakatning sharqi va janubi-shaqida joylashgan. O'zbekistonning tog'li qismi g'arbiy Tyanshan va Hisor-Oloy tizimlariga taalluqli. O'zbekistonning eng baland joyi Xazrati Sulton cho'qqisi - 4643 mga teng. Tog'lar oralig'ida juda katta miyyosdagi botiqlar, jumladan Farg'ona vodiysi, Toshkent-Mirzacho'l tekisligi, Sanzor-Nurota botig'i, Zarafshon vodiysi, Surhondaryo va Qashqadaryo botiqlari joylashgan. Farg'ona vodiysi juda katta tog' oralig'i botig'idir. U g'arbdan sharqqa 370 kmga cho'zilgan, kengligi 190 kmga yetadi. Uch tarafdan tog'lar bilan o'ralgan faqat g'arb tomondan (Xo'jand darvozasi joylashgan) ochiq.

Respublika tabiiy sharoitlarining o'ziga xos xususiyati - yuqori darajada seysmikligi bilan ajralib turadi. Seysmiklik 8 dan 9 ballgacha yetadi. Juda katta vayronagarchiliklar keltirgan zilzilalar qatoriga Farg'ona (1823 yil), Andijon (1889-1902 yillar), shuningdek Toshkent (1868 va 1966 yillar) zilzilasi kiritiladi.

O'zbekiston - serquyosh respublika. Quyoshning nur sochish soati yiliga mamlakat shimolida 2700 soatdan - 2980 soatgacha, janubida 2800 - 3130 soatgacha o'zgarib turadi. Taqqoslash uchun shuni aytish lozimki, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bu ko'rsatkich O'rta Osiyoga xos ko'rsatkichning 70-80 % ni tashkil etadi, xolos. Bu jihatdan O'rta Osiyo, aniqrog'i O'zbekiston Respublikasi bilan Amerika Qo'shma Shtatlarining janubida joylashgan Kaliforniya shtati raqobatlashishi mumkin.

O'zbekiston iqlimi keskin kontinental. U kunduzgi va kechki, yozgi va qishki haroratlarining keskin tebranishida ko'rindi. Respublika tabiatining o'ziga xos xususiyatlari yana uning qurg'oqchilligi, atmosfera yog'inlarining kamligi, yozda havo nisbiy namligining pastligi, kam bulutliligi va shu bilan bog'liq ravishda ko'p vaqt davomida quyoshning nur sochib turishida o'z ifodasini topadi. Yoz oylarida kun uzoqligi 18-19 soatdan, qishda 9 soatdan kam bo'lmaydi.

Respublikada eng sovuq oy - yanvar, shimolda bu vaqtida harorat 8 daraja sovuq, janubdagagi Termiz shahri atroflarida esa o'rtacha 2,8 daraja iliq bo'ladi. Qishda haroratning mutlaq minimumi minus 35-38 darajaga boradi. 1993-1994 yillarda qish qorli va sovuq bo'lgan. Masalan, 1994 yil fevralda Ustyurda harorat 33-35 gradusgacha sovuq bo'lgan. O'zbekistonning eng shimoliy chekkasida qish 5 oy, vodiylarda esa 1,5-2 oy davom etadi. Yozning eng issiq oyi - iyul, tog'li rayonlarda iyul-avgust. Bu davrda o'rtacha harorat tekislik va tog'oldi hududlarida

25-30 darajadan, janubda (Termiz, Sherobod) 31-32 darajagacha etadi. Yozgi mutlaq maksimal harorat Surhondaryo viloyatining Termiz shahrida qayd etilgan, issiq 49,6 darajaga yetgan (21 iyul 1914 yil). Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning barcha hududlarida haroratning yuqori bo'lishi oddiy holatdir.

Respublikaning cho'l zonalarida havo harorati issiq oylarda 70 darajaga yetishi mumkin. Quyosh energiyasining katta miqdori va yozgi haroratning yuqori darjasini bu yerda issiqsevar o'simliklar paxta, kanop, uzum, anjir va boshqa o'simliklarni o'stirishga imkon beradi.

O'zbekiston, O'rta Osiyoning boshqa davlatlari qatori faqatgina uning yillik emas, balki alohida oylari ham maksimal bug'lanish xos bo'lgan rayonlarga kiradi. Bu yerda yog'in miqdori kam bo'lib, u Respublika hududi bo'yab notekis taqsimlangan. Qator hududlarda yillik yog'in miqdori 200-300 mmdan oshmaydi. Eng kam yog'in yog'adigan yerlar Amudaryo etaklari va cho'l zonalaridir. Bu yerda yiliga 10 mm yog'in yog'adi. Cho'llardan sharq va janubi-sharqqa tomon yog'in miqdori ortib boradi, avvaliga sekin-asta, so'ngra tog' rayonlariga yaqinlashgan sari keskin ko'tarila boshlaydi va 900-950 mmga yetadi.

Eng kam yog'in ayniqsa, vegetatsiya davriga to'g'ri keladi. Iyuldan sentyabr oyigacha yog'in deyarli yog'maydi. Bu oylarda yillik yog'in miqdorining 1-6 foizi tushadi. yog'in miqdorining asosiy qismi - yillik yog'inning 30 dan 50 foizi - bahor va 25-40 foizi - qish oylariga to'g'ri keladi. Kuz oylarida esa yillik yog'inning 10 dan 20 foizigacha yog'adi.

Suv resurslari. Respublika uchun hayotiy muhim bo'lgan narsa - bu suv resurslaridir. Yer yuzasi suvlari respublika hududi bo'yab notekis taqsimlangan. O'zbekiston hududining uchdan ikki qismini egallagan keng tekisliklarda suv manbalari juda kam. O'zbekiston sharqidagi tog' rayonlari esa juda zich daryo tarmoqlari bilan qamrab olingan. Suv manbalarining bunday notekis taqsimlanganligi, O'zbekistonning iqlim va geografik xususiyatlari bilan belgilanadi.

Suv oqimi shakllanuvchi asosiy rayonlar bu tog'li zonalardir, chunki ularga ko'p yog'in tushadi, bug'lanish esa nisbatan kamroq. O'zbekiston daryolarining suv manbai - asosan qor va muzlik suvlari. O'zbekistonning, shuningdek O'rta Osiyoning eng yirik daryolari - Amudaryo va Sirdaryodir. Amudaryoning umumiy uzunligi 1437 km, Sirdaryoniki - 2137 km.

Har ikki daryo va ularning irmoqlari O'zbekiston tashqarisidan boshlanadi. Amudaryo Panj va Vaxsh daryolari, Sirdaryo - Norin va Qashqadaryoning qo'shilishidan tarkib topadi. Uzunligi bo'yicha Sirdaryo Amudaryodan oshsada, sersuvligi jihatidan unga yetmaydi.

O'rta Osiyodagi yirik daryolar ikki daryo havzasi: Sirdaryo va Amudaryoni tashkil etadi. Sirdaryo havzasiga - Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Ohangaron, So'x, Isfara, Oqbura, Isfayramsoy, Shohimardon, Gavasoy va Kosonsoy, Amudaryo xavzasiga Zarafshon, Qashqadaryo, Surhondaryo, To'polandaryo, Sherobod daryolari kiradi. Amudaryoning ham, Sirdaryoning ham irmoqlari asosan respublika hududini o'rta va quyi oqimlarid kesib o'tadilar.

O'zbekiston Respublikasi hududida Amudaryo suvi qishloq xo'jalik yerlarini sug'orishga asosan Xorazm vohasi va Qoraqalpog'istonda sarflanadi. Bu daryo

suvining katta qismi kanal orqali Buxoro va Qashqadaryo vohalaridagi yerlarni sug'orishga sarflanadi. Dehqonchilik asosan sun'iy sug'orish orqali amalga oshiriladigan O'zbekiston Respublikasida daryolar va suv havzalarining ahamiyati mavjud vohalarni saqlashdagina emas, balki yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orishda ham nihoyatda kattadir. Bu xususiyatni hisobga olgan holda qadimdanoq odamlar turli miqyosdagi kanallar qurbanlar. Bugungi kunda bunday kanallarni bunyod etish sur'ati va miqyosi qisqardi. Kanallar nafaqat sug'orish maqsadlari, balki gidroelektr stansiyalarini barpo qilish uchun ham muhimdir. Bunday kanallar qatoriga Narpay, Janubiy Farg'ona, Shimoliy Farg'ona, Katta Farg'ona, Eskiangor, Amu-Buxoro, katta Namangan va boshqalarni kiritish mumkin.

Respublika hududida ko'llar kam. Ulardan eng yirigi - Orol dengizidir. Uning maydoni katta bo'lganligi sababli, dengiz deyiladi. Yana boshqa yirik ko'llar Sudoche va Arnasoydir. So'nggi 30 yil ichida Orol dengizi sathi 12-14 metrga pasaydi, Qирг'oq o'nlab-yuzlab km ichkariga kirib ketdi. Uning suv yuzasi taxminan besh barobar kichraydi.

Orol dengizi ustida yuzaga keluvchi iliq va nam havo oqimlari ilgari Rossiya va Qozog'istondan keladigan havo oqimlarini to'sib turardi. Endilikda bu to'siq buzilgan, natijada ekin maydonlari bo'y lab O'rta Osiyo hududiga sovuq havo jala va sellarni olib kiradi. Ular hattoki yoz oylarida ham bo'lib, katta zarar keltiradi. Orol va Orol bo'yida ekologik vaziyatning yomonlashuvi bu rayonda yashovchi aholining sog'lig'ini yomonlashuviga olib kelmoqda.

Orol dengizi muammosi sayyora miqyosidagi muammoga aylandi. Biroq, uni bir-ikki davlat o'zi hal qila olmaydi.

So'nggi o'n yil ichida Respublika hududida sun'iy ko'l-suv omborlari, jumladan Chorvoq, Ohangaron, Tuyabo'g'uz, Janubiy Surxon, Chimqo'rg'on va boshqalar yuzaga keldi. Ular mavsumiy oqimni boshqarishni amalga oshiradilar va o'z xususiyatlariga ko'ra irrigatsiya vazifasidagi suv omborlari qatoriga kiritiladi.

Respublika hududidagi suv resurslari faqat yer yuzasidagi suvlardan emas, balki qisman yer osti suvlardan ham tarkib topadi. O'zbekiston hududi suvga tanqis arid zonasida joylashganligi sababli, bu yerdagi yer osti suvlardan suv ta'minoti, sug'orish, shuningdek chorvachilikdagi suv ehtiyojini qoplash uchun keng foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi mineral suv manbalariga ham boy. Bu suvlar o'z kimyoviy tarkiblariga ko'ra inson organizmiga shifo beruvchi ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi o'n yillar ichida O'zbekistonda topilgan mineral suvlar ichida vodorod sulfidli, yodli, radon va kam minerallashgan ishqorli issiq mineral suvlar ayniqsa ahamiyatli hisoblanadi. Ularning ko'p qismidan balneologik maqsadlarda foydalaniladi.

Farg'ona va Sirdaryo artezian havzalaridagi vodorod sulfidli suvlar o'z kimyoviy balneologik tarkibi bo'yicha Kavkaz mineral suvlardan qolishmaydi. Respublika mineral suvlardan foydalanish asosida qurilgan sanatoriya-kurort muassasalari, jumladan, Chimyon, Chortoq sanatoriyalari O'zbekistondan tashqarida ham ma'lum.

11.3. Mamlakatda mavjud mineral resurslar, ularning geografiyasi, ahamiyati, zaxiralari.

«O'zbekiston o'z yer osti boyliklari bilan xaqli suratda faxrlanadi bu yerda mashhur Mendeleev davriy sistemasining barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lган istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral - hom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zaxiralari 970 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiylar mineral - xom ashyo potentsial 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak.

G'oyat muhim strategik manbalar - neft va gaz kondensanti, tabiiy gaz bo'yicha 155 ta istiqbolli kon, qimmatbaho metallar bo'yicha - 40 dan ortiq, rangli, nodir radioaktiv metallar bo'yicha 40, konchilik - kimyo xom ashyosi bo'yicha 15 ta kon qidirib topilgan».

O'zbekiston quvvati katta, tabiiy manbalari xilma-xil turlarga va ulkan zahiralarga ega bo'lган yoqilg'i energetika sanoatiga ega. Respublika yoqilg'i balansida neftning salmog'i sal kam 10 foizni, tabiiy gaz salmog'i - 85 foizdan ortiqni, ko'mirning salmog'i salkam 5 foizni tashkil etadi. Respublika sanoati yalpi mahsulotida yoqilg'i energetika kompleksining salmog'i 1999 yilda 28,9 foizni tashkil etdi va 1995 yilga nisbatan 9,7 foizga ko'paydi.

O'zbekistonda 1999 yilda 8,1 mln tonna neft (gaz kondensanti bilan), 51,0 mlrd kub tabiiy gaz va 2,8 mln tonna ko'mir (asosan, qo'ng'ir ko'mir) qazib chiqarildi. O'zbekiston hududida ulkan neft va tabiiy gaz zahiralari mavjud bo'lib, ularning ayrimlari asosida yirik konlar ochilgan. "Neft va gaz mavjud bo'lган 5 ta asosiy mintaqani ajratib ko'rsatish mumkin, bular: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubi – g'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'ona mintaqalaridir. Neft va gaz resurslarining zahiralari bir trillion AQSh dollaridan ziyod baholanmoqda".

Yuqoridagilardan Buxoro-Xiva va Farg'ona mintaqalari neft hamda gazga ham boy. Ustyurt va Janubiy Hisor mintaqalarida esa tabiiy gazning yirik zahiralari topilgan.

O'zbekistondagi neft va gaz konlari yirik geostrukturali birliklar ichida joylashgan bo'lib, ularning ichida Amudaryo, Ustyurt, G'arbiy Farg'ona va Janubi-g'arbiy Hisor platformalari va orogen hududlari alohida o'rinni egallaydi.

O'zbekistonda ko'mir zahiralari katta, lekin ularning asosiy qismini energetik yoqilg'i hisoblangan - qo'ng'ir ko'mir tashkil etadi. Respublikada yirik qo'ng'ir ko'mir koni Angren shahri yonida joylashgan bo'lib, yoqilg'i yura qatlamlarida mavjud. Ko'mir ochiq kar'er usulida qazib olinadi. Zahirasasi 2 mlrd tonnaga yaqin.

Ko'mirning boshqa ikki koni Surxondaryo viloyatidagi Sharg'un va Boysunda joylashgan. Ushbu konlardagi toshko'mir qatlamlari qalin emas. 1990 yillardan keyingi davrda ko'mir qazib chiqarish hajmi keskin qisqardi, hamda 1999 yilda 2,8 mln tonnani tashkil qildi, xolos. Vaholanki, respublikaning ko'miriga bo'lган extiyojlari yiliga 8-9 mln tonnani tashkil etadi. Bunday holat tarmoqni rivojlantirishga bo'lган e'tiborning yetarli emasligidan dalolat bermoqda. Ana

shunga o'xshash muammolarni ijobiy xal qilish maqsadida 1994 yillarda «Ko'mir» aktsionerlik birlashmasi tuzildi.

Mamlakatmiz metall qazilmalarga ayniqsa, rangli metallar rudalariga boy. Bu o'rinda oltin, kumush, qo'rg'oshin, ruh, mis hamda yer bag'rida kam uchraydigan metallar zahiralari juda katta ekanligini aytib o'tish zarur.

Hozirgi vaqtida 40 ta qimmatbaho metal konlari qidirib topilgan.

Qimmatbaho rangli va radioaktiv metallar tarkibida birga uchraydigan foydali komponentlar sifatida kamyob va nodir elementlarning kattagina miqdordagi zahiralari jamlanganki, bu ularning qiymatini ancha oshiradi.

Mamlakatimiz oltin, uran, mis, volfram, qo'rg'oshin, ruh va shu guruhlarga kiruvchi boshqa eng muhim foydali qazilmalarning tasdiqlangan zahiralari va ularning ko'paytirish istiqbollari bo'yicha nafaqat MDT mamlakatlari o'rtasida, balki butun dunyoda yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Masalan, oltinning tasdiqlangan zahiralari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 4-o'rinda, uni qazib chiqarish bo'yicha 7-o'rinda turadi.

O'zbekiston dunyoda ulkan oltin resurslariga ega bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi, 41 ta oltin koni, shu jumladan 33 ta oltin-ma'dan koni qidirib topildi. Yevrosiyo qit'asida eng yirik hisoblangan Muruntov koni jahondagi ulkan konlar qatoriga kiradi.

Samarqand viloyatida oltin ma'danli Zarmiton va boshqa oltin konlari axtarib topildi. Shu konlarni o'zlashtirishni jadallashtirish bo'yicha o'tkazilayotgan tenderda dunyoda katta nufuzga ega bo'lgan Avstraliya kompaniyasi g'olib deb topildi. Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinida infratizimi yuksak darajada rivojlangan Qizilolmasoy va Ko'chbuloq konlari topildi. Endilikda, ushbu konlarda cheklangan hajmda qazib chiqarish ishlari olib borilmoqda. Ana shu konlarni o'zlashtirish bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tenderda mashhur Yaponiya kompaniyalari g'olib chiqishdi. Keyingi yillarda jahondagi eng yirik oltin rudali mintaqa Qizilqumda Ajibugut, Bulutkon, Balpantov, Aristantov, To'rboy singari yangi konlar qidirib topilmoqda va o'rganilmoqda.

O'zbekiston talaygina kumush zahiralari ega. Navoiy viloyatida Visokovoltroe, O'qjetpes va Kosmonachi konlari ishlatishga tayyorlab qo'yilgan. Namangan viloyatida Oqtepa koni o'rganilmoqda.

O'zbekistonda uranning mineral xom ashyo bazasi vujudga keltirilgan, uning negizida Navoiy kon metalurgiya kombinatining bir qator korxonalari ishlab turibdi. Uranning qidirib chamalangan zahiralari qumtoshga taalluqli bo'lib, ularni yuqori samarali va ekologik jihatdan muxofazalangan yer ostida ishqorini yuvish usuli yordamida qazib olish mumkin.

Respublikamiz Uchquloch va Xondiza konlarida jamlangan qo'rg'oshinning ko'plab zahiralari ega. Xondizada qo'rg'oshin va ruh bilan birga mis, kumush, kadmiy, selen, oltin ham mavjud.

Markaziy Qizilqumda fosforit konlari qidirib topilgan bo'lib, ular kimyo va boshqa iqtisodiyot tarmoqlari uchun qimmatli xom ashyo, qishloq xo'jaligi uchun o'g'it ishlab chiqarish imkonini beradi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar.

1. «Tabiiy sharoit» deganda nimani tushunasiz?
2. «Tabiiy resurs» tushunchasining mazmunini ochib bering.
3. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy geografik o'rni qanday, u qanday omillar bilan belgilanadi.
4. O'zbekiston Respublikasining tabiiy sharoitini umumiy tarzda baholang.
5. O'zbekiston yer resurslari bilan qanday ta'minlangan?
6. O'zbekistonda suv resurslari yetarlimi?
7. O'zbekiston yoqilg'i energetika resurslari bilan yaxshi ta'minlanganmi?
8. O'zbekiston rangli metallarning qaysilari bilan yaxshi ta'minlangan?
9. O'zbekistonda qaysi turdag'i qora metallar rudalarining konlari mavjud, ulardan nima sababdan foydalanimayapti?
10. O'zbekiston qurilish materiallari bilan qanday ta'minlangan?
11. Mamlakatimiz qanday turdag'i kimyoviy resurslariga boy, qaysilari bilan yetarli hajmda ta'minlanmagan?

Adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, - T.: O'zbekiston, 1997.
2. Asanov T., Nabixonov M., Safarov I., O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. T.: O'qituvchi, 1994.
3. Qosimov G.M. i dr. Ekonomika Uzbekistana na sovremennom etape. T.: O'zbekiston, 1998.
4. Nabiev E., Qayumov A. O'zbekistnning iqtisodiy salohiyati. T.: Akademiya, 2000.
5. To'xliev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1998.
6. Uzbekistan i zarubejnie strani v mirovoy ekonomike, sostavitel Xachiev A. T.: 1997.
7. G'ulomov S.S. O'zbekiston Respublikasi: bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li. - T.: FAN, 1996.
8. O'zbekiston Respublikasi. Entsiklopediyasi. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997.

XII-bob. O'zbekiston Respublikasi aholisi va mehnat resurslari, ularning bandlik muammolari

12.1. O'zbekiston aholisi sonining tadrijiy o'sishi va joylashuvi

Jamiyatning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi tabiat bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyat tushunchasi keng ma'noda bir-biri bilan o'zaro bog'liq biosotsial organizmlar – insonlar yig'indisini anglatadi. Inson bilan tabiat o'rtasidagi aloqalar serqirra va nihoyatda murakkab tusga egadir. Ushbu aloqlar insonning xo'jalik faoliyatida, moddiy ne'matlar yaratish jarayonida jamiyat bilan tabiat orasida mavjud munosabatlar orqali aniqlanadi.

Geografik muhit inson hayotiy faoliyatining poydevori hisoblansa ham, aholi dastavval ijtimoiy ishlab chiqarish qonuniyatları asosida rivojlanadi. Demak, inson resurslarining shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi jarayondir.

O'zbekiston ulkan inson salohiyatiga ega mamlakat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda - «inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohatlari va tub o'zgarishlari yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta'minlab beradi». Shu boisdan ham jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanuvchi mazkur omil o'z navbatida uni rivojlantirish va taraqqiy etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Inson salohiyatining shakllanishi juda ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular ichida ijtimoiy demografik vaziyat alohida o'rinnegallaydi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi 1998 yil 1 yanvar hisobiga ko'ra 23,9 mln. kishi bo'lib, shundan 38,1% shaxar aholisi (9,1 mln) 61,9% (14,8 mln) esa qishloq aholisidan iboratdir. Aholining umumiy soniga ko'ra O'zbekiston jahoning 230 mamlakati orasida 37, hamdo'stlik davlatlari orasida Rossiya Federatsiyasi va Ukrainadan so'ng 3-o'rinda turadi. Boshqacha so'z bilan ta'kidlansa Markaziy Osiyo ja'mi aholisining 1/3 qismi birgina O'zbekiston hududida istiqomat qiladi.

Aholining son jihatidan o'sishi (dinamikasi) uning takror barpo qilinishi jarayoni (tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish) hamda mexanik harakati (migratsiya) bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayonlarning ketishiga aholi o'rtasida shakllangan murakkab tarixiy, an'anaviy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston aholisiga oid Oktyabr to'ntarishidan oldingi rasmiy ma'lumotlar juda kam. Shu bilan birga o'sha davrlarda xalq turmush darajasining va unga tabiiy xizmat ko'rsatishning pastligi tufayli aholi sonining o'sishi ancha sust borganligi ham ma'lum. Shu sababli aholinig u davrdagi soni va tarkibiga oid e'lon qilingan ma'lumotlar juda ko'p xollarda O'zbekistonning turli muzofot va kentlarida yashagan aholi turmush darajasi xaqida tarixiy manbalarni, arxiv xujjatlarni tahlil qilish asosida ilmiy chandalash yo'li bilan M. Qoraxonov, I. Mullajonov kabi tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan. Jumladan, 1865 yilda O'zbekistonning hozirgi xududida 3 mln. 320 ming kishi yashaganligi mazkur olimlar izlanishlarida qayd etilgan. Sobiq sovet xokimiysi davrida O'zbekiston aholisining ancha tez o'sa bordi, 1913-1940 yillarda O'zbekiston aholisi yiliga 1,5%dan o'sib bordi. Bu davrda

aholi dinamikasidagi eng yuqori sur'atlar, hech shubxasiz, tinch qurilishlar payiti - dastlabki besh yilliklar davriga to'g'ri keladi (1-jadval).

29-jadval

O'zbekiston aholisining soni, o'sish sur'ati va joylashishi

Yillar	Aholining umumiy soni ming	Shu jumladan			
		Shaxar aholisi	Qishloq axolisi	Shahar foiz	Qishloq foiz
1897	3948	374	3205	18,8	81,2
1913	4334	1060	3274	24,5	75,5
1926	4621	1012	3609	22,0	78,0
1939	6374	1470	4877	23,0	77,0
1940	6551	1606	4945	24,5	75,5
1959	8119	2729	5390	33,6	66,4
1970	11799	4322	7477	36,6	63,4
1979	15391	6348	9043	41,2	58,8
1989	19906	8106	11800	40,7	59,3
1990	20322	8282	12040	40,8	59,2
1991	20738	8344	12364	40,3	59,7
1995	22562	8733	13829	38,7	61,3
1997	23444	8944	14500	38,2	61,8
1998	23885	9100	14785	38,1	61,9

Aholining son jihatidan o'sish bosqichlarida Vatan urishi yillari alohida ajralib turadi. Urush tufayli ayni kuch-quvvatga to'lgan erkaklarning uzoq muddatga oilasidan tashqarida qolishi (ularning anchagina qismini jangohlarda nobut bo'lishi), amalga oshishi lozim bo'lagan ko'plab nikoxlarning kechiktirilishi, demografik tartibga ta'sir ko'rsatdi. Garchi urush yillarida aholi dinamikasida chuqur uzilishlar kuzatilgan bo'lsada (respublikada aholining urush arafasidagi ko'rsatkichlar faqat 1952 yilda erishildi) undan keyingi yillarda demografik statistikasida rasman tan olinganidek aholini to'ldirish davri – demografik faolligi tufayli O'zbekistonda aholi soni tez o'sdi. 1940-1959 yillarda aholining yillik o'sish sur'ati 1,1%ni tashkil qilgan.

Garchi 1960- yillardagi tug'ilish pasaygan davr avlodi tiklanish (reproduktiv) yoshga kirgan bo'lsa, aholi sonini yuqori sur'atlarda o'sishi 80-yillarda ham davom etdi. 1979-1989 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yhati ma'lumotlariga ko'ra keyingi o'n yil mobaynida O'zbekistonning aholisi 4,5 mln. Kishiga ko'payib, uning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,6%ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda, Sobiq SSRning boshqa respublikalarida va jahonning deyarli barcha davlatlarida aholining ko'payish sur'atlarida kuzatilayotgan tabiiy sustlashish jarayoni sodir bo'layotganidan dalolat beradi.

Aholi soning tadrijiy o'sishi (dinamikasi) ma'lumotlarining tasdiqlashiga ko'ra, O'zbekiston aholisi soni XX asr moboynida ancha tez ko'payib bordi. Masalan,

1926-1990 yillar orasida O'zbekiston aholisi 436,1 foiz ko'paydi. Bu Hamdo'stlik davlatlari orasida eng yuqori ko'rsatkichlardan bo'lib, sobiq SSSRning ushbu davrdagi aholisi ko'payish sur'atlariga nisbatan 2,2 barobar ortiq bo'lган.

O'zbekistonda aholi tabiiy ko'payishi ko'rsatkichlarining bu qadar yuqori holda bo'lishi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy sabablar bilan bog'liqdir.

1. O'zbeklar va boshqa maxalliy millatlar vakillari (ular respublika aholisining 84%ga yaqinini tashkil qiladilar) orasida an'anaviy ko'p bolalilikning barqaror holdaligi;

2. Rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lган zamonaviy ilmiy va industrial ishlab chiqarish madaniyatining nisbatan pastligi;

3. Urbanizatsiya darajasining pastligi tufayli aholi asosiy qismining qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq ishlab chiqarish sohalarida bandligi;

4. Oilada bolalar sonini oldindan belgilash va tug'ilishni cheklash choralarini qo'llashning keng tarqalmaganligi;

5. Mahalliy millat ayollari orasida ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmaydiganlar salmog'ining yuqoriligi va boshqalar.

O'zbekistonda tug'ilishning yuqori bo'lishida nikoxda bo'lganlarning ko'pligi va oilalarning ajralish xolatlarining kamligi ham ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Tabiiyki, nikohda turganlar va nikoh qurayotganlar sonining ko'p bo'lishi, ajralishning kam bo'lishi tug'ilish ko'rsatkichlarining sezilarli darajada yuqori bo'lishiga olib keladi.

Mazkur jarayonlarni e'tiborga olgan holda ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston aholisi faqat tabiiy o'sish hisobiga ko'paymoqda. Uning ko'rsatkichlari 1995 yilda 533,8 ming, 1996 yilda 509,0 ming, 1997 yilda 500,0 ming kishini tashkil etdi. Davlatlararo salbiy migratsiya aloqalari natijasida respublika aholisining mutloq soni bir muncha kamayishda davom etmoqda (1995 yilda 88,9 ming, 1996 yilda 72,5 ming, 1997 yilda 58,0 ming kishiga).

**O'zbekiston aholisi tabiiy o'sishning mutloq
ko'rsatkichlari va koeffitsentlari**

Yillar	Ming kishi hisobida			Aholining har 100ga nisbatan		
	Tug'ilganlar	O'lganlar	Tabiiy o'sish	Tug'ilganlar	O'lganlar	Tabiiy o'sish
1980	540,0	118,9	421,1	33,9	7,5	26,4
1981	572,0	117,8	454,4	34,9	7,2	27,7
1982	589,3	124,1	465,2	35,0	7,4	27,6
1983	609,4	128,8	480,6	35,3	7,5	27,8
1984	641,4	132,0	509,4	36,2	7,4	28,8
1985	679,1	137,7	547,4	37,4	7,3	30,1
1986	708,7	132,2	576,5	37,9	7,4	30,8
1987	714,4	133,8	580,6	37,3	7,1	30,3
1988	694,1	134,7	559,4	35,3	6,8	28,5
1989	668,8	126,9	541,9	33,3	6,3	27,0
1990	691,6	124,5	567,1	33,7	6,1	27,6
1991	723,4	130,3	593,1	34,5	6,2	28,3
1992	710,5	140,1	570,4	33,1	6,5	26,6
1993	689,2	148,0	544,3	31,4	6,6	24,8
1994	680,0	148,0	532,0	30,1	6,9	23,2
1995	669,8	150,4	519,8	29,4	6,6	22,8
1996	692,1	148,6	546,5	29,8	6,4	23,4
1997	646,0	146,7	499,3	27,3	6,2	21,1

O'zbekistonda keyingi 10-15 yilda tabiiy o'sish sur'atlari sezilarli ravishda qisqardi (30-jadval). Bu xolat tug'ilish darajasining pasayishi bilan bog'langan. Tug'ilish darajasining qisqarishi demografik (ayollarning tug'ish yoshi chegarasining qisqarishi), milliy etnik (oiladagi bolalar sonining rejallashtirila boshlanganligi, ko'p avlodlar asosida tarkib topgan murakkab oilalar soni va salmog'ining kamayishi), ijtimoiy (aholining, shu jumladan qishloq aholisi ijtimoiy xarakatining oshishi) va boshqa omillarning bevosita va bilvosita ta'siri natijasida davom etmoqda.

O'zbekiston aholisi nafaqat tabiiy ko'payish, balki boshqa respublikalardan ko'chib kelayotganlar hisobiga ham ko'paymoqda. Aholishunos mutaxassislarning fikriga ko'ra 2010 yilga borib, O'zbekiston aholisining 30 mln. Kishidan ortadi.

O'zbekiston aholisiga xos bo'lgan yana bir muhim jihat, uning hududiy joylashuvida o'z aksini topadi. Bugungi kunga qadar O'zbekiston aholisining aksariyat qismi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Buning albatta tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy sabablari bor. Ma'lumki, O'zbekiston hududi qadimiy qishloq xo'jaligi madaniyati rivojlangan maskanlardan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham aholi azalazaldan dehqonchilik uchun qulay bo'lgan hududlarda istiqomat qilib kelgan.

Obikor dehqonchilik asosan qo'l mehnatiga tayanishi sababli vodiylarda aholi azaldan zich, tog' va cho'llarda esa noqulay sharoit tufayli siyrak joylashgan. Agar respublikamiz bo'yicha aholining zichligi xar bir km²ga 1999 yil yanvar ma'lumotiga ko'ra o'rtacha 53,0 kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Xorazm viloyatida – 165,6; Andijon viloyatida – 419,3; Farg'ona viloyati – 308,2 kishiga teng bo'lgan.

O'zbeklar, qoraqalpoqlar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar O'zbekistonda qadim-qadimdan yashab kelayotgan tub joy aholisi hisoblanadi. O'zbeklar barcha shaharlarda, obikor yerlarda yashaydilar. Ruslar O'zbekistonga asosan Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin ko'chib kela boshladilar. Oktyabr to'ntarishidan so'ng Kommunistik partiyaning ulkan mamlakatning barcha qismlarini iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasini tenglashtirishga yo'naltirilgan g'ayri ilmiy siyosati tufayli O'zbekistonga sobiq Ittifoqning g'arbiy mintaqasidan ko'plab aholi ko'chirib keltirildi. Bu esa O'zbekiston aholisining milliy tarkibiga hamda uning huddudiy joylashuviga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Ruslar asosan Toshkent viloyatida, shuningdek barcha sanoat shaharlari, ishchi shaharchalarida yashaydi. Tatarlar ham asosan shaharlarda va qisman obikor yerlarda istiqomat qiladi. Qozoqlar esa O'zbekistonning Qozog'iston bilan chegaradosh tumanlarida – Qoraqalpog'istonning shimoliy qismida, Buxoro viloyatining Tomdi tumanida hamda Toshkent viloyatlarida yashaydilar. Tojiklar Tojikistonga tutash tumanlarida Surxondaryo, Zarafshon va Farg'ona vodiysida, Samarqand, Buxoro va Namangan viloyatlarida yashaydilar. Qoraqalpoqlar azaldan Amudaryo va Oro'l dengizi sohilida yashab keladilar va yaylov chorvachiligi, baliq ovlash hamda obikor dehqonchilik bilan shug'ullanadilar. Qrim tatarlari esa Toshkent, Namangan viloyatlarida yashab, dehqonchilik qiladilar, sanoat korxonalarida ishlaydilar. Qirg'izlar Qirg'izistonga tutash tog'li va tog' oldi tumanlarida ornashgan bo'lib, yaylov chorvachiligi va dehqonchilik bilan shug'ullanadilar, shuningdek tog'-kon sanoatida faoliyat ko'rsatadilar. Koreys millatiga mansub bo'lган aholi O'zbekistonning Chirchiq vodiysida, Amudaryo etagi va obikor yerlarda hayot kechiradilar. O'zbekistondagi yahudiylar, ukrainlar, Ozarbayjonlar, armanlar va boshqa xalqlar ham, aynan ruslar va tatarlar singari shahar va shaharchalarda istiqomat qiladilar.

Respublikamiz aholisining 85%dan ko'prog'ini madaniyati, urf-odati, tarixi va tilida umumiylit bo'lgan turkiy til guruhidagi xalqlar tashkil etadi. Ko'chirib keltirilgan xalqlar, xususan ruslar o'zbeklardan sug'orib dehqonchilik qilishni va sohibkorlikni o'rgandilar. Sabzovat yetishtirishga mirishkor qrim tatarlari esa o'zbeklardan g'o'zani parvarishlash, pilla boqishdek sermehnat hamda yuksak malaka talab qiluvchi sohalarni o'zlashtirdilar.

12.2 Aholining milliy, jinsiy va yosh tarkibi

O'zbekiston aholisi ko'p millatliligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibini 100 dan ortiq millat va elatlar vakillari tashkil etadi. Oktyabr to'ntarishiga qadar aholi ro'yhatlari o'tkazilmaganligi bois O'zbekiston aholisining u davrdagi milliy tarkibi xaqida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Avvalo, aholining milliy tarkibini

kuzatilganda quydagи holat ko'zga tashlanadi: yillar davomida O'zbekistonda yashagan barcha millatlar garchi son jihatdan ancha ko'paygan bo'lsalar-da, mahalliy tub millatlar aholi tarkibida salmoqli o'rinni egallaydilar.

So'nggi o'n yillar mobaynida tub mahalliy millatlar miqdori va salmoq ko'rsatkichlariga ko'ra yuqori o'sish sur'atlariga erishganlar. Respublikada o'zbeklar, tabiiyki, aholining mutloq ko'pchiligini tashkil qiladi va ularning aholi umumiy soni aholi ro'yhati o'tkazilgan davrlar oralig'ida 2,8 marta ko'paydi va ularning respublika aholisidagi salmog'i 62,1 foizdan 71,4 foizgacha o'sdi. Shuningdek, mahalliy millatlardan tojiklar 3 barobar, qozoqlar va qoraqalpoqlar 2,5 barobarga o'sdi. Ayni paytda boshqa mahalliy millatlar ham butun aholiga nisbatan tutgan salmog'ini nafaqat saqlab qola oldilar, balki ma'lum ma'noda miqdor jihatdan ko'payib ham bordilar. Masalan, tojiklarning umumiy aholiga nisbatan salmog'i aholi ro'yhati o'tkazilgan davr oralig'ida 3,8%dan 4,7%gacha ortdi. Turli davrlarda mamlakat hududiga kelib joylashgan boshqa millat vakillari, avvalo yevropaliklar ham o'tgan yillar moboynida son jihatdan birmuncha ko'paydilar. Jumladan, ruslar soni 624 ming va boshqa millat vakillari soni esa 545 ming kishiga ko'paydi. Ammo, shunga qaramay ularning umumiy aholiga nisbatan salmog'i shu yillar moboynida sezilarli darajada ko'payib bordi. Bunday miqdoriy o'zgarish rus millatiga mansub aholi o'rtasida 1959 yildagi 13,5 %dan 7,9%gacha kuzatildi (31-jadval).

Ta'kidlash lozimki, Hamdo'stlikdagi mamlakatlarning birortasida ham, mahalliy millat vakillari to'laligicha o'z respublikalari hududida yashayotganlari yo'q. Tabiiyki, o'z respublikalarida yashayotganlarning butun millatga nisbatan salmog'i turlicha. Masalan, sobiq SSSRda yashagan barcha gruzinlar, turkmanlar va boltiqbo'yi millatlariga mansub aholining 90%dan ortig'i o'z respublikalarida istiqomat qiladilar. Hozirgi paytda Hamdo'stlikda yashayotgan barcha o'zbeklarning 84,7%i O'zbekistonda yashamoqda. Sobiq SSSRning boshqa respublikalarida 2556 ming yoki barcha o'zbeklarning 15,3%i istiqomat qilmoqda. Bunda tub millat vakillarining o'z ona vatanlariga ko'chib borishini ifodalovchi intilish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining milliy tarkibi (milliy tarkib bevosita aholi ro'yhati o'tkazilgan yillar asosida o'rganiladi)

MILLATLAR	Millatlar soni (ming)				Millatlar soni (%)			
	1959	1970	1979	1989	1959	1970	1970	1989
O'zbeklar	5038	7725	10569	14142	62,1	65,5	68,7	71,4
Ruslar	1029	1473	1666	1653	13,5	12,5	10,8	8,3
Tatarlar	445	574	649	531	5,5	4,9	4,2	2,7
Qozoqlar	343	347	620	808	4,2	4,0	4,0	4,1
Tojiklar	311	449	595	934	3,8	3,8	3,9	4,7
Qoraqalpoq.	168	230	298	412	2,1	2,0	1,9	2,1
Koreyslar	138	148	163	183	1,7	1,3	1,1	0,9
Qirg'izlar	93	111	142	175	1,1	0,9	1,9	0,9
Ukrainlar	88	112	114	153	1,1	0,9	0,7	0,8
Yahudiylar	94	103	100	65	1,2	0,9	0,6	0,3
Turkmanlar	55	71	92	122	0,7	0,6	0,6	0,6
Boshqalar	254	328	381	632	3,0	2,7	2,6	3,2
JAMI:	8119	11800	15380	19810	100	100	100	100

Aholi va u bilan bog'liq muammolarni hal etishda hisobga olinishi muhim bo'lgan jihatlardan biri aholining yosh va jinsiy tarkibidir. Chunki, aholining yosh-jinsiy tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar zarur bo'lмаган ijtimoiy hayotning biron-bir sohasi amalda yo'q. Sababi, mazkur ma'lumotlar boshqarishning nihoyatda muhim elementi hisoblanadi. Aholi soni va tarkibini bashorat qilishda ham uning yosh-jinsiy tarkibiga asoslaniladi. Zero, aholining yosh tarkibi, ayniqsa, uning tabiiy qayta barpo qilinishi jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda tug'ilgan bolalarning asosiy qismi 25-34 yoshdagi ayollarga to'g'ri keladi, qoloq mamlakatlarda esa mazkur ko'rsatkich 16-29 yoshni tashkil etadi.

Respublika aholisida hozirgi kunda jinsiy mutanosiblik mavjud, ya'ni erkaklar va ayollar teng (32-jadval). Ammo ayni paytda ayrim, ayniqsa katta yoshdagi aholi guruhlarida ayollarning salmog'i ustun ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir. Bunday holat juda ko'p mamlakatlarga xos bo'lib, ob'ektiv sabablar bilan asoslanadi.

32-jadval

O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibi (foiz hisobida) E.Nabiev, A. Qayumov ma'lumotlari

Yillar	Yerkaklar salmog'i	Ayollar salmog'i
1926	53,0	47,0
1939	51,7	48,3
1979	49,0	51,0
1989	49,9	50,1
1997	50,0	50,0

Aholi yosh tarkibini o'rganishda uni ayrim guruhlarga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi. Demografik va iqtisodiy statistika xilma-xil ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar bilan qamrab olinadigan aholi yosh guruhlarini ajratadi. Masalan, 0-2 yoshdagi yasli yoshidagi bolalar, 3-6 yoshdagilar – muktabgacha yoshdagi bolalar, 6(7)-15(17) yoshdagilar esa muktab yoshidagi bolalar va h.k. Iqtisodiy nuqtai nazardan mehnat qilish qobiliyati bo'yicha aholini quyidagi guruhlarga ajratilishi mumkin.

1. Mehnatga yaroqli yoshgacha;
2. Mehnatga yaroqli yoshdagi;
3. Mehnatga yaroqli yoshdan keyingi.

O'zbekiston bugungi kunda aholining qulay yosh tarkibiga ega bo'lib, bu jihat uning samarali ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotida muhim mezon bo'lib xizmat qiladi (5-jadval).

33-jadval

O'zbekiston aholisining yosh tarkibi (foiz hisobida)

Yosh guruhlari	Jami aholi		Shahar aholisi, 1989	Qishloq aholisi, 1989
	1989	2000		
0-4	16,2	15,4	13,6	18,0
5-9	13,2	13,5	11,3	14,6
10-14	11,4	11,5	10,0	12,3
15-19	10,1	10,2	10,2	10,1
20-24	9,3	9,4	9,4	9,1
25-29	9,0	9,1	9,3	8,8
30-34	7,0	7,1	7,8	6,5
35-39	5,1	5,3	6,2	4,4
40-44	2,9	3,0	3,7	2,3
45-49	3,2	3,0	3,8	2,7
50-54	3,3	3,1	3,9	2,8
55-59	2,8	2,8	3,2	2,6
60	6,5	6,8	7,7	5,8
Jami	100	100	100	100

O'zbekiston aholisi yosh tarkibi keltirilgan mazkur jadval ma'lumotlari tahlili natijasida quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

- aholining aksariyati bolalar va o'smirlardan iborat. Yoshi 0-14ga teng bo'lgan aholining ulushi 1979 yilda 41,2%ni, 1989 yilda esa 40,8%ni tashkil etdi. Bunda o'g'il bolalar salmog'i qizlarnikidan biroz ortiq;

- aholi tarkibida 30 yoshgacha bo'lganlarning salmog'i 1979 yilda 69,9%ga, 1989 yilda 69,2%ga teng bo'ldi. Bu esa G'arbiy Yevropa, Yaponiya, Kanada, AQSh mamlakatlari xos bo'lgan ko'rstkichlardan 15-25 tartibga yuqori;

- aholi tarkibida bolalar, o'smirlar va umuman yoshlarning salmog'i qisqarmoqda. Shu vaqtning o'zida mehnatga yaroqli yoshdagi aholining ulushi ko'paymoqda;

- nafaqa yoshidagi aholining ulushi 1979-1989 yillarda qisqarib, 6,5%ga teng bo'lgan bo'lsa, so'ngi yillarda aholining bu guruhini salmog'i sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida o'rtacha umr davrining o'sishiga sabab bo'lmoqda (1990 yilda qisqarib, 69,3 yosh, 1996 yilda esa 70,1 yosh).

12.3. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish

Bugungi milliy istiqlol va bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanayotgan sharoitda aholining tabiiy ko'payishi va chetdan kelayotganlar salmog'ining kattaligi tufayli mehnatga yaroqli kishilarning mutloq soni ortib, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish va undan oqilona foydalanish muammosi yuzaga kelmoqda. Qo'shimcha ish joyi yaratish sur'ati mehnatga yaroqlilarning ko'payish sur'atidan ortda qolayotganligi esa respublikamizda bu muammoni tezda bartaraf etishni tarixiy zaruriyat sifatida ilgari surmoqda.

Pahta, pilla, qorako'l yetishtirish, tabiiy gaz ishlab chiqarish, rangli metallurgiya, kimyo, paxtachilikni yalpi mexanizatsiyalashga xizmat qiladigan mashinasozlik sanoati kabi tarmoqlarni yuksaltirish uchun respublikamizning o'zida ish kuchlari yetarli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov "Respublikamiz boshqa mintaqalar xavas qilsa arziyidigan ming-minglab ish kuchlariga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan mehnatsevarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik, bardoshlilik singari ma'naviy boyliklarga egadir" degan edi.

Mehnatga yaroqlilar sobiq Ittifoqda respublikalararo ham ayriboshlanar edi. Jumladan, kimyo, mashinasozlik, elektrotexnika, to'qimachilik, binokorlik va kon sanoati korxonalariga asosan Rossiya Federatsiyasi va Ukrainadan kadrlar jalb etilar edi. Bu nomaqbul jarayon tub joy aholisining zamonaviy ixtisosliklarni egallashlari uchun birmuncha to'siq bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda esa respublikamizda milliy kadrlar tayorlash dasturiga asosan zamonaviy ilm-fan yutuqlarini yaxshi biladigan malakali mutaxasislar tayyorlanib moddiy ishlab chiqarishga jalb etilmoqda. Shu boisdan ham hozir respublikamiz qudratli mehnat salohiyatiga ega.

Inson salohiyatining negizini tashkil etuvchi mehnat resurslari 1997 yilda butun aholining 48,7%ga teng bo'lib, har yili 210-220 ming kishiga ko'payib bormoqda.

Mehnat resurslarining shakllanishi, avvalambor yuqorida ko'rib o'tilgan aholining yosh-jinsiy tarkibi orqali aniqlanadi. Sababi uning o'zgarishi nafaqat mehnat resurslarida, balki jamiyat iqtisodiy taraqqiyotida ham o'z ifodasini topadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda respublikamizda mehnatga yaroqli aholi soni 1990 yilda 10,0 mln. kishi, 1996 yilda esa 11,4 mln. kishini tashkil etgan (6-jadval).

34-jadval.

O'zbekiston aholisining mehnat salohiyatiga ko'ra guruahlari E.Nabiev, A.Qayumov ma'lumotlari

Yillar	Mehnat yoshiga (16 yoshga)cha bo'lgan aholi		Mehnatga yaroqli yosh (erkaklar 16-59, ayollar 16-54)dagi aholi		Mehnat yoshidan (erkaklar 60, ayollar 54) o'tgan aholi	
	Soni, mln. kishi	Salmog'i, foiz	Soni, mln. kishi	Salmog'i, foiz	Soni, mln. kishi	Salmog'i, foiz
1990	8,8	42,9	10,0	49,5	1,4	7,6
1996	9,9	42,8	11,4	49,5	1,8	7,7
2000	10,4	41,9	12,4	50,2	2,0	7,9
2005	11,0	40,6	14,0	51,6	2,1	7,8

34-jadval ma'lumotlarining mantiqiy tahlilidan ko'rinish turibdiki, O'zbekistonda mehnat resurslarining soni, salmog'i va o'sish sur'atlari, ularning xalq xo'jalik tarmoqlarida va respublika hududida taqsimlanishi, qolaversa, mehnat reurslaridan foydalanishning samaradorligi o'ziga hosdir.

Tabiiy o'sish yuqori bo'lgan O'zbekiston aholisi tarkibida yosh avlod salmog'inining ko'p bo'lishi, o'z navbatida, mehnat yoshidagi aholi salmog'inining nisbatan kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, tabiiy o'sishning yuqoriligi unda mehnat resurslari sonini doimo ko'payib borishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, mehnat yoshidagi butun aholi ishlab chiqarishda turli sabablarga ko'ra ishtirok etolmaydi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish, armiya xizmatini o'tash, ishslashga salomatligi yo'l bermasligi kabi ob'ektiv sabablardan tashqari, turli sub'ektiv sabablarga ko'ra ham ba'zilari ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmasligi mumkin. Ko'p bolali onalarning oilada bola tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishlari, shuningdek, shaxsiy xo'jalik yumishlari bilan bandligi O'zbekistonga xos bo'lgan sub'ektiv xususiyatlar bo'lib, mehnat resurslaridan foydalanish me'yorini hisobga olishda bu xususiyat e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

O'zbekiston ko'p bolali oilalar salmog'inining kattaligi bilan ham hamdo'stlik davlatlarida ajralib turadi. Ko'p bolalar ko'rib, ularni voyaga yetkazish va tarbiyalash esa jamiyat uchun foydali mehnat hisoblanadi.

Keyingi yillarda respublikamizda sanoatning mashinasozlik va metalsozlik, kimyo, elektrotexnika kabi texnika taraqqiyotini ta'minlovchi sohalari jadal rivojlanib bormoqda. Mutanosib ravishda mazkur tarmoqlarda mehnat qiluvchilarining soni butun sanoatdagiga nisbatan yuqori sura'tlar bilan o'sib bormoqda. Ammo shunga qaramay sanoat, toransport va aloqa tarmoqlarida band

aholi salmog'i respublikamizda hamdo'stilik mamlakatlaridagi o'rtacha ko'rsatkichlardan ancha past. Bu tarmoqlarda xalq xo'jaligida band bo'lган aholining salmog'i mutonosib ravishda 29,2 va 50,8%ni tashkil qiladi.

Buning sabablari bor. Birinchidan Respublikaning qulay tabiiy iqlim sharoiti qishloq xo'jaligining sermehnat tarmog'i hisoblangan paxtachilikni keng ko'lamda rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, mehnatda band bo'lган kishilarning katta qismini qishloq xo'jaligiga bog'lab qo'yadi. Ikkinchidan, Oktyabr to'ntarishidan avval bu yerda sanoat mehnati deyarli yo'q darajada edi. Aholining mehnat malakalari ham asosan qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lган. Hatto hozirgi kungacha ham mahalliy millat yoshlarini sanoat mehnatiga jalb qilishning murakkabligi ularni qishloq xo'jalik sohalarida ishlashni avzal ko'rishlari bejiz emas.

O'zbekiston mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik nuqtai nazaridan olib qaraganda quyidagi 3 guruhga ajratilishi mumkin:

1-guruh - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo va Surhondaryo viloyatlari.

2-guruh - Andijon, Namangan, Farg'ona va Xorazm viloyatlari

3-guruh - Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlar.

Bu guruhlarning mehnat resurslari nuqtai nazaridan xususiyatlari quyidagicha. Birinchi guruh viloyatlari O'zbekiston hududining juda katta qismini (86%)ni egallab uning katta maydonlari xali kam o'zlashtirilgan. Bu viloyatlar va Qoraqalpog'iston respublikasi katta xom ashyo zahiralariga ega, ularni sanoat va qishloq xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirish istiqbollari katta. Bu guruh viloyatlarida asosan mahalliy mehnat resurslaridan foydalaniladi va respublikaning boshqa hududlaridan ham ishchi kuchi jalb etilish imkoniyati mavjud.

Ikkinci guruhga kiruvchi viloyatlarida aholi bir muncha zinch joylashgan. Bu viloyatlarda ayniqsa ularni qishloq joylarida hamda o'rta va kichik shaharlarida ishga jalb qilinmagan ish kuchlari mavjud. Bu guruh viloyatlaridagi ortiqcha ish kuchidan ishlab chiqarishda keng foydalanish dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur mehnat resurslari joylashgan shahar va qishloqlarning o'zida yangi ishlab chiqarish quvvatlari (ish joylari) barpo qilish bilan birga yoshlarning ma'lum qismidan respublikaning boshqa viloyatlarida, jumladan yangi o'zlashtirilayotgan yerdarda foydalanish mumkin.

Uchinchi guruh viloyatlari va poytaxt – Toshkent shahri sanoat eng yuqori darajada rivojlangan mintaqasi bo'lib, unda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi juda yuqoridir. Bu guruh viloyatlari o'zlarining mehnat resurslariga bo'lган ehtiyojlarini kelajakda ham mavjud aholining tabiiy o'sishi hisobiga hamda mehnat resurslarini tarmoqlararo qayta taqsimlash hisobiga to'la qondirishi mumkin.

Shunday qilib O'zbekistonda hozirgi vaqtida va yaqin kelajakda mehnat resurslarining miqdori bo'yicha muammo kelib chiqmaydi. Asosiy e'tibor mehnat salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilmog'i lozim. Avvalombor "ish bilan band bo'lган aholini tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash hamda mehnatga layoqatli yoshlarning faoliyatining eng ilg'or tarmoqlari va sohalariga jalb qilish" asosiy masala hisoblanadi. (I.A. Karimov, 1997).

Bunda, "...hozir respublikada hal qilinayotgan eng dolzarb muammolardan biri ishlashni hohlovchilarining xammasini ish bilan ta'minlash hisoblanmaydi. Balki eng maqbul ijtimoiy yo'naltirilgan ish bilan bandlikni vujudga keltirishdan iboratdir" (I.A. Karimov, 1997).

12.4. Mehnat bozori va uni tartibga solish muammolari

Aholi va uning eng faol qismi bo'lgan mehnat resurslari makroiqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Makroiqtisodiyot aholi va mehnat resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarini tadqiq etish orqali uni samarali boshqarish va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishni maqsad qilib oladi. Chunki, mehnat resurslari va uning faol qismi bo'lgan ish kuchi ishlab chiqaruvchi kuchlarning eng asosiy qismidir. Shu bilan birga mehnat resurslari bozor iqtisodiyoti munosabatining tarkibiy elementlaridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamizda mehnat bozori, mehnatni boshqarish institutlarini va iqtisodiy huquqiy mexanizmlarini yaratish talab etiladi. Bozor iqtisodiyoti erkin ishlab chiqaruvchilarining, iste'molchilarining gorizontal munosabatlariga asoslanar ekan, ishsizlik, qashshoqlik ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligi kabi salbiy xodisalarning bo'lishi mumkinligini nazarda tutish zarur. Umuman makroiqtisodiyotni mutassil o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun respublika aholisining o'sish sur'atlarini tartibga solish lozim. Aholining o'sishi esa ish kuchining manbaidir.

Mehnot bozorida ham talab va taklif qonunlari amal qiladi. Buning mohiyatini anglashdan oldin ish kuchini ish bilan bandlik kontsepsiyasini bilish lozim. Ish bilan bandlikning klassik nazariyasini hozirgi mehnat bozoridagi raqobat sharoitida "talab va taklif"ning umumbashariy funktsiyasidan boshlanadi. Hozirgi raqobat sharoitida ishbilarmonlar ish kuchidan shunday miqdorda foydalanadilarki bunda mehnatning yuqori mahsuli real ish xaqi bilan teng bo'lishi yoki ish xaqqi xajmining puldag'i ifodasi mehnatning yuqori maxsuli qiymatiga teng bo'lishi kerak. Agar real ish xaqqi miqdori oshsa ishbilarmon ish kuchiga bo'lgan talabni qisqartiradi, agar real ish xaqqi kamaysa ish kuchiga bo'lgan talab ortadi. Bu yerda ishbilarmon shu yo'l bilan daromadning kamayishini muvozanatlashtiradi.

Ma'lumki klassik iqtisodiy nazariyada ish bilan to'la bandlik, bozor iqtisodiyotining normasi eng yaxshi iqtisodiy siyosat deb esa davlatni iqtisodiyotga aralashmasligi tushuniladi.

Keyns nazariyasiga ko'ra sof kapitalizm uchun ishsizlik xos bo'lib ishsizlikning mavjud bo'lishi tabiiy holdir. Resurslarni isrof bo'lmaslik uchun davlat iqtisodiyot bilan faol shug'ullanishi lozim. Bu g'oya ishchi kuchiga tegishlidir.

Keyns nazariyasining eng qat'iy jihatni shundaki u bozor iqtisodiyoti sharoitida ish bilan to'la bandlikni ta'minlovchi xech qanday mexanizm yo'qligini aniqlab berdi. Makroko'lamma iqtisodiy muvozanatga erishish mumkin shunda ham ma'lum salmoqda ishsizlik va inflyatsiya saqlanib qolinishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Makroiqtisodiyotni asosiy maqsadlaridan biri aholining yuksak darajada ish bilan bandligini ta'minlashdir. T. A. Samuelsonning ta'rificha, ish

qidirmayotganlardan tashqari barcha ishlovchilar va ishlamoqchi bo'lganlar ishchi kuchini tashkil etadi.

"Aholining ish bilan bandligi" degan tushuncha bor. Lekin bunday natijaga o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi, chunki 100% aholining ishlamoqchi bo'lgan qismini ish bilan deyarli ta'minlab bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'lum miqdorda aholining ishsiz bo'lishi iqtisodiy jihatdan normal va asoslidir.

Ishsizlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta'minlanishini kutayotgan ishchi kuchlari. Bu guruh ishsizlar iqtisodchilar tilida friktsion ishsizlik ham deyiladi. U asosan ish joylarining kengayishi, mavsumiy ishlar, korxonadagi eski modelning yangisi bilan almashishi natijasida paydo bo'ladi. Friktsion ishsizlikning bo'lishi ma'lum darajada iqtisodiy jihatdan zarurat va uning bo'lishi ob'ektivdir.

2. Strukturali ishsizlik – iste'mol bozori ma'lum mahsulot bilan to'ldirilganda va u mahsulotga ehtiyoj qolmagan taqdirda tashkil topadi. Boshqacha so'z bilan aytganda mahsulotga ehtiyoj bo'limganligi uchun shu mahsulotni ishlab chiqaruvchilar ham ishsiz qoladi. Sanoatning joylashuvida bo'lgan o'zgarishlar ham strukturali ishsizlarni keltirib chiqaradi.

3. Tsiklik ishsizlik – ishlab chiqarishni pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishi va ishsizlarni paydo bo'lishi

Friktsion va strukturali ishsizlik ilojisiz hol bo'lganligi uchun mutloq to'la ish bilan bandlikka erishish mumkin emas. Agar tsiklik ishsizlik bo'lmasa (0 ga teng bo'lsa), u holda to'la ish bilan banlikka erishiladi. To'la ish bilan bandlik davridagi ishsizlik tabiiy ishsizlik darajasi deyiladi.

Tabiiy ishsizlik darajasi bilan bog'liq holdagi real milliy mahsulot xajmi iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyati deyiladi.

O'zbekistonda mehnat bozori faoliyati quyidagi omillarga bog'liq:

- aholi soni, yoshi va jinsining salmog'idagi o'zgarishlarga;
- ish bilan birgalikda tarmoq va hududiy o'zgarishlar;
- qo'shimcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish me'zoni;
- ishlab chiqarish xajmiga, uning o'sish sur'atiga, ishlab chiqarish strukturasiga;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy joylashuviga;
- mehnat resurslarini boshqarish usuliga.

Demak, aholi bir tomondan moddiy boyliklar yaratuvchisi, ikkinchi tomondan esa iste'molchi hamdir. Uning mana shu ikki tomonlama xususiyati mutanosib sotsial-iqtisodiy vaziyatni shakllantirishni talab etadi. Bu esa aholining o'zi bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlarni jarayonlarni kuzatish, tahlil etish va boshqaruv asosida amalga oshiriladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Ishchi kuchi – ish qidirayotganlardan tashqari barcha ishlovchilar va ishlamoqchi bo’lganlar.

Mehnat resurslari – aholining mehnatga layoqatli qismi. Yerkaklarning 16-59 yoshgacha, ayollarning 16-54 yoshgacha bo’lgan qismi.

Reproduktiv yosh - tiklanish yoshi, ya’ni balog’atga (oila qurish yoshiga) yetgan aholi qatlami.

Strukturali ishsizlik - ishsizlik bozorining ma’lum mahsulot turi bilan to’ldirilishi natijasida shu mahsulotga bo’lgan ehtiyojning so’nishi bilan yuzaga keladigan ishsizlik.

Friktsion ishsizlik – ish qidirayotgan yoki yaqin vaq ichida ish bilan ta’milanishini kutayotgan ishchi kuchi.

Tsiklik ishsizlik – ishlab chiqarish darajasining pasayishiga bog’liq holda ishchi kuchiga bo’lgan talabni kamayishi oqibatida yuzaga keladigan ishsizlik.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. O’zbekiston aholisining soni qanday demografik jarayonlar hisobiga ko’paymoqda?
2. Aholining hududiy joylashuviga qanday omillar ta’sir ko’rsatadi?
3. Mehnat resurslari deganda nimani tushunasiz?
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining to’la ish bilan bandligi ta’minlashga to’sqinlik qiluvchi omillarga tavsif bering.
5. Ishsizlik nima va uning qanday turlarini bilasiz.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: habsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” T.:, “O’zbekiston”, 1997 y., 254 bet.
2. Karimov I.A. “O’zbekiston buyuk kelajak sari” T.:, “O’zbekiston”, 1998 yil.
3. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. “O’zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi”, T.:, “O’qituvchi” 1994.
4. Akromov Z.M., Musaev P. “O’zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” T.:, “O’qituvchi” 1997.
5. Nabiev E., Qayumov A. “O’zbekistonning iqtisodiy salohiyati” T.:, “Akademiya”, “Universitet” 2000.
6. O’zbekiston Respublikasi. Qomus. T.:, “Qomus”, 1997.
7. To’xliev N. “O’zbekiston iqtisodiyoti” T.:, “O’qituvchi” 1999.
8. Eshmuxammedov A. E., Kolonova L.Z., Raximova M.R., Raxminova T.Yu. “Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi” T.:, “O’qituvchi” 1996.

XIII-bob. O'zbekiston xo'jaligiga umumiy ta'rif

13.1. Mustaqil O'zbekiston xalq xo'jaligining ravnaq topishida sanoatning ro'li

O'zbekiston xalq xo'jaligini yirik tarmoqlaridan biri sanoat bo'lib unda ish bilan band bo'lgan aholining 1/8 faoliyat ko'rsatmoqda. Sanoat ko'p tarmoqli soha O'zbekistonda uning yuzdan ortiq tarmog'i mavjud. Asosiy fondlarning 40%ni sanoatda, yalpi ichki mahsulotning 17%ni yana sanoatda yaratiladi. Mamlakatimiz sanoati korxonalarida elektr energiyasi, gaz, neft, ko'mir, benzin, po'lat, avtomobillar, qishloq xo'jaligi mashinalari, elektrosvitellar, akkumulyatorlar, kabellar, ekskavator, yigiruv mashinalari, samalyotlar, mineral o'g'it, sun'iy tola, oltingugurt kislotasi, turli qurilish materiallari, gazlamalar, un, paxta moyi, guruch, kiyim-kechak va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Tarmoqlarning sanoatda tutgan o'rni har xil.

Sanoat mahsulotlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibi (% da).

1.	Tarmoqlar	1995	1997
2.	Butun sanoat	100	100
3.	Yoqilg'i energetika majmui	18,3	26,8
4.	Metallurgiya	13,9	10,7
5.	Kimyo va neft sanoati	5,2	4,2
6.	Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	8,8	12,0
7.	Yog'ochsozlik sanoati	1,0	0,8
8.	Qurilish materiallari sanoati	4,5	4,2
9.	Engil sanoat	18,6	17,6
10.	Oziq-ovqat sanoati	9,8	9,8
11.	Un, don va aralash em sanoati	9,9	9,9

Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tarixan yetakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to'qish, konserva, yog'-moy va boshqa sanoat turlaridir. Shu bilan birga kimyo va neft kimiyo, mashinasozlik, elektronika, energetika, metallurgiya, yengil va qurilish materiallari sanoati jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Sanoat taraqqiyotida yoqilg'i-energetika majmuasining o'rni alohida. Uning tarkibiga gaz, neft qazish va ularni qayta ishlash, ko'mir qazish va elektr quvvati ishlab chiqarish kiradi.

Bu majmuaning mamlakat sanoat ishlab chiqarishidagi xissasi 26,8%dan iborat. O'zbekiston jahondagi 10 ta yirik gaz ishlab chiqaruvchi mamlakatlar jumlasiga kiradi. Respublikada qudratli gidroelektr stantsiyalari va issiqlik elektr stantsiyalari mavjud.

Metallurgiya majmuasi tarkibiga ma'dan xom ashyosini, qora va rangli metallarni qazib chiqaruvchi, boyituvchi va qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar kiradi. Oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, litiy, uran,

alyuminiy xom ashyosi, nodir metallar va boshqa qator qazilma boyliklarning aniqlangan zahiralari ko'p. O'zbekistonda oltinning 30 ta koni topilgan. Qazib olnadigan oltinning umumiyligi miqdori bo'yicha O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida ikkinchi, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux va volfram bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston jahon hamjamiyatida oltin ishlab chiqarish miqdori bo'yicha sakkizinchisi, uni aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo'yicha esa beshinchisi o'rinda turadi.

Kimyo va mashinasozlik majmualari sanoatning muhim sohalaridir. Yangi iqtisodiy sharoitda bu tarmoqlarda chuqur tarkibiy qayta qurishlar amalga oshirilmoqda. Ular mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Ishlab chiqarilayotgan iste'mol mollarining uchdan bir qismi yengil sanoat korxonalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu erda an'anaviy yetakchi soha to'qimachilikdir.

13.2. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

Sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlari tuzilmasini o'zgartirish va takomillashtirish iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy siyosatning asosiy negizi bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar hamda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ilmiy-texnik taraqqiyot tovarlarga bo'lgan talabning qondirilishiga, tovarlar sifatining yaxshilanishiga olib boradi. Aholini sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash uzviy ravishda sanoat ishlab chiqarish tarmoq tuzilmsining o'zgarishi hamda yangi tarmoqlarning vujudga kelishi, mavjudlarini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Bu orqali iqtisodiy tizimda, u yoki bu tarmoqda ijobjiy siljish sdir bo'ladi, hamda iqtisodiyotning rivojlanish dinamikasi o'zgaradi.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlar orasida mutanosiblik o'rnatish;
- ishlab chiqarish tuzilmasining prognoz va tendentsiyalarini ishlab chiqish;
- tarmoqlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirish;
- ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish;
- shaxsiy va ijtimoiy iste'miolni o'rganish hamda aholini sanoat mahsulotlari bilan to'la ta'minlash;
- tarmoqlarda xom ashyo va resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirib borish.

Tarmoqlar tuzilmasini shakllantirishda asosiy e'tibor iqtisodiy rayonlarning barcha tarmoqlarini resurslar, kapital mablag'lar, xom ashyo va materiallar bilan ta'minlash, mehant resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoq tuzilmasining rivojlanish darajasi talabga javob bermaydi. Tarmoqlarning ichki qurilmasini qayta qurish, mahsulot ishlab chiqarish va aholining turmush darajasini oshirish, chet el korxonalari bilan iqtisodiy

hamkorlik qilish, chet el investitsiyalari hamda ilg'or texnologiyalarini sifatli sanoat mollari tayyorlashga safarbar qilish vazifalarini hal etish lozim.

Asosiy fondlar strukturasini quyidagi ko'rinishda tasavvur qilish mumkin:

- ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarmaydigan asosiy fondlar;
- asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismi;
- alohida elementlar ulushi.

Sanoat ishlab chiqarish tuzilmasi to'la-to'kis ishlab chiqarish omillari tarkibidan va shu tarkibni tashkil etuvchi elementlarning oqilona variantidan iboratdir. Ana shu omillarning umumiyligi yoki bog'liqligining muntazam buzilishi milliy iqtisodiyotning barcha bo'g'inlariga yomon ta'sir qiladi, ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barkamollashtirishda inson omili alohida o'rinni tutadi. U iqtisodiyot tuzilmasining jadallashtirishning qo'shimcha sharoiti sifatida ishtirok etadi, shunda u aholining daromadiga, ishchilarning malakasini oshirishga va boshqa ijtimoiy jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatadi, mutlaqo yangi malakali va ma'lumotli tuzilmani shakllantiradi. Bu masala qanchalik muhim bo'lmasin, lekin u ham iqtisodiyotni o'rganish va rejalashtirish amaliyotida o'z aksini topadi, chunki shu vaqtgacha sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish jarayonida faqat son qiymatiga e'tibor berilib sifati hisobga olinmagan.

Hozirgi sharoitda, ya'ni iqtisodiyot rivojlanish sur'atini jadallashtirish va xalq turmush darajasini oshirishda tarmoqlararo va sanoat ishlab chiqarishi sohalari bo'yicha resurslar, kapital mablag'lar va mehnat resurslarini taqsimlashning shunday yo'nalishini izlash lozimki, bu yo'nalish qo'yilgan ijtimoiy-iqtisadiy maqsadga mumkin qadar samarali erishish uchun imkon bersin.

Qilingan tahlil natijalari moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari samaradorligini baholash uchun yetarli asos bo'lib xizmat qila olmaydi. Ulardan faqat sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari tuzilmasining milliy daromadini shakllantirish va oshirishga ta'sirini tahlil qilish paytida foydalanish mumkin.

Respublika sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mintaqadagi tarmoqlarni har tomonlama tahlil qilish ijtimoiy-iqtisadiy masalalarni hal etishda yengillashtiradi. Bunday tahlil qilish nafaqat moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini baholashga imkon beradi, balki iqtisodiyotni qayta qurish, ishlab chiqarish strukturasini rivojlantirish va strukturaviy o'zgartirishlar yo'nalishini ham belgilab beradi.

Respublika iqitsodiyotida tarmoq va hududiy tuzilmani uyg'unlashtirish ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarish talabiga javob berish kerak, ya'ni yakuniy natijalarning ijtimoiy mehnat harajatlari va qo'llaniladigan ishlab chiqarish resurslariga bog'liqligini ko'rsatadi.

Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish samaradorligi tarmoqlar salmog'inining oshishini va sof mahulotning o'sishini ta'minlaydi. Bu esa milliy daromadga ijobiy ta'sir qiluvchi boshqa omillarni inkor etmaydi.

Milliy daromadning o'sishiga uch xil yo'l bilan erishish mumkin:

1. Bandlik tarkibining o'zgarishi.
2. Sanoat tarmoqlarida mehnat unumdarligini o'sishi, oshishi.
3. Tarmoqlardagi asosiy fondlar va investitsiya qiymatining ko'payishi.

O'zbekistonda ko'p miqdorda foydalanilmagan zahiralar hamda mehnat resurslari mavjud ekan, demak ishlab chiqarish samarasini ko'paytirishda intensiv omillar bilan birga ekstensiv omillardan ham foydalanish lozim bo'ladi.

Tarmoq tarkibini respublikamiz miqyosida qulaylashuvi yuqori sur'atdagi iqtisodiy rivojlanishi, aholining turmush darajasini oshirishni hamda bir birlik mahsulot ishlab chiqarishning darajasi va yakuniy mahsulotning ko'payishiga umuman ijobjiy strukturaviy siljishlarga sabab bo'ladi. Demak, tarkibiy o'zgarishning o'zi ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdarligi o'sishining qo'shimcha omili bo'lib maydonga chiqadi.

Shular bilan bir qatorda yuqoridagi barcha omillar o'zaro bog'liqdir. Tarmoq faliyati natijalarining strukturasi ishlab chiqarish omillari funksiyasidan iborat: $V=f(F_1 I_s)$

Bu yerda F-asosiy fondlar

Ishchilar soni

yoki $V=f(F(F_1 F_2 \dots F_n), I_s(I_1, I_2 \dots I_n))$

Bu yerda F_n -fondlar tarkibi;

Ishchilarning bandlik strukturasi.

13.3 Bozor sharoitida sanoatning takomillashishida va joylashishida tarmoqlar tavsifi:

a) Yoqilg'i-energetika majmui. Elektr quvvati.

Bizning respublikamizda elektr quvvatidan asosan XX asr boshlarida foydalanila boshladi. Shu vaqtda O'zbekistonda issiqlik energetikasi asosan dizel va uncha yirik bo'limgan bug' turbinalariga moslashgan elektr stantsiyalarini qurish yo'nalishida rivojlanadi. Ilk bor shunday elektr stantsiyalari Farg'ona va Kattaqo'rg'on yog'-moy zavodlarida qurildi. "O'zbekenergiya" energetika boshqarmasi (hozirgi O'zbekiston respublika energetika va elektrlashtirish vazirligi) tuzildi. Dastlabki GES (Bo'zsuv) 1926 yilda Chirchiq-Bo'zsuv traktida barpo etildi. 1940 yilgacha ushbu trakt stantsiyalarida 67 ming KVT generator quvvati ishga tushirildi. O'zbekistonda urushdan keyingi yillarda energetika sistemasida quvvatlarni oshirish GESlar qurish hisobiga amalga oshirildi. Mamlakatimiz umumiyligi elektr balansida ishlab chiqarilgan elektr quvvatining 65%ga yaqini 1950 yilda gidroelektrostantsiyalar hissasiga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda 50-yillarda tabiiy gaz zahiralarining topilishi elektr quvvati ishlab chiqarishni keskin oshirish imkoniyatini yaratdi. Natijada 60-70 yillarda tabiiy gaz negizida ishlaydigan Taxiotosh, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent GRESlari, ko'mirda ishlaydigan Angren GRESining ishga tushirilishi natijasida elektr quvvatlari ishlab chiqarish umumiyligi balansida IESlar hissasi 80%ga yetdi. Shular bilan bir qatorda elektr uzatish liniyalari ham barpo etish davom ettirildi.

Respublikamiz energetika tizimi hozirgi davrda 19 ming sanoat 80 ming qishloq xo'jaligi, 10 ming kmmunal va 3,5 mln. Maishiy iste'miolchilarni energiya bilan ta'minlaydi. O'zbekiston bo'yicha jami elektr quvvati iste'moli 46,1 mlrd.kv. soatni tashkil etadi.

O'zbekiston energetika istiqbolida gidroenergetika va issiqlik energetikasi yo'nalishida rivojlanadi.

Respublika energetika sistemasida jami 27 GESlarda o'rnatilgan quvvatlar 1420 MVt.ni tashkil etadi. Ularda 6331,2 mln.kvt.s. elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda. O'zbekiston gidroenergetikasini rivojlantirishda Pskom daryosi, Ohangaron, Xisorak To'palang suv omborlarida GESlarni loyihalash va qurish yo'nalishi yetakchi o'rinda turadi.

O'zbekistonda 60-yillarda elektr quvvati hosil qilishni kuchaytirilishi asosan gazda ishlaydigan yirik IESlarni ishga tushirish yo'nalishida olib boriladi. Issiqlik elektr stantsiyalari qurilishi natijasida respublika energetika sistemasining o'rnatilgan quvvatlari 11,3 ming MVt.ga etdi. Mamlakatimiz energetika sistemasi hozir respublika xalq xo'jaligi va aholisining elektr energiyasini qisman qo'shni davlatlarga eksport qilmoqda.

O'zbekistondagi eng yirik GESlar.

Nomi	O'rnatilgan quvvatlar MVt	Turbina-lar soni	Qurilgan yillari	Suv manbai
Chirchiq GES	620,5	4	1970-1972	Chirchiq
Xo'jakent GES	165	3	1976	Chirchiq
G'azalkent GES	120	3	1980-1981	Chirchiq
Farhod GES	126	4	1948-1949	Sirdaryo

Yoqilg'i sanoati.

Mamlakatimiz yoqilg'i sanoati yer qa'ridan topilgan va qazib olinayotgan ko'mir, neft, tabiiy gaz konlari negizida shakllandi va rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda 160ga yaqin neft-gaz koni topilgan, ularning 115 tasi Buxoro-Xiva geologik provintsiyasida, 27 tasi Farg'ona vodiysida, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurda joylashgan. Konlarning gaz-kondensatli, gaz-neft, neft, gaz-neft kondensatli va naft-gaz kondensatli turlari mavjud. Hozir 71 neft, gaz va gaz-kondensat konlari ikki ko'mir konidan foydalanimoqda 50 dan ortiq neft, gaz va gaz kondensat koni esa yaqin kelajakda ishga tushirish uchun tayyorlab qo'yilgan.

Respublika yoqilg'i sanoati O'zbekiston yoqilg'i-energetika majmuining asosiy tarmog'ini tashkil etadi va barcha turdag'i yoqilg'i qazib olish, neft mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalaridan iborat. Ular xalq xo'jaligining barcha bo'g'inlarida xizmat ko'rsatadi. Uning yirik korxonalari Toshkent, Buxoro, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqdaryo viloyatlarida joylashgan. Respublika sanoat mahsulotining umumiy hajmida yoqilg'i energetika majmui mahsulotlari hajmi 26,8%ni tashkil etadi. Mamlakat sanoatida band bo'lgan ishchi-xizmatchilarning neft-gaz-kondensat konining ochilishi va unga tushirilishi bilan neft sanoatining yoqilg'i sanoat majmuidagi mavqesi ortib bormoqda.

Neft sanoati.

Respublikada ilk bor neft koni 1904 yilda (Farg'ona vodiysidagi Chimyon neft konida 278 m chuqurlikdan sutkasiga 130 tonna neft olingan) ochilgan. Shu yili

Vannovsk (Oltiariq) temir yo'l stantsiyasida neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. So'ngra- Farg'ona botig'ida Seldoxo yorkushton konlari osildi. Neyat-Vannovsk neft quvuri qurildi, neftni qayta ishlash zavodi kengaytirildi. Ana shu davrda rus va chet el kapitali neft qazib olish, uni qayta ishlash, neft mahsulotlarini sotishni to'la o'z nazoratiga oldi. O'zbekistonda 1913 yilda jami 13 ming tonna neft qazib olindi. Ikkinchi jahon urushi yillarida yangi (Farg'ona vodiysida, Janubiy Olamushuk, Polvontosh, Andijon) neft konlari ochildi. 1959 yilda Surxondaryo va Farg'ona vodiysida 9 ta neft konining o'zidan 1460 ming tonnadan ziyod neft olindi.

Ayrim neft konlaridagi zaxiralarning tugashi natijasida 70-yillar boshidan neft qazib olish kamaydi. Yangi neft konlarini topish uchun chuqur quduqlar qazish o'zlashtirildi. Voruxda 5200 metr, Gumxonada 5670 m, Chust-Popda 5805 m, Mingbuloqda 6006 m o'ta chuqur neft quduqlari o'zlashtirildi.

1985 yili Buxoro-Xiva provintsiyasida yirik neft-gaz kondensatli Ko'kdumaloq koni ochildi. 1993 yili Mingbuloq tuzilmasidan neft otilib chiqdi. Hozir O'zbekiston neft sanoati xalq xo'jaligining neftga bo'lган talabini qonlirish imkoniyatiga ega.

Neftni qayta ishlash sanoati.

Hozir Respublikada bu sohada Buxoro, Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlari ishlab turibdi. Farg'ona zavodi yonilg'i va surkov moylari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Olitariq zavodi yonilg'i ishlab chiqaradi. Ko'kdumaloq neft-gaz koni ochilgandan so'ng Fransiyaning TEKNEP firmasi bilan birgalikda 1993 yilda Buxoro viloyatining Qoravulbozor tumanida neftni qayta ishlash zavodi qurilishi boshlanib, bir yilda 2,5 mln. Tonna gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega bo'lган korxona barpo etildi va birinchi navbatda 1997 yil avgustda ishga tushirildi. Respublika, neft mustaqilligi ta'minlab, korxonalar o'rtacha bir yilda 11 mln. Tonna neftni qayta ishlash imkoniyatiga ega.

Gaz sanoati.

Tarmoqning respublikada qazib olinayotgan yoqilg'i balansidagi xissasi 87,2% tashkil etadi. Sanoat usulida qazib chiqarish asosan 50-60 yillarda boshlandi. Qazib olish sanoati joylashgan asosiy rayonlar- Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari, Buxoro, Qashqadaryo hamda Qoraqalpog'iston respublikasidir. 50 yillar oxirida Jarqoq-Buxoro-Samarqand-Toshkent magistral gazaprovodi qurilishi bilan respublika sanoat markazlari, shahar va qishloqlarni gazlashtirish boshlandi. 1862 yil Gazli koni ishga tushirildi va magistral gazaprovodlar qurilib O'zbekiston gazi Sobiq ittifoqning Yevropa qismi, Ural, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Boltiq respublikalariga va boshqa hududlarga uzluksiz jo'natib turildi. Nihoyatda qisqa muddatlarda Buxoro-Ural, O'rta Osiyo-Markaz, Buxoro-Toshkent-Frunze-Olmaota gazaprovodlari qurib foydalanishga topshirildi. 1970 yilga kelib respublika jami 32 mlrd.m³ gaz qazib olindi.

Bizda tabiiy gaz murakkab geologik qatlamlarda (3500 m va undan chuqurda, bosim 600 (atmosferagacha) joylashgan bo'lib tarkibida vodorod sulfid (6% ga qadar), kordanad kislota kabi agressiv aralashmalar bo'lган) konlarni ishga tushirishda bir qancha ilmiy-texnikaviy muammolarni hal qilishga to'g'ri keladi.

Respublikamizda eng yirik bo'lgan Muborak gazni qayta ishlash zavodining birinchi navbatni 1972 yil ishgaga tushirilib, gazni aralashmalarda tozalash imkoniyatlari yaratildi. Hozir respublikamizda yiliga Muborak zavodida, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodida hamda Sho'rtang gaz majmuasida 100 ming tonnaga yaqin suyultirilgan gaz ishlab chiqarilmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatning neft va gaz mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini o'z resurslari hisobiga qondirish asosiy masala bo'lib qoldi. 1991 yili O'zbekiston neft va gaz sanoati davlat kontserni tashkil etildi, keyinroq 1992 y. Kontsern negizida O'zbekiston neft va gaz sanoati milliy korporatsiyasi ("O'zbekneftgaz") tuzildi.

Korporatsiya tarkibida tsirik birlashma va boshqarmalar hamda korxonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. Korporatsiya qator xorijiy mamlakatlarning eng yirik firmalari bilan xamkorlik qilmoqda.

Ko'mir sanoati.

Mamlakatimizda ko'mirni sanoat usulida qazib olish 1930 yillar oxiridan boshlangan. Toshkent viloyati Ohangaron vodiysida Angern qo'ng'ir ko'mir, Surxondaryo viloyatida Sharg'un, Boysun toshko'mir konlari bor. Angren konidan 40 yillarda ko'mir ochiq va yopiq usulda qazila boshlandi. Sharg'un shaxtasida Yoriltosh fabrikasi (yillik quvvati 150 ming t.) ishlaydi.

Respublikamizda 1950 yilda 1,4 mln.t. ko'mir qazilgan bo'lsin 1990 yilga kelib 6,4 mln. t.ga yetdi. Bu ko'rsatkiya keyingi yillarda pasayib 1997 yilda 3 mln.ga tushib qoldi. Respublika mustaqillikka erishgandan keyin O'zbekiston ko'mir konlari negizida "Ko'mir" ko'mir qazib olish va sotish (1994 yil) aktsiyadorlik tuzildi.

Metallurgiya sanoati.

Sohani mamlakatimizda rivjana boshlagani 4 ming yillik tarixga ega. Qadimda mis, oltin, qalay, kumush va boshqa metallarni eritishi va q yishi va qizdirib ishlatish bo'lgan. Chirchiq, Farg'ona, Zarafshon, Ohangaron shaharlarida misgarlik, zargarlik, temirchilik rivojlangan. Yagona Beobod shahridagi metallurgiya shahridagi qora metallurgiya sohsida faoliyat ko'rsatuvchi korxonadir. Bu yerda asosan metal chiqindilari eritilib po'lat, cho'yan, quvurlar, po'lat prokat ishlab chiqariladi. Korxonada dastlabki mahsulot 1944 yilda olingan. Zavodda asosiy mahsulotdan tashqari 50 dan oshiq turdag'i xalq iste'moli buyumlari ham ishlab chiqariladi.

Metallurgiya sanoatining yetakchi tarmog'i rangli metallurgiya hisoblanadi, soha 1930 yillarda mahalliy mineral xom ashyo resurslari negizida shakllana boshlanadi. O'zbekistonda rangli kamyob va qimmatbahob metallar (oltin, mis, qo'rg'oshin, volfram, simob, molibden, va boshqalar) konlari, Obiraxmat, Oqtuz, Taqob, Qo'ytosh, Burchmullo, Ingichka, Langar rangli metallar, Ko'k patas, Qizilolmalisoy, Kauldi, Chodak, marjonbuloq, Zarmiton oltin, Qalmoqqir mis, Oltintopgan, Qo'rg'oshinkon qo'rg'oshin ruh konlari va boshqalar topilib, ular sanoat miqyosida o'zlashtirilib, tarmoq shakllanib mamlakatimiz rangli metallar ishlab chiqarish bo'yicha jaxonda yuqori o'rnlardan birini egalladi.

Oltin qazib olish va undan taqinchoqlar, zargarlik buyumlari bezaklar yasash O'zbekiston qadimdan mavjudligi arxeologik topilmalardan ma'lum. Erkin uchraydigan oltin konlari o'zlashtirishga qadar oltin asosan sochma konlarda juda eski usullarda - qo'yterisi qoplangan yog'och tog'aralarda oltin zarrali qumlarni yuvib, ajratib olingan. Bunday qumlar X-XI asrlarda Chotqol, Chirchiq, Norin, Koson, So'x, Darvoz, Zarafshon daryolari vodiylarida bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor.

Shu bilan birga erkin uchraydigan oltin o'rta asrlarda Chotqol-Qurama, Nurota tog'larida, markaziy Qizilqumdag'i konlarda qazib olingan. Bu konlar laximlari hozir ham bor.

Olkamiz mineral xom-ashyo resurslarini o'rganishda jonlanish 1880 yillarda Rossiya imperiyasi bosib olgan davrda yuz berdi. Oktyabr to'ntarishigacha Chirchiq-Pskom va Chotqol daryolari vodiylarida oltin izlovcilar korxonalar oltin olish bilan shug'ullanganlar, 1913-17 yillarda Obiraxmat darasi (Toshkent viloyati) oltin konidan foydalanilgan.

Mamlakatimiz mineral hom-ashyo aniqlash va uni qazib olib tashib ketish Oktyabr to'ntarishidan keyin ham davom etdi.

Urush yillari oltin izlash va uni qazib olish jadal olib borildi. 50-yillarda konlarni izlash bo'yicha tadqiqotlar natijasida Marjonbuloq, Kauli, Qizilolmalisoy, Sarmich, Qoraqo'tan, Bichanzor, Pirmirob, Kuchbuloq, Go'zaksoy, Muruntov, Charmiton va boshqa rudali oltin konlari topildi. 1965 yilda "O'zbekoltin" birlashmasi tashkil etildi. 1970 yil Chodak, 1972 yil Kuchbuloq, 1977 yil Kauli, 1980 yilda Marjonbuloq, 1989 yilda Zarmitan va Qizilolmalisoy konlari ishga tushirildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan xukumat tashkiliy choralarni ko'rdi. "O'zbekiston" birlashmasi negizida O'zbekiston respublikasining qimmatbaho metallar davlat qo'mitasi tashkil etildi(1992y). Bu qo'mita 1994 yil "O'zolmosoltin" uyushmasiga aylantirildi. Ikkinci yirik markaz "Qizilqumkamyobmetaloltini" kontsernidir.

1993 yil Zarafshonda tashkil etilgan oltin qazib olish bo'yicha O'zbekiston AQSh "Zarafshon-Nyument" qo'shma korxonasi 1995 yilningmay oyida mahsulot bera boshladi.

Buyuk Britaniyaning "Lonro" firmasi bilan hamkorlikda markaziy qizilqumda oltin rudalari konini ishga tushirish va oltin ajratib olish bo'yicha katta qo'shma korxona "Almantaytu Goldfilda" loyihasi amalga oshirildi.

Qo'rg'oshin, mis, rux sanoati asosan Ohangaron-Olmaliq kon-sanoat rayonida shakllangan. Asosiy korxona Olmaliq kon-metallurgiya kombinatidir.

Volfram va molibden sanoatning yirik korxonasi O'zbekiston qattiq qotishmalar va o'tga chidamli metallar kombinati (Chirchiq)dir. Korxona ingichka volfram (Samarqand) va Qo'ytosh volfram-molibden (Jizzax) konlari rudalar asosida ishlaydi. Kombinat mahsulotlari (100 turdan ortiq) po'lat eritish, kon burg'ulash, elektrotexnika sohalarida keng qo'llaniladi. Kombinatda 1996 yilda Respublika ehtiyojlarini to'la qoplaydigan elektr lampochkalari ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.

Mashinasozlik sanoati

Tarmoqning dastlabki korxonalari O'zbekistonda 20 yillarda shakllandi. Metallga ishlov berish, ta'mirlash ustaxonalaridan iborat. Toshkentda 1927 yilda mexanika zavodi (hozirgi "Qishloqmash") ishga tushiriladi.

Unda paxta tozalash zavodlari uchun asbob uskunalar ishlab chiqariladi. 1932 yil Ekskavator zavodi, -yillar oxirida "Komunar" (Andijon) "kolxozchi" (Samarqand), "bolshevik" (Qo'qon) zavodlari ishga tushirildi. Urushdan keyin irrigatsiya qurilish va paxtachilik mashinalari hamda to'qimachilik kimyo va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari uchun yangi jihozlar ishlab chiqarila boshladi.

Sanoat mahsulotlarining umumiy hajmida mashinasozlik sanoatining xissasi 1997 yilda 12%ga chiqdi.

Avtomobilsozlik.

Bu tarmoq bizda asosan mustaqillikka erishganimizdan keyin, shakllana boshladi. "Uzavtomash" uyushmasi 1994 yilda tuzilib hozir uning sharoitda 18ta korxona va tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda. 1992 yilda "UzDEU" avto qo'shma korxonasi 1993 yil "avtoehtiyotqism" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi ish boshladi. Samarqandda "Sam Koch-avto" ishga tushdi va yangi "UzavtoVAZ agregat" korxonalarida "LIAZ" (Rossiya) ishlab chiqarish birlashmasi bilan hamkorlikda avtobus va tro'lleybuslar ishlab chiqarish mo'ljallanmoqda. 1997 yilda O'zbekistonda 65 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi.

Tarmoqda 20% mashinasozlikning mahsulotini ishlab chiqariladi. Sobiq Ittifoq respublikalari uchun g'o'za seyalkalari paxta terish mashimnalari, paxtachilikka moslashtirilgan chopiq traktorlarining asosiy qismi 1990 yillar boshigacha O'zbekistonda ishlab chiqarilgan.

Hozir mamlakatimizda juda ko'plab qishloq xo'jaligi uchun mashina va ehtiyoq qismlar ishlab chiqaruvchi quyidagi korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda: TTZ, Toshqishloqmash, Agregat zavodi, "Uzitalmator", Chirchiq qishloq xo'jalikmash, Bog'dorchilik mashinasozligi zavodi, "O'zqishloqloqxo'jalikxolding" kompaniyasi bilan birgalikda 7 ta qo'shma korxona .

To'qimachilik mashinasozligi.

Mahsulotlari "O'zbeko'qimachilikmash" birlashmasida ishlab chiqariladi. Birlashma tarkibida "ToshTo'qimachimash", "Qo'qonTo'qimachimash" Gagarin kukun mahsulotlari zavodi (Jizzax). Toshkent maxsus to'qimachiligi Konstruktorlik byurosi ishlab turibdi.

Radioelektronika, elektrotexnika sanoati.

Tarmoq asosan urush yillarida shakllana boshladi. Kabel zavodi "Faton" (lampa, generatorlar, radiolampalar) Chirchiq transformator zavodi mahsulot berdi. Urushdan keyin "Mikont" (radiodetallar, shisha izolyatorlar) ishga tushdi. 1982 yil Algoritm (EHMLar) ishga tushdi. Undan keyin "Zenit", so'ngra bu zavodda qo'shma

korxona (Jan.Koreyaning "Goldstar" firmasi bilan videomagnitafon va videoplayerlar, Xitoyning Sintsiyan radio zavodi bilan hamkorlikda rangli telivizorlar ishlab chiqarila boshladi.

Tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotning 80-90% eksport qilinadi va 20dan ortiq boshqa mamlakatlar (Jan.Koreya, AQSh, Turkiya, Rossiya, Singapur) firmalari bilan qo'shma korxonalar barpo etilagan.

Samolyotsozlik.

O'zbekistonda urush yillari jangovor samolyotlar ishlab chiqarilgan Toshkent aviayiya zavodi 1941 yilda barpo etilagn, zavodda IL-14, AN-22, IL-76, Il-114 samolyotlari ishlab chiqariladi. 1996 yildan "Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi" davlat AJ deb ataladi.

Yog'ochsozlik sanoati.

Ushbu tarmoq xunarmandchilikning bir qismi sifatida rivojlanadi. Yog'ochni tilish, qirqish, yo'nish, randalash, parmalash, o'ymakorlik, egar, sandiq, beshik, panjara, aravasozlik kabi juda ko'p tarmoqlar bo'lgan.

Shaharlarda sanoat kombinatlarining yirik sexlari bazasida yog'ochsozlik korxonalari (qurilish detallari, dereza, eshik boloklari tayyorlash) tashkil etildi.

60-70 yillarda "O'zbekyog'ochqurilish", "O'zqurilishyog'ochsanoati" boshqarmalari barpo etilib, uning negizada ko'pgina takomillashgankorxonalar (Toshkent duradgorlik buyumlari zavodi, Italiya, Germaniya, Shvetsiya firmalari bilan hamkorlikda) "Toshkent" yog'ochsozlik birlashmasi (parket, eshik, rom) Toshkent quyoshdan himoya uskunalari, DSP ishlab chiqaruvchi zavodlar va boshqalar faoliyat ko'rsatadi.

Mamlakatimizda yog'och xom ashyosi taqchilligi tufayli yog'ochsozlik sanoatidagi mavjud quvvatlarning yarmidan foydalanilmoqda. Shuning uchun 1994 yil Vazirlar Mahkamasi "Sanoat terakchiligini rivojlantirish va boshqa tez o'suvchi yog'ochbop daraxtzorlarni barpo etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorda yaqin kelajakda har yili 5 mln metr kub sanoatbop va qurilish yog'ochi tayyorlash rejasiga belgilangan.

Qurilish materiallari sanoati.

O'zbekistonda ko'p tarmoqli qurilish materiallari sanoatiga ega. Cement, azbest-sement, devorbop materiallar, yumshoq yopg'ich va gidroizolyatsiya materiallari, tabiiy sharoitlardan qoplama materiallari, noruda qurilish materiallari, qurilish keramikasi, issiqlik izolyatsiyasi materiallari, ohak, gips, bog'lovchi materiallar va ulardan buyumlar, sanitariya-gigiena jihozlari, polimer xom-ashyodan qurilish materiallari va buyumlar temir-beton konstruktsiyalari va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari bor. Jami 100 dan ortiq nomdag'i asosiy mahsulot turlari tayyorlanadi. O'zbekistonda 1997 yilda 3.3 mln tonna tsement shifyerlari, 5.2 mln kv metr deraza oynalari, 1 mln kv metr linolium ishlab chiqarildi.

Sement sanoati.

Respublikamizda 1913 yilda Xilkovo (Bekobod) sement zavodi, 1927 yilda Quvasoy sement zavodi ishga tushirildi. 1947 yil Angren, 1962 yil Ohangaron, 1977 yil Navoiy tsement kombinatlari ishga tushdi.

Tabiiy tosh (marmar, granit)lardan mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlangan. Bular sobiq Ittifoqning katta-katta shaharlarni bezashda metro stantsiyalarida ishlatilgan. Manbalari: §azg'on, Pangor, Sevasoy, Chorkesar (granit), Chust (trovertin).

Yengil sanoat

Asr boshlarida Respublika yengil sanoat sohasi asosan paxtani qayta ishslash korxonalaridan iborat bo'lib, yalpi sanoat mahsulotining 4/5 qismi shu sohaga to'g'ri kelgan.

Hozirgi kunda tarmoq tarkibida paxta tozalash zavodlaridan tashqari to'qimachilik, trikotaj, shoyi to'qish, tikuvchilik, kon-poyafzal, gilamchilik, chinnifayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqarish sohalarida 142 korxona mavjud bo'lib unda 300 mingdan ortiq kishi faoliyat ko'rsatmoqda va jami sanoat mahsulotining 17.6% bermoqda.

Paxta tozalash sanoati

Yengil sanoat tarmog'ining asosiy bo'g'ini bo'lib, mahsuloti (paxta tolasi) 40dan ortiq mamlakatlarga eksport qilindi. O'zbekistonda 130ta paxta tozalash zavodi bo'lib ularda har yili 1.5 mln tonnadan ortiq paxta tolasi, 100 ming tonnadan ortiq lint, 2.5 mln tonna chigit, 200 ming tonna urug'lik chigit ishlab chiqariladi. 1992 yildan "O'zdavlatpaxtasanoatsotish" davlat aktsiyadorlik uyushmasi tashkil etilib uning tarkibida 12 viloyat va Qorqalpog'iston Respublikasi paxta tozalash sanoat birlashmasi "Toshkent Kanop zavodi" birlashmasi, Respublika ilmiy markazi faoliyat ko'rsatmoqda.

To'qimachilik sanoati.

Bu tarmoq uzoq tarixga ega. Tayyorlangan gazmollar (atlas, beqasam, baxmal, olacha) o'rta asrlarda Buyuk Ipak yo'li orqali Yevropa va Yaqin sharq mamlakatlariga chiqarilgan, ammo sanoat usulida gazmollar ishlab chiqarish 20-yillardan boshlandi. 1930 yilda Farg'ona to'qimachilik, 1932 yil Toshkent to'qimachilik kombinati qurila boshlandi. Keyinchalik Buxoro, Andijon, Popda yirik korxonalar, Xivada gilam kombinati qurildi. Hozir O'zbekistonda 4 ta yirik kombinat, 30-dan ortiq yigruv-tikuv fabrikasi ishlab turibdi. Keyingi paytlarda chet el firmalari bilan (AQSh, Turkiya, Italiya, Pokiston, Hindiston, Koreya va boshqalar) birga qo'shma korxonalar tashkil etildi va etilmoqda.

Ipakchilik sanoati.

O'zbekistonda qadimdan Namangan, Marg'ilon, Qo'qon, Buxoro kabi shaharlar shoyi ishlab chiqarish markazlari bo'lgan.

Hozir O'zbekistonda 9 ta yirik pillakashlik fabrikasi va uning 12 ta shaxobchasi ishlab turibdi.

O'zbekistonda trikotaj, tikuvchilik, ko'n-poyafzal tarmoqlari ham yaxshi rivojlangan. Trikotaj-Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijonda yirik korxonalarga ega. Tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmalari va 40dan ortiq shahobchasi ishlab turibdi.

Poyafzal tarmog'i.

Toshkent, Yangiyo'l, Chirchiq, Qo'qon, Farg'ona yirik korxonalar, Pop rezina poyafzal fabrikasi, "Farg'ona poyafzal" aktsiyadorlar jamiyati bilan Germaniyaning "Salamander" firmasi ishtirokida "Uzsalamon" qo'shma korxonasi barpo qilindi.

Chinni-fayans sanoati.

1952 yilda Toshkent chinni zavodi, 1970 yilda Samarqand, 1977 yilda Quvasoy chinni zavodi ishga tushirildi. Angren keramika kombinatida fayans sopol mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Kanop sanoati.

Korxonalar Toshkent viloyatida joylashgan, chunki xom-ashyo bazasi bo'lib Quyi, Yuqori va O'rta Chirchiq tumanlari hisoblanadi. Mahsulotlari: tola, kongazlama, arqon, kabel ipi va boshqalar. Oltita yirik zavod yiliga 20 ming tonna kanop poyasini qayta ishlash quvvatiga ega.

Mebel sanoati

Hozir Respublikamizdagi barcha mebel sanoati korxonalarini boshqaradigan "O'zbekmebel" davlat aktsiyadorlar birlashmasi barpo qilingan. Uning tarkibida 26 ta mebel ishlab chiqarish tijorat shirkati 13 ta mebel fabrikasi, 3 ta mebel ishlab chiqarish birlashmasi, 6 ta mebel birlashmasi, "O'zbekqog'oz" ijara korxonasi, mebel ko'zgusi korxonasi, yog'och kesish stanoklari zavodi, firma magazinlari va boshqalar mavjud.

Oziq-ovqat sanoati

Tarmoqda asosan mahalliy xom-ashyoni ishlanadi. Tarmog'da umumiy sanoat mahsuloti hajmini 9.8% ishlab chiqariladi va 100 mingga yaqin kishi band.

Tarmoq tarkibida go'sht-sut, yog'-moy, un-yorma, baliq mahsulotlari, makaron, meva-sabzavot konservalari, qandolat, choy qadaqlash, uzum va shampans vinosi, spirt, aroq tamaki, pivo, chanqoqbosar ichimliklar, sovun va boshqa mahsulotlar mavjud.

Respublika mustaqillikka erishilgandan keyin oziq-ovqat sanoatida chuqr tashkiliy va iqtisodiy islohatlar amalga oshirdi, ko'pgina sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarib, ochiq turdag'i aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi, ilgari tarmoq korxonalariga rahbarlik qilgan oziq-ovqat, go'sht-sut, don mahsulotlari va

boshqa vazirliklar tugatilib "Oziq-ovqat sanoati" va "Yog'-moytamakisanoat" uyushmalariga, "O'zgo'shtsanoat" dalat aktsiyadorlik uyushmasi, "O'zDONmahsulot" davlat aktsiyadolik korporatsiyasi, "O'zbaliq" davlat aktsiyadorlik korporatsiyasi tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi vazirligi tarkibidagi "O'zparrandasanoat" respublika ishlab chiqarish birlashmasi, "O'zbekbirlashuv" tarkibidagi oziq-ovqat sanoati korxonalari ochiq turdag'i aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Korxonalarda yangi zamonaviy texnologiya va uskunalar o'rnatilmoqda. Aholi ehtiyojlarini respublikaning o'zida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan qondirish choralar ko'rilmoxda. Chunki hozir respublika importida oziq-ovqat mahsulotlari xissasi yuqori bo'lib kelmoqda (19.5%). O'zbekistonda 1997 yilda 32.9 ming tonna go'sht va go'sht mahsulotlari, 90 ming tonna sut, 3 ming tonna hayvon va 276 ming tonna o'simlik yog'i, 133 ming tonna yorma, 54 ming tonna makaron mahsulotlari, 542 ming tonna non va non mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Go'sht sanoati.

O'zbekiston aholisini 1930 yilarga qadar go'sht bilan mayda va tarqoq qassobxona va qulixonalar ta'minlab kelgan. Go'sht sanoati respublika xalq xo'jaligi rejasiga alohida tarmog'i sifatida 1932 yilda kiritilgan. Shu yil Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro, Kattaqo'rg'on, Termiz, Qarshi, Qo'qon shaharlaridagi 8 ta shahar qassobxonasi, Samarqand va Buxorodagi muzxonani birlashtirgan "O'zgo'shtsanoatsovitish" tresti tashkil etildi. Keyinchalik bu trest tarkibiga Olmaliq, Chirchiq, Namangan, Yangiyo'l shaharlaridagi go'sht xonalar, Xo'jayli, Urganch mol so'yish punktlari va Toshkent muzxona kombinati ham kiradi. 1965 yilda Respublika go'sht va sut sanoati vazirligi tashkil etildi. Ko'pgina shaharlarda go'sht kombinatlarida yuqori quvvatga ega kolbasa tsexlari qurildi, korxonalarda yangi texnologiyalarni qo'llash asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari ko'paydi.

Respublika hozir o'zining mustaqil va yetarli xom-ashyo bazasiga ega. Tarmoqdagi o'sish respublikada chorva mollari bosh sonini saqlab qolish va ko'paytirishga erishilgan holda ta'minlanmoqda va Turkiya, Germaniya firmalari bilan hamkorlmikda suyakni qayta ishlash, ichak mahsulotlari tayyorlash, go'shtni qadoqlash bo'yicha tadbirlar amaloga oshirilmoqda.

Sut sanoati.

Tarmoq korxonalarida sut-qatiq, saryog', sut konservalar, quruq sut, pishloq, birinza, qaymoq, muzqaymoq, kazein va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. O'zbekistonda birinchi sut zavodi 1928 yilda ishga tushirilgan.

Sut sanoati korxonalarida bolalar uchun sut mahsulotlari (Toshkent, Samarqand, Namangan sut kombinatlari, buzoqlar uchun sun'iy sut(Namangan, Denov, Shahrixon sut kombinatlari)) ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Texnik kazein chet ellarga chiqarilmoqda. Jizzax va Navoiy sut kombinatlarida Gretsiya va Germaniya firmalari bilan hamkorlikda kazein ishlab chiqarish qo'shma korxonalari qurildi. Korxonalar xorijiy texnologiya, qadoqlash avtomatlari bilan jihozlanmoqda. "O'zgo'shtsutsanoat" uyushmasi tarkibida 37 sut korxonasi 118 sut qabul qilish

punktleri ishlaydi. Uyushma tarkibidagi "O'zmaxsusavtotrans" birlashmasi 2.5 mingdan ortiq avtomobil, avtorefrejirator, sut va yuk tashuvchi mashinalarga ega.

Yog'-moy sanoati.

Bu tarmoqda hozirgi kunda yillik quvvati 3 mln.t. moyli o'simlik urug'larini qayta ishlaydigan 19 ta korxona ishlab turibdi. Bu korxonalarda yog', mayonez, margarin mahsulotlari, kirsovun, atirsovun, texnika moyi va boshqalar ishlab chiqariladi. Xom-ashyo sifatida chigit, raps, zig'ir masxar urug'i, soya, meva danaklari ishlatiladi. Tarmoqda oziq-ovqat sanoati umumiyligi mahsuloti xajmining 40%ga yaqin beradi. Paxta moyi eksportga ham chiqariladi. Toshkent, Qo'qon, Farg'ona, Kosonsoy, Guliston, Kattaqo'rg'on, Denov, Urganch, Andijon, Yangiyo'l shaharlarida yog'-moy kombinatlari va yog' ekstraktsiya zavodlari ishlab turibdi. Tarmoq korxonalarini xorijiy firmalar uskunalar bilan jihozlanmoqda va bunda "Alfa-Laval" (Shvetsiya) Krupp, Sket (Germaniya) "Jen-Braun", "Korver", "Kraun" (AQSh), "Bolistra" (Italiya) hamda Polsha, Ukraina, Rossiya firmalari bilan hamkorlik yaxshi samara bermoqda.

Elevator sanoati.

O'zbekiston o'zining g'alla mustaqilligni dasturini amalga oshirishga kirishi bilan Respublikada don mahsulotlarini yetishtirish ko'paydi. 1997 yilda bizda 3,8 mln.t. don etishtirildi. Qurilayotga va qayta jihozlanayotgan elevatorlar avtomatik dispecherlik boshqaruv sistemalari g'alla haroratini avtomatik holda masofadan o'lchaydigan qurilmalar bilan jihozlangan. Barcha viloyatlarda joylashgan elevatorlar soni 45 taga yetdi, ularning sig'imi 4,5 mln.t. g'allaning 65%i elevatorda saqlanadi.

Un tortish sanoati.

XIX asrning ohirlarida O'zbekistonda zavod tipidagi un tortish korxonalarini paydo bo'ldi. 1956 yilda "Uzdontayyorlov" negizida Respublika don mahsulotlari vazirligi tuzildi, 1992 yilda "Uzdonmahsulot" kontserni, 1994 yildan davlat aktsiadorlik korporatsiyasiga aylantirilgan. Keyingi yillarda sutkasiga 120 dan 500 tonnagacha don tortadigan 23 ta korxona qurildi. G'alla mustaqilligni ta'mirlash dasturi amalga oshirishi bilan ilgarigi g'allani chetdan olib kelib ishlaydigan korxonalar mahalliy don mahsulotlari bilan ta'minlanmoqda. Hozirgi "O'zdonmahsulot" korporatsiyasi tarkibida 9 navli un, manniy yormasi ishlab chiqaradigan 52 zavod mavjud ularning 17 tasi zamонавиј uskunalar bilan jihozlangan.

Non sanoati

O'zbekistonda sanoat usulida non pishiradigan birinchi korxona Toshkent non zavodi 1929 yilda ishga tushgan. Keyinchalik yirik shaxarlarda (Toshkent, Nukus, Jizzax. Angren, va b.) yirik non zavodlari va nonvoyxonalar qurilib ishga tushirildi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin non sanoati korxonalarini zamонавиј uskunalar bilan jihozlash non turlarini ko'paytirish yo'nalishlarida muxim ishlar amalga oshirildi.

Non sanoati korxonalarida nonning 300 dan ortiq turi tayyorlanadi.

Konserva sanoati

Bizda bu tarmoqda asosan meva va sabzavotlardan konservalar ishlab chiqariladi. Tarmoq korxonalari hozir asosan "O'zmevasabzavotuzumsanoatxolding" kompaniyasi tarkibiga kiradi. Korserva mahsulotlari ishlab chiqarishda "O'zbekbirlashuv"ning ulushi ham salmoqli. Bu tizimda 28ta konserva zavodi bor. Konserva mahsulotlari Polsha, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Malayziya kabi mamlakatlarga eksport qilinadi. Respublika sanoati korxonalari yiliga 12 mlrd shartli banka mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega. 50 dan ortiq agrofirma ishlaydi. "O'zbaliq" korporatsiyasi korxonalarida dudlangan baliq, Muynoq baliq konserva kombinati chetdan olib kelinadigan xom ashyodan turli baliq konservalari (8.6 mln shartli banka baliq konservasi ishlab chiqaradi).

Qand sanoati.

Urushgacha bir necha qand zavodlari faoliyat ko'rsatgan. Urushdan so'nggi ixtisoslashuv o'zgarib, aholi ehtiyoji asosan chetdan keltirilgan qand mahsulotlari hisobiga qondirilgan. Mustaqillikdan keyin tarmoqni rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Respublikaning o'zidan qand lavlagi yetishtirish imkoniyatlari kengligi tufayli quriladigan qand-shakar zavodlarida, qand-lavlagi xomashyosidan shakar olish texnologiyasi tanlandi. 1995 yil Turkiya firmalari bilan hamkorlikda Xorazm viloyatida Xozarasp tumanida qand-shakar zavodi qurib bitkazilib, sutkasiga 3000 t qand lavlagi qayta ishlanadi.

Bundan tashqari qand lavlagini qayta ishlovchi zavodlar qurish uchun Fransiya, Xitoy va Misr firmalari bilan shartnomalar imzolangan.

Qandolatchilik sanoati.

Bizda qadimgi qandolatpazlar uzum, tut shirasidan shinni asal, turli mevalarning shiralari, kunjut, un, o'rik magizi, yong'oq va boshqalardan xolva, novvot, pashmak, parvarda, nisholda, murabbo tayyorlaganlar. Hozir respublikada sanoat usulida 1000 dan ortiq turda qandolat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Yirik korxonalar Toshkent, Yangiyo'l, Samarqand, Namanganda joylashgan. "O'zbekbirlashuv" korxonalarida 15% qandolat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Respublikaga chetdan qandolat mahsulotlari keltirish yildan-yilga kamaymoqda.

Vino sanoati.

Qadimda bizda musallas, sirka, bo'za kabi ichimliklar tayyorlangan. Rossiya Turkistonni bosib olganidan keyin Toshkentda I.I. Pervushin, Samarqandda D.Filatov vino zavodlari paydo bo'ldi. Rossiyadan ko'plab aholi ko'chib kelgandan keyin vinoga bo'lgan talab keskin ortdi.

Hozir tarmoq korxonalarining aksariyati "O'zbekmevasabzavotuzumsanoat" xoldiing kompaniyasi tarkibida. Mahalliy xom ashyoda ishlaydigan korxonalar Respublikaning barcha viloyatlarida bor.

Respublikada tarmoqqa tegishli 56 korxona bor. Eng yiriklari: "Toshkentvino", "O'zbekiston shampani" (Toshkent), "Zarafshon" (Samarqand), "Gulbulloq" (Andijon), "Mastona" (Qo'qon), "Shohruh" (Buxoro) va boshqalar. "Toshkentvino" kombinatida Angliyaning "Kriston" firmasi bilan hamkorlikda bir smenada 25 ming shisha Shotland viskisi ishlab chiqaradigan qo'shma korxona tashkil etilgan. Shuningdek, Italiya, Germaniya, Ispaniya firmalari bilan birgalikda qo'shma korxonalar mavjud. Mahsulotlarning ko'p qismi eksport qilinadi.

Pivo va alkogolsiz ichimliklar sanoati.

Tarmoqda yiliga 18 mln. dal. Pivo, 19 mln.dal. alkogolsiz ichimliklar va 380 mln. shisha mineral suvi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan 16 ta yirik korxona bor.

Qo'shma ("Koka-kola – LTD" AQSh), "O'zbekParpe" (Hindiston) va boshqa korxonalar barpo qilindi.

Tuz sanoati.

Qoraqalpog'iston (Qo'ng'irot) va Surxondaryo (Xujaituzkon) korxonalarida yiliga 250-300 ming tonna tuz ishlab chiqarilmoqda.

Choy sanoati.

Bizda asosan chetdan kelgan xom-ashyo asosida qadoqlash korxonalari mavjud bo'lib, yiliga o'rtacha 12 ming tonna choy qadoqlanadi. Mustaqillikdan keyin zamonaviy dastgohlar bilan jihozlangan korxona va qo'shma korxonalar soni ko'paydi.

Tamaki sanoati.

Tarmoq korxonalari Toshkent (UzBAT) Samarqand, Urgutda. Har birining yillik quvvati 25 ming tonna tamaki.

Sintetik kovish vositalari sanoati.

Bu tarmoq korxonalari asosan Toshkent, Olmaliq, Chirchiqda joylashgan bo'lib, "Uzmaishiykimyo" birlashmasiga qarashli bo'lib, turli maxsulotlar ishlab chiqariladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Agrofirma – muayyan turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va uni sanoat usulida qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxona.

Ekstensiv iqtisodiy o'sish - qo'shimcha ish kuchi ishlab chiqarish vositasi va resurslarini jalb qilish hisobiga, ya'ni mehnat va moddiy resurslarni ko'proq qo'llsha hisobiga o'sish. Bunda oddiy mehnat sarflari qisqarmaydi, mehnat unumdorligi oshmaydi. Miqdoriy o'sish.

Intensiv iqtisodiy o'sish – ishlab chiqarish ko'lami, ajratilgan mahsulotlar va xizmatlar xadmining resurslarni tejamli ishlatish hisobidan oshib borishi, ular sifatini yaxshilanishi. Sifat o'sish.

Mehnat unumdorligi – ma'lum vaqt (soat, sutka, oy, yil) ichida ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori bilan o'lchanadi.

Asosiy fondlar – ishlab chiqarish vositalari, ular joylashgan binolar.

Aylanma fondlar – pul, xom ashyolar.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Sanoat tarmoqlari qanday guruhlarga bo'linadi?
2. Undiruchi sanoat tarmoqlari qaysilar?
3. Qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari?
4. Agrosanoat majmua qaysi tarmoqlarni o'z ichiga oladi?
5. Yoqilg'i-energetika majmuiga kiruvchi asosiy tarmoqlarni ta'riflang?
6. Mustaqillik yillarda sanoatimizda qanday yangi tarmoqlar vujudga keldi?
7. Sanoat tarmoqlari tuzilmasini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari qaysilar?
8. O'zbekistona eng sifatli ko'mir qaysi konda qazib olinadi?
9. Tabiiy gaz qazib olinadigan provintsiyalarni ayting va eng ko'p miqdorda qaysi provintsiyada ishlab chiqariladi?
10. Mustaqillik davrida yengil sanoat tarmoqlarida qanday o'zgarishlar yuz berdi?

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" Toshken, "O'zbekiston" 1993
2. I.A.Karimov "O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'li va istiqlol yo'li" Toshkent "O'zbekiston" 1994
3. Yo'ldoshev Z. Y. " Iqtisodiy va sotsial rivojlanishni planlashtirish". Toshkent, "O'qituvchi" 1992
4. Keyns Dj. M. Obshaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. "Misl" Moskva 1987god
5. Klas Eklund Effektivnaya ekonomika. Shvedskaya model. Moskva "Ekonomika" 1991 god.
6. O'lmasov A. , Sharifho'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi . Qisqacha lug'at ma'lumotnoma. Qomuslar Bosh tahririysi. 1991 yil.

XIV-bob. Transport, infrastruktura, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi

14.1.. Infrastruktura haqida tushuncha. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida infrastrukturaning ro'li va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining milliy iqtisodiyoti shakllanayotgan davrda ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish va takomillashtirishda infrastruktura tarmoqlarining rivojlanishi darajasi juda katta amaliy ahamiyat kasb qiladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda bozor infrastrukturasining ahamiyati juda ham beqiyosdir.

Infrastruktura – bu ishlab chiqarish va insonlarning turli faoliyatida shart-sharoit yaratib beruvchi iqtisodiyotning (ko'pqamrovli) tarmoqlar majmuasidir, u ijtimoiy mehnat taqsimoti mahsuli hisoblanadi. U moddiy va nomoddiy soha tarmoqlarining faoliyatida muhim tarzda ko'maklashadi. U ishlab chiqarish tarkibiga kirmaydigan mustaqil tarmoq bo'lib, moddiy va nomoddiy sohaga xizmat qiladi (ishlab chiqarish infrastrukturasi va ijtimoiy infrastruktura)(4-rasm).

1. Ishlab chiqarish infrastrukturasi – transportning barcha turlari va transport xo'jaligi (temir yo'l, dengiz va daryo portlari, neft va gaz quvurlari), elektr uzatish, axborotlarni uzatish va qayta ishlash vositalari va boshq inshoatlar kiradi. Bularsiz albatta ishlab chiqarishda me'yordagi jarayon bo'lmaydi. Xalq xo'jaligida infrastrukturani rivojlanish va ta'minlanganlik darajasi ko'p jihatdan ishlab chiqarish samaradorligini belgilaydi.

2. Ijtimoiy infrastrukturaga – aholiga xizmat ko'rsatuvchi savdo va umumiy ovqatlanish tarmoqlari, sog'liqni saqlash, yo'lovchi tashuvchi barcha transport turlari va aloqa, shahar uy-joy xo'jaligi tashkilotlari va nomoddiy sohaning boshqa qismlari kiradi.

Infrastrukturani kelajakda rivojlanishi ishlab chiqarishda samaradorlikni oshiradi va jamiyatni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish va boshqa ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun shart-sharoit yaratadi, inson omili faoliyatini oshiradi. Ishlab chiqarishning hududiy tashkil etishning ilg'or shakli bo'lgan hududiy ishlab chiqarish majmualarini yaratish asosida infrastruktura tarmoqlarining samarali shakllanishi uchun sharoit vujudga keladi. Natijada mablag'larni tejash, joriy sarf xarajatlarni kamayishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun imkon yaratiladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni va iqtisodiy integratsiyani amalga oshirishda ishlab chiqarish infrastrukturasi elementlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

14.2. O'zbekiston Respublikasi ishlab chiqarish infrastrukturasiga baho

Ishlab chiqarishni uzluksiz davom etishida infrastrukturaning ahamiyati katta. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti hududiy tizimlarini shakllanishida ishlab chiqarish infrastrukturasi bilan ta'minlanganligini o'rghanish alohida ahamiyatga egadir.

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi va joylashtirishda transportning ahamiyati beqiyos. Transport har qanday mintaqada ishlab chiqarish infrastrukturasini muhim zvenosi hisoblanadi. Har qanday masshtabdagi hududni transportsiz samarali va oqilona rivojlantirish mumkin emas. Sanoat va qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish va iste'molchiga yetkazib berishda transport faol ishtrok etadi. Iqtisodiy tuman va zonalarda ixtisoslashuv transport orqali amalga oshadi. Transportning rivojlanish darajasi ishlab chiqarish kuchlari va texnika taraqqiyotining umumiy rivojlanish darajasiga bog'liq.

O'zbekiston qudratli (temir yo'l, avto, avia, quvur va daryo) transport tizimlariga ega. Har yili yuk va yo'lovchi tashuvchi transportlarda juda ko'p miqdorda xizmat amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida 1999 yilda barcha turdag'i transportda 8145 mln.tonna yuk tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 1998 yilga nisbatan 1,7 %ga yuqoridir.

Avtomobil transporti yuk tashish bo'yicha yetakchi bo'lib, uning zimmasiga – 728 mln.tonna, ki 89,7% umumiy yuk tashish hajmiga to'g'ri keladi.

Temir yo'l transportida yuk tashish 41,8 mln.tonna, havo transportida 15,8 ming tonnani tashkil qilsa, SUV transportida bu ko'rsatkich 81,0 mln.tonnaga teng.[‡]

Temir yo'l transporti. O'zbekiston hududida temir yo'l qurilishi 1888 yilda boshlangan edi. Krasnovodsk – Chordjo'y temir yo'li davom ettirilib, Farob bekatidan Samarqandgacha olib borildi. 1890 yilgacha esa Toshkentdan Andijongacha yetkazildi 1905 yilda Orenburg va Toshkent oralig'ida temir yo'l ishga tushirildi.

1931 yilda Turkisib magistralining ishga tushirilishi O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1952–1955 yillarda Chorjo'y – Qo'ng'irot temir yo'li qurilishi bilan Quyi Amudar, sobiq Ittifoq va O'zbekistonning boshqa rayonlari bilan temir yo'l orqali bog'landi. 1962 yilda Navoiy – Uchquduq temir yo'li qurib bitkazilib, kon bilan sanoat markazi bog'landi.

O'zbekistondagi temir yo'llarning uzunligi 3,4 ming kilometrga etdi. 1990 yilgacha Nukus–Chimboy temir yo'li qurib bitkazilib Tuyamo'yin–To'rtko'l yo'li qurildi. Ayni paytda qurilish payoniga etgan Nukus–Uchquduq temir yo'li Respublika ahamiyatiga ega bo'lgan transport kommunikatsiyasini rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Avtomobil transporti O'zbekistonda tez rivojlanmoqda. Bu transport asosan Respublika rayonlararo va xo'jaliklararo yuklarni tashishida muhim ro'l o'ynaydi. Keyingi yillarda Hamdo'stlik mamlakatlari va boshqa xalqaro xalq xo'jalik yuklarini tashishda uning ahamiyati oshib bormoqda. Avtomobil transporti ayniqsa, temir yo'l bo'limgan cho'l, adir va tog'li joylarda asosiy transport vositasidir.

Bir qancha beton yo'llar – Toshkent–Olmaliq yo'li, Katta O'zbekiston trakti, Farg'ona xalqa yo'li, Zarafshon va Qoraqalpog'iston tarktlari va boshqa yo'llar qurildi.

[‡] N. Tuxliev, A. Taksanov Natsionalnaya ekonomicheskaya model Uzbekistana. T.: «O'qituvchi» 2000.

Hozir Respublikada 70 ga yaqin avtobus va taksomotor saroylari barpo etilgan, ular zamonaviy texnika bilan ta'minlangan.

Respublikamizda “O'rta Osiyo trans” avtomobil firmasining tashkil etilganligi O'zbekiston bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlashga o'tganligining belgilaridan biridir.

O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida va iqtisodiy aloqalarning o'sishida havo transportining ro'li oshib bormoqda. Respublikamiz endilikda Hamdo'stlikning 1000 dan ortiq shahar va aholi manzilgohlari, shu jumladan, uning barcha poytaxtlari bilan havo transporti orqali bog'langan. Toshkent aeroporti Sharqning xalqaro havo darvozalaridan biridir.

Nukus, Termiz, Jizzax, Qarshi, Andijon va Namangan shaharlarida zamonaviy aeroportlar qurildi. Samarqand, Buxoro va Urganch shaharlaridagi aeroportlar xalqaro talabga javob beradigan ravishda qayta ta'mirlandi.

Toshkent aeroporti passajirlar uchun barcha qulayliklar yaratilgan zamonaviy yirik aeroportlardan biridir. Toshkentdan dunyoning ko'pgina mamlakatlariga samol'tlar parvoz qiladi.

Hozir Respublikamizda samolyotlarda 1940 yilga nisbatan 110 marta, yuk tashish esa 230 martadan ziyod ko'paydi.

O'zbekiston suv transporti rayonlararo xalq xo'jalik yuklarini tashishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning quvur transporti rivojlanib bormoqda. Respublika hududida neft quvuri dastlab Chimyon neft koni bilan Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi o'rtasida qurilgan edi.

Sovet hokimiyyati yillarda Farg'ona vodiysida bir qancha neft konlari topilib ishga tushirilgach bu konlardan Oltiariq va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodlariga neft quvurlar orqali keltiriladigan bo'ldi.

Respublikamiz janubida neft konlari (Lalmikor, Qumqo'rg'on) ishga tushirilishi bilan Amudar, konidan Amu Zangacha, Qashqadar, viloyatidagi G'arbiy Toshloqdan Qashqadar, bekatigacha, Shimoliy O'rtabuloqdan Oltingugurt zavodigacha neft quvurlari o'tkazildi. 1992 yilda Mingbuloq – Oqtosh neft quvuri ishga tushirildi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodining ishga tushirilishi esa Ko'kdumaloq – Qoravul bozor neft quvurining yotqizilishiga olib keldi.

O'zbekistonda tabiiy gaz konlarining ishga tushirilishi quvur transportining rivojlanishida yangi istiqbollar ochib berdi.

Gaz quvularini qurish 1958 yilda boshlandi. 1960 yilgacha Asaliy So'x–Farg'ona Quvasoy, Gazli –Kogon gaz quvurlari bitkazildi. O'zbekistonning deyarli barcha viloyat markazlari, Qozog'iston va Qirg'iziston gaz quvurlari o'tkazilgan. Respublikadagi Jarqoq–Buxoro, Samarqand–Toshkent gaz quvurlari juda muhimdir.

Respublikadagi elektr stantsiyalarning O'rta Osiyo elektr tizimiga ulanishi bilan trasportning yangi turi – elektron transport vujudga keldi. O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojanishida bu transportning salmog'i tobora ortib bormoqda.

O'zbekistonda birinchi elektr uzatgich liniyasi 1933 yilda GESi bilan Sharqiy Toshkent podstantsiyasi orasida qurilgan edi. 1958 yilda Qayraqqum GESi bilan Qo'yliq (Toshkent) orasida elektr uzatkich liniyasi qurildi. So'ngra Sirdar,

GRESi – Toshkent, Andijon–To’xtag’ul, Toshkent – GRESi–Shimkent, Tursunzoda–g’uzor–Sirdaryo orasida elektr uzatkich liniyalari barpo etildi.

Shunday qilib, O’zbekistonning asosiy elektr energiyasi manbalari qo’shni respublikalar bilan birlashtirildi, ya’ni O’rta Osiyo va Janubiy Qozog’iston energetika tizimi barpo etildi. Hozir O’zbekistonda 15 ming kilometrdan ortiq yuqori voltli kuchlanish elektr uzatkich liniyalari ishlab turibdi.

Bizga ma’lumki, ishlab chiqarish infrastrukturasiga yana inshoat va qurilmalar, kommunikatsiya va tarmoqlar, jumladan elektr uzatish yo’llari, taqsimash tarmoqlari, suv, gaz, neft o’tkazgichlari issiqlik trassalari, telefon tarmoqlari va boshqalar kiradi. Xalq xo’jaligini ishlab chiqarish infrastruktura tizimi bilan ta’minlanganligini ko’rib chiqamiz. (shahar va qishloq joylarda)

35-jadval.

O’zbekiston Respublikasi qishloq joylaridagi uy-joy fondini maishiy qulayliklar bilan ta’minlanganligi (%da)

	1985	1990	1995
Suv bilan	50,1	49,5	49,8
Kanalizatsiya bilan	31,9	33,5	32,4
Markaziy isitish bilan	31,2	25,2	27,8
Vanna (dush) bilan	28,6	24,5	25,0
Issiq suv bilan	17,4	8,5	11,1
Gaz bilan	82,5	66,9	75,3

36-jadval.

O’zbekiston Respublikasi shahar uy-joy fondini maishiy qulayliklar bilan ta’minlanganligi (%da)

	1985	1990	1995
Suv bilan	89,5	89,8	71,0
Kanalizatsiya bilan	83,1	82,1	53,9
Markaziy isitish bilan	82,4	82,5	60,6
Vanna (dush) bilan	78,5	78,3	80,0
Issiq suv bilan	69,2	70,1	70,6
Gaz bilan	99,0	99,5	90,3

Jadvallardan ko’rinib turibdiki, shaharlarda gaz bilan ta’mint ancha yuqori, Ammo bu ko’rsatkich oxirgi vaqtida ancha pasayib ketdi. Bu bizning nazarimizda, ayrim asosiy materilal va qismlarning yetishmasligi hamda moliyaviy muammolar bilan bog’liqdir.

Qishloq joylarda 1985 yilda vodoprovod bilan ta’minlanish 50,1% bo’lgan bo’lsa, 1995 yilda bu ko’rsatkich 49,8% ga teng bo’ldi.

O'zbekistonda qishloq aholisini kanalizatsiya qurilmalari, va ishlab chiqarish infrastrukturasing boshqa turlari bilan ta'minlash ham qonaqarli emas.

O'zbekiston aholisining 60 %dan ortiq qismi qishloq joylarda yashaydi. Ammo aholini injener-kommunikatsiya tizimi bilan ta'minlash darajasi hanuzgacha pastligicha qolyapti.

14.3. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy infrastruktura

O'zbekistonda 1926 yilda nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida ishlab chiqarishda band bo'lган aholining bor-yo'g'i 6 %i ishlagan bo'lsa, 1990 yilga kelib, bu ko'rsatkich qariyb 26 %ga yetdi, ya'ni bu tarmoqda ishlovchilarining soni 4 baravardan ziyod ko'paydi. Huddi shu davrda moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lганlar soni kamayib, 94 %dan 74,1 %ga tushib qoldi. Bu raqamlar Respublikada moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining o'smaganligi yoki kam o'sganligini ko'rsatmaydi, albatta. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyoti, uning boyligi avvalo moddiy ishlab chiqarishning taraqqi, t darajasi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy taraqqiyot darajasi qanchalik yuksak bo'lsa, xizmat doirasiga bo'lган talab, uning rivojlantirish imkoniyati shuncha yuqori bo'ladi.

Ijtimoiy infrastrukturaga – uy-joy komunal xo'jaligi, savdo, umumiy ovqatlanish, sog'liqni saqlash, maorif, maishiy xizmat va boshqalar kiradi.

Ma'lumki , har qanday hududni (iqtisodiy rayon, respublika, viloyat va hokazo) xizmat doirasini rivojlantirish uchun ma'lum sharoitlar majmui kerak bo'ladi. Ana shunday sharoitlar majmui xizmat doirasiga bo'lган talab hajmi, uni hududiy tashkil qilish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Tabiiy demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va etnik sharoitlar bilan qisqacha tanishib o'tamiz.

Tabiiy sharoit xizmat doirasining ayrim tarmoqlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uy-joy qurilishida foydalaniladigan materiallar, sovuq va issiqdan saqlanish imkoniyatlari hisobga olinadi. O'zbekiston sharoitida uylarni isitish muddati sovuq iqlimli hududlardagiga nisbatan ancha qisqa bo'lib, bu maqsadlar uchun ancha kam yoqilg'i sarf qilinadi.

Demografik sharoit ham xizmat doirasini rivojlantirish, uni hududiy tashkil qilishga ta'sir ko'rsatadigan muhim omil hisoblanadi.

Aholisining yosh va jinsiy tarkibi, oila a'zolarining soni, ish malakasi, bilim bo'yicha tarkibi kabi demografik ko'rsatkichlar xizmat doirasining hajmi hamda uning umumiy tarkibiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, aholi tarkibida ayollar sonining erkaklarga nisbatan ortiq yoki kam bo'lishi ham aholiga turli xil xizmat ko'rsatishni rivojlantirishda e'tiborga olinadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning xizmat doirasiga ta'siri juda katta ekanligi avvalo shu bilan belgilanadiki, iqtisodiy taraqqiyot darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, xizmat doirasiga talab va uni rivojlantirish imkoniyatlari ham shu qadar yuqori bo'ladi.

Etnik sharoitlar ham xizmat doirasiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunda aholining milliy tarkibi ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Ko'p millatli O'zbekistonning ko'pgina shahar va qishloqlarida o'qish ikki yoki undan ko'p tilda

olib boriladigan maktablar bor. Shuningdek, respublikamizda turli tillarda gazetalar chiqariladi va radio eshittirishlari olib boriladi.

Uy – joy kommunal xo’jaligi.

Uy-joy kammunal xo’jalik - ijtimoiy infrastrukturaning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanib xalqning turmush darajasini oshirishda katta ahamiyatga ega va aholini mehnat va ijtimoiy faolligini rag’batlantiradi.

O’zbekiston Respublikasi uy-joy communal fondiga ijtimoiy kooperativ va xususiy uylar kiradi. Mamlakatimizda esa 20 yillarda davlat mulkiga tegishli uy-joylar qurila boshlandi. Shunga qaramasdan xususiy uy-joy qurilish fondining uy-joy communal fondidagi ulushi yuqoriligidcha qoldi.

Shahar uy-joy fondi Respublika umumiy 285,6 mln.m.kv. uy-joy fondining 42,6 %ini yoki 121,8 mln.m.kv.ni tashkil etadi.

O’zbekiston Respublikasida uy-joy fondi «Davlat uy-joy fondining xususiylashtirish» Qonuniga asosan deyarli xususiylashtirildi..

Shahar, shaharcha va tuman markazlarida aholini suv bilan ta’minalash, shuningdek ichimlik suvining sifatini yaxshilash maqsadida 1988–1995 yillarda sutkasiga 391 ming m^3 ichimlik suvi yetkazib beradigan vodoprovod shohobchalari qurilib ishga tushirildi (Samarqand, Urganch, Nukus, Jizzax, Termiz va boshqa shaharlarda). 1990 yilda Tuyamo’yin–Urganch, Tuyamo’yin–Nukus, Uchqo’rg’on–Namangan va boshqa suv quvurlari foydalanishga topshirildi. Aholi jon boshi hisobiga bir kecha kunduzda iste’mol qilinadigan suv shaharlarda 536,3 l. va qishloqlarda 240,4 l.ni tashkil etdi.

Uy – joylarnii obodonlatirishda kanalizatsiya muhim ahamiyatga ega. O’zbekistonda arxeologik qazilmalar davrida ayrim yirik shaharlarda (Samarqanddagi Afrosiyob, Toshkentdagi Qoratosh xarobalari) sopol quvur qoldiqlari topilgan.

1993 yilda O’zbekistondagi kanalizatsiya bilan ta’minalangan aholi punktlari soni 235ga, kanalizatsiya tarmog’ining uzunligi 3501,9 km.ga yetdi. Kanalizatsiya – tozalash iinshoatlarining kecha-kunduzdagи quvvati esa 3,7 mln.m³ni tashkil etdi. 1995 yilda kanalizatsiya sanitariya inshoatlari orqali 1,19 mlrd.m³ oqova suv o’txzildi.

Mustaqillik yillarida respublika, shahar va ayniqsa qishloqlrini gazlashtirish ustivor davlat siyosatiga aylandi.

Respublikaning shahar, shaharcha va qishloqlarida uzunligi ming km.dan ortiq yakka tortilgan gaz shohobchalari mavjud. Jumladan, 23,9 ming km.da ortiq yer osti gaz quvuri, 27,5 ming gaz taqsimlash punkti (shundan 1573 tasi ko’chmas) ishlab turibdi. Xonardonlar tabiiy gaz bilan ta’minalangan, bu umumiy xonardonlarning 66 %ni tashkil etadi, shu jumladan, qishloqlarda 1985 ming xonodon gazlashtirilgan. Binolarni isitish sohasida 935 ta (soatiga 5559 Gkal issiqlik beradigan) gaz bilan ishlaydigan bug’ qozonlari va 3671 ming km. uzunlikdagi issiqlik tarmog’i ishlab turibdi.

Tibbiy xizmat.

Tibbiy xizmat ham ijtimoiy rivojlanishning muhim sohasi hisoblanadi. Davlat ijtimoiy siyosatining asosiy elementlaridan biri – insonlar salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, uzoq umr ko’rish va faol ijod qilish, tibbiy yordam sifatini oshirishdir.

Bizga ma'lumki, meditsina xizmati darajasi vrachlar yoki kasalxonalar soni bilan emas, balki xodimlar saviyasi, tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi bilan aniqlanadi.

O’zbekiston bu sohada ko’pgina sobiq Ittifoq respublikalaridan orqada. Bu haqda quyidagi solishtirma ma'lumotlar guvohlik beradi.

Ayrim MDH davlatlarda tibbiyotni rivojlantirishdagi solishtirma ko’rsatkichlar
(1997 yil)

Davlatlar	Vrachlar soni 10000 kishiga	O’rta meditsina xodimlar soni 10000 kishiga	Koykalar soni 10000 kishiga	Pediatrlar soni 10000 bolaga
Rossiya	46,9	122,6	137,5	24,3
Ukraina	44,0	117,5	135,5	21,8
Belorusiya	40,5	115,6	132,3	21,4
O’zbekiston	35,8	110,7	123,7	14,6

Maishiy xizmat ko’rsatish aholiga maishiy xizmat ko’rsatish xalq xo’jaligiin o’ziga xos sohalaridan biri.

Hozir O’zbekiston Respublikasida aholiga mashiy xizmat ko’rsatish xizmatining o’z an’analari va tarixiga ega bo’lgan tizimi shakllangan. Maishiy xizmat sohasida 121,0 ming kishi yoki respublika xalq xo’jaligida band bo’lgan jami ishchi va xizmatchilarining 8 % i ishlaydi.

Aholiga maishiy xizmat ko’rsatish korxonalari davlat, jamoa, kooperativ, shaxsiy, aktsiyadorlik kabi turlichay mulk shakllariga asoslangan korxonalardan iborat. Tizim korxonalari aholiga 800 dan ortiq xizmat turini ko’rsatdi. Ular poyafzal, kiyim–kechak, trikotaj buyumlarini yakka tartibda tikish, to’qish va ta’mirlash, radiotelevizion apparaturalar, ro’zg’orda ishlatiladigan asboblar, metall buyumlarni tuzatish va yasash, shaxsiy transport vositalariga texnik xizmat ko’rsatish va ta’minlash, mebellarni ta’mirlash, kiyimlarni kimyoviy usulda tozalash va bo'yash, kir yuvish, suratga olish, hammom, sartaroshlik xizmatlari, ro’zg’or buyumlarini ijaraga berish, transport xizmatlari, uy–joylar qurish va boshqa shunga o’xshash xizmatlar kiradi.

1989 yildan maishiy xizmat ko’rsatish korxonalari xo’jalik hisobiga, ijara pudratiga o’tkazila boshladi. Korxonalarda har yili aholiga xizmat ko’rsatishning 150dan ortiq turi va usullari joriy qilindi, barcha xizmat turlarining soni qariyib 800 taga yetdi. Lekin aholiga maishiy xizmat ko’rsatish aholining o’sib borayotgan talabini yetarlicha qondira olmadi. Respublikaning ko’plab qishloqlarida maishiy xizmat ko’rsatish umuman yo’lga qo’yilmagan edi.

37-jadval.

**Turli mulk shakllaridagi korxonalarda
aholiga pullik maishiy xizmat ko'rsatish (1998 y.)**

	mln.so'm	1997 yilga nisbatan, marta	1998 yilda mulk shaklli hissasi, %
Pullik xizmat ko'rsatish	70314,2	2,1	100
Shu jumladan:			
davlat mulki shakli bo'yicha	40191,3	1,8	57,2
nodavlat mulki shakli bo'yicha	30122,9	2,7	42,8
Shundan:			
Xususiy	16583,0	3,0	23,6
Jamoa	11247,4	2,2	16,0
qo'shma korxonalar	1007,9	40,8	1,4
aralash mulk korxonalari	1284,6	2,4	1,8
aholi jon boshiga pullik xizmat ko'rsatish so'm	2972,1	2,0	—

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishda ichki savdo muhim o'rnlardan birini egallaydi. Respublika mustaqilika erishgandan keyin ilgari sobiq Ittifoqning Markaziy hukumati tasarrufida bo'lgan tashqi savdoni O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi olib boradi. Aholiga zarur barcha sanoat va oziq-ovqat mahsulotlarini sotish do'kon, supermarket, umumi ovqatlanish muassasalari va boshqalar orqali amalga oshiriladi. Aholining shaxsiy ehtiyojiga mo'ljallangan barcha moddiy boyliklarning 80% ichki savdo orqali taqsimlanadi. Xalq xo'jaligida band bo'lgan ishchi va xizmatchilarning 11,1 %i savdo va umumi ovqatlanish sohasida ishlaydi. Davlat va davlatga tegishli bo'limgan 43,4 mingta chakana savdo korxonalari aholiga xizmat ko'rsatadi.


38-jadval.

Davlat va kooperativ savdosining tovar aylanmasi

	1990	1991	1992	1993	1997
Oziq-ovqat mahsulotlari	42,4	39,4	54,8	55,7	58,2
Nooziq-ovqat mahsulotlari	57,6	60,6	45,2	44,3	41,8

O'zbekiston iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi davrida respublikada savdo "O'zbeksavdo", "O'zbekbirlashuv", "O'ztayyorlovsavdo", respublika tovar xom-ashyo, fond birjalari, shuningdek sanoat, tansport kontsernlari

va kompaniyalari huzuridagi ishchilar ta'minoti bo'limlari, Respublika Sog'liqni saqlash vazirligi (dori va atir-upa savdosi), Matbuot davlat qo'mitasi (kitob savdosi) va boshqa vazirliklarning savdo tashkilotlari orqali amalga oshirilmoqda, shuningdek, xususiy savdoga keng yo'l berildi.



4-chizma

Asosiy tayanch tushunchalar

1. Infrastruktura – xalq xo’jaligi tarmoqlari faoliyatiga, bevosita sharoit yaratib beruvchi ishlab chiqarish va ijtimoiy tarmoqlar tizimi majmuasiga aytildi.
2. Ishlab chiqarish infrastrukturasi deb barcha transport turlari va xo’jaliklari, injener-kommunakatsiyalari tizimi, aloqa uzatish vositalari majmuasiga aytildi.
3. Ijtimoiy infrastruktura deb moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadigan va aholi turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiladigan tarmoqar tizimi tushuniladi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Infrastruktura nima? Uning iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati.
2. Infrastruktura turlari va ularning ahamiyati.
3. Ishlab chiqarish infrastrukturasi va uning elementlari.
4. O’zbekiston Respublikasi ishlab chiqarish infrastrukturaga baho bering.
5. O’zbekiston Respublikasi transport tizimiga ta’rif bering.
6. Ijtimoiy infrastruktura va uning tarkibiy elementlari.
7. O’zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xo’jaligiga baho va uning injener-kommunikatsiya tizimi bilan ta’minlanganlik darajasi qanday?
8. Savdo, maishiy xizmat ko’rsatish tarmoqlariga baho bering.
9. Ishlab chiqarish infrastrukturasida vujudga kelgan muammolar va ularning istiqboldagi taraqqiyotiga baho bering.
10. Ijtimoiy infrastruktura muammolari va ularning istiqboldagi taraqqiyoti qanday?

Adabiyotlar

1. I.A. Karimov «O’zbekiston bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga xos yo’li» T.: «O’zbekiston», 1993 yil.
2. I.A. Karimov «O’zbekiston o’z taraqqiyot yo’li va istiqlol yo’li» T.: «O’zbekiston», 1994 yil.
3. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. «O’zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug’rofiyasi», T.: «O’qituvchi» 1994 yil.
4. Yo’ldoshev Z.Y. «Iqtisodiy va sotsial rivojlanishni rejalashtirish» T.: «O’qituvchi» 1992 yil.
5. Nabiev E., Qayumov A. «O’zbekistonning iqtisodiy salohiyati» T.: Akademiya, 2000 yil.
6. O’zbekiston Respublikasi Entsiklopediya. T.: Qomuslar bosh tahriri, 1997 yil.
7. O’lmasov A., Sharifxo’jaev M. «Iqtisodiyot nazariyasi», T.: «Mehnat» 1995 yil.
8. O’lmasov A., To’hliev N. Bozor iqtisodiyoti qisqacha lug’at ma’lumotnoma, T.: 1991 yil.